O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor,
professor _____ A.A.Elmurodov
“ 29 ” Avgust 2025-yil

“BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH”

FANI BO‘YICHA

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	**400000**	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	**410000**	– Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	**60410200**	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand – 2025

Fanning o‘quv-uslubiy majmuasi tasdiqlangan o‘quv reja, ishchi o‘quv reja, o‘quv dasturi va sillabusi (ishchi o‘quv dasturi)ga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Raximova U. -“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi assistenti

“BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH”
FANINING O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI:

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2025 yil “ 26 ” avgustdagi “ 1 ” -son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan hamda fakultet kengashida muhokama etish va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilish uchun taqdim etilgan (*1-bayonnoma*).

Kafedra mudiri_____ U.T.Eshmuradov

“Iqtisodiyot” fakulteti Kengashining 2025 yil “ 28 ” avgustdagi “ 1 ” -son yig‘ilishida muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan (*1- bayonnoma*).

Fakultet kengashi raisi_____ A.I.Alikulov

Kelishildi:

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, v.f.n., dotsent _____ Sh.X.Qurbanov

M U N D A R I J A

№	Ma’lumotlar	bet
I	**Fanning o‘quv dasturi**	**4**
II	**Fanning sillabusi (ishchi o‘quv dasturi)**	**11**
III	**Fanning asosiy o‘quv materiallari:**	**16**
3.1	Ma’ruza mashg‘ulotlari uchun o‘quv materiallari	17
3.2	Amaliy mashg‘ulotlari uchun o‘quv materiallari	178
3.3	Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun o‘quv materiallari	-
3.4	Mustaqil ta‘lim bo‘yicha o‘quv materiallari	201
3.5	Fan bo‘yicha glossariy (o‘zbek, rus, ingliz tillarida)	222
IV	**Fan bo‘yicha o‘tkaziladigan attestatsiyalar uchun savollar:**	**226**
4.1	1 OB uchun og‘zaki savollar-150 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -75 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-75 ta*)	227
4.2	2 OB uchun og‘zaki savollar-150 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -75 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-75 ta*)	232
4.3	YaB uchun og‘zaki savollar-300 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -150 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-150 ta*)	238
4.4	1 OB uchun yozma ish savollari-150 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -75 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-75 ta*)	250
4.5	2 OB uchun yozma ish savollari-150 ta *(auditoriya darslari bo‘yicha -75 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-75 ta*)	256
4.6	YaB uchun yozma ish savollari-300 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -150 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-150 ta)*	261
4.7	1 OB uchun test savollari-150 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -75 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-75 ta*)	272
4.8	2 OB uchun test savollari-150 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -75 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-75 ta*)	295
4.9	YaB uchun test savollari-300 ta (*auditoriya darslari bo‘yicha -150 ta, mustaqil ta‘lim bo‘yicha-150 ta*)	319
VI	**Fan bo‘yicha baholash me’zoni**	367
VI	**Fan bo‘yicha tarqatma materiallar**	369
VII	**O‘UMning elektron varianti**	376

I. Fanning o‘quv dasturi

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori
_____X.B.Yunusov
2025-yil “ ”_____

Ro‘yxatga olindi: № *BD-60410200-1.19*
2025-yil “ ”_____

BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410200	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
BHK1405	2025-2026	4	5
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Boshqaruv hisobiga kirish	60	90	150

2. I. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi – talabalarda ishlab chiqarish korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni to‘g‘risida tasavvurni shakllantirish, joriy va istiqbolga mo‘ljallangan rejalashtirish, boshqaruv qarorlari dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha yo‘nalish profiliga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga ishlab chiqarishni boshqarish va kelajakda qarorlar qabul qilish uchun ma’muriyatga zaruriy axborotni taqdim etish, mahsulot (ishlar va xizmatlar)ning va belgilangan me’yorlar, standartlar, smetalardan og‘ishishlarni haqiqiy tannarxini hisoblash tartiblarini o‘rgatishdan iboratdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. “Boshqaruv hisobiga kirish” faniga kirish

Boshqaruvning ahamiyati, paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Boshqaruv hisobining mohiyati, predmeti va metodi. Boshqaruv hisobining vazifalari.

Boshqaruv hisobi va moliyaviy hisobning o‘ziga xos xususiyatlari. Boshqaruv hisobining shakllanishi va muammolari.

2-mavzu. Boshqaruv hisobiga kirishni tashkil qilish

Boshqaruv hisobini tashkil etish. Boshqaruv hisobining me’yoriy-huquqiy asoslari. Boshqaruv hisobi funksiyalari, tamoyillari, hisob tizimi va tarkibiy qismlari.

Boshqaruv hisobi ma’lumotlarining tavsifi va ularni saqlash tartibi. Boshqaruv hisobini tashkil etishda korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi. Boshqaruvning axborot tizimi. Zamonaviy boshqaruv hisobi.

3-mavzu. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish

Biznes jarayonlarining ahamiyati. Hisob ma’lumotlaridan foydalanuvchilar. Biznes jarayonlarining asosiy korsatkichlari va ularning ahamiyati.

Ta’minot jarayonining hisobi. Ishlab chiqarish jarayonining hisobi. Sotish (realizatsiya) jarayonining hisobi.

4-mavzu. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish

Xarajatlar haqida tushuncha va ularni turkumlash. Texnologik jarayonlarga qarab ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish. Xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov va katta o'qituvchi U.T.Eshmuradovlar tomonidan 60410200-"Buxgalteriya hisobi " ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Boshqaruv hisobiga kirish" o'quv dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiyotni isloh qilish va mamlakatni modernizasiyalashtirish hamda jamiyatni demokratlashtirish talablaridan kelib chiqib iqtisodiy fanlar o'quv dasturlarini yangilash davr talabi bo'lib qolmoqda. "Boshqaruv hisobiga kirish" fani bo'yicha o'quv dasturi bakalavriatning 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur fan o'quv rejada majburiy fanlar blokidan o'rin olgan.

"Boshqaruv hisobiga kirish" o'quv dasturida boshqaruvning mohiyati, tamoyillari va maqsadlari, boshqaruv hisobi tizimining tasniflanishi, moliyaviy va boshqaruv hisobining o'zaro bog'liqligi, boshqaruv hisobini tashkil qilishda xarajatlarni hisobga olish xususiyatlari, boshqaruv hisobini tashkil qilishning avtonom va integrallashgan usullari, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, transfert bahoni shakllantiri korxonaning segmentar hisoboti, O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishni rivojlantirish yo'nalishlari kabi keltirilgan dolzarb mavzular talabalarda boshqaruv hisobi bo'yicha nazariy bilimlar chuqurlashtirish hamda ularda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan olganda, "Boshqaruv hisobiga kirish" fanini chuqur o'rganish taqozo etiladi.

Tayyorlangan o'quv dasturi buxgalteriya hisobi ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda, "Boshqaruv hisobiga kirish" o'quv dasturi qo'yilgan talablarga javob beradi, talabalarda ushbu fan bo'yicha yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lishlari uchun mos holda tuzilgan, undan 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda o'quv dasturi sifatida foydalanish uchun tavsiya etaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi mudiri, i.f.b.f.d. (PhD), dotsent **M.Mardonov**

masalalari.

Moddiy xarajatlar hisobi. Moddiy xarajatlarning tavsifi. Moddiy xarajatlar to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish. Moddiy xarajatlarning faoliyat xususiyatiga ko'ra asosiy turlarga ajratish va uning hisobini yuritish.

Mehnat xarajatlari hisobi. Mehnat xarajatlari haqida tushuncha. Mehnatga haq to'lash shakllari. Mehnat xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish. Mehnat xarajatlarini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.

5-mavzu. Boshqaruv hisobida mahsulotlar tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish

Boshqaruv hisobida mahsulot tannarxi, uning mohiyati, ishlab chiqarishni boshqarishdagi ahamiyati. Mahsulot tannarxini aniqlash. Mahsulot tannarxining tarkibi va turlari. Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati.

Boshqaruv hisobida mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari.

6-mavzu. Buyurtmali usuli bo'yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish

Buyurtmali usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va ahamiyati, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning jarayonli, normativ usul, "Standart-cost", "Direkt-costing" usullaridan afzalliklari va kamchiliklari.

Buyurtmali usul bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi.

7-mavzu. Jarayonli usul bo'yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish

Jarayonli usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va ahamiyati, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali, normativ, "Standart-cost", "Direkt-costing" usullaridan afzalliklari va kamchiliklari.

Jarayonli usul bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi.

8-mavzu. Normativ usul bo'yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish

Normativ usulda mahsulotlar kalkulyatsiyani tashkil etishning mohiyati va ahamiyati, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali, jarayonli, "Standart-cost", "Direkt-costing" usullaridan afzalliklari va kamchiliklari.

Normativ usul bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi

9-mavzu. Zamonaviy "Standart-cost" tizimi asosida boshqaruv hisobini tashkil etish

Zamonaviy "Standart-kost" usulining mohiyati va ahamiyati. "Standart-kost" usulining mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning "Direkt-costing" usulidan afzalliklari va kamchiliklari.

"Standart-kost" usuli bo'yicha xarajatlarni hisobga olish.

Zamonaviy "Standart-kost" usuli bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi.

10-mavzu. Zamonaviy "Direkt-kosting" tizimi bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish

Zamonaviy "Direkt-costing" usulining mohiyati va ahamiyati. "Direkt-costing" usulining mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiya qilishning "Standart-kost" usulidan afzalliklari va kamchiliklari.

"Direkt-costing" usuli bo'yicha xarajatlarni hisobga olish.

Zamonaviy "Direkt-costing" usuli bo'yicha mahsulotlarni kalkulyatsiya qilish tartibi.

11-mavzu. Ilg'or boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Ilg'or boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish bosqichlari. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish. Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari. Korxonalarda ishlab chiqarish dastagi samarasini aniqlash tartibi. Investitsiya loyihalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Biznes tarkibini o'zgartirish bo'yicha qaror qabul qilish.

Ilg'or boshqaruv qarorlarini qabul qilish modellari.

12-mavzu. Boshqaruv hisobida rejalashtirish va byudjetlashtirish

Xo'jalik subyektida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va rejalashtirish. Korxonaning ishlab chiqarish dasturini ishlab chiqish. Xarajatlar va mahsulot tannarxini rejalashtirishning xususiyatlari. Sotish hajmini rejalashtirish.

Budjetlashtirish va uning korxona faoliyatini rejalashtirishda tutgan o'rni. Xo'jalik subyekt byudjeti mohiyati va uni shakllantirish. Bosh byudjet, tarkibi va uni tuzish tartibi. Pul mablag'lari byudjeti.

Ishlab chiqarish faoliyatida smeta tuzish. Smeta tuzishning afzalliklari va kamchiliklari Asosiy smetani tuzish jarayonlari.

13-mavzu. Boshqaruv hisobida transfert baho va uni belgilash

Boshqaruv hisobida transfert baho tushunchasi. Baho siyosatida transfert bahoning tutgan o'rni va mazmuni. Transfert bahoni aniqlash tartibi va tamoyillari. Maqsadga muvofiq holda ustamalar foizini aniqlash. Baholar bo'yicha qarorlar qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillar. Transfert bahoni belgilash usullari.

14-mavzu. Boshqaruv hisobida segmentar hisobot

Segmentar hisobotning mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish. Segmentar hisobotni tuzish qoidalari va tamoyillari. Segmentar hisobotni tuzish bosqichlari va uning vazifalari. Segmentar hisobot javobgarlik markazlari faoliyatini baholashning asosi sifatida. Javobgarlik markazlari faoliyatini moliyaviy baholash mezoni. Mas'uliyat markazlari faoliyatini baholashda nomoliyaviy mezonlar. Segmentlar bo'yicha daromad va xarajatlarni aniqlash.

15-mavzu. Ilg'or boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosati

Hisob siyosati haqida tushuncha va uning nazariy asoslari. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining uslubiyati. Boshqaruv hisobida hisob siyosatining texnikaviy va

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori A.I.Alikulov va katta o'qituvchi U.T.Eshmuradovlar tomonidan 60410200-"Buxgalteriya hisobi " ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Boshqaruv hisobiga kirish" o'quv dasturiga

TAQRIZ

"O'zbekiston 2030" strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, bugungi kuchli raqobat sharoitida ta'lim tizimida ham yangicha yondashuv, innovatsiyalar va ilg'or ishlanma va dasturlarni izchil tatbiq etishni zamonning o'zi taqozo qilmoqda. Bu esa barcha sohada ilm–fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash naqadar dolzarb ekanini ko'rsatmoqda. Ana shullarni hisobga olgan holda, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, bu sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va rivojlangan mamlakatlar ta'lim dasturlarini transformatsiya qilish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoq korxonalariga raqobatbardosh malakali kadrlar yetkazib berishdek ustuvor masalalarda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

"Boshqaruv hisobiga kirish" fani dasturi 60410200-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja asosida tuzilgan. Ushbu tayyorlangan dastur "Boshqaruv hisobiga kirish" fanining nazariy, uslubiy va amaliy mavzulari hamda masalalarini o'z ichiga olgan bo'lib, fanni o'rganishning zamonaviy pedagogik, o'quv-uslubiy, ilmiy va amaliy texnologiyalariga asoslanadi.

"Boshqaruv hisobiga kirish" fani bo'yicha o'quv dasturi bakalavriatning 60410100-"Buxgalteriya hisobi" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish uchun jami 300 soat, ajratilgan.

"Boshqaruv hisobiga kirish" fani bo'yicha o'quv dasturida keltirilgan mavzular talabalarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari bo'yicha ko'nikma va malakalarini hosil qilishda yordam berib, shu orqali buxgalteriya hisobi bo'yicha professional xizmatlarni ko'rsatish uchun zamin yaratadi.

"Boshqaruv hisobiga kirish" fani bo'yicha tayyorlangan o'quv dasturi talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'la qamrab olgan.

Umuman olganda, mazkur o'quv dasturi qo'yilgan talablarga mos holda tayyorlangan bo'lib, shu dastur asosida 60410200-"Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)" ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishda foydalanish uchun tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi" va audit kafedrasi mudiri, iqtisodiyot f.f.b.f.d., dotsent **U.Shirinov**

IMZONI TASDIQLAYMAN
Samiski
XODIMLAR BO'LIMI BOSHLIG'I

	katta o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** Shirinov U. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot i.f.b.f.d., dotsent Mardonov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi mudiri i.f.b.f.d. (PhD), dotsent

tashkiliy jihatlari.

Boshqaruv hisobini tashkil etishda korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi. Boshqaruvning axborot tizimi. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini shakllanishida hisob siyosatiga umumiy yondashuv.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Boshqaruv hisobiga kirish fanining predmeti
2. Boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosati
3. Boshqaruv hisobida xarajatlarni turkumlash va hisobga olish
4. Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish
5. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning "Standart-kost" va "Direkt-kosting" usuli
6. Xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish usuli
7. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish
8. Moddiy xarajatlar hisobi
9. Mehnat xarajatlari hisobi
10. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish
11. Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari
12. Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish
13. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda smeta tuzish
14. Transfert bahoni shakllantirish
15. Xo'jalik yurituvchi subyektning segmentar hisoboti

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Boshqaruv hisobida xarajatlarni turkumlash va hisobga olish
2. Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish
3. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli
4. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning jarayonli usuli
5. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli
6. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning "Standart-kost" usuli
7. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning "Direkt-kosting" usuli
8. Xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish usuli
9. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish

	10. Moddiy xarajatlar hisobi 11. Mehnat xarajatlari hisobi 12. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish 13. Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari 14. Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish 15. Smeta tuzish 16. Boshqaruv hisobini tashkil etish 17. Transfert bahoni shakllantirish 18. Xo'jalik yurituvchi subyektning segmentar hisoboti
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Talaba bilishi kerak:** • ishlab chiqarish korxonalarida shakllangan boshqaruv hisobi va uni rivojlanish istiqbollari, boshqaruv hisobining nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanadagan tizimlari, boshqaruv hisobida xarajatlarni turkumlanishi va hisobi to'g'ri yuritish, hamda har bir alohida vaziyatda kerakli usulni tanlash ***haqida tasavvurga ega bo'lishi;*** • korxonaning ishlab chiqarish jarayonida kalkulyasiya usulini tanlay olishi, narxlarni shakllantirishda tasir yetuvchi omil va ko'rsatkichlarni tahlil qilib, realizasiya bahosi, belgilangan baho, transfert baho, mahsus buyurtma bahosi, kelajakdagi ko'riladigan moliyaviy natijalarni bashorat qila olishi hamda taqdim etishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** • talaba mahsulot tannarxini aniqlash chog'ida jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanib, amaliyotga tadbiq etish ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurutish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.

6.	**Asosiy adabiyotlar** 1.Xasanov B.A., Alikulov A.I., Eshmuradov U.T. Boshqaruv hisobi. Darslik. - Samarqand: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. - 234 bet. 2.Mardonov M.Sh. Boshqaruv hisobiga kirish.O'quv qo'llanma.Toshkent.2024.305-bet. 3.Xasanov B.A., Ganiyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2018.310-bet. 4. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.556-bet. 5. Seal, W., Garrison, R., & Noreen, E. Management accounting (4th ed.), Maidenhead: McGraw-Hill Education. 2012.588-bet **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 bet. 2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 36 bet. 3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet. 4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo'lini qatiy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 398-bet. 5. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – 481 bet. 6.Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. - T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.310-bet. 7.Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi -T. :"TAFAKKUR"nashriyoti, 2014.350-bet. 8.Colin Drury. Management and Cost Accounting, eighth edition. 2012.540-page **Axborot manbaalari** 1. www.lex.uz 2. www.gov.uz
7.	Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi "840000-Veterinariya" ta'lim sohasi bo'yicha Kengashning 2025-yil 28- 05 dagi 9 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** A.I.Alikulov – SamDVMCHBU, "Buxgalteriya hisobi va audit " kafedrasi professori , iqtisodiyot fanlari doktori U.T.Eshmuradov – SamDVMCHBU, "Buxgalteriya hisobi va audit " kafedrasi

II.Fanning ishchi o‘quv dasturi (sillabusi)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
A.A.Ilmurodov
2025 yil “27” 06

BOSHQARUV HISOBIGA KIRISH FANI BO‘YICHA

SILLABUS

Kunduzgi ta’lim shakli uchun

Bilim sohasi:	400000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000	– Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410200	– Buxgalteriya hisobi

Samarqand-2025

Modul / FAN SILLABUSI
Iqtisodiyot fakulteti
60410200 – Buxgalteriya hisobi ta'lim yo'nalishi

Fan nomi:	Boshqaruv hisobiga kirish
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	BHK1405
Yil:	2025-2026
Semestr:	4
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	150
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	30
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	90
Kredit miqdori:	5
Baholash shakli:	Imtihon
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi (FM)	
FM1	Talabalarga m-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish, sohada foydalaniladigan hujjatlarni rasmiylashtirish, aylanishini tashkil etish va ulardagi axborotlardan kasbiy faoliyatda hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish, strategik va operasion boshqaruv vazifalarini bilishi, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilish va boshqarish, boshqaruvning zamonaviy texnologiyalari qo'llash, loyihalarni boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirishning nazariy va amaliy ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	Menejment
2.	Iqtisodiy nazariya
3.	Ish yuritish
4.	Buxgalteriya hisobi

Ta'lim natijalari (TN)	
	Bilimlar jihatidan:

- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik korilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yol qoyilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

Fan o'qituvchisi haqida ma'lumot

Mualliflar:	**U.T.Eshmuradov** – SamDVMCHBU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri **U.R.Raximova**- SamDVMCHBU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi assistenti
E-mail:	ruulugbek_1983.05@mail.ru
Tashkilot:	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi
Taqrizchilar:	Shirinov U. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri, iqtisodiyot i.f.b.f.d., dotsent Mardonov M. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi va statistika" kafedrasi mudiri i.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashning 2025 yil 25 06 dagi sonli yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2025 yil 26 05 dagi 10 sonli yig'ilishi bayoni bilan maqullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh.Qurbonov
Fakultet dekani A.Alikulov
Kafedra mudiri U.Eshmuradov
Tuzuvchilar U.Eshmuradov
U.Raximova

	page
	Axborot manbaalari
1.	www.lex.uz
2.	www.gov.uz

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 5 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning moxiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;

b) 4 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushingan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirisida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni toliq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa

d) 3 baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilsa;
- bayon qilish ravon bolmasa;

TN1	Axborotlardan kasbiy faoliyatda hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
TN2	Boshqaruv hisobining nazariy-ilmiy asoslari, usullari, xorij tajribasi va ularni korxonalarda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini bilishlarilozim;
TN3	Boshqaruv nazariyasi va amaliyotining so'ngi yutuqlarini qo'llagan holda korxona faoliyati va personalni boshqarish.
TN4	Nazorat va uning bajarilish natijasi bo'yicha xulosa qila olish bo'yicha ish rejasini tuzish va bajarish.
	Ko'nikmalar jihatidan:
TN5	Boshqaruv hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi hisobi tizimini jahon standartlariga ko'chirishni talab etilishi.
TN6	Boshqaruv hisobi maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir asrorlari, qonun qoidalarini puxta egallagan malakali mutaxassis sifatida shakllanish bilimini olishi.
TN7	Kompaniya, firma, korxona, bank, moliya muassasalarining ijrioya xokimiyatiga ega bo'lgan boshqaruvchi direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchi sifatida bilimlarga ega bo'ladilar

Fan mazmuni	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	"Boshqaruv hisobiga kirish" faniga kirish
M2	Boshqaruv hisobiga kirishni tashkil qilish
M3	Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish
M4	Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish
M5	Boshqaruv hisobida mahsulotlar tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish
M6	Buyurtmali usuli bo'yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish
M7	Jarayonli usul bo'yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish
M8	Normativ usul bo'yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish
M9	Zamonaviy "Standart-cost" tizimi asosida boshqaruv hisobini tashkil etish
M10	Zamonaviy "Direkt-kosting" tizimi bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish
M11	Ilg'or boshqaruv qarorlarini qabul qilish
M12	Boshqaruv hisobida rejalashtirish va byudjetlashtirish
M13	Boshqaruv hisobida transfert baho va uni belgilash
M14	Boshqaruv hisobida segmentar hisobot

M15	Ilg'or boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosati
	Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulotlar(A)
A1	Boshqaruv hisobiga kirish fanining predmeti
A2	Boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosati
A3	Boshqaruv hisobida xarajatlarni turkumlash va hisobga olish
A4	Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish
A5	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning "Standart-kost" va "Direkt-kosting" usuli
A6	Xarajatlarni to'la taqsimlab va o'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish usuli
A7	Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish
A8	Moddiy xarajatlar hisobi
A9	Mehnat xarajatlari hisobi
A10	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish
A11	Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari
A12	Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish
A13	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda smeta tuzish
A14	Transfert bahoni shakllantirish
A15	Xo'jalik yurituvchi subyektning segmentar hisoboti

	Mashg'ulotlar shakli: mustaqil ta'lim(MT)	
1.	Boshqaruv hisobiga kirish fanining predmeti va metodi, uning nazariy asoslari.	6
2.	Boshqaruvning mohiyati, tamoyillari va maqsadlari.	6
3.	Boshqaruv hisobi tizimining tasniflanishi.	6
4.	Boshqaruv hisobini tashkil qilishda xarajatlarni hisobga olish xususiyatlari	6
5.	Moliyaviy va boshqaruv hisobining o'zaro bog'liqligi	6
6.	Boshqaruv hisobini tashkil qilishning avtonom va integrallashgan usullari.	6
7.	Boshqaruv hisobini tashkil qilishning avtonom va integrallashgan usullari.	6
8.	Xarajatlarni turkumlash va ularning hisobi.	6
9.	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari.	6
10.	Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va zamonaviy tizimlari.	6
11.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish.	4
12.	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish.	4
13.	Budjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish.	4
14.	Boshqaruv hisobini tashkil etish.	4
15.	Transfert bahoni shakllantiri.	4
16.	Korxonaning segmentar hisoboti.	4
17.	Xarajatlarni baholash va ular dinamikasi.	4
18.	O'zbekiston Respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishni rivojlantirish yo'nalishlari.	2
	Jami soat	**90**

	Asosiy adabiyotlar
1.	Xasanov B.A., Alikulov A.I., Eshmuradov U.T. Boshqaruv hisobi. Darslik. - Samarqand: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. - 234 bet.
2.	Mardonov M.Sh. Boshqaruv hisobiga kirish.O'quv qo'llanma.Toshkent.2024.305-bet.
3.	Xasanov B.A., Ganiyev Z.U., Muxammedova D.A. Boshqaruv hisobi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2018.310-bet.
4.	Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019.556-bet.
5.	Seal, W., Garrison, R., & Noreen, E. Management accounting (4th ed.), Maidenhead: McGraw-Hill Education. 2012.588-bet
	Qo'shimchaadabiyotlar
1.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 bet.
2.	Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 36 bet.
3.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
4.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo'lini qatiy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 398-bet.
5.	Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – 481 bet.
6.	Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. - T.: Cho'lponnomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.310-bet.
7.	Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi -T.: "TAFAKKUR"nashriyoti, 2014.350-bet.
8.	Colin Drury. Management and Cost Accounting, eighth edition. 2012.540-

III.Fanning asosiy o‘quv materiallari

3.1. Ma’ruza mashg‘ulotlari uchun o‘quv materiallari

1-MA’RUZA. “Boshqaruv hisobiga kirish” faniga kirish

Reja:

1. **Boshqaruv hisobining mohiyati va uning elementlari**
2. **Boshqaruv hisobining predmeti, uning moliyaviy hisob bilan aloqalari va farqli jihatlari**
3. **Boshqaruv hisobining korxona menejment tizimida tutgan o‘rni**

1. Boshqaruv hisobining mohiyati va uning elementlari

Zamonaviy buxgalteriya hisobi tizimining tarkibiy qismlariga moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi kiradi.

Moliyaviy hisob bu buxgalteriya hisobiga oid Qonun va hisob tamoyillari asosida yuritiladigan va asosan korxonaning moliyaviy holati bilan bog‘liq axborotlarni shakllantiradigan tizim hisoblanadi. Moliyaviy hisobning asosiy xoridorlari tashqi axborot foydalanuvchilar (mulkdorlar, sarmoyadorlar, kreditorlar, hukumat organlari va boshqa foydalanuvchilar) hisoblanadi. Korxonani samarali boshqarish uchun menejerlarga ob’ektiv, sifatli va o‘z vaqtida taqdim qilinadigan axborotlar zarur. Moliyaviy hisob axborotlari bu talabni qondirish uchun yetarli emas.

Menejerlarni bajarilayotgan jarayonlar to‘g‘risida tezkor axborotlarni olishda va boshqarish qarorlarini qabul qilishda zarur axborotlar bilan ta’minlashda boshqaruv hisobi muhim rol o‘ynaydi. ***Boshqaruv hisobi*** – bu mavjud ob’ektlarni boshqarish uchun zarur bo‘lgan axborotlarni identifikatsiyalash, o‘lchash, to‘plash, tizimlashtirish, tahlil va interpritatsiyalash hamda uzatishdir.

Xasanov B.A. boshqaruv hisobiga oid adabiyotlarni tahlil qilish asosida quyidagi ta’rifni keltirgan: “***Boshqaruv hisobi*** – bu korxona va uning turli bo‘g‘inlaridagi tarkibiy tuzilmalarning faoliyatlari yuzasidan taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar to‘g‘risida axborotlarni taqdim qiluvchi ichki xo‘jalik hisobining sintetik tizimidir”[1] (42-bet).

Buyuk Britaniyadagi SIMA tashkiloti boshqaruv hisobi bo‘yicha professional tashkilot hisoblanadi. Ushbu institut tomonidan tayyorlangan menejmentlik buxgalteriya hisobi bo‘yicha lug‘atda menejmentlik buxgalteriya hisobining quyidagi elementlari keltirilgan: “1) strategik rejalashtirish; 2) moliyaviy menejment; 3) operatsiyalar nazorati uchun axborotlar (tannarx buxgalteriya hisobi\budjetlashtirish); 4) styuardesli hisobot (moliyaviy buxgalteriya hisobi) (stewardship reporting); 5) qarorlar tayanchi; 6) ichki audit”[2] (1-bet).

B.Xasanov boshqaruv hisobining elementlariga ichki segmentar hisob, transfert bahosini shakllantirish, iste’mol bozorlari jarayonlarini ham kiritgan.

Yaxlit buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etuvchi boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy buxgalteriya hisobining tarkibiy elementlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, bizningcha, ma’lum mazmunda aks ettirish mumkin (1.1-chizma).

---

[1] Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт. Т.: “Молия” нашриёти, 2003.,

[2] Management Accounting. Official terminology of the CIMA. The CIMA 63 Portland Place, London WIN 4AB, 1991.

Keltirilgan chizmadan ko‘rinib turibdiki, bizningcha, quyidagilar boshqaruv buxgalteriya hisobining tarkibiy elementlari bo‘lib, hisoblanishi lozim: strategik rejalashtirish, budjetlashtirish, ichki audit va qarorlarni qabul qilish.

Moliyaviy buxgalteriya hisobi tarkibiga esa, umumiy buxgalteriya, soliqlar hisobi va styuardesli hisobotni kiritish lozim. 1.1-chizmada tannarx buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejmentning ikkalasiga ham oidligi ko‘rsatilgan.

Bir butun buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etuvchi boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy buxgalteriya hisobi o‘rtasida qat’iy chegaralarni belgilash, bizningcha maqsadga muvofiq emas. Faqat, ular ayrim belgilari bo‘yicha bir-biridan farqlanishi mumkin. Chunki, ularning har ikkalasi ham pirovard natijada foydalanuvchilarning axborotlarga bo‘lgan talablarini qondirishga xizmat qiladi.

Boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisoblarining har bir elementi o‘zining mohiyatiga ega va ma’lum maqsadlarga xizmat qiladi. Jumladan, strategik rejalashtirish va budjetlashtirish qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun faoliyatning uzoq va qisqa muddatli rejalarini tayyorlashni qamrab oladi. Tannarx hisobi mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining shakllanishi, moliyaviy menejment esa optimal moliyalashtirish, asosiy va ishchi kapitalini samarali boshqarish bilan bevosita qiziqadi. Styuardesli hisobot moliyaviy buxgalteriya hisobining tashqi foydalanuvchilar uchun asosiy mahsuli hisoblangan moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqaruv buxgalteriya hisobi axborotlari ichki qarorlar tayanchi hisoblanadi, ichki audit yordamida birlikning operatsiyalari va boshqaruv faoliyatining adekvatligi va samaradorligi nazorat qilinadi. Shuni ta’kidlash lozimki, boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisoblarining elementlari bir-biridan ajralgan holda amal qilmaydi, balkim bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘ladi va bir birini to‘ldirib turadi. Tannarx hisobi (cost accounting) menejmentlik va moliyaviy buxgalteriya hisobi uchun ham baza bo‘lib xizmat qiladi, strategik rejalashtirish va moliyaviy menejment bevosita tannarx hisobi va styuardesli hisobotlarning axborotlariga tayanadi. Strategik rejalashtirish, budjetlashtirish, tannarx hisobi, soliqlar hisobi, moliyaviy menejment, ichki audit va umumiy buxgalteriyaning boshqa ma’lumotlari qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.



Demak, buxgalteriya hisobi s tizim bo‘lib shaklla
uning tarkibiy qismlari, ushbu qism chi elementlar bir-bi
bog‘langan bo‘lishi lozim degan xulo mumkin. Boshqaruv
his ti o‘zini tiga eg na’lum maqsadlarga

xizmat qiladi. Jumladan, stategik rejalashtirish – bu maqsadlarga erishish uchun faoliyatning uzoq muddatli rejalarini tayyorlashni qamrab oladi. Budjetlashtirish faoliyatning qisqa muddatli rejalarini tayyorlash, taqdim qilish va nazorat qilishni o‘z ichiga oladi. Tannarx hisobi esa mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini shakllanish jarayoni va kalkulyatsiyasiga doir axborotlarni to‘playdi, qayta ishlaydi va interpritatsiyasi bilan shug‘ullanadi. Menejment maslahat xizmati esa, ob’ektlarni samarali boshqarish bo‘yicha maslahatlar taqdim qiladi. Moliyaviy menejment esa optimal moliyalashtirish, asosiy va ishchi kapitalidan samarali boshqarish bilan qiziqadi. Boshqaruv hisobining qarorlar tayanchi va ichki audit tarkibiy qismlari yuqorida qayd qilingan elementlar ustiga quriladi. Qarorlar tayanchi orqali menejment qarorlariga tayanch bo‘ladigan axborotlar oqimi tayyorlanadi. Ichki audit yordamida birlikning operatsiyalar va menejment faoliyatining adekvatligi va samaradorligi to‘g‘risida tekshirish va nazorat o‘tkaziladi. Shuni ta’kidlash lozimki, boshqaruv hisobining elementlari bir-biridan ajralgan holda amal qilmaydi, balkim bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘ladi va bir-birini to‘ldirib turadi.

Boshqaruv hisobining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi (Darslik, 34-bet):

1) Rahbarlarni ishlab chiqarish va korxona faoliyatini boshqarish uchun zarur foydali ma’lumotlar bilan ta’minlash;

2) korxonaning kelajagi va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha perspektiv qarorlar qabul qilish uchun ma’lumotlar tizimini shakllantirish va rahbarlarni shu ma’lumotlar bilan ta’minlash;

3) ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblash, belgilangan me’yor, mezon va smetalardan chetlanishlarni aniqlash, ularni ko‘rsatib berish;

4) korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini, moliyaviy quyilmalarni, yangi texnologiyalarni joriy qilishni rejalashtirish, rejalarning bajarilishini nazorat qilish.

Ushbu vazifalarning hal qilinishi boshqaruv hisobini to‘g‘ri tashkil qilinganligiga asos bo‘ladi.

2-savol. Boshqaruv hisobining tashkil etilishining asosiy tamoyillari.

Boshqaruv hisobi korxonalarda tashkil etish zaruriyati Qonun va qonun osti hujjatlari talablaridan kelib chiqmaydi. Har qanday korxonada ushbu hisobni alohida bo‘lim sifatida tashkil etmagan hollarda ham boshqaruv hisobi elementlari amal qiladi. Chunki, korxonani boshqarish va nazorat qilish tezkor, operativ hamda ishonchli axborotlarga tayanadi. Bundan axborotlarga korxona faoliyatini qisqa muddatga rejalashtirish, rejalarning bajarilishini kunlik nazorati natijalari, ta’minotchilardan olinadigan xom-ashyo va materiallar to‘g‘risida kunlik axborot, mashina-soatlar va mehnat soatlari to‘g‘risidagi axborotlar, kunlik ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, brak mahsulotlar to‘g‘risida ma’lumot, mahsulot birligining tannarxi, sex faoliyatining samaradorligiga doir ma’lumotlar, asbob-uskunalarning holati va boshqa boshqaruv hisobining ob’ektlariga doir axborotlarni kiritish mumkin. Demak, har bir korxonada boshqaruv hisobi mavjud bo‘ladi. Faqat uni tizimli tashkil etish, boshqaruv hisobini tashkil etishning tamoyillarini belgilash, javobgarlik markazlarini belgilash, tannarx hisobining

tizimlarini (jarayonli costing, buyurtmali costing, standart costing) aniqlash kerak bo‘ladi. Oddiy holatda boshqaruv hisobining ob’ektlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

2. Boshqaruv hisobining moliyaviy hisob bilan aloqalari va farqli jihatlari

Boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobining bir-biri bilan aloqalari amaliy jihatdan quyidagilarda yorqin namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisoblari boshqaruv tizimida yagona “kontrollyor” departamenti tarkibiga kirib, top (yuqori pag‘onadagi) menejment hisoblangan moliyaviy menejer orqali boshqariladi.

Ikkinchidan, boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobi bir xil ob’ektlarni, ya’ni pulda o‘lchaniladigan xo‘jalik operatsiyalarini qayd qiladi, to‘playdi, tasniflaydi va axborotlarni taqdim etadi.

Uchinchidan, boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobi tannarx buxgalteriya hisobi axborot bazasiga tayanadi.

To‘rtinchidan, ular o‘rtasida doimiy axborot kommunikatsiyasi mavjud.

Beshinchidan, moliyaviy buxgalteriya hisobining tamoyillari boshqaruv buxgalteriya hisobida samarali foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Birinchi qarashda tannarx buxgalteriya hisobi boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobini bir-biriga bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘lib, u ham menejmentlik buxgalteriya hisobining, ham moliyaviy buxgalteriya xisobining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu to‘g‘risida Ch.T.Horngren va G.Fosterlar quyidagi fikrni aytishganlar: “… tannarx buxgalteriya hisobi bu menejmentlik buxgalteriya hisobining bir qismi plyus tannarx buxgalteriya hisobining tashqi hisobot talablarini qoniqtiradigan darajadagi moliyaviy buxgalteriya hisobining bir qismidir.”[3] (4-bet).

Ikkinchi qarashda, tannarx buxgalteriya hisobi menejmentlik va moliyaviy buxgalteriya hisoblari tarkibiga kirmagan holda alohida tizim sifatida qaraladi. Bunda, tannarx buxgalteriya hisobi asosiy ikki tur hisob (moliyaviy va menejmentlik buxgalteriya hisobi) uchun axborot bazasiga aylanadi. Bu borada L.Ye.Heytger va S.Matulich quyidagi aniqlikni kiritishadi: “Tannarx buxgalteriya hisobi – bu tannarxni aniqlash jarayoni bo‘lib, bu moliyaviy va menejment hisobotlari uchun axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi. Xususiyatli tomoni shundan iborotki, menejment hisobotlaridagi tannarxga oid ma’lumotlar to‘liq detalli bo‘ladi. …Moliyaviy hisobotda esa taalluqli vaqt davridagi faoliyatni aks ettiruvchi tannarx buxgalteriya hisobi ma’lumotlari umumlashtirilgan holda bo‘ladi.

Moliyaviy buxgalteriya hisobi	Menejmentlik buxgalteriya hisobi

[3] Cost Accounting: A Managerial Emphasis, 7 th Edition Charles T. Horngren/George Foster. Prentice-Hall International, Inc., 1991.

1.2-chizma. Tannarx buxgalteriya hisobi moliyaviy buxgalteriya hisobi va menejmentlik buxgalteriya hisobining ma’lumot bazasi

Ushbu chizmada tannarx buxgalteriya hisobi moliyaviy hamda menejmentlik buxgalteriya hisoboti uchun ma’lumotni tamin etish bazasi ekanligi ko‘rsatilgan, biroq hisobotning ikki turi turli maqsadlarga qaratilgan. Tannarx buxgalteriya hisobi ma’lumot bazasi moliyaviy va menejmentlik buxgalteriya hisobi faoliyatini qo‘llab quvvatlaydigan ma’lumot fundamenti bo‘lib hisoblanadi.”[4] (6-7-bet).

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, tannarx buxgalteriya hisobi boshqaruv buxgalteriya hisobi uchun detalli va moliyaviy buxgalteriya hisobi uchun uning yondashishlari doirasida axborot manbai bo‘lib xizmat qilar ekan.

Boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobini ma’lum belgilari bo‘yicha farqlash lozim bo‘ladi. AQSh Buxgalterlar Milliy Assotsiatsiyasi 1972 yildan e’tiboran menejment va moliyaviy buxgalterlarni (SRA va SMA) sertifikatlash dasturlarini amalga oshirish jarayonida menejmentlik va moliyaviy buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi farqlarni belgilovchi mezonlarni ishlab chiqish zaruriyati tug‘ilganligini e’tirof etdi. Ushbu Assotsiatsiya tomonidan quyidagi yettita belgi bo‘yicha menejmentlik va moliyaviy buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi farqlar ochib berilgan. Ushbu farqlar ***4-ilovada*** keltirilgan. Albatta, ushbu ilovadagi jadvalda keltirilgan farqlar jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan. Bugungi kunda ushbu ta’limotlarga va mamlakatimizdagi korxonalarda buxgalteriya hisobining holatiga uyg‘un bo‘lgan farqlarini ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Prof. A.X. Pardaev tomonidan ochib berilgan boshqaruv va moliyaviy hisoblarning farqli xususiyatlariga qo‘shilgan holda ta’kidlash lozimki, boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisoblarining elementlari bir biridan ajralgan holda amal qilmaydi, balkim bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘ladi va bir-birini to‘ldirib turadi[5] (4-5 b.)

Yuqoridagi boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi farqlarni izohlovchi fikrlarni o‘rganish asosida, shuningdek, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, buxgalteriya hisobining qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda, biz boshqaruv va moliyaviy buxgalteriya hisobini quyidagi belgilari bo‘yicha farqlashni tavsiya qilamiz (1.1-jadval).

Boshqaruv buxgalteriya hisobi bilan moliyaviy buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi muhim farq–bu hisob turlarining asosan kimga mo‘ljallanganligidir. Buxgalteriya hisobi tizimi, quyi tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularning kimga mo‘ljallanganligi quyidagi ***5-ilovadagi*** chizmada keltirilgan. Ushbu chizmadan ko‘rinib turibdiki, menejment buxgalteriya hisobi faqat ichki qaror qabul qiluvchilar (ichki foydalanuvchilar)ga taqdim qilinadi va bu menejerlarning barcha doirasini qamrab oladi. Ayrim turdagi menejment buxgalteriya hisobi axborotlari

[4] Heitger, lester E. Cost Accounting/ Lester E. Heitger, Serge Matulich. McGraw-Hill, Inc. 1985

[5] Пардаев А.Х., Пардаев Б.Х. Бошқарув ҳисоби/-Т., Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008.

hamma doiradagi menejmentlar uchun mo‘ljallanmasdan, ma’lum tor doiradagi menejerlarga mo‘ljallangan bo‘lishi ham mumkin.

1.1-jadval

Boshqaruv buxgalteriya hisobi va moliyaviy buxgalteriya hisobi o‘rtasidagi farqlar

Farqlash Belgilari	Boshqaruv buxgalteriya hisobi	Moliyaviy buxgalteriya hisobi
1. Kimga mo‘ljallanganligi	Faqat ichki qaror qabul qiluvchilar	Tashqi va ichki qaror qabul qiluvchilar
2. Hisobot davriyligi	Soat, kunlik, haftalik, o‘n kunlik, oylik, o‘sib boruvchi oylik, choraklik, o‘sib boruvchi choraklik, yillik, bir necha yillik	Choraklik va yillik
3. Hisobot ob’ekti	Mahsulot (ish, xizmat) turi, uchastka (guruh), hudud, sex, va boshqa qismlar	Faqat bir butun buxgalteriya hisobi birligi bo‘yicha
4. Konsolidatsiyasi	Konsolidatsiyalanmaydi	Konsolidatsiyalanishi mumkin
5.Vaqt orentatsiyasi	Kelgusi davrlarga oid budjetlar va haqiqiy bajarilishlarga oid hisobotlar	O‘tgan davrdagi haqiqiy bajarilishlar
6. Audit	Faqat ichki audit	Ichki va tashqi audit tomonidan
7. Nashr qilinishi	Ommaviylashtirilmaydi	Ommaviylashtirilishi mumkin
8. Tamoyil va qoidalarga tayanishi	Biznesga samara keltiradigan va qonunda taqiqlanmagan har qanday usul va uslublardan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi	Umum qabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillariga tayanadi

Menejment buxgalterlar axborotlarning maxfiyligiga muhim ahamiyatni qaratadilar. Menejment buxgalterlar kompetentlik, maxfiylik, to‘g‘rilik va ob’ektivlik bo‘yicha qator javobgarliklarga egadirlar. Moliyaviy buxgalteriya hisobi ommaviy oshkor etilgan axborotlar tizimini qamrab oladi va asosan o‘z xaridorlarini tashqi tomondan topadi. Menejerlar moliyaviy buxgalteriya hisobi axborotlaridan moliyaviy holatni tahlil qilishda va yillik natijalarga oid zarur qarorlar qabul qilishda unumli foydalanadilar. Lekin, moliyaviy buxgalteriya hisobining xarakterli tomoni shundan iboratki, uning axborotlari barcha doiradagi menejerlarni qiziqtirmaydi. U faqat moliyaviy tahlil o‘tkazuvchilar va yuqori pog‘onadagi menejerlarga kerak bo‘ladi. Shu sababli, moliyaviy buxgalteriya hisobi menejerlarning axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini yetarli darajada qondira olmaydi. Moliyaviy buxgalteriya hisobining muhim xususiyati uning asosan tashqi foydalanuvchilarga qaratilganligidadir.

3. Boshqaruv hisobining menejment tizimida tutgan o‘rni

Zamonaviy buxgalteriya hisobi korxonani boshqarish tizimida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

Ko‘pchilik chet el adabiyotlarida buxgalterlarning boshqaruvida tutgan o‘rni ularning boshqaruv jarayonida ishtirok etishini yoritish orqali ochib berilgan. Jumladan, Buyuk Britaniyalik iqtisodchi olimlar Ch.T.Horngren, G.Foster kompaniya va firmalar menejmentida buxgalterlarning roli masalasini menejmentning uchta, ya’ni chiziqli, staf va funksional vakolatlari mohiyatini ochish orqali quyidagicha yoritib beradi: “*Chiziqli vakolat* – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri vakolatli bo‘ysinish bo‘lib, bunda bevosita pastki bo‘limlar vakolatining yuqorida turgan bo‘limlar vakolatiga bo‘ysinishidir. ***Staf vakolati*** – bu o‘zaro muloqot bo‘lib, buyruqli boshqarishga asoslanmasdan, xodimlarning pastki, yonidagi va yuqoridagi vakolatlar bilan ish aloqasida bo‘lishidir. Funksional vakolat – bu buyruq asosida yonidagi yoki pastki bo‘limlarga o‘zaro hurmat asosida maxsus funksional vazifalarni bajarish uchun beriladi.

Staf vakolati berilgan departamentlarning prinsipial vazifasi chiziqli departamentlarga tayanch bo‘lish va ularga xizmat ko‘rsatish hisoblaniladi”[6] (9-10-betlar).

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi ko‘pchilik ishlab chiqarish va qurilish kompaniyalari uchun xarakterli bo‘lgan menejment vakolatlarining tashkiliy qismiy tuzilishi va aloqalarini Buyuk Britaniyadagi “Laing Alarko JV” kompaniyasining O‘zBAT Samarqand Sigaret fabrikasi qurilish loyihasini amalga oshirish bo‘yicha tashkil qilingan “Leng Alarko O‘zbekistan” sho‘ba korxonasi misolida ko‘rib o‘taylik ***(1-ilova)***.

Ushbu chizmada departamentlar tomonidan chiziqli va staf vakolatlarining amalga oshishi ko‘rsatilgan. Moliyaviy ishlar departamenti faoliyati davomida “trishureship” (treasureship) va “kontrollyorship” (controllership) funksiyalarini bajaradi va boshqa departamentlar bilan staf vakolatida aloqada bo‘ladi. Ularning funksiyalariga quyidagi kiritilgan.

Trishureship	***Kontrollyorship***
1. Kapital sarmoyasi	1. Rejalashtirish va nazorat
2. Investorlar bilan munosabatlar	2. Hisobot va taqdimot
3. Qisqi muddatli moliyalashtirish	3. Baholash va maslahat xizmati
4. Bank bilan bog‘liq masalalar	4. Soliq ma’murligi
5. Kredit va jamg‘armalar	5. Hukumatga hisobot
6. Investitsiyalar	6. Aktivlar butligini ta’minlash
7. Sug‘urta	7. Iqtisodiy baholash

Manba: Cost accounting: A Managerial Emphasis, 7th edition. Charles T. Horngren. 11 p.

Trishureship kapital sarmoyasi, qisqa muddatli moliyalashtirish, bank va kreditlash, sug‘urta va pul mablag‘lari menejeri bilan bog‘liq ishlarga javobgar

[6]Cost Accounting: A Managerial Emphasis, 7 th Edition Charles T. Horngren/George Foster. Prentice-Hall International, Inc., 1991.

hisoblanadi. Trishurlar asosan operatsiya jarayonidagi muammolardan kelib chiqadigan moliyaviy masalalar bilan qiziqadi.

Kontrollyor, fransuzcha “conptroller” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “hisobni yuritish” ma’nosini anglatadi. Kontrollyor bu bevosita menejmentlik va moliyaviy buxgalteriya hisobiga javobgar bo‘lgan moliyaviy ijorachi bo‘limdir. Buxgalteriya hisobi departamenti - bu boshqa menejerlarni maxsus xizmatlar, jumladan, rejalashtirish (budjetlashtirish), variantlar va muqobillarni tahlil qilish, narxlashtirish va qarorlar qabul qilishda maslahat va yordam beruvchi mas’ul bo‘lim hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi departamenti chiziqli departamentlardagidek to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish bilan bog‘liq vakolatlarni bajarmaydi. Bu departament buxgalteriya hisobini unifikatsiyasini va hisobot metodlarini joriy qilish yo‘li bilan kontrollyor orqali top (yuqori pog‘anadagi) menejmentga vakil bo‘ladi. Amaliyotda kontrollyorlarning kunlik ish faoliyati va ishlab chiqarish menejerlari bilan bo‘ladigan kunlik muloqoti ulardan ishlab chiqarish hisobotlarini tuzish, o‘z vaqtida tayyorlash va taqdim qilishni talab etish bilan bog‘liq bo‘ladi.

1-ilovadani chizmada kontrollyor departamentining “Leng Alarko O‘zbekistan” sho‘ba korxonasi amaliyotida tashkil etilganligi ko‘rsatilgan. Ushbu diagrammada boshqaruv buxgalteriya hisobining amaliyotdagi elementlari tannarx buxgalteriya hisobi, budjet va bajarilishlarni nazorat qilish, ichki audit tarkibi keltirilgan. Moliyaviy buxgalteriya hisobi esa «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun va milliy standartlarda ko‘zda tutilgan tamoyillar asosida tashkil qilinadi. Kompaniya tannarx buxgalteriya hisobi, personal, ta’minot va qurilish jarayoni, bajarilgan ishlarni buyurtmachiga topshirish departamentlari bilan staf muloqotida bo‘ladi. Boshqa chiziqli va staf departamentlar buxgalteriya hisobi protsedurasi va siyosatiga muvofiq hisobot beradilar. Masalan, *personal departamenti* ishchi va xodimlar, ularning ish soatlari va ish haqlarining hisobini yuritadi va buxgalteriya hisobi departamentiga hisobot berib turadi. Personal departamenti xodimlar bilan bog‘liq barcha ishlarga mas’ul bo‘lim hisoblanadi. Bizning amaliyotimizda ish haqini buxgalterlar hisoblaydilar. Chet el kompaniyalari amaliyotida esa personal bilan bog‘liq barcha jarayonlarni, shu jumladan, ish haqini hisoblashni mutaxassislashgan personal departamenti bajaradi. Bu esa uning nufuzini yanada oshiradi.

Buxgalteriya hisobining XIIKlar menejmentida tutgan o‘rni ularning menejment jarayonida bevosita ishtirok etishida yorqin namoyon bo‘ladi.

Buyuk Britaniyalik olimlar Ch.T.Horngren va G.Fosterlar menejerlar rejalashtirish va nazorat funksiyalarini bajarishda buxgalteriya hisobining ikkita muhim quroliga, ya’ni 1) budjet va 2) bajarilish hisobotlariga tayanishini ta’kidlashadi: “*Budjet* - bu harakatlarga oid rejalarning miqdoriy ifodalanishi, koordinatsiyalashuvi va amalga oshirish vositalarini mujassamlashtiradi. Boshlang‘ich hujjatlar va registrlar harakatlari natijalarini umumlashtiradi. *Bajarilishga oid hisobotlar* faoliyat natijalarining o‘lchovi demakdir. Ushbu

hisobotlar budjet bilan haqiqiy ma’lumotlar bilan taqqoslashni ham o‘z ichiga oladi. Haqiqiy natijalarning budjetga nisbatan farqi *tebranish* deb ataladi.”[7] (5-bet)

Ushbu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, olimlar “harakat” va “bajarilishlarni o‘lchash (baholash)”ni menejmentning nazorat funksiyasi tarkibiga kiritadilar. Bunda mualliflar buxgalteriya hisobi orqali “harakatlar” boshlang‘ich hujjatlar yordamida rasmiylashtirilishi, bosh va yordamchi registrlar orqali “harakatlar” tasniflanishi, bajarilishlariga oid hisobotlar tuzilishi va shu asosda “bajarilishlarni o‘lchash (baholash)”ning quyi tizimi vujudga kelishini e’tirof etadilar. Ushbu quyi tizim “rejalashtirish” quyi tizimi bilan “teskari bog‘liqlikda” bo‘lishini uqtiradilar.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobiga boshqaruvdagi alohida funksiyalarni biriktirish maqsadga muvofiq emas. Buxgalteriya hisobi boshqaruv faoliyatida rejalashtirish vositasi sifatida «budjet»larni tayyorlashda bevosita ishtirok etish, nazorat qilish vositasi sifatida esa harakatlar natijalarini o‘lchab “bajarilishlar hisobotlari”ni tuzish va haqiqiy natijalar bilan rejani taqqoslash asosida mavjud farqlarni aniqlash, shuningdek, boshqaruv tizimida “teskari bog‘liqlik»ni o‘rnatish tizimidan iboratdir.

Bizningcha, boshqaruvda buxgalteriya hisobi ishtirokini menejmentning quyidagi umume’tirof etilgan to‘rtta o‘zaro bog‘liq va ketma-ket amalga oshiriladigan bosqichlarida aniqlash lozim (2-ilova):

1. Tashkilotning eng umumiy va maxsus maqsadlarini belgilash;
2. Maqsadlarga erishish uchun rejalar ishlab chiqish (budjetlar);
3. Harakat (amalga oshirish);
4. Bajarilishlarni baholash.

Tashkilotning umumiy va maxsus maqsadlari menejerlar tomonidan belgilangandan so‘ng, maqsadlarga erishish uchun rejalar ishlab chiqiladi. Biznes rejalari u yoki bu turdagi tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish (bajarish, ko‘rsatish) uchun talab etiladigan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojlar, ishlab chiqarish, sotish va kutilayotgan moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi budjet loyihalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu loyihalar tuzilayotganida buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalaniladi va buxgalter-menejerlar ishtiroki talab qilinadi. Lekin, moliyaviy axborotlarni mujassamlantiruvchi ko‘pgina loyihalar, jumladan, pul oqimlari budjeti, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot loyihasi, buxgalteriya balansi loyihalari bevosita buxgalterlar tomonidan tuziladi. Demak, biznes faoliyati rejalashtirilayotganda buxgalterlarning uch ko‘rinishdagi ishtirokini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir: 1) biznes rejalari tuzishda buxgalteriya axborotlari ta’min etiladi; 2) buxgalter-menejerlar biznes-rejalarini ishlab chiqishda boshqa menejerlar qatori ishtirok etadi; 3) ayrim moliyaviy axborotlarga taalluqli loyihalar bevosita buxgalterlar tomonidan tayyorlanadi.

Mukammal rejalar ishlab chiqilgandan so‘ng, faoliyatga jalb qilingan mablag‘larning harakati amalga oshiriladi. Rejadagi mahsulotni ishlab chiqarish (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish) uchun moddiy, moliyaviy va mehnat sarflari yuz beradi va natijada ishlab chiqarish, sotish va moliyaviy natijalar

[7] Cost Accounting: A Managerial Emphasis, 7 th Edition Charles T. Horngren/George Foster. Prentice-Hall International, Inc., 1991.

shakllana boradi. Harakat jarayonining yuz berishi erishilgan bajarilishlarni o‘lchash va baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Haqiqatdagi harakat (amalga oshirilish) va bajarilishlarni baholash natijalari boshqaruv (menejmentlik) va moliyaviy buxgalteriya hisobi uchun ob’ekt sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi, buxgalteriya hisobi schotlari va registrlarida qayd etiladi, bajarilishlar hisoboti tuziladi va menejerlarga taqdim etiladi. Menejerlar haqiqatda erishilgan natijalarning budjetlarga muvofiqligini nazorat qilib boradi. Agarda jiddiy farq vujudga kelsa, budjetlarga o‘zgartirishlar kiritish masalasi o‘rtaga qo‘yiladi va bu o‘zgartirishlar menejerlar tomonidan qabul qilinsa, keyingi nazorat faoliyatida ushbu o‘zgartirishlar asosidagi budjet loyihalaridan foydalaniladi. Harakatlar (amalga oshirilish) va bajarilishni baholash jarayonidagi hisobga olingan ma’lumotlarni menejerlarga yetkazilishi “teskari bog‘liqlik” ni yuzaga keltiradi.

Buxgateriya hisobi axborotlaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va ularning bajarilishini nazorat qilishda foydalanishi ***3-ilovada*** keltirilgan. Ushbu chizmadan ko‘rinib turibdiki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda buxgalteriya axborotlari muhim manba sifatida namayon bo‘lmoqda.

2-MA’RUZA.Boshqaruv hisobiga kirishni tashkil qilish

Reja:

1. **Boshqaruv hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari**
2. **Boshqaruv hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari (Rossiya Federatsiyasi misolida)**

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida xalqaro amaliyotda qabul qilingan buxgalteriya hisobi tizimi korxonalar amaliyotiga buxgalteriya hisobini boshqarish hisobini joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi qator me’yoriy hujjatlar bilan ishlab chiqildi.

Ushbu hujjatlarda ham umumiy buxgalteriya hisobi, ham, xususan, boshqaruv hisobi masalalari ko‘rib chiqiladi. Bugungi kunga qadar tartibga soluvchi buxgalteriya hisobi tizimi yaratilgan.

1. Normativ-huquqiy hujjatlarning ierarxiyasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi va uch darajada ifodalanadi.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1 va 2-qismlar) va Hukumatning normativ-huquqiy hujjatlari. O‘zbekiston Respublikasi.

Ushbu darajadagi hujjatlar tashkilotlarning xo‘jalik operatsiyalarining yagona hisobini ta’minlash, tashkilotlarning mulkiy holati, ularning majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari to‘g‘risida taqqoslanadigan va ishonchli ma’lumotlarni o‘z vaqtida to‘plash va manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etish uchun mo‘ljallangan.

2. Me’yoriy hujjatlar, ko‘rsatmalar va tavsiyalar, asosan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan. Normativ tartibga solishning bir xil darajasida foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalarga ega Hisoblar rejasi mavjud. Shu bilan birga, ikkinchi darajali hujjatlar orasida mulk, majburiyatlar, kapitalning ayrim masalalari

bo‘yicha qoidalar alohida o‘rin egallaydi, ular buxgalteriya hisobida aks ettirilishi kerak bo‘lgan fakt va hodisalarga yagona yondashuvni belgilaydi, bu barcha korxona va tashkilotlar uchun majburiydir. , mulkchilikdan qat’i nazar. Bu milliy buxgalteriya standartlari. Bugungi kunga qadar 24 ta NAS tasdiqlangan va amalda. Standartlarni yanada rivojlantirish kutilmoqda.

Ikkinchi darajali hujjatlar bilan belgilangan umumiy qabul qilingan buxgalteriya qoidalari korxona tomonidan o‘z hisob siyosatini ishlab chiqishda amalga oshiriladi. Bu korxonaning hajmi, o‘ziga xosligi, tarmoqqa tegishliligini hisobga oladi. Va bu buxgalteriya hisobini tartibga solish tizimining uchinchi darajasidir.

3. Tashkilotlarning tuzilish davrida ular tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlari hisob siyosati. Qabul qilingan hisob siyosati bo‘yicha tashkilot rahbarining buyrug‘i yoki buyrug‘i bilan tasdiqlanishi kerak bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati Rossiya Federatsiyasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida" gi qonunida mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

• sintetik o‘z ichiga olgan hisoblarning ishchi sxemasi va buxgalteriya hisobi va hisobotining o‘z vaqtida va to‘liqligi talablariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo‘lgan analitik hisoblar;

• birlamchi buxgalteriya hujjatlarining standart shakllari taqdim etilmagan xo‘jalik operatsiyalarini qayta ishlash uchun foydalaniladigan birlamchi hujjatlar shakllari, shuningdek ichki moliyaviy hisobotlar uchun hujjatlar shakllari;

• inventarizatsiya o‘tkazish tartibi va mulk va majburiyatlar turlarini baholash usullari;

• hujjat aylanishi qoidalari va buxgalteriya hisobi axborotini qayta ishlash texnologiyasi;

• xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi, shuningdek buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshqa qarorlar.

Binobarin, buxgalteriya hisobining vazifalari ichki axborot ehtiyojlariga xizmat ko‘rsatishni hisobga olish foydalanuvchilar. Bundan tashqari, korxonalarga keng vakolatlar beriladi buxgalteriya hisobini tashkil etishda, ya’ni. Kompaniya mustaqil ravishda quyidagilarni tasdiqlaydi:

• sintetik va o‘z ichiga olgan hisoblarning ishchi rejasi buxgalteriya hisobi va hisobotining zamonaviyligi va to‘liqligi talablariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo‘lgan analitik hisoblar;

• birlamchi buxgalteriya hujjatlarining standart shakllari taqdim etilmagan xo‘jalik operatsiyalarini qayta ishlash uchun foydalaniladigan birlamchi hujjatlar shakllari, shuningdek ichki moliyaviy hisobotlar uchun hujjatlar shakllari;

• xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi, shuningdek buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshqa qarorlar. Xuddi shu moddada korxonaning hisob siyosatini mustaqil ishlab chiqish nazarda tutilgan: "Tashkilot tomonidan qabul qilingan hisob siyosati yildan-yilga izchil qo‘llaniladi".

Hisob siyosatini ishlab chiqish tartibi 1-sonli NASda muhokama qilinadi. Tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi organlarning me’yoriy hujjatlariga amal qilgan holda, o‘z tuzilmasi, tarmoq va faoliyatining boshqa

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z hisob siyosatini mustaqil ravishda shakllantiradi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni va 1-sonli BHMS korxonaning ilgari berilgan huquqlarini mustaqil ravishda tasdiqlaydi. ishchi hisob rejasini va hisob siyosatini ishlab chiqish.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni edi maxfiylikni e’lon qiluvchi birinchi rasmiy hujjat buxgalteriya ma’lumotlari: "buxgalteriya registrlarining mazmuni
ichki moliyaviy hisobotlar esa tijorat siri hisoblanadi”.

Bu yerda gap boshqaruv hisobi ma’lumotlari va analitik xarajatlar hisobi registrlari haqida ketmoqda. Hisoblar rejasida moliyaviy va boshqaruv hisobini ajratish, ikkita hisob tizimi bilan buxgalteriya variantini amalga oshirish choralari ko‘rildi. Xususan, 30-schotlar bepul qoldiriladi va elementlar bo‘yicha xarajatlar hisobini tashkil qilish uchun mo‘ljallangan. Moliyaviy va ishlab chiqarish hisobi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi hisoblar (yekranli hisoblar) yordamida tashkil qilish tavsiya etiladi.

Aslini olganda, korxonaga avtonomiya rejimida boshqaruv hisobini tashkil qilish imkoniyati beriladi, ya’ni. moliyaviy buxgalteriya hisoblaridan ajratilgan hisoblar tizimida. Bugungi kunga qadar qabul qilingan NASning hammasi ham tegishli emas boshqaruv hisobi. 1-sonli NAS qoidalarini qo‘llash tashqi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlaydi, bu boshqaruv hisobining vazifasi emas. Boshqa NSBUlar haqida ham shunday deya olmaysiz.

Shunday qilib, korxonaning hisob siyosati korxonada ishlab chiqarishni hisobga olishning o‘ziga xos asosi bo‘lib, ishlab chiqarish hisobi esa
boshqaruv hisobining muhim elementi. Tashkilotning hisob siyosatini shakllantirish qoidalari 1-sonli NAS tomonidan belgilanadi. NASga muvofiq tashkilotlarga imkoniyat beriladi ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan materiallarni baholash usullaridan birini tanlash - LIFO, FIFO, o‘rtacha.

Hisob siyosati sotib olingan materiallarni baholash usullarini tavsiflaydi - haqiqiy tannarxda yoki chegirmali narxlarda; tayyor mahsulotni baholash usullari - haqiqiy to‘liq yoki to‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish tannarxida yoki standart xarajatlar bo‘yicha (20 "Asosiy ishlab chiqarish" schotidan foydalangan holda). Tayyor mahsulotni baholash uchun rejalashtirilgan yoki standart tannarxdan foydalanish G‘arb boshqaruv hisobida juda mashhur bo‘lgan "xarajat standarti" tizimining elementlaridan biridir.

Buxgalteriya siyosati zaxiralarni yaratish ro‘yxati va tartibini belgilaydi kelgusi xarajatlar va to‘lovlar, asosiy vositalarni ta’mirlashni hisobga olish va moliyalashtirish. Shubhasiz, bu masalalarning barchasi boshqaruv hisobining vakolati hisoblanadi, chunki ular bevosita ishlab chiqarish hisobi va mahsulot tannarxini hisobga olish bilan bog‘liq. 1999-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 1-sonli qaroriga asosan.

Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 54-sonli barcha korxonalar ishlab chiqarish tannarxini

hisoblash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. korxonaning hisob siyosatida nazarda tutilgan. 1995 yildan boshlab mahalliy buxgalteriya tili boshqaruv hisobining yangi atamasi - "davriy xarajatlar" bilan to‘ldirildi va buxgalteriya hisobi xalqaro buxgalteriya standartlari tomon yana bir qadam tashladi.

Nihoyat, tashkilotning hisob siyosati mahsulotning alohida turlari (xarajat tashuvchilar) o‘rtasida bilvosita xarajatlarni taqsimlash usulini tavsiflaydi. Bilvosita xarajatlarni taqsimlash usulini tanlash hisob-kitob tamoyillaridan biri, buxgalteriya hisobining boshqaruv hisobining asosidir. Shunday qilib, bugungi kunda ichki qonunchilikda buxgalteriya hisobini boshqarish hisobini rivojlantirish uchun hech qanday to‘siq yo‘q. Ilgari to‘plangan tajriba va an’analarni hisobga olgan holda korxonalarda uni shakllantirish va rivojlantirish uchun ob’ektiv shartlar shakllandi.

Boshqaruv hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari (Rossiya Federatsiyasi misolida)

1993 yilda Rossiya Federatsiyasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan buxgalteriya hisobi tizimiga o‘tish bo‘yicha Davlat dasturining qabul qilinishi bilan buxgalteriya hisobini boshqarish hisobini Rossiya amaliyotiga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan bir qator me’yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. korxonalar. hujjatlar ham umumiy, ham buxgalteriya hisobi masalalarini ko‘rib chiqadi,ayniqsa boshqaruv hisobi.

Bugungi kunga kelib buxgalteriya hisobini me’yoriy tartibga solish tizimi tashkil etilgan.Me’yoriy hujjatlar ierarxiyasi aniqlangan.

Rossiya Federatsiyasining "Buxgalteriya hisobi" qonuni [1] va uchta darajada ifodalanadi.

1. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksi (1 va 2-qismlar) [2]; Rossiya Federatsiyasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida" Federal qonuni [1], Rossiya Federatsiyasida buxgalteriya hisobi va buxgalteriya hisobotini yuritish to‘g‘risidagi nizom [3] va Rossiya Federatsiyasi Hukumatining me’yoriy hujjatlari.

Ushbu darajadagi hujjatlar tashkilotlarning xo‘jalik operatsiyalarining yagona hisobini ta’minlash, taqqoslanadigan va manfaatdor foydalanuvchilarga o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlash uchun mo‘ljallangan. tashkilotlarning mulkiy holati to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar, ularning majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar.

2. Nizomlar, yo‘riqnomalar va tavsiyalar, asosan, Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi Shu darajada me’yoriy tartibga solish Buxgalteriya jadvali [7]. uning qo‘llanilishi.

Biroq, ikkinchi darajali hujjatlar orasida mulk, majburiyatlar, kapitalning ayrim masalalari bo‘yicha qoidalar alohida o‘rin egallaydi.

buxgalteriya hisobida aks ettiriladiganlarga yagona yondashuvni ta’minlash

hodisalar faktlarini hisobga olgan holda, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha korxona va tashkilotlar uchun majburiydir.Bu milliy rus buxgalteriya standartlari - buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi nizomlar (PBU). standartlarni yanada rivojlantirish.

Buxgalteriya hisobining ikkinchi darajali hujjatlari bilan belgilangan umume’tirof etilgan buxgalteriya hisobi qoidalari korxona tomonidan hisob siyosatini ishlab chiqishda amalga oshiriladi.Bunda korxonaning hajmi, o‘ziga xosligi, tarmoqqa mansubligi hisobga olinadi.Va bu tartibga solishning uchinchi darajasi. tizimi
buxgalteriya hisobi.

3. Tashkilotlarning tuzilish davrida ular tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlari hisob siyosati.

Qabul qilingan hisob siyosati bo‘yicha tashkilot rahbarining buyrug‘i yoki buyrug‘i bilan tasdiqlanishi kerak bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati Rossiya Federatsiyasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida" gi qonunida mavjud:

•sintetik o‘z ichiga olgan hisoblarning ishchi jadvali va buxgalteriya hisobi va hisobotining o‘z vaqtida va to‘liqligi talablariga muvofiq buxgalteriya hisobi uchun zarur bo‘lgan analitik hisoblar;

• birlamchi buxgalteriya hujjatlarining standart shakllari taqdim etilmagan xo‘jalik operatsiyalarini qayta ishlash uchun foydalaniladigan birlamchi hujjatlar shakllari, shuningdek ichki buxgalteriya hisoboti uchun hujjatlar shakllari;

• inventarizatsiya o‘tkazish tartibi va mulk va majburiyatlarning turlarini baholash usullari;

•hujjat aylanish qoidalari va buxgalteriya hisobi axborotini qayta ishlash texnologiyasi;

• xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi, shuningdek buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshqa qarorlar.Normativ-huquqiy bazani tahlil qilishni Rossiya Federatsiyasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida" gi qonunidan boshlash tavsiya etiladi.1-bob, 1-modda, 3-bandda buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• tashkilot faoliyati va uning mulki to‘g‘risida buxgalteriya hisobotlarining ichki foydalanuvchilari - menejerlar, ta’sischilar, ishtirokchilar, tashkilot mulki egalari va tashqi investorlar uchun zarur bo‘lgan to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni shakllantirish; moliyaviy hisobotlarning boshqa foydalanuvchilariga kreditorlar;

• tashkilot faoliyati davomida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish uchun buxgalteriya hisobotlarining ichki va tashqi foydalanuvchilari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish.
operatsiyalar va ularning maqsadga muvofiqligi, mulkning mavjudligi va harakati va majburiyat-38 moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalangan holda korxonalar tasdiqlangan normalar, standartlar va smetalarga muvofiq;

• tashkilotning xo‘jalik faoliyatining salbiy oqibatlarini oldini olish va uning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun ichki iqtisodiy zaxiralarni aniqlash.

Binobarin, buxgalteriya hisobining vazifalari ichki axborot ehtiyojlarini ta’minlash uchun hisob foydalanuvchilar.

Keyinchalik (6-modda, 3-band) korxonalarga keng vakolatlar beriladi
buxgalteriya tashkilotida, ya’ni korxona mustaqil ravishda:

•sintetik va ni o‘z ichiga olgan hisoblarning ishchi rejasi
buxgalteriya hisobi va hisobotining zamonaviyligi va to‘liqligi talablariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo‘lgan analitik hisoblar;

• birlamchi buxgalteriya hujjatlarining standart shakllari taqdim etilmagan xo‘jalik operatsiyalarini qayta ishlash uchun foydalaniladigan birlamchi hujjatlar shakllari, shuningdek ichki buxgalteriya hisoboti uchun hujjatlar shakllari;

• xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibi, shuningdek buxgalteriya hisobini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan boshqa qarorlar.

Xuddi shu modda (4-band) korxonaning hisob siyosatini mustaqil ishlab chiqishni nazarda tutadi: "Tashkilot tomonidan qabul qilingan hisob siyosati yildan-yilga izchil qo‘llaniladi".

Buxgalteriya siyosatini ishlab chiqish tartibi to‘g‘risida, 5-moddaning 3-bandi: "Tashkilotlar Rossiya Federatsiyasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi organlarning normativ hujjatlariga asoslanib, o‘z hisob siyosatini mustaqil ravishda shakllantiradilar uning tuzilishi, sohasi va faoliyatning boshqa xususiyatlaridan.

Binobarin, Rossiya Federatsiyasining "Buxgalteriya hisobi" qonuni va to‘g‘risidagi Nizom Rossiya Federatsiyasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot [3] korxonaning ilgari berilgan huquqlarini mustaqil ravishda tasdiqlaydi ishchi hisob rejasini va hisob siyosatini ishlab chiqish.

Shuni ta’kidlash kerakki, Rossiya Federatsiyasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida" gi qonuni edi maxfiylikni e’lon qilgan birinchi rasmiy hujjat buxgalteriya ma’lumotlari: "buxgalteriya registrlarining mazmuni ichki buxgalteriya hisobi esa tijorat siri hisoblanadi” (10-modda, 4-bet) Bu yerda gap boshqaruv hisobi ma’lumotlari va analitik xarajatlar hisobining re-gistrasi haqida ketmoqda.

Hisoblar rejasida [7] moliyaviy va boshqaruv hisobini ajratish, buxgalteriya hisobi variantini amalga oshirish choralari ko‘rildi ikkita hisob tizimi.Jumladan, 30-39 schotlar bo‘sh qoldiriladi va elementlar bo‘yicha xarajatlar hisobini tashkil qilish uchun mo‘ljallangan. moliyaviy va ishlab chiqarish hisobini aks ettiruvchi hisoblar (yekranli hisoblar) yordamida tashkil etish tavsiya etiladi. Aslida, korxonaga boshqaruv hisobini avtonom rejimda, ya’ni moliyaviy buxgalteriya hisobotlaridan ajratilgan hisoblar tizimida tashkil etish imkoniyati beriladi (batafsilroq 6-bobga qarang).

Hozirgacha qabul qilingan PBUlarning hammasi ham tegishli emas boshqaruv hisobi.PBU 7/98 va PBU 8/98 qoidalarini qo‘llash tashqi moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta’minlaydi, bu emas

Boshqaruv hisobi vazifasi Siz buni boshqa PBUlar bilan bajara olmaysiz.

Shunday qilib, korxonaning hisob siyosati korxonada ishlab chiqarish hisobining o‘ziga xos asosi bo‘lib, ishlab chiqarish hisobi esa boshqaruv hisobining eng muhim elementidir.

PBU 5/01 ga muvofiq tashkilotlarga imkoniyat beriladi ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan materiallarni baholashning bitta usulini tanlash - LIFO, FIFO, o‘rtacha.Buxgalteriya siyosati sotib olingan materiallarni baholash usullarini - haqiqiy tannarx bo‘yicha yoki kitob narxlarida tavsiflaydi;

Haqiqiy to‘liq yoki qisman ishlab chiqarish tannarxi yoki standart xarajatlar (40-“Mahsulot (ishlar, xizmatlar)" hisobvarag‘idan foydalangan holda). tayyor

mahsulotlarni baholash G‘arb boshqaruv hisobida juda mashhur bo‘lgan "standart-cost" tizimining elementlaridan biridir.

Buxgalteriya siyosati ro‘yxatlarni va zaxiralarni yaratish tartibini belgilaydi

Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar, asosiy vositalarni ta’mirlashni hisobga olish va moliyalashtirish.. Shubhasiz, bu masalalarning barchasi boshqaruv hisobining vakolati hisoblanadi, chunki ular bevosita ishlab chiqarish hisobi va ishlab chiqarish hisobi bilan bog‘liq. mahsulot tannarxini hisoblash.

1995 yildan beri , Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining 1996 yil 27 martdagi 31-son buyrug‘iga muvofiq. [8] barcha korxonalar ishlab chiqarishni hisoblash imkoniyatiga ega bo‘ldilar korxonaning buxgalteriya siyosatida ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan xarajatlar narxi. 1995 yilda mahalliy buxgalteriya tili boshqaruv hisobining yangi atamasi - "takroriy xarajatlar" bilan to‘ldirildi va ruscha buxgalteriya hisobi xalqaro buxgalteriya standartlariga yana bir qadam tashladi.

PBU 12/2000 "Segmentlar bo‘yicha ma’lumotlar" [6] to‘g‘ridan-to‘g‘ri Buxgalteriya hisobini boshqarishning yakuniy maqsadi bo‘lgan segmental hisobotni tuzish masalalari bilan bog‘liq (batafsil). 7-bobga qarang).

Va nihoyat, tashkilotning buxgalteriya siyosati mahsulotning alohida turlari (tashuvchilar) o‘rtasida bilvosita xarajatlarni taqsimlash usulini tavsiflaydi. xarajatlar).bilvosita xarajatlarni taqsimlash usulini tanlash quyidagilardan biridir hisoblash tamoyillari - buxgalteriya hisobining boshqaruv hisobining asosi.

Shunday qilib, bugungi kunda Rossiya qonunchiligida yo‘q boshqaruv hisobini rivojlantirish uchun har qanday to‘siqlar.

Ilgari to‘plangan tajriba va an’analarni hisobga olgan holda korxonalarda uni shakllantirish va rivojlantirishning ob’ektiv old shartlari pishib etildi.

3-MA’RUZA.Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish

Reja:

1. **Xarajatlar mohiyati va turkumlash.Texnologiyaning ta’siri**
2. **O‘suvchi (inkrement) va marjinal (chegaralangan) xarajatlar**.

Xarajatlar boshqaruv hisobining asosiy ob’ekti hisoblanadi. Xarajatlar deganda, ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun (mahsulot ishlab chiqarish, tovar xaridi, xizmatlar) sarflangan resurslar qiymatining puldagi ifodasidir. Ushbu atama juda ko‘p ma’noga ega bo‘lib va turli xil vaziyatlarda turli xil tipdagi xarajatlar qo‘llaniladi.

Boshqarish uchun menejerlarga faqat umumiy xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar yetarli bo‘lmasdan, balki u yoki bu ob’ekt bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlar to‘g‘risida detalli ma’lumotlar talab qilinadi (mahsulot yoki uning partiyasi, mijozlarga bankda yoki poliklinikada ko‘rsatilayotgan xizmat tannarxi, mashina saot, ish soati va uning qiymati, boshqaruv xarajatlari va boshqalar).

Xarajatlar tushunchasi tannarx tushunchasidan kengroqdir. Xarajatlar korxona o‘z maqsadlariga erishish uchun va oldiga qo‘ygan vazifalarni hal qilish uchun amalga oshirgan sarf va chiqimlarning puldagi ifodasidir. Tannarx esa mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish orqali

mahsulot qiymatini yaratish bilan bog‘liq xarajatlardir. Bunday xarajatlarni ishlab chiqarish xarajatlari ham deb atashadi.

Aslida, nimaningdir tannarxi aniqlansa u tannarx ob’ektiga aylanadi. Tannarx ob’ekti bo‘lib mahsulot yoki xizmatlar (ishlab chiqarilgan mahsulot, masalan personal kompyuterni ishlab chiqarish, xonani ijara olish, Toshkentdan – Samarqandga uchish) yoki loyihalar bo‘lishi mumkin (uy qurish, zavod qurish, asbob-uskunalarni o‘rnatish). Bundan tashqari tannarx ob’ekti sifatida bo‘limlar ham qaralishi mumkin (xuquqiy bo‘lim, loyihalashtirish bo‘limi, savdo bo‘limi). Ularni quyidagi chizmada keltirishimiz mumkin (1-chizma)

Tannarx ob’ektlari

Faoliyat va operatsiyalar	Mahsulot yoki xizmatlar	Loyihalar	Bo‘limlar	Dasturlar

Tannarx tizimidagi schotlar ikki bosqichdagi tarmoqlarni qamrab oladi:

(1) Xarajatlarni ma’lum tasniflash belgilari bo‘yicha *akkumlyatsiyalash (to‘plash)*, masalan, foydalanilgan xom-ashyo va materiallar, ishlatilgan yoqilg‘i, joylashtirilgan reklama, ish haqi va xarajatlarning boshqa elementlari bo‘yicha;

(2) *Tannarxni taqsimlash* - bu to‘plangan xarajatlarni ma’lum mezonlar bo‘yicha tannarx ob’ektlariga identifikatsiyalashdir. Xarajatlar hisobini tashkil qilishning iqtisodiy maqsadlarga eng muvofiq tizimi – bu qarorlarni ma’lum turdagi guruhlarga ajratish (masalan, mehnat resurslari ustidan nazorat yoki materiallarni ishlatish) va ularga monant xarajatlar hisobining talluqli ob’ektlarini tanlash hisoblanadi (masalan mahsulot yoki bo‘limlar).

Akumlyatsiyalashgan ob’ektlarning tannarx ob’ektlariga bog‘liqligini quyidagi chizmada ko‘rishimiz mumkin (2-chizma):

Tannarxning akkumlyatsiyasi Tannarx ob’ektlari

Xom-ashyo va materiallar bo‘yicha haqiqiy xarajatlar	Ishlab chiqarish bo‘limi	A Mahsulot
		V Mahsulot
		S Mahsulot

Bo‘limning samardorligi mahsulot tannarxini aniqlash, mahsulotning narxini belgilash va mahsulotga doir qarorlar qabul qilishda va menejment maqsadlarida foydlaniladi.

Xarajatlar hisobining asosiy maqsadi zahiralarni baholash uchun kalkulyatsiya qilish va foydani aniqlashga qaratilgan. Hozirgi zamon boshqaruv hisobida uning an’anaviy boshqaruvda quyidagi masalalarni hal qilishda ishonchli axborot bazasini ta’min etishga qaratilgan (21-bet).

1. Qaysi mahsulotni ishlab chiqarishni davom ettirish? yoki to‘xtatish?

2. Komplektlovchi (butlovchi) buyumlarni o‘zimizda ishlab chiqarish kerakmi yoki xarid qilib olish?
3. Qanday narx belgilash kerak?
4. Taklif qilingan asbob-uskunalarni xarid qilib olish kerakmi?
5. Ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishini almashtirish kerakmi?
6. Menejerni xizmat vazifasi bo‘yicha ko‘tarish kerakmi?
7. Ushbu sexni yopish kerakmi yoki davom ettirish?

Hozirgi kunda xarajatlar (tannarx) hisobi tizim sifatida yuzaga kelmoqda. ***Tannarx hisobi tizimi*** **-** bu tannarx ob’ektiga doir bo‘lgan axborotlarni o‘lchash, yozuvini amalga oshirish, tahlil va interpritatsiya qilish hamda tannarx hisobotini tuzishda qo‘llaniladigan muntazam-davriy jarayonlar va protseduralar majmuasidan iboratdir. Tannarx hisobiga doir adabiyotlarda tannarx hisobi tizimining quyidagi to‘rtta bir-biridan farq qiladigan faoliyatlarini qayd qilishgan:

1. Tannarxni o‘lchash
2. Tannarxning yozuvini amalga oshirish
3. Tannarxni tahlil qilish
4. Tannarx hisoboti

Tannarx hisobi tizimi kompleks ishlab turishi va qancha hajmda axborotlar qayta ishlanishi jarayoniga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatib turadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Firma faoliyatining miqdoriy hajmi
2. Ishlab chiqarish jarayonining turi
3. Firma tomonidan ishlab chiqarilayotgan turli mahsulotlarning soni
4. Tannarx axborotlariga nisbatan menejmentning munosabati
5. Tashqi o‘zgaruvchi omillar, jumladan qonunlar va tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy baza.

Xarajatlarning tasnifiga oid quyidagi konsepsiyalar amal qiladi[8] (20-b):

- Bevosita (to‘g‘ridan to‘g‘ri) va bilvosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lmagan) xarajatlar.
- O‘rtacha va umumiy xarajatlar.
- Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari
- O‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar
- Relevant va norelevant xarajatlar
- Saqlanish mumkin bo‘lgan va saqlanib bo‘lmaydigan xarajatlar
- Nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlar
- Qaytarilmaydigan xarajatlar
- Alternativ xarajatlar
- O‘sish (inkrement) va marjinal xarajatlar

Xarajatlar bir qancha belgilar bo‘yicha tasniflanadi.

Tannarx ob’ektlariga olib borish usuliga qarab: bevosita va bilvosita xarajatlarga bo‘linadi.

[8] Управленческий учет 1. Учебное пособие. (Байрашек А.З. Ванина М.С. и др)- Ассоциация преподователей бизнес дисциплин Узбекистана, 2003.

Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) xarajatlar – bu aniq tannarx ob’ektiga iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ridan to‘g‘ri identifikatsiyalanadigan (olib borish mumkin bo‘lgan) xarajatlardir. Masalan, stol ishlab chiqarishda ishlatiladigan taxtani aniq stol turiga olib borilishi mumkin. Xuddi shuningdek, agar u yoki bu stolni ishlashda aniq ishchilarning sarflagan ish saoatlari aniq bo‘lsa, ish xaqi xarajatlarini ham stol turlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiyalash mumkin. Shu bois, bu xarajatlarni bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri)xarajatlarga kiritishimiz mumkin.

Bilvosita xarajatlar (to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘lmagan) xarajatlar – bu aniq tannarx ob’ektiga iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ridan–to‘g‘ri identifikatsiyalanmaydigan (olib borish mumkin bo‘lmagan) xarajatlardir.
Masalan, mahsulot sifati bo‘yicha inspektorning ish xaqi, ishlab chiqarish binosining ijara xarajatlarini u yoki bu mahsulot turiga to‘g‘ridan to‘g‘ri olib borish imkoni yo‘q va shu bois, bunday xarajatlar bilvosita xarajat sifatida tan olinishi kerak. Ba’zi hollarda ayrim turdagi xarajatlarni u yoki bu turdagi mahsulotlarga olib borish imkoni bo‘lsada, ularning iqtisodiy salmoqliligi va hisob xarajatlarini kamaytirish maqsadida ular bilvosita xarajat sifatida hisobga olinadi. Masalan, stol ishlab chiqarishda ishlatilgan miq va boshqa yordamchi materiallarning qiymatini u yoki bu stol turi tannarxiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib borish imkoniyati bo‘lsada, ushbu xarajatlarning salmoqliligi va hisob-kitoblarni qiyinlashtirmaslik maqsadida bu turdagi xarajatlar bilvosita xarajatlarga olib boriladi.

Bevosita va bilvosita xarajatlarni farqlash tannarx ob’etiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ishlab chiqarish asbob-uskunalariga xizmat ko‘rsatuvchi ustoning ish xaqi agar tannarx ob’ekti ishlab chiqarish sexi bo‘lsa, u bevosita xarajat bo‘lishi mumkin, agar tannarx ob’ekti mahsulotlar bo‘lsa, u holda ustoning ish xaqi bilvosita xarajat bo‘ladi.

O‘rtacha va umumiy xarajatlar, mahsulot tannarxi va davr (operatsion) xarajatlari, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarning mohiyati va mazmunini alohida savollarda ko‘rib o‘tamiz.

Qabul qilinayotgan qarorlarda ahamiyatliligiga qarab: relevant va norelevent xarajatlarga bo‘linadi.

Relevant va norelevant xarajatlar. Amaliyotga ko‘p hollarda xarajatlarni qabul qilinayotgan qarorlarda ahamiyatliligiga qarab, tasniflash ham ma’lum ahamiyat kasb etadi.

Relevant xarajatlar – bu qarorlar qabul qilish natijasida o‘zgarib turadigan kelgusi xarajatlar hisoblanadi. Qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar *norelevant xarajatlar* deb ataladi.

Masalan, avtomobillarga to‘lanadigan soliq va uning sug‘urtasi bo‘yicha xarajatlar xodimning xizmat mashinasida kelishi, yoki jamoat transportida kelishi borasida qabul qiladigan qaroriga bog‘liq emas. Demak, bu norelevant xarajatga misol bo‘la oladi. Lekin, benzin xarajatlari ushbu qarorga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Bunday holda ushbu xarajat relevant xarajat hisoblanadi.

Boshqa bir misol keltiramiz. Kompaniya bir necha yil oldin 100 p.b.ga xom-ashyo sotib olgan. Hozirgi kunda ushbu materialni amaldagi buyurtmalarni bajarishda ishlatish yoki uni sotish imkoniyati yo‘q. Oldingi iste’molchilardan biri

ushbu materialdan foydalansa bo‘ladigan buyurtma taklif etmoqda va buyurtma uchun 250 p.b.ni to‘lashga rozi ekanligin bildirmoqda. Ushbu materialni buyurmachi talab qilgandek qayta ishlash uchun kompaniya 200 p.b. miqdorida qo‘shimcha qayta ishlash xarajatlarini amalga oshiradi. Ushbu loyihani tahlil qiladigan bo‘lsak, xarajatlarning relevant va norelevant ekanligini aniqlab olish zarur hisoblanadi. 200 p.bdagi material xarajatlar buyurtmani qabul qilish yoki qilmaslikdan qat’iy nazar yuz beradi, chunki buyurtmani qabul qilmaganda ham ushbu materiallardan foydalanish imkoni yo‘q, faqat ularni hisobdan chiqarib tashlash kerak bo‘ladi, ya’ni bu norelevant xarajat hisoblanadi. 300 p.b qayta ishlash xarajatlari faqat loyihani qabul qilgan taqdirdagina yuz beradi. Demak bu xarajat relevant xarajat hisoblanadi. Endi ushbu buyurtmani qabul qilish kerakmi yoki yo‘qmi degan savolga javob topish uchun umumiy tushumdan faqat relevant xarajatlarni ayirish kerak, ya’ni 400p.b.-300p.b.= 100 p.b. Bundan ko‘rinib turibdiki mavjud materiallarga bundan ortiq naf olish imkoniyati bo‘lmaganligi uchun buyurtmani qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Ushbu buyurtmaning qabul qilinishi 200 p.b. muqarrar norelevant xarajatni 100 p.b. tushirish imkoniyatini berayapdi.

Hisob-kitoblar natijalarini quyidagi 1.2-jadvalda rasmiylashtiramiz.

1.2-jadval

Relevant va norelevant xarajatlar guruhlariga ajratish

	Buyurtmani qabul qilmagan holda	**Buyurtmani qabul qilgan holda**	**Xarajat toifasi**
Materiallar	200	200	*Norelevant*
Ish bo‘yicha xarajatlar	-	300	*Relevant*
Tushum	-	(400)	
Sof xarajat	200	100	

Upravlencheskiy uchet 1. Tashkent 2003 g. 24-betdagi misol qayta ishlangan.

Xarajatlarni boshqaruv qarorlariga bog‘liq yoki bog‘liq emasligiga ajratish qarorlar qabul qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish va menejmentni boshqarish darajasiga bog‘liqligiga qarab: saqlanish mumkin bo‘lgan va saqlanish mumkin bo‘lmagan xarajatlarga bo‘linadi.

Saqlanish mumkin bo‘lgan va saqlanish mumkin bo‘lmagan xarajatlar. Saqlanadigan xarajatlar bu faoliyatni normal tashkil qilgan hollarda saqlanish mumkin bo‘lgan xarajatlar hisoblanadi. Masalan, jarima va penya xarajatlari, normadan ortiqcha qilingan xarajatlar. Saqlanish mumkin bo‘lmagan xarajatlarga har qanday holatda yuz berishi muqarrar bo‘lgan xarajatlar kiradi. Masalan, tovarlarning me’yordagi kamayishini kiritishimiz mumkin.

Qaytarib bo‘lmaydigan xarajatlar. Bu oldin xarid qilib olingan resurslar bo‘yicha xarajatlar bo‘lib ularning mavjudligi kelgusida ulardan foydalanish turli xil alternativ variantlariga bog‘liq bo‘lmaydi. Yuqoridagi misolda oldin xarid qilingan va ishlatish yoki sotish imkoniyati bo‘lmagan 200.0 p.b. material bo‘yicha xarajatlar qaytarib bo‘lmaydigan xarajatlarga tipik misol qilib olishimiz

mumkin. Xarid qilingan materiallar va molk-mulklar bo‘yicha yo‘qotishlarni qaytarib bo‘lmaydigan xarajatlarga kiritish mumkin.

Alternativ (muqobil) xarajatlar. Bir qancha xarajatlar boshqarish qarorlarini qabul qilish nuqtai nazaridan odatdagi buxgalteriya tizimida hisobga olinishi mumkin bo‘lmay qoladi. Ushbu tizimda hisobga olinadigan xarajatlar o‘tgan to‘lovlarga yoki aniq vaqtda kelgusida to‘lanadigan majburiyatlarga asoslanadi. Biroq qarorlar qabul qilishda shunday xarajatlarni ham hisobga olish zaruriyati tug‘iladiki, qaysiki ushbu xarajatlar real pul to‘lovlarini talab etmaydi. Bunday xarajatlar alternativ xarajatlar deb ataladi. *Alternativ xarajatlar* – bu boshqa variantlardan voz kechilib bitta variant tanlash natijasida yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni o‘lchovchi xarajatlardir.

Masalan, kompaniyada maxsus komponentlarni ishlab chiqarish bo‘yicha kontrakt tuzish imkoniyati tug‘ildi. Ushbu buyumni tayyorlash uchun X asbob-uskunalarda 100 mashina soat ishlash talab etiladi. Ushbu X asbob-uskuna A turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun to‘liq quvvat bilan ishlaydi. Yangi kontraktni bajarishning yagona yo‘li A mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish hisoblanadi. Natijada kompaniya 350 p.b. miqdorida tushumdan mahrum bo‘ladi. Kontraktni amalga oshirish 1500,0 p.b. qo‘shimcha o‘zgaruvchan xarajatlarni amalga oshirishiga to‘g‘ri keladi. Agar kompaniya ushbu shartnomani imzolagan taqdirda A turdagi mahsulotni ishlab chiqishni qisqartirish natijasida 350.0 ming so‘mlik tushumdan mahrum bo‘ladi. Bu *alternativ xarajat* hisoblanib, yangi kontrakt tuzilayotganda hisobga olinishi lozim. Ushbu misolda 350+1500=1850.0 ming so‘mdan kam bo‘lmagan summaga kontrakt summasini tuzish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlar. Barcha xarajatlar ma’lum boshqaruv darajasida nazorat qilinadi. Javobgarlik markazlari bo‘yicha xarajatlar to‘g‘risida hisobot tayyorlanayotganda buxgalterlar quyi boshqaruv pog‘onalarida xarajatlarni nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlarga ajratiladi.

Barcha xarajatlar yuqori pag‘onadagi menedjerlar tomonidan nazorat qilinadi, lekin barcha xarajatlar o‘rta yoki quyi bo‘g‘in boshqaruvchilari tomonidan ham nazorat qilinavermaydi. Masalan, sex boshqaruvchisi tomonidan xom-ashyo sarfi, elektr energiya sarfi, mehnat sarfi nazorat qilinsada, ijara xarajatlari va tashqi tashkilotlarning xizmatlari nazorat qilinmaydi. Shu bois, tashkilotda xarajatlarni boshqaruvchilar vakolatlaridan kelib chiqib ular tomonidan nazorat qilinadigan xarajatlar tasniflanib chiqilishi xarajatlarni boshqarishda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘suvchi (inkrement) va marjinal (chegaralangan) xarajatlar. *O‘suvchi (ba’zan qo‘shimcha, inkriment yoki differensiallashgan) xarajatlar va tushumlar* – bu ko‘rib o‘tilayotgan mahsulot turi uchun tahlilining har bir variantida amalga oshrilayotgan xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Masalan, ushbu hafta ichida korxona mahsulot hajmini 2000 tadan 2200 birlikga oshirganda qo‘shimcha xarajatlar, ushbu 200 birlikni ishlab chiqarish uchun o‘suvchi xarajatlar tushuniladi. O‘suvchi xarajatlar o‘z tarkibiga doimiy xarajatlari olishi yoki olmasligi mumkin. Agar qaror qabul qilinishi natijasida doimiy xarajatlar o‘zgargan taqdirda ular qo‘shimcha xarajatlar bo‘lib hisoblanadi. Agar qaror qabul

qilinishi natijasida doimiy xarajatlar o‘zgarishsiz qolsa, u holda o‘suvchi doimiy xarajatlar nolga teng bo‘ladi.

O‘suvchi daromadlar/xarajatlar bo‘yicha qaror qabul qilish qoidasi quyidagicha: *Agar qo‘shimcha daromadlar qo‘shimcha xarajatlardan oshsa, u holda qaror qabul qilish mumkin. Aks holda-bosh tortish kerak.*

Marjinal xarajatlar va marjinal tushumlar – bu faqat qo‘shimcha bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan qo‘shimcha xarajatlar/tushumlar tushuniladi.

Boshqaruv hisobi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasida quyidagi misol keltirilgan.

Sotishdan olingan tushum (daromad):

50 000 birlik har biri 20 p.b sotildi. 1000 000

Muomala xarajatlari:

Reklama xarajatlari. 100 000
Tovarlar sbiti bilan mashg‘ul personalning ish haqi. 80 000
Sotuvchilarning yo‘l (komandirovka) xarajatlari. 50 000
Savdo binosini ijara to‘lovlari. 10 000

Kompaniya rahbariyati kelgusi yili O‘zbekistonning shimolida sbit bo‘yicha yangi hudud ochish masalasini ko‘rib chiqmoqda. Reklama xarajatlarini 30%ga oshirish va yangi bozorda tovarlarni sotish bilan shug‘ullanadigan sotuvchi lavozimi kiritilib, uning yillik ish haqi 15 000 p.b. mo‘ljallanmoqda. Bundan tashqari komandirovka xarajatlarini 10%ga oshirish kutilmoqda. Sbitning yangi hududi uchun sotishning yillik rejasi amaldagi narxlarda 10 000 birlik mahsulotni tashkil etmoqda. Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlarining mo‘ljaldagi qiymati mahsulot birligiga 5 p.b.ni tashkil etadi. Ushbu qarorni asoslash uchun inkrement daromadlar va xarajatlar solishtirilib ko‘riladi.

Inkrement daromadlar (10 000 birlik x 20 p.b.). 200 000
Inkrement xarajatlar:
Reklama xarajatlari (100 000 p.b. x 30%). 30 000
Ish haqi. 15 000
Yo‘l haqi (komandirovka) (50 000 p.b. x 10%). 5 000
Ishlab chiqarish xarajatlari (10 000 p.b. x 5 p.b). . . . 50 000 (100 000)
Inkrement foyda. 100 000

Ushbu hisob-kitoblardan ko‘rinib turibdiki, kompaniyaning sbit bo‘yicha yangi hududni ochish hisob-kitoblari shuni ko‘rsatmoqdaki ushbu loyiha kompaniyaga 100 000 p.b.da qo‘shimcha (inkrement) foydani ta’min etish imkoniyatini bermoqda.

4- **MA’RUZA. Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish**

Reja:

1. Ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy, yordamchi ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatuvchi boʻyicha hisobga olishni tashkil etish
2. Boshqaruv hisobida schetlar rejasi. Oʻzgaruvchan va doimiy xarajatlar

Xarajatlarni foydani harakatlantirish davriga olib borilishiga qarab: mahsulot tannarxi va davr xarajatlari. Ularning tarkibiy qismlarini ***1.2-chizmada*** aks ettirish mumkin.

Mahsulot tannarxi – bu savdo korxonalarida tovarlarni xarid qilish, ishlab chiqarish korxonalarida esa mahsulotni ishlab chiqish xarajatlaridir. Ushbu ta'rifga asoslanib quyidagi tenglikni keltirib chiqarish mumkin:

Mahsulot tannarxi = Ishlab chiqarish xarajatlari (1.1)

Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxi uchta tannarx elementidan tashkil topadi:

(1) Bevosita (toʻgʻridan-toʻgʻri) material
(2) Bevosita (toʻgʻridan-toʻgʻri) mehnat
(3) Ustama ishlab chiqarish xarajatlari (Bilvosita xarajatlar)

Demak, mahsulot tannarxi uchta kategoriyadagi tannarx elementlarining yigʻindisidan iborat:

Mahsulot tannarxi = bevosita material + bevosita mehnat + ustama ishlab chiqarish xarajatlari (1.2)

Bevosita (toʻgʻridan-toʻgʻri) material bu ishlab chiqarishda uning asosini tashkil etadigan, ya'ni tayyor mahsulot shu materialdan yaratiladigan xom-ashyo va zahiradir. Masalan, choʻyan ishlab chiqarishda asosiy bevosita material boʻlib temir hisoblanadi. Choʻyan esa poʻlat ishlab chiqarish uchun bevosita material boʻlib xisoblansa, poʻlat oʻz navbatida avtomobil va boshqa ogʻir sanoat uchun toʻgʻridan-toʻgʻri material boʻlib xizmat qiladi. Ishlab chiqarishda yordamchi yoki ikkilamchi ahamiyatga ega boʻlgan materiallar ham ishlatiladi. Bunday materiallar bilvosita xarajatlar boʻlib ularni *ishlab chiqarish ustama xarajatlariga* olib borish qabul qilingan.

Bevosita (toʻgʻridan-toʻgʻri) mehnat bu ishlab chiqarishga jalb qilingan materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish va mahsulot turlariga toʻgʻridan-toʻgʻri identifikatsiyalash mumkin boʻlgan xarajatdir. Masalan, bevosita mehnatga faqat A mahsulot turini ishlab chiqarish bilan, ya'ni boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan aralashmaydigan ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi xarajatlari kiradi. Bevosita mehnat xarajatlarini topish uchun tannarx ob'ekti boʻlgan mahsulot ishlab chiqarishda bevosita mashgʻul boʻlgan ishchilarning mehnat soatlarini mehnat soati stavkasiga koʻpaytirish orqali topiladi. Ishlab chiqarish bilan bilvosita aloqador boʻlgan va ularning mehnati bir qancha tannarxi ob'eklariga talluqli boʻlgan hollarda ishchilarning mehnati bilvosita xarajat sifatini e'tirof etilib *ishlab chiqarish ustama xarajatlariga* olib boriladi.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari (manufacturing overhead MOH) - bu mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar koʻrsatish jarayonida qatnashadigan toʻgʻridan-toʻgʻri material va toʻgʻridan-toʻgʻri mehnat xarajatlaridan tashqari barcha amalga oshirilgan bilvosita ishlab chiqarish xarajatlaridir. Ushbu

xarajatlarni *zavod ustama xarajatlari, zavod bilvosita xarajatlari* yoki servis korxonalarida *servis ustama xarajatlari*, qurilish korxonalarida *qurilish ustamasi* ham deb ataladi. Ayrim kishilar ustama ishlab chiqarish xarajatlarini sotish va ma'muriy xarajatlar bilan chalkashtirishadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ustama ishlab chiqarish xarajatlari bu ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxining tarkibiy qismi bo‘lib, boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlardan farqlovchi eng muhim xususiyati uning u yoki bu mahsulot turiga, ya'ni tannarx ob'ektiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l bilan identifikatsiya qilish (olib borish) imkoniyati bo‘lmasligidir. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarining ikkita eng katta moddasi qayd qilish lozim. Bu bilvosita material va bilvosita mehnat xarajatlaridan hisoblanadi. Qolgan ustama ishlab chiqarish xarajatlarini okkupensi yoki quvvatli xarajatlar ham deb ataladi. Ularga quyidagilar kiritish mumkin:

1. Bino va asbob-uskunalar lizing to‘lovlari va ijara xarajatlari
2. Bino va asbob-uskunalar amortizatsiyasi
3. Isitish, yoritish va energiya xarajatlari
4. Mashina va asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish
5. Ishlab chiqarish personalini ovqatlantirish, choy (kofe) va suv
6. Ishlab chiqarish jihozlarining sug‘urtasi va mol-mulk solig‘i
7. Bashqa xarajatlar

Boshqa ustama ishlab chiqarish xarajatlariga ishchilarning sog‘liq sug‘urtasi, chiqish nafaqalari, korxona hisobidan to‘lanadigan pensiya to‘lovlari, supervayzorlar ish haqi va boshqa umumzavod xarajatlarini kiritish mumkin. Mamlakatimiz amaliyotida schetlar rejasida ustama ishlab chiqarish xarajatlarini *umumzavod va umumishlab chiqarish xarajatlari* schotlari orqali hisobga olish mo‘ljallangan.

Savdo korxonalarida tovarlar qayta sotish uchun xarid qilinadi. Savdo jarayonida ular qayta ishlanmaydi. Natijada ushbu jarayonda ularning xarid qiymati o‘zgarmaydi yoki kam darajada o‘zgaradi. Tovarlarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar ularning tannarxiga kiritiladi.

Davr xarajatlari *sotish xarajatlari* va *ma'muriy-boshqaruv xarajatlaridan* tashkil topadi.

Sotish xarajatlariga tayyor mahsulotlarni saqlash va ularni xaridorlarga yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar kiradi. Bularga reklama, bozorni tadqiq qilish, sotishga doir ish haqi va komissionlar, tayyor mahsulotlarni jo‘natish va saqlash xarajat moddalarini kiritish mumkin. Ushbu xarajatlarni sotish xarajatlari deb tan olishning sababi ushbu xarajatlar mahsulot ishlab chiqarilib bo‘lgandan keyin yuz beradi va shu bois ayrim moddalarini mahsulot tannarxiga qo‘shish imkoniyati bo‘lmaydi. Masalan, tayyor mahsulotlarni omborda saqlash, ularni upakovkalash, ombor ishlovlarini berish tayyor mahsulot omborga kirim qilingandan keyin yuzaga keladi. Ushbu xarajatlar mahsulot qiymatiga ta'sir etsada, ularni mahsulot tannarxiga kiritib bo‘lmaydi, chunki mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni yakunlangan hisoblanadi. Shu bois, ta'kidlash lozimki sotish xarajatlari bu tayyor mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin uni xaridorlarga yetkazib bergunga qadar yuz bergan xarajatlar sifatida tan olinadi.

Ma’muriy-boshqaruv xarajatlari yuz berish vaqtidan (tayyor mahsulot ishlab chiqishgacha yoki undan keyin) qat’iy nazar davr xarajatlari deb e’tirof etiladi. Ularga top menedjerlar va ma’muriy-boshqaruv xodimlari hisoblangan staf bo‘limlar, jumladan moliyaviy departament, personal departamentlarni saqlab turish xarajatlarini kiritish mumkin. Xarajat moddalariga ma’muriy-boshqaruv apparati ish haqi, ofis xarajatlari, ofis ijarasi, tadqiqotlar va tarraqiy etish xarajatlari va boshqa ma’muriyat bilan bog‘liq xarajatlarni qayd qilish mumkin.

Nima uchun ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan xarajatlar davr xarajatlari deb tan olinib ular TMZlar tannarxiga kiritilmaydi. Buning umume’tirof etilgan ikkita sababi mavjud.

Birinchidan, TMZlar aktiv hisoblanadi, qaysiki o‘z vaqtida va kelgusidagi tushumlarni harakatga keltirish uchun xarid qilib olingan. Mahsulotlarni tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlarni mahsulotlar tannarxini qoplash uchun zarur bo‘lgan kelgusidagi tushumlarni harakatga keltiruvchi vosita sifatida qaralishi mumkin. Biroq, ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan xarajatlarning kelgusidagi tushumlarni harakatga keltirishda ishtirok etishiga kafolat amal qilmaydi, chunki ular mahsulot qiymatining oshishini ta’min etmaydi.

Ikkinchidan, ko‘pgina ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan xarajatlar (masalan, realizatsiya bo‘yicha xarajatlar) ishlab chiqarilgan mahsulot zahiralarda bo‘lgan davrda yuz bermaydi. Shu bois, ushbu xarajatlarni TMZlarni baholashda hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Ishlab chiqarish korxonalarida materiallar mehnat va asbob-uskunalar yordamida yangidan mahsulotga aylantiriladi. Ishlab chiqarish jarayonida tayyor mahsulot tannarxi shakllanadi va u realizatsiya qilingan va realizatsiya qilinmagan mahsulotga taqsimlanadi. Davr xarajatlari esa realizatsiya qilinmagan tayyor mahsulotga taqsimlanmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu davrning daromadlari hisobidan qoplaniladi. Ushbu bog‘liqlikni quyidagi chizmada ko‘rsatishimiz mumkin bo‘ladi:

Ishlab chiqarish xarajatlari → Mahsulot tannarxi → Realizatsiya qilinmagan

Ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan xarajatlar → Davr xarajatlari

3-chizma. Mahsulot tannarxi va davr xarajatlari hisobi.

Tayyor mahsulotning sotish tannarxi (Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi) va davr xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar korxonaning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobotida aks ettiriladi (1.4-jadval).

1.4-jadval

“**American Oilseeds and Grains” MChJ**
Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot
31 dekabr bilan yakunlanadigan 2008 yil uchun

Realizatsiya 9850.0

Tayyor mahsulotning sotish tannarxi:

1 yanvarda tayyor mahsulot qoldig‘i. 55.0
Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxi. 6138.0
Sotishga mo‘ljallangan mahsulot tannarxi. 6193.0
Ayiriladi: 31 dekabrda tayyor mahsulotlar qoldig‘i. . . .65.0
Tayyor mahsulotning sotish tannarxi. 6128.0
Yalpi foyda (yalpi marja). 3722.0

***Davr (operatsion) xarajatlar*:**

Sotish xarajatlari. 1150.0
Ma’muriy-boshqaruv xarajatlar. 1450.0
Jami operatsion xarajatlar. 2600.0
Operatsion foyda. 1122.0

Ushbu hisobotda sotish va ma’muriy-boshqaruv xarajatlarini ularning moddalar guruhlari bo‘yicha ham berish mumkin. Bu o‘z navbatida uning analitikligini oshiradi.

Mahsulot tannarxi ko‘rsatkichlarini buxgalteriya schotlarida aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, hisobot uchun ma’lumotlar buxgalteriya schotlaridan olinadi. Buxgalteriya schotlarini yuritish tartibi korxona tannarxi hisobini yuritishning tizimlariga bog‘liq bo‘ladi. *Mahsulot ishlab chiqarish tipi*, *qo‘llaniladigan tizimi* va *mahsulot tipi* bog‘liqligini quyidagi jadvalda keltirish mumkin (1.5-jadval)**.**

1.5-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish faoliyati va tannarx hisobi tizimi

Ishlab chiqarish tipi	***Tannarx hisobi tizimi***	***Mahsulot tipi***
Ishlarni amalga oshirish Kasalxonalar, uy joy qurilishi, konsalting firmalari	Buyurtmali (ish) costing	Oddiy
Komplekt ishlab chiqarish Mebel ishlab chiqarish	Asosan buyurtmali (ish) costing	Turli xil mahsulotlar
Davom etuvchi (takroriy) ishlab chiqarish Kompyuter terminali, vilosiped, kiyim-bosh	Asosan jarayonli costing (operatsion)	Ko‘p bo‘lmagan yangi mahsulot
Jarayonli davom etuvchi oqim Neftni qayta ishlash, kraska, ximiya	Jarayonli costing	Standartlashgan

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, turli kompaniyalar ishlab chiqarishning xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa boshqa tannarx hisobi tizimini tanlaydi. Birinchi tipdagi korxonalar bu har bir mijozga individual yondashgan holda uning buyurtmasidan kelib chiqib ish bajaradi. Har bir individual ishi boshqa bajargan ishlaridan farq qiladi. Har bir bajarilgan ish individual mahsulot deb qaraladi. Ushbu tipdagi ishlab chiqarishlarga konsalting firmalari ishlari,

qurilish shartnomalari bo‘yicha bajarilgan ishlar, nashriyot xizmatlari, tibbiyot xizmatlariga doir ishlarni misol keltirish mumkin. Bundan ishlarni bajaruvchi firmalar *buyurtmali (ish) costing* tizimini qo‘llaydi. Har bir buyurtma (ish)ning tannarxi alohida hisoblanadi.

Ikkinchi tipdagi ishlab chiqarish bu bir komplekt mahsulot uchun zarur komponentlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar bo‘lib, turli xil qismlar yig‘ilib bitta komplekt mahsulotni tashkil etadi. Misol uchun mebel ishlab chiqaruvchi korxonalarda turli xil qismlar yig‘ilib stol, stul va garnitur ishlab chiqiladi. Bunda barcha komponentlar tannarxi yig‘ilib komplektning tannarxi chiqariladi. Ushbu korxonalar asosan *buyurtmali (ish) costing* tizimini qo‘llashadi. Buyurtmali costingda har bir buyurtma yoki ishlar bo‘yicha xarajatlar alohida hisobga olib boriladi. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari buyurtmalar bo‘yicha taqsimlanadi.

Davom etuvchi (takroriy) ishlab chiqarishga odatdagi ko‘pchilik bir turdagi yoki bir necha turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni kiritish mumkin. Masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, avtomobil yoki kompyuter ishlab chiqaruvchilarda bitta yoki bir nechta mahsulot doimiy ravishda ishlab chiqiladi, ya’ni mahsulot buyurtma olgandan so‘ng ishlab chiqarish boshlanmaydi. Ishlab chiqilgan mahsulot shartnoma bo‘yicha xaridorlarga sotiladi. Ushbu tipdagi ishlab chiqarishda mahsulotga bir ishlab chiqarish jarayondan keyingi jarayonga o‘tish orqali texnologik ishlov amalga oshiriladi va oxirgi bosqichda tayyor mahsulot yuzaga keladi. Natijada har bir texnologik jarayonda xarajatlarni alohida yuritishga imkoniyat va zaruriyat tug‘iladi. Tannarxni hisobga olishning bu tizimi *jarayonli costing* deb ataladi. Yuqoridagi qayd qilingan ishlab chiqarishlarda asosan jarayonli costing qo‘llaniladi.

Keyingi tipdagi ishlab chiqarish jarayonli davom etuvchi oqim deb ataladi. Bu tipdagi ishlab chiqarish buyurtmali ishlab chiqarishga oppozit hisoblanadi. Bu bitta yoki bir xil turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarni kiritish mumkin. Bu tipdagi korxonalar jarayonli costing tizimini qo‘llaydi. Bularga misol qilib bo‘yoq ishlab chiqarish, un chiqarish, yog‘ rafinatini kiritish mumkin.

Buyurtmali (ish) costing va jarayonli costing tannarx hisobi tizimlarning mazmuni va qo‘llanilishini alohida mavzularda ko‘rib o‘tamiz.

2. Boshqaruv hisobida schetlar rejasi. O‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar

Xarajatlar *tannarx drayveri*, *ya’ni* mahsulot hajmi (faollik darajasi) oshishi va kamayishiga qarab o‘zgarishi bo‘yicha “o‘zgaruvchan” (doimiy bo‘lmagan), “doimiy”, “yarimo‘zgaruvchan” va “yarimdoimiy” xarajatlarga tasniflanadi.

Tannarx drayveri (omili) bu har qanday omil bo‘lib, qaysiki uning o‘zgarishi tannarx ob’ektiga bog‘liq holda jami xarajatlarning o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Tannarx drayveriga ko‘plab misol keltirish mumkin. Masalan, fabrika sohasida material tannarxi faqatgina ishlab chiqarishning hajmiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki boshqa omillar masalan, foydalanilayotgan materiallarning sifati, ishchilarning malakasi**,** tayyor mahsulot ishlab chiqarishdagi qismlar soniga ham bog‘liq bo‘ladi. Tannarx drayveri sifatida sayohat meyili, ishlab chiqarish hajmi, ishlangan soatlar, mijozlar bilan muloqat, ish haqi to‘lovlaridagi kechikishlar,

liniya tipi, pul birligida sotish hajmi va boshqa tannarx ob'ekti bilan bog‘liq bo‘lgan omillarni sanab o‘tish mumkin. Korxonalar tannarxi summasi va ularning qaysi tannarxi drayverlariga bog‘liqligini quyidagi 1.6-jadvalda keltirishimiz mumkin:

1.6-jadval

Tannarx drayveri(omillari)ga misollar

Faoliyatning jami tannarxi	**Tannarx drayveri (omili)**
Mahsulot dizayni	Mahsulot soni, qismlarning soni
Muhandislik ishi	Qismlar soni, muhandislik ishi o‘zgarishi buyurtmalar soni
Materiallar xaridi	Xarid buyurtmalari soni, ta'minotchilarning soni, muloqatlar vaqti, ekspeditsiya vaqti
Ishlab chiqarish	Ishlab chiqarilgan mahsulot birligi miqdori, setap soni, qismlar soni
Distribyutor	Transportirovka turi, taroziga tortish, to‘xtashlar soni, trafikdagi holatlar, tezlik

Tannarx drayverlari masalasini chuqurroq keyingi mavzularda to‘xtalib o‘tamiz. Lekin hozirgi mavzularda tannarx drayveri sifatida eng asosiy omillar bo‘lgan ishlab chiqarish birligi hajmi, ishlagan ish soatlari, sotish hajmi olinadi.

O‘zgaruvchan xarajatlar. ***O‘zgaruvchan xarajatlar*** tannarx drayveriga, ya'ni mahsulot hajmi yoki faoliyat darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutonasib (proporsional) ravishda o‘zgaradi, ya'ni mahsulot hajmi ikki karra ko‘paysa, o‘zgaruvchi xarajatlar ham ikki karra ko‘payadi. Demak, umumiy o‘zgaruvchan xarajatlar chiziqli funksiya bo‘lsa, ushbu turdagi xarajatlarning mahsulot birligidagi miqdori - doimiy miqdor hisoblanadi. O‘zgaruvchan xarajatlarga misol qilib *ishlab chiqarishga oid bo‘lgan* asosiy ishlab chiqarish material xarajatlari, ishbay ish haqi, asbob-uskunalarning ishlashi uchun energiya xarajatlarini keltirishimiz mumkin. Ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan o‘zgaruvchan xarajatlarga sotishdan komission to‘lovlari, sotish hajmiga bog‘liq to‘lanadigan ish haqi, xaridorlarga yetkazib berish bo‘yicha transport xarajatlari va boshqa moddalarni kiritish mumkin. O‘zgaruvchan xarajatlarni chizma ko‘rinishda quyidagicha aks ettirish mumkin (4-chizma). Ushbu chizmadan ko‘rinib turibdiki o‘zgaruvchan xarajatlar grafikda o‘sib boruvchi to‘g‘ri chiziq shaklida aks ettirilgan. Mahsulot birligiga nisbatan grafigida esa to‘g‘ri chiziq faollik o‘qiga parallel joylashgan, ya'ni mahsulot birligiga nisbatan o‘zgaruvchan xarajatlar doimiy xarakterga ega bo‘lgan. Ushbu misolda mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar 10.0 ming so‘mni tashkil etadi.

Doimiy xarajatlar. Doimiy xarajatlar o‘rganilayotgan davrda tannarx drayveri, ya'ni mahsulot hajmi va faoliyat darajasining katta o‘zgarishi diapazonida miqdor jihatdan o‘zgarishsiz qoladi. Ushbu xarajatlarga misol qilib amortizatsiya

xarajatlari, nazoratchilar, ustalar ish xaqi, ijara to‘lovlarini olish mumkin. Doimiy xarajatlarni chizma ko‘rinishida quyidagicha aks ettirish mumkin ***(5-chizma)***. Chizmadan ko‘rinib turibdiki, umumiy doimiy xarajatlar faoliyat aktivligining barcha darajalarida bir xil darajasini saqlab qoladi. Bir vaqtning o‘zida mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar aktivlik darajasiga mutonosib ravishda kamayadi. Masalan, fikslashgan xarajatlarning oy maboynidagi summasi 5000.0 ming sum bo‘lsa, u holda mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar quyidagicha o‘zgaradi (1.7-jadval):

1.7-jadval

Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar

Ishlab chiqilgan mahsulot birligi miqdori, birlik	Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar, ming so‘m
1	5000
10	500
100	50
1000	5

Qarorlar qabul qilishda doimiy xarajatlarning umumiy summasi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanish, mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarga nisbatan afzalroq hisoblanadi.

O‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarning muhim xususiyatli jihatini quyidagi jadvalda keltirish mumkin (1.8-jadval):

1.8-jadval

O‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarning xususiyatlari

Xarajatlar	Umumiy xarajatlar	Mahsulot birligiga (o‘rtacha xarajatlar)
O‘zgaruvchan	O‘zgaradi	O‘zgarmaydi
Doimiy	O‘zgarmaydi	O‘zgaradi

Yarimdoimiy xarajatlar. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarishning aniq bir relevant diapazonida o‘zgarmas hisoblanadi. ***Relevant diapazon*** bu tannarx drayverining ma’lum oralig‘i bo‘lib, qaysiki unda tannarx (tushum) bilan tannarx (tushum) drayveri o‘rtasida amal qiluvchi maxsus bog‘liqlik aks ettiriladi. Masalan, ishlab chiqarish faolligi tez pasaygan paytlarda, korxona rahbariyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojning tushishi vaqtinchalik holat ekanligiga ishonch bo‘lsa, ishlab chiqarish ishchilari va masterlar ishni davom ettirishlari mumkin, lekin talabning tiklanishi yuz bermasa, u holda ushbu personal ortiqcha bo‘lib qolishi va ishdan chiqarilishi mumkin. Yoki boshqa bir misol, korxonaning ishlab chiqarish quvvati ma’lum bir kritik darajaga ko‘tarilgandan keyin korxona qo‘shimcha ravishda xodimlarni ishga jalb qilishi mumkin, lekin bu jarayon bir necha oyga cho‘zilishi mumkin. Shunday qilib, bir yil davomida ishlab chiqarish xodimlari xarajatlari mahsulotga bo‘lgan talab o‘zgarishi bilan o‘zgarishi mumkin. Bunday xarajatlar ***yarimdoimiy yoki zinali***

o‘suvchi doimiy xarajatlar ham deb ataladi. Ushbu xarajatlarning o‘zgarishini quyidagi 6-chizmada aks ettirishimiz mumkin. Ushbu misolda hisobot yili uchun tannarx drayveri mashina-soat olinganda 30.000 m.s. dan 95.000 m.s.gacha relevant diapazonda xarajatlarning darajasi 600.000 p.b. ni tashkil etmoqda. Shu bilan bir qatorda ushbu chizmada relevant diapazonning boshqa oralig‘ida aks ettiriladigan doimiy xarajatlar ham o‘z aksini topgan. Misol uchun, agar hajm ko‘rsatkichining darajasi 30.000 m.s.dan past bo‘lsa, doimiy xarajatlar keskin tushushi kuzatiladi. Bu shu bilan izohlanadiki, agar ushbu misolda ishlab chiqarishdagi vaziyatdan kelib chiqib tannarx drayveri hisoblangan mashina soat nol darajadan 30.000 m.s.gacha bo‘lgan oraliqda xizmat ko‘rsatuvchi va ijrochi personallarni qisqartirish natijasida ishdan chiqarishi oqibatida yuz bergan bo‘lishi mumkin. Boshqa holatda 95.000 m.s. dan yuqori hajm ko‘rsatkichiga erishilganda doimiy xarajatlarning keskin oshishiga olib keladi. Bu operatsiyalarni ko‘paytirishga yordam berish uchun qo‘shimcha personalni jalb qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Doimiy xarajatlarning bir yillik uchun aniqlangan darajasi keyingi yil uchun o‘zgarishi mumkin. Chunki, tannarx drayverida unga mos keluvchi xarajatlarning darajasi o‘zgarishi mumkin, xususan ijara summasi, ish haqi darajasi, mol-mulk solig‘i darajasi va boshqalar.

Nisbatan qisqa vaqt maboynida xarajatlar doimiy bo‘lishi mumkin. Ushbu vaqt qanchalik qisqa bo‘lsa, aniq turdagi xarajatlarni doimiy xarajat deb e’tirof etish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Masalan, oraliq vaqt bir yil. Menejerlarning ish xaqi, asbob-uskunalar yoki binolar amortizatsiyasi yil davomida ehtimol o‘zgarmaydi. Lekin, keyingi yillarda qo‘shimcha menejerlar jalb qilinishi, amortizatsiya me’yorlari va usullari o‘zgarishi mumkin.

Aralash xarajatlar. Xarajatlar dinamikasi ko‘rilayotganda aralash xarajatlarga alohida ahamiyat qaratish kerak. Aralash xarajatlar o‘z tarkibiga o‘zgaruvchan va doimiy komponentdagi xarajatlarni oladi. Ushbu xarajatlarga misol qilib asbob-uskunalarga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini keltirish mumkin. Ushbu xarajatlar tarkibiga faollikning har qanday darajasida rejadagi xizmat ko‘rsatish xarajatlari o‘zgaruvchan, ya’ni faollik darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar ham kiritiladi. Ushbu xarajatlar hatto ishlab chiqarish amalga oshirilmagan taqdirda ham mavjud bo‘ladi. Ushbu qismi esa doimiy komponent hisoblanadi (7-chizma). Boshqa bir misol qilib kompaniya vakillariga sotish uchun to‘lanadigan kompensatsion xarajatlarining bir qismi hisoblangan *bazali ish* haqi doimiy bo‘lsa, *komission to‘lovlar* esa o‘zgaruvchan qismi deb baholash mumkin.

Aralash xarajatlar summasi bu doimiy komponent summasi hamda o‘zgaruvchi komponent summasi yig‘indisidan iborat bo‘lganligi bois ularning matematik yig‘indisini quyidagicha ifodalash mumkin:

Doimiy xarajatlar: $Y = a$
O‘zgaruvchan xarajatlar $Y = bX$
Yarimo‘zgaruvchan xarajatlar $Y = a + bX$
Ushbu tenglama to‘g‘ri chiziqli funksiyaning tenglamasidir.

Ushbu tenglamada Y jami aralash xarajatlar faollikning har qanday darajasida bir xil bo‘lgan doimiy xarajatlar plyus bX tashkil topgan X faollik darajasidagi o‘zgaruvchan xarajatlardan iborat.

Misol uchun sotish bo‘yicha vakilning bazis ish haqi 17.000 p.b. va ham bir sotgan mahsuloti uchun komission 125 p.b.. Demak. A = 17.000 p.b., b = 125 p.b. ga teng bo‘ladi. U holda yarimo‘zgaruvchan xarajatlarni ifodalovchi tenglik quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$Y = 17.000 + 125 X$$

Ushbu formula faollikning istalgan darajasida yarimo‘zgaruvchan xarajatlarning summasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, agar 38 birlik mahsulot sotilsa sotuvchi vakilga to‘lanadigan yarimo‘zgaruvchan xarajatning summasi

Y = 17.00. + 125 (38) = 17.000 + 4.750 = 21.750 p.b. ga teng bo‘ladi.

Ushbu misolni grafik kurinishida 8-chizmada aks ettirish mumkin. Ushbu metod menedjerlarga xarajatlarni tannarx omillariga bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.



В.

5 - чизма Доимий харажатлар: А) Умумий; В) Маҳсулот бирлиги



6-чизма. Зинали ўсиб борувчи



7-чизма. Ярим ўзгарувчан харажатлар



A.



B.

4-чизма Ўзгарувчан харжатлар: А) Умумий ; В) Маҳсулот бирлиги

Adabiyotlar (6, 7, 8, 10, 12, 13, 14, 15, 20, 21, 22)

5-MA’RUZA. Boshqaruv hisobida mahsulot tannarxi va ularni kalkulatsiya

Reja:

1. Xarajatlar vazifalarini aniqlash uchun umumiy qoidalar (prinsiplar)

2. Xarajatlarni baholash usullari

1. Xarajatlar vazifalarini aniqlash uchun umumiy qoidalar (prinsiplar)

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar qattiq raqobat sharoitida xarajatlar dinamikasini baholashga zururiyat borligini his qilishadi. Buning uchun esa xarajatlarning bog‘liq o‘zgaruvchan va bog‘liq bo‘lmagan omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash zarur. Xarajatlar omillari bu umumiy xarajatlarning o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi har qanday omillar majmuasini tashkil etadi. Ushbu omillarga mehnat soatlari, mashina soatlari, ishlab chiqarilgan mahsulot birligi va boshqa omillarni sanab o‘tish mumkin. Omillar bog‘liqligini o‘rnatish uchun odatda regressiya tenglamasidan foydalaniladi. Regressiya tenglamasi bog‘liq o‘zgaruvchan (bizning holatda bu xarajatlar) va bitta yoki undan ortiq miqdordagi bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchan (ishlab chiqarishning faollik ko‘rsatkichlari yoki xarajatlar omillar) o‘rtasida bog‘liqlikni aks ettiradi. Ushbu bog‘liqlik chiziqli hisoblanadi. Ikkita regressiya tenglamasi turlari farqlanadi:

1. Oddiy regressiya, qaysiki tenglamaga bitta bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchan kiradi;
2. Ko‘plik regressiya, qaysiki tenglamaga ikki va undan ortiq bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchan kiradi.

Agar, bitta bog‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchan va bog‘lanish chiziqli bo‘lsa, regressiya tenglamasi to‘g‘ri chiziq tenglamasi ko‘rinishiga ega bo‘ladi:

$$Y = a + bX$$

Bunda, *u - x* aktivlik darajasida umumiy xarajatlar;

a – davrda umumiy doimiy xarajatlar;

b – mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar.

x - mahsulot hajmi yoki xarajat omili.

Umumiy tannarx va mahsulot birligining tannarxi. Umumiy tannarx bu mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarning yig‘indisi hisoblanadi. Mahsulot birligining tannarxi yoki o‘rtacha tannarx esa jami tannarx (bo‘linuvchi)ni ma’lum bo‘luvchiga taqsimlash orqali aniqlanadi. Ko‘p hollarda bo‘luvchi hajni ifodalovchi miqdor bo‘lib u jami tannarx bilan chambarchas aloqada bo‘ladi. Bo‘luvchiga misol qilib ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, ko‘rsatilgan xizmatlar soati, taomning miqdori, savdo fortidan o‘kazilgan yuklar funti, ishlov berilgan invoyslar soni, o‘qitilayotgan talabalar soni va boshqa ko‘rsatkichlarni keltirish mumkin.

O‘rtacha tannarx jami tannarxni o‘zida mujassamlashtirgan tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga bo‘lish orqali topiladi. Misol uchun:

10.000 birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi (bo‘linuvchi)	980.000 p.b.
Bo‘linadi: Ishlab chiqarilgan mahsulot birligi (bo‘luvchi)	10.000

Natija: Mahsulot birligining (o‘rtacha) tannarxi 9 8

Agar ushbu kompaniya misolida qaraydigan bo‘lsak, 10.000 birlik ishlab chiqarilgan mahsulotdan 8.000 birligi sotilsa va qolgan 2000 birligi oxirgi qoldiqda ifodalansa, o‘rtacha tannarx jami tannarxni turli schotlarda taqsimlagan holda aks ettirish imkonini beradi.

Sotilgan tovarlar tannarxi, 8.000 birlik x 98 p.b.	784.000 p.b.
Tayyor mahsulotning oxirgi qoldig‘i tannarxi 2000 birlik x 98 p.b.	196.000
Jami tannarxi	980.000 p.b.

2. Xarajatlarni baholash usullari

Amaliyotda yarim o‘zgaruvchan xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga ajratish ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu masalalarni hal qilishda umume’tirof etilgan beshta yondashishni ajratishimiz mumkin bo‘ladi:

1. Muhandislik usuli;
2. Schotlar tahlili;
3. Eng katta va eng kichik qiymat;
4. Diagrammada ifodalash usuli (Grafik metod);
5. Regressiya.

Muhandislik usulida xarajatlar dinamikasining tahlili ishlab chiqarishga kirayotgan resurslar bilan olinayotgan mahsulotlar o‘rtasidagi texnologik bog‘liqlikning muhandislik tahlili natijalariga asoslanadi. Masalan, texnik tahlilga ishlarning bajarilishi va unga bog‘liq holda xarajatlarning sarflanishi kuzatuvini kiritishimiz mumkin. Ushbu yondashish agar xarajatlar va xarajat omillari o‘rtasida jismoniy bog‘liqlik mavjud bo‘lgan hollardagina qo‘llanilishi samara beradi.

***Schotlarni tahlil qilish usuli*.** Bu usulda bo‘lim menejeri va buxgalter ma’lum bir davrga talluqli bo‘lgan har bir schotlardagi xarajatlarni tekshirib, keyin ularni doimiy, o‘zgaruvchan va yarim o‘zgaruvchan xarajatlarga ajratadi. O‘zgaruvchi xarajatlar kategoriyasiga oid bo‘lgan moddalar uchun mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar hisoblanadi. Doimiy xarajatlar kategoriyasiga kiruvchi moddalar uchun hisobot davridagi umumiy xarajatlar olinadi. Yarim o‘zgaruvchan xarajatlar kategoriyasiga kiruvchi moddalar uchun xarajatlar dinamikasini eng yorqin ifodalab beruvchi xarajatlar funksiyasi tanlanadi, ya’ni o‘zgaruvchan qismi uchun mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar, doimiy qismi uchun esa umumiy summasi olinadi.

***1-Misol*.** Keyingi oyda 10 000 birlikda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar berilgan.

Asosiy ishlab chiqarish materiallari	120000
Asosiy ishlab chiqarish xodimlari mehnati	160000
Yordamchi xodimlarning	50000
Amortizatsiya	20000
Ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish	15000

Jami xarajatlar ***365000***

Bo‘lim menejeri va buxgalter xarajatning har bir moddasini o‘rganib, ularni o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratadi. Ushbu tahlil natijalarini quyidagicha rasmiylashtirishimiz mumkin bo‘ladi (1.9-jadval):

1.9-jadval

Schetlarni tahlil qilish natijalari

	O‘zgaruvchan xarajatlar (mahsulot birligiga nisbatan)	Umumiy doimiy xarajatlar
Asosiy ishlab chiqarish materiallari	12.0	
Asosiy xodimlar mehnati	16.0	
Yordamchi xodimlar mehnati		50000
Amortizatsiya		20000
Ta’mirot va texnik xizmat ko‘rsatish	0.50	10000
	28.5	***80000***

Ushbu jadvalga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, ta’mirot va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari yarim o‘zgaruvchan xarajatlar kategoriyasi sifatida tasniflangan va bunda o‘zgaruvchan xarajatlar mahsulot birligiga nisbatan 0.50 va plyus 10.000 doimiy xarajatlarga kiritilgan. Hisoblash natijalari bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajatlar 28.5 so‘mni tashkil etgan holda, 10.000 mahsulot birligi ishlab chiqarishda 285.000 ming so‘m o‘zgaruvchan xarajatlarni tashkil etmoqda. Ushbu summaga 80.000 ming so‘m doimiy xarajatlar qo‘shiladi. Natijada umumiy xarajatlar 365.000 ming so‘m (285.000 + 80.000)ni tashkil etmoqda. Xarajatlar funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

U=80.000 + 28.5 x X = 80.000+28.5x10.000 =365.000 ming so‘m

Ushbu funksiya ishlab chiqarish hajmining ma’lum bir diapazonidagi istalgan birligida umumiy xarajatlar summasini aniqlash imkonini beradi. Xarajatlarning bu funksiyasi xarajatlarning har bir alohida moddasiga ishlab chiqarishning boshqa darajalarida qo‘llaniladi. Lekin keltirilgan misol va uning yechimidan ko‘rinib turibdiki xarajatlarni o‘zgaruvchan va doimiy tashkil etuvchi qismlarining tahlili yetarli darajada sub’ektiv hisoblanadi. Bundan tashqari tahlil yangi ma’lumotlarga tayanayapdi, qaysiki uning oldingi tahlil natijalari yoki kelgusidagi tahlil natijalariga mos kelmay qolishi ham mumkin.

Eng katta va kichik qiymat metodi. Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, bunda eng katta va eng kichik faollik davri tanlanib, unda ushbu davrga xarajatlarning o‘zgarishi faollik darajasining o‘zgarishiga taqqoslanadi.

Misol uchun o‘tgan olti oy maboynida noyabr oyi uchun eng katta tannarx summasi 21.500 p.b. ni tashkil etdi, qaysiki bunda 3.000 mehnat soati sarflangan. Eng kam tannarx avgust oyida 13.500 p.b. ga teng bo‘lib, bu 1.400 mehnati soati

uchun hisoblangan. Biz b ning qiymatini tannarxning eng katta qiymati va eng kichik qiymati o‘rtasidagi farqni ushbu xarajatlarni yuzaga kelishiga omil bo‘lgan mehnat soatlarining eng katta va eng kichik qiymatiga bo‘lish orqali topishimiz mumkin bo‘ladi.

Har bir mehnat soatiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar (b) quyidagicha aniqlanadi:

$$b = \frac{\textit{Xarajatlar o‘rtasidagi farq}}{\textit{Faollik darajasi o‘rtasidagi farq}} =$$

$$= \frac{21.500 \text{ p.b.} - 13.500 \text{ p.b.}}{3.000 \text{ m.s.} - 1400 \text{ m.s.}} = \frac{8.000 \text{ p.b.}}{1.600 \text{ m.s.}} = 5 \text{ p.b. /m.s.}$$

Bu ko‘rsatkich shuni anglatadiki, demak korxonada har bir mehnat soatining tannarxi 5 p.b ga teng bo‘ladi. Agar aralash xarajatlarning formulasida *(y = a + bx)* o‘zgarmas miqdorlar o‘rniga tegishli qiymatlarini quyib chiqilsa ushbu holatdagi misol uchun chiziqli tenglama formulasini yaratish mumkin. Buning uchun yuqoridagi misol ma’lumotlari asosida *a* ning qiymatini aniqlab olamiz. Avgust oyida 1.400 mehnat soatida 13.500 p.b. tannarx shakllangan.Ushbu ma’lumotlarni formulaga qo‘yamiz:

$$\boldsymbol{Y = a + bX}$$

13.500 p.b. = a + 5 p.b./m.s. 1.400 mehnat soati
13.500 p.b. = a + 7.000 p.b.
A = 13.500 p.b. – 7.000 p.b.
A = 6.500 p.b.

U holda chiziqli formula tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Y = 6500 p.b. + 5 p.b. /m.s. X

Ushbu formula faollik darajasining eng katta va eng kichik darajasi o‘rtasidagi farq oralig‘idagi har qanday nuqtada umumiy xarajatlar summasini aniqlash imkonini beradi. Demak, biz formula yordamida 3.000 mehnat soatlari bilan 1.400 mehnat soatlari o‘rtasidagi har qanday sarflangan mehnat soatlarida umumiy tannarxni aniqlashimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, korxona menedjeri 2.500 m.s.da umumiy xarajatlar qancha bo‘lishini bilishni hohlasa quyidagi hisob-kitoblar ushbu savolga javob berishi mumkin bo‘ladi.

$$\boldsymbol{Y = a + bX}$$

Y = 6.500 p.b. + 5 p.b. (2.500)
= 6.500 p.b. + 12.500 p.b.
= 19.000 p.b.

Boshqa bir misolda ko‘rib o‘tamiz, korxonada 12 oy maboynida texnik xizmat ko‘rsatish xarajati bo‘yicha eng katta va eng kichik faollik darajasida ishlab chiqarish faolligi va xarajatlarning o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumotlar olindi (1.10-jadval):

1.10-jadval

Ishlab chiqarish faolligi va xarajatlarning o‘zgarishi

	Ishlab chiqarish faolligi	Xarajatlar
Eng kichik faollik darajasi	5000	32000
Eng katta faollik darajasi	10000	52000
Farqi	5000	20000

Doimiy xarajatlar bu to‘plam xarajatlar va o‘zgaruvchan xarajatlar o‘rtasidagi farq hisoblanadi. (Tasavvur qilamiz: mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar o‘zgarmas). 5000 birlik mahsulot ishlab chiqarishda to‘plam xarajatlar 32000 ming sumni tashkil etmoqda.

Yuqoridagi formula bo‘yicha mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlarni aniqlaymiz: 20000/5000=4. Demak, 5000 birlik mahsulot ishlab chiqarishda o‘zgaruvchan xarajatlar 20000 ming sumni tashkil etadi (5000 x4). Doimiy xarajatlar esa, 12000 ming sumni tashkil etadi (32000-20000).

Bunda xarajatlar funksiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi :

$$U = 12000+4X$$

Ushbu xarajatlar funksiyasini grafik ko‘rinishida aks ettirish mumkin.

Diagramma tuzish usuli. Bunda har bir faoliyat turi bo‘yicha to‘plam xarajatlar grafikka joylashtiriladi. Umumiy xarajatlar vertikal U o‘qiga, ishlab chiqarish hajmi gorizantal X o‘qiga joylashtiriladi. Olingan natijalar qiymati quyib chiqiladi va to‘g‘ri chiziq yuzaga keladi. Masalan, grafik tuzish uchun kuzatuv natijasida quyidagi ma’lumotlar olingan (1.11-jadval):

1.11-jadval

Davrlarda asbob-uskunalarning ish vaqti va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

Davrlar	Asbob-uskunalar ish vaqti, X	Texnik xizmatko‘rsatish xarajatlari, U
1	100	1400
2	450	1700
3	400	1800
4	600	2200
5	700	1850
6	350	1550
7	250	1450
8	750	2500
9	150	1500
10	1000	2200
11	300	1750
12	900	1850

Chizmadagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar ishlab chiqarish faolligining har bir darajasida alohida joylashtirilgan.

Xarajatlarning to‘g‘ri chizig‘i shunday o‘tkazilganki, bunda chiziq yuqorida joylashgan nuqta bilan pastki qismda joylashgan nuqta oralig‘i o‘rtasidan o‘tkazilgan. To‘g‘ri chiziqning vertikal U o‘qini kesib o‘tgan nuqtasi aslida doimiy xarajatlarni beradi. Bu o‘z navbatida Y = a + bX tug‘ri chiziq tenglamasidagi a ning qiymatini beradi. Bizning misolda chizma orqali bu qiymat 1300.0 p.b. ga teng ekanligini aniqlaymiz. Formuladagi b ning qiymati eng katta qiymat va eng kichik qiymat usulidagi kabi ishlab chiqarishning ma’lum oraliqlaridagi, masalan bizning misolda 500 soat bilan 200 soat darajalari o‘rtasidagi farq hamda ushbu darajalarda texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarining mos qiymatlari, misolda 1800 p.b. bilan 1500 p.b. o‘rtasidagi farqlarning nisbati sifatida aniqlanadi.

$$\frac{\text{Xarajatlarning katta va kichik qiymatlari o‘rtasidagi farq}}{\text{Ishlab chiqarish faolligining katta va kichik darajalari o‘rtasidagi farq}} =$$

= (1800 – 1500) / (500 – 300) = 1.5 p.b.

Demak, ushbu misolda mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar 2 p.b. ga teng ekan. U holda ushbu misolga oid bo‘lgan to‘g‘ri chiziq tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$\boldsymbol{Y = 1300 + 1.5\,X}$$

Agar misol uchun aktivlik darajasi 300 soat bo‘lganda texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari teng bo‘ladi:

$$Y = 1300 + 1.5 \times 300 = 1300 + 450 = 1750 \text{ p.b.}$$

Grafik metodning qo‘laylik tomoni shundan iboratki, agar aralash xarajatlarning grafigi chizilgan bo‘lsa u holda istalgan faollik darajasida formuladan foydalanmagan holda ham grafik orqali xarajatlarning qiymatini aniqlab olish imkonini beradi.

Ko‘p hollarda tannarx va uning omillari o‘rtasida aniq chiziqli bog‘lanishni o‘rnatish qiyin vaziyat hisoblanadi. 3.10-chizmada turli xil diagrammalar ko‘rsatilgan. (a) diagrammada tannarx va faollik darajasi o‘rtasida bog‘liqlikni ifoda etish mumkin emasligi ko‘rsatilgan. Bunda bog‘liklikni to‘g‘ri chiziq yoki egri yoysimon chiziq orqali tasvirlab bo‘lmaydi. (b) diagrammada esa tannarx va faollik darajasi o‘rtasida kuchli bog‘liq mavjud, lekin ushbu bog‘liqlik tug‘ri chiziqli emas, balki egri chiziqli deb boholash mumkin. (s) diagrammada esa bog‘liqlik chiziqli bo‘lsada, lekin hammavaqt ham yuqori faollik darajasiga eng katta tannarx darajasi mos kelavermaydi. Bunday paytlarda menedjer bog‘liqlikni aniqlashda eng katta va eng kichik qiymat usulini yoki boshqa usullarni qullashni hal qilishi lozim bo‘ladi.

6-MA’RUZA. Buyurtmali usuli bo‘yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish *(order job costing)*.

Reja:

1.Buyurtmali kalkulyatsiyaning asosiy muqobil yondashuvlari. Haqiqiy va me’yoriy kalkulyatsiya

2. Kalkulyatsiya qilishning normativ usuli

3.Tugallanmagan kontraktlar bo‘yicha foyda hisobi

1. Buyurtmali kalkulyatsiyaning asosiy muqobil yondashuvlari. Haqiqiy va me’yoriy kalkulyatsiya

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimi ikkita bazisli tizimlardan birini yoki ikkalasini kombinatsiyalashgan holda qo‘llanilishini taqoza etadi: buyurtmali kalkulyatsiya yoki jarayonli kalkulyatsiya tizimlari. Bu ikkita tizimning xususiyatlari va bog‘liqligini quyidagicha aks ettirish mumkin.



Chizmadan ko‘rinib turibdiki, buyurtmali kalkulyatsiya maxsus buyurtma qilingan buyumlarni ishlab chiqarish sohasida yoki kichik partiyadagi tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo‘llaniladi. Jarayonli kalkulyatsiya esa ommoviy mahsulotlar, ya’ni buyurtmasiz ishlab chiqariladigan birliklar bo‘yicha qo‘llaniladi.

Tannarxning buyurtmali kalkulyatsiyasi – bu tannarxni kalkulyatsiya qilish metodi bo‘lib, bunda maqsadli xarajat (hisob ob’ekti) bo‘lib mahsulotning (ish, xizmat) o‘zi yoki mahsulotning katta bo‘lmagan partiyasi, ya’ni buyurtmalar hisoblanadi. Ushbu mahsulot (ish, xizmat) ko‘p hollarda buyurtma deb yuritiladi. Bundan ushbu kalkulyatsiya qilish metodining nomlanishi kelib chiqadi. Tannarxni kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usulida xarajatlar aniq mahsulotga to‘g‘ri va onson yondashiladi.

Buyurtmali kalkulyatsiya menejment maqsadlarida faqat ishlab chiqarish kompaniyalaridagina emas, balki qurilish tashkilotlarida, xizmat industriyasida, notijorat korxonalarida ham qo‘llaniladi. Misol uchun, bu tizimni qo‘llaydigan korxonalarga uy qurilishi korxonalari, maslahat firmalari, huquqshunoslik firmalari, audit va buxgalteriya hisobi xizmati tashkilotlari, reklama agentliklari hamda meditsina xizmati korxonalarini keltirishimiz mumkin. Ishlab chiqarish bo‘lmagan industriyada ish buyurtmali kalkulyatsiya atamasini qo‘llamasdan, uning o‘rniga «ishlar», huquqshunoslik firmalari yoki kasalxonalarda «keyslar»,

qurilish tashkilotlarida «kontraktlar» yoki «majburiyatlar» deb ataladi. Buyurtmali kalkulyatsiya menejerlarga rejalashtirish va nazorat qilishda qo‘l keladi. Uning ma’lumotlari asosida ish va mahsulot uchun sarflangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallarning, mehnat haqi va ustama xarajatlarning har bir buyurtma kesimida aniqlash mumkin bo‘ladi.

Ishlab chiqarishda jarayonli kalkulyatsiya qilish – bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblash metodi bo‘lib, ushbu metod yalpi bir xildagi (seriyniy) mahsulot tayyorlovchi yoki turli mahsulotlar tayyorlovchi, lekin jarayon doimiy qaytariladigan operatsiyalarga bo‘linadigan ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Jarayonli metodning buyurtmali metoddan prinsipial farqi xarajatlar hisobi ob’ektini tanlashda ko‘rinadi. Buyurtmali usul hisob ob’ekti bo‘lib mahsulotlarning maxsus har bir birligi yoki kichik partiyasi hisoblanadi. Jarayonli kalkulyatsiyada esa maqsadli xarajat bo‘lib mahsulot ishlab chiqarish jarayoni, misol uchun qorishtirish, pishirish va upakovka qilish jarayonlari hisoblanadi.. Jarayonli kalkulyatsiyani qo‘llaydigan tarmoqlarga misol qilib kimyo, neftni qayta ishlash, tekstil, lak-bo‘yoq, un, sut, rezino-texnik korxonalarini keltirishimiz mumkin.

Jarayonli metodda bitta buyumning tannarxi butun ishlab chiqarish tannarxini ushbu davrda ishlab chiqarilgan buyumlar miqdoriga bo‘lish orqali topiladi. Buyurtmali kalkulyatsiyada kam bo‘lgan miqdordagi birliklarning yoki butun bir buyurtmaning tannarxi alohida hisoblanadi. 5.2-chizmada buyurtmali kalkulyatsiya va jarayonli kalkulyatsiya o‘rtasidagi farqlar aniq bayon qilingan.

Bir qancha tovarlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lgan, masalan, uy ro‘zg‘or elektr priborlari, qaysiki realizatsiyasiga qadar omborlarda saqlaydigan kompaniyalar tannarxni kalkulyatsiya qilishning tovarlar partiyasi usulini qo‘llaydi. Bunda farqli jihati shundan iboratki, mahsulot birligi xarajatlar hisoblanmasdan, balki xarajatlar har bir ishlab chiqarish naryadiga hisoblanadi. Buyurtma tugagandan keyin mahsulot birligi tannarxi partiyaning jami xarajatlarini tovarlar birligi miqdoriga bo‘lish orqali topiladi.

Ko‘pchilik kompaniyalar tannarxni buyurtmali kalkulyatsiyasini tovarlar partiyasi tannarxini kalkulyatsiya qilish bilan birlashtiradilar. Bunday holatlarni mijozlarning texnik talablari asosida mahsulotlarni yig‘uvchi, qaysiki konstruksiya (yig‘ma)ning o‘zi bir qancha butlovchi detallardan iborat bo‘lib, ular boshqa konstruksiyalarda ishlatish mumkin bo‘lgan kompaniyalarda uchratish mumkin. Bunday hollarda butlovchi detallar partiyasi va barcha xarajatlar buyumlarning aniq partiyasi kalkulyatsion vedomostida hisobga olinadi. Butlovchi buyumlar tayyorlanishi yakunlangandan so‘ng naryad-buyurtma yopiladi va tayyorlangan mahsulot o‘rtacha tannarxi bo‘yicha tayyor detallar omboriga uzatiladi. Agar mijoz qandaydir ma’lum konstruksiyaga buyurtma bersa, talab qilinadigan detallar omborxonadan olinadi va xarajatlar yig‘ish bo‘yicha naryad-buyurtma hisobiga yozib boriladi.

Professional xizmat ko‘rsatuvchi (servis) korxonalarida buyurtmali kalkulyatsiyada uchta yondashuvdan birini qo‘llaydilar:

- *Birinchi muqobillik.* Yagona to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajat moddasi (odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat), yagona bilvosita (ustama) xarajat zarrachasi hamda yagona ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi.
- *Ikkinchi muqobillik.* Ko‘p to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat moddasi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat, fotonusxa, kompyuter soati va boshqa zarrachalar) va yagona bilvosita (ustama) xarajat zarrachasi hamda yagona ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi.
- *Uchinchi muqobillik.* Ko‘p to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat moddasi va ko‘p bilvosita (ustama) xarajat zarrachasi hamda ko‘p ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi.

5.1-rasmda ushbu muqobillarning tavsifi chizma ko‘rinishda keltirilgan. Ushbu muqobillarning qo‘llanilishini buxgalteriya hisobi sohasida xizmat ko‘rsatadigan kompaniya misolida ko‘rib o‘tamiz.

Birinchi muqobillik. Ko‘plab professional servis firmalar, jumladan buxgalteriya hisobi sohasidagi firmalar professional personal, qaysiki kimning mehnati audit o‘tkazishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnatga olib boradi. Boshqa qolgan barcha xarajatlar esa bilvosita (ustama) xarajat deb tasniflanadi. Biz bu holatni ***birinchi muqobillik*** deb atashimiz mumkin. Jamoat buxgalteriya hisobi firmasi 2009 yil uchun audit budjetini quyidagicha aks ettirdi (pul birligida):

Daromadlar……..	.15,000,000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat (Mijozlar tomonidan qabul qilingan professional mehnat soatlari uchun to‘lanadigan haq)	3,750,000
Marjinal daromad (ustama xarajatlar va operatsion foydani ta’minlash)	11,250,000
Ustama xarajatlar.	10,500,000
Operatsion foyda.	.750,000

Boshqa barcha xarajatlar imzolash soati, tayyorgarlik ko‘rish, marketing va boshqa umumiy ma’muriy xarajatlar.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri professional soatlar bu mijozlar auditi, menedjerlar va boshqa buxgalterlarning mehnati bilan o‘lchaniladi. Budjetlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari budjet soatlari hamda belgilangan mehnat stavkalari asosida hisoblanadi. Audit borasida mijozlarga ko‘rsatilgan soatlar uchun to‘lanadigan haq subordinatorlarga nisbatan to‘lanadigan stavkalardan yuqorini tashkil etadi. Ustama esa yagona bilvosita xarajatlar zarrachasidan tashkil topadi, qaysiki to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlariga nisbatan foiz hisobida aniqlanib xizmat tannarxiga olib boriladi. Audit bo‘yicha budjetlashtirilgan jami xarajatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari hamda taqsimlangan ustama xarajatlaridan tashkil topadi. Ushbu holatdagi misolda budjetlashtirilgan ustama xarajatlarning stavkasi 280% ga teng. Bu quyidagicha hisoblanadi:

Budjetlashtirilgan ustama stavkasi = Budjetlashtirilgan ustama xarajatlar / budjetlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat xarajatlari = 10,500,000 p.b./3,750,000 p.b. =280%

Audit faoliyatini budjetlashtirishda hamda audit shartnomalarini tuzishda, har bir individual auditning summasini va uning moliyaviy natijalarini aniqlashga zaruriyat tug‘iladi. Buning uchun formula yordamida stavka darajasi aniqlanadi.

Individual audit narxi stavkasi darajasi = Budjetlashtirilgan daromad / budjetlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat xarajatlari = 15,000,000 / 3,750,000 = 400%

Agar har bir individual audit bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat xarajatlari aniq bo‘lsa, yuqoridagi formulalardan foydalanib audit bo‘yicha xarajatlar, daromadlar va operatsion foydani aniqlaymiz:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat 40,000
Taqsimlangan ustama, 40,000 p.b. dan 280%. 112,000
Auditning to‘liq tannarxi. 152,000

Individual audit narxi stavkasi darajasi 400% mo‘ljallangan daromad va operatsion foyda summalarini aniqlash mumkin bo‘ladi:

Daromad (40,000 p.b.dan 400%) 160,000
Ayiriladi: jami tannarx. 152,000
Operatsion foyda. 8,000

Ushbu buyurtmali kalkulyatsiyaga asosan hisob-kitoblar audit faoliyatini rejalashtirishda hamda xarajatlari ustidan nazorat qilishda qo‘l keladi.

Ikkinchi muqobillik*.** Biz yuqorida tavsiflagan professional xizmat ko‘rsatuvchi korxona misolda buyurtmali kalkulyatsiyaning qo‘llanilishini ko‘rib o‘tdik. Bunda yagona to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar moddasi va yagona ustama xarajatlar stavkasi qatnashdi. Biroq, mijozlar birinchi muqobillikda ta’minlangan axborotlardan ko‘ra ko‘proq axborotlarni ochiqlashga (to‘lanadigan summaning qanday shakllanganligi) ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyojni ta’minlash maqsadida professional xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarda ustama xarajatlarga nisbatan ko‘proq xarajatlarni aks ettirishga intilmoqdalar. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni kengroq ochiqlashga yo‘naltirilgan yondashuv ***ikkinchi muqobillik deb ataladi.

Ikkinchi muqobillik asosida xarajatlar to‘g‘risida axborotlarni aks ettirish quyida keltirilgan (pul birligida):

To‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat 40,000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlovchi mehnat,
jumladan kotibalik xarajatlari. 10,000

Barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat uchun rag‘batlantirish . .17,500
Fotonusxa chiqarish. 1,100
Telefondagi so‘zlashuv. 1,000
Kompyuter vaqti 8,000
Jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar. 77,600
Taqsimlangan ustama xarajatlar (100% to‘g‘ridan-
to‘g‘ri xarajatlar miqdorida). 77,600
Audit bo‘yicha jami xarajatlar. 155,200

35% mehnat xarajatlaridan (40,000 + 10,000) =17,500 p.b.

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ikkinchi muqobillikda birinchi muqobillikka nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar kengroq ochiqlangan. Agar fotonusxa olish, telefonda so‘zlashuv, kotibalik soati, kompyuter soati xarajatlarini kuzatish iqtisodiy nuqtai nazardan mumkin bo‘lsa, u holda ularni ustama xarajatlar ichida bilvosita xarajat sifatida emas balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat deb tan olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayrim kompaniyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat uchun rag‘batlantirishlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlovchi mehnat ichida aks ettiradi. U holda yuqoridagi misolda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat 40,000 1,35 =54,000 p.b. bo‘ladi, qo‘llab quvvatlovchi mehnat esa 10,000 1,35 = 13,500 p.b. ni tashkil etadi. Jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari 57,500 p.b.ga teng.

Ikkinchi muqobillik axborot foydalanuvchilarda kengroq axborotlarni shakllantirishga hamda mijozlarda to‘lovlar haqida asosli qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Uchinchi muqobillik. Noishlab chiqarish tarmoqlarda xarajatlarni ishlarga taqsimlashda bittadan ortiq ustama xarajatlarini taqsimlash stavkalaridan foydalanadi, qaysiki bu ***uchinchi muqobil yondashuv*** deb ataladi. Misol uchun, ayrim ustama xarajatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat asosida taqsimlansa, boshqa ustama xarajatlar moddalari kompyuter soati asosida taqsimlanishi ko‘zda tutiladi.

Ustama xarajatlarning ko‘p taqsimlash bazalaridan foydalanish xarajatlarni maxsus ishlar bilan muvofiqlikda taqsimlashga xizmat qiladi. Yuqoridagi misollarda professional xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyada bilvosita xarajatlarini taqsimlash bazasi sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri professional mehnat xarajatlari, ishlov berilgan betlar, jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar olingan. Boshqa bir misolda ishlab chiqarishda ko‘plab tannarx drayverlari identifikatsiyalanishi mumkin hamda turli xarajatlar ish tannarxiga turli taqsimlash bazalari, jumladan xarid buyurtmalari soni, turli-tuman qismlar miqdori, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari, mashina soatlari va boshqa ko‘rsatkichlar.

Ishlab chiqarish va servis korxonalarida ko‘p ustama xarajatlarini taqsimlash bazalaridan foydalanish narxlarni belgilash borasida qarorlar qabul qilish, mahsulotni tanlash, resurslarni tashqaridan jalb qilishni yoki ushbu resurslarni ichki omillarni ishga solib hal qilish masalalarini yechishda qo‘l keladi.

Buyurtmali kalkulyatsiya uchun dastavval ishonchli va ob’ektiv axborot manbai talab etiladi. Asosiy axborot manbai bo‘lib boshlang‘ich hujjatlar hamda ular asosida yuritiladigan ***ish tannarxi yozuvlari*** yoki ***buyurtma ish jadvali*** hisoblanadi. Ish tannarxi yozuvlarini yuritish tartibi va uning ko‘rinishini quyidagi jadval shaklida aks ettirish mumkin (3.1-Jadval):

3.1-Jadval

AVS kompaniyasi

Ish raqami №MT24X48-47201

_____ Zahirasi uchun Xaridor (Buyurtmachi) **XYZ kompaniyasi**

_____Ish boshlanishi sanasi **08,01,2009** Ishni tugatish sanasi **23,01,2009**

Miqdori: **50**

A bo‘limi – Mashina ishlovi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material			*To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat*			*Ustama xarajatlar*		
Sanasi	*Referens (Material talabnomasi nomeri*	*Summa*	*Sanasi*	*Referens (Material talabnomasi nomeri*	*Summa*	*Sanasi*	*Referens*	*Summa*
08.01.09	**MRQ4340**	**$1.550**	**14.01.09**	**14.01.09**	**$240**	**14.01.09**	***LDI-14-09***	**$288**
10.01.09	**MRQ4347**	**575**	**21.01.09**	**21.01.09**	**520**	**21.01.09**	***LDI-21-09***	**624**
Jami		**$2.125**			**$760**			**$912**

B bo‘limi – Yig‘ish ishlovi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material			*To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat*			*Ustama xarajatlar*		
Sanasi	*Referens (Material talabnomasi nomeri*	*Summa*	*Sanasi*	*Referens (Material talabnomasi nomeri*	*Summa*	*Sanasi*	*Taqsimlash stavkasi*	*Summa*
16.01.09	***MRQ4368***	***$425***	***21.01.09***	***LDI-21-09***	***$440***	***21.01.09***	***LDI-21-09***	***$528***
-	*-*	*-*	***28.01.09***	***LDI-28-09***	***600***	***28.01.09***	***LDI-21-09***	***720***
Jami		***$425***			***$1040***			***$1248***

Tannarx hisobi

A. Bo‘lim ***B. Bo‘lim*** ***Jami*** ***Birlik***

			tannarx
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	*$2.125*	*$425*	*$2.550*	
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat	*760*	*1.040*	*1.800*	
Taqsimlangan ustama	*912*	*1.248*	*2.160*	
Jami	***$ 3.797***	***$ 2.713***	***$ 6.510***	***$130,20***

Qo‘llanilayotgan ish tannarxi yozuvlari kompaniyaning maxsus axborotlarga bo‘lgan talablariga javob berishi, lekin axborotlarning qaytarilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Ushbu ma’lumotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ishning boshlanish sanasi
2. Ishning yakunlanish sanasi
3. Mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish tavsifi va qismlari
4. Mahsulotni buyurtma qilgan xaridor
5. Ishlab chiqarilgan miqdor
6. Ishning raqami

Ushbu ma’lumotlar buyurtma tannarxni hisoblashga imkon beradi. Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, buyurtma mahsulot birligining tannarxi $130,20 ga tengligi aniqlandi.

Buyurtmali usulda quyidagi 8 ketma-ketlikka rioya qilinadi:

1. Ta’minotchilardan asosiy va yordamchi materiallarning kelib tushishish;
2. Asosiy va yordamchi materiallarni ishlab chiqarishga chiqarish;
3. Ish haqi va ajratmalarni hisoblash;
4. Oy davomida ish haqini berish;
5. Boshqa ishlab chiqarish ustama xarajatlarni yozish;
6. Ishlab chiqarish ustama xarajatlarini buyurtmalar bo‘yicha taqsimlash;
7. Buyurtmani yakunlash va tayyor mahsulotlarni tayyorlash;
8. Realizatsiya va realizatsiya qilingan mahsulot tannarxini hisobdan chiqarish.

Kompaniya buxgalteriyasida jurnal va bosh kitob yozuvlari asosida mahsulot tannarxini buyurtmali usulda kalkulyatsiya qilish tartibini amaliy misollarda ko‘rib o‘taylik.

1-operatsiya. 99,000 p.b. ga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita foydalanish uchun material xarid qilib olindi.

Natijada, materiallar aktivi ko‘payadi. Bir vaqtning o‘zida to‘lanadigan schetlar bo‘yicha majburiyatlar ham shu summaga oshadi. Agar kompaniya zahiralarni hisobga olishda uzluksiz hisob tizimini qo‘llasa bu yozuv *material yozuvi* deb ataladi. Ushbu materiallarning bitta turidagi kartochkasiga yozuvlarni quyidagi ko‘rinishda aks ettirish mumkin (3.2-jadval):

3.2-jadval

Material yozuvi

		Qabul qilindi			***Qo‘llanildi***			***Qoldiq***		
Sanasi	***Reference***	***Miq-dori***	***Birlik tannarxi***	***Jami tannarx***	***Miq-dori***	***Birlik tannarxi***	***Jami tannarx***	***Miq-dori***	***Birlik tannarxi***	***Jami tannarx***
10.02	***VL014R4***	***300***	***2.50***	***750***				***300***	***2.50***	***750***

	1									
22.02	***R41***				***80***	***2.50***	***200***	***220***	***2.50***	***550***

Yuqoridagi operatsiya bo‘yicha jurnal yozuvi quyidagicha bo‘ladi:

Material nazorati *99,000*
To‘lanadigan schetlar *99,000*

Bosh kitobga yozuvlari quyidagicha amalga oshiriladi:

Material nazorati		***To‘lanadigan schetlar***	
(1) 99,000			(1) 99,000

2-operatsiya. Ishlab chiqarish talabnomasi asosida 91,000 p.b. da to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar va 4,000 p.b da bilvosita materiallar foydalanishga chiqarildi.

Ushbu operatsiya natijasida ishlab chiqarish jarayoni hamda bo‘lim ustama xarajatlari ko‘paydi. Bir vaqning o‘zida materiallar aktivi shu jami 95,000 p.b. summasiga kamaydi. Yozuvlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib bo‘limlarning talabnomasi hisoblanadi. Bo‘limning ustama xarajatlarini quyidagi shakldagi jadvalda umumlashtirilishi bo‘lim ustama xarajatlari to‘g‘risida axborotlarni yetkazishga xizmat qiladi (3.3-jadval):

3.3-jadval

Bo‘lim ustama xarajatlarini umumlashtirish

Sanasi	***Hujjat manbai***	***Yog‘lash materiallari***	***Boshqa ta’minot***	***Yordamchi material***	***Turib qolishlar***	***Ish vaqtidan keyingi vaqt***	***Yordamchi mehnat***	***Maishiy xizmat***	***Sug‘urta***	***Amortizatsiya***
	Talabnoma	***XX***	***XX***							
	Mehnat hisob-kitoblari			***XX***	***XX***	***XX***	***XX***			
	Faktura							***XX***		
	Nazoratchi bo‘limlar tomonidan hisoblash, oldindan to‘lov va boshqalar asosida tuzilgan memolar							***XX***	***XX***	***XX***

2-operatsiya bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari qo‘yidagicha amalga oshiriladi:

Ishlab chiqarish jarayoni nazorati *91,000*
Bo‘lim ustamalari nazorati *4,000*

(bilvosita material)
Material nazorati *95,000*

Ushbu operatsiya natijalarini bosh kitobga yozuvi quyidagicha amalga oshiriladi:

Material nazorati		***Ishlab chiqarish jarayoni nazorati***		***Bo‘lim ustamalari nazorati***	
(1) 99,000	**(2) 95,000**	**(2) 91,000**		**(2) 4,000**	

3-operatsiya. Kompaniya ishchi xodimlariga ish haqi hisoblandi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishchilarga 39,000 p.b., bilvosita mehnat 5,000 p.b..

Ushbu operatsiya natijasida ishlab chiqarish jarayoni hamda bo‘lim ustamalari aktiv sifatida ko‘payadi. Bir vaqtning o‘zida ish haqi bo‘yicha majburiyatlar ham oshadi. 3-operatsiyaning jurnal yozuvlari quyidagicha bo‘ladi:

Ishlab chiqarish jarayoni nazorati *39,000*
Bo‘lim ustamalari nazorati (bilvosita mehnat) *5,000*
Ish haqi bo‘yicha majburiyatlar *44,000*

Ushbu operatsiyalarning bosh kitobga yozuvi quyidagicha amalga oshiriladi:

Ishlab chiqarish jarayoni nazorati		***Ish haqi bo‘yicha majburiyatlar***		***Bo‘lim ustamalari nazorati***	
(1) 91,000			**(3) 44,000**	(2) 4,000	
(3) 39,000				**(3) 5,000**	

4-operatsiya. Kompaniya ishchi va xodimlariga ish haqi 44,000 p.b.ga berildi.

Ushbu operatsiya natijasida ish haqi bo‘yicha majburiyatlar kamaydi. Bir vaqtning o‘zida aktiv schet pul mablag‘lari ham shu summaga kamayyapdi. 4-operatsiyaning jurnal yozuvlari quyidagicha amalga oshiriladi:

Ish haqi bo‘yicha majburiyatlar *44,000*
Pul mablag‘lari *44,000*

Bosh kitobga yozuvlar bajarilgandan so‘ng schetlar quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Pul mablag‘lari		Ish haqi bo‘yicha majburiyatlar	
	(4) 44,000	***(4) 44,000***	(3) 44,000

Ko‘pchilik kompaniyalar ish haqi bo‘yicha to‘lovlarni haftada bir marta amalga oshiradilar. Natijada, ish haqi bo‘yicha majburiyatlar schetining debetida bir oy maboynida to‘rt marta yozuvlar bo‘ladi. Yuqoridagi misolimizda ularning jamisi 44,000 p.b. ga teng bo‘ladi.

5-operatsiya. Hisobot oyida fabrika bo‘limlari ustama xarajatlari 75,000 p.b.ni tashkil etdi. Bu maishiy xizmatlar va ta’mirlash 23,000 p.b., asbob-uskunalarning amortizatsiyasi 50,000 p.b., sug‘urta bo‘yicha oldindan to‘lovlar 2,000 p.b.dan iborat.

Ushbu operatsiya natijasida fabrika ustama xarajatlari o‘sayapdi. To‘lanadigan schetlar bo‘yicha schetlar, jamg‘arilgan amortizatsiya schetlari ko‘paymoqda, sug‘urta bo‘yicha avans schetlari kamaymoqda.

5-operatsiyaning buxgalteriya yozuvlarini quyidagicha amalga oshiramiz:

Fabrika bo‘lim ustama xarajatlari	*75,000*	
To‘lanadigan schetlar		*23,000*
Asbob-uskunalarning jamg‘arilgan amortizatsiyasi	*50,000*	
Oldindan to‘langan sug‘urta		*2,000*

Bosh kitobga yozuvlar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Bo‘lim ustamalari nazorati

(2) 4,000	
(3) 5,000	
(5)75,000	

To‘lanadigan schetlar

	(1) 99,000
	(5) 23,000

Asbob-uskunalarning jamg‘arilgan amortizatsiyasi

	(5)50,000

Oldindan to‘langan sug‘urta

	(5) 44,000

6-operatsiya. Fabrika ustama xarajatlari mahsulotga taqsimlandi. Summasi 80,000 p.b.

Ushbu operatsiya natijasida ishlab chiqarish jarayoni ko‘payadi. Fabrika ustama bo‘lim xarajatlari esa ushbu summaga taqsimlangan ustama xarajatlari scheti orqali kamayadi.

Taqsimlangan ustama xarajatlari bu fabrikaning mahsulotlarga taqsimlangan ustama xarajatlari bo‘lib, u budjetlashtirilgan ustama stavkalari asosida aniqlanadi. Yuqoridagi misolimizda ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi 80 p.b. bir mashina soatga belgilangan. Demak, taqsimlangan ustama xarajatlari haqiqatda ishlatilgan mashina soatga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu ishda 1,000 mashina soati

qo‘llanilgan. U holda taqsimlangan ustama xarajatlari summasi 80,000 p.b.ni tashkil etadi, qaysiki bu summa 6-operatsiyada keltirilgan.

Ushbu operatsiyaning jurnal yozuvlari quyidagicha bo‘ladi:

Ishlab chiqarish jarayoni nazorati	*80,000*	
Taqsimlangan ustama xarajatlari		*80,000*

Bosh kitobga amalga oshirilgan yozuvlari quyidagicha amalga oshiriladi:

Ishlab chiqarish jarayoni nazorati

(2) 91,000	
(3) 39,000	
(6) 80,000	

Taqsimlangan ustama xarajatlar

	(6) 80,000

7-operatsiya. №101-108 buyurtma ish yakunlanib tayyor mahsulotga o‘tkazildi. Summasi 198,800 p.b..

Operatsiyaning mazmunidan ma’lumki, buyurtma ish tugallangan hamda buyurtma ishning jami natijasi chiqarilgan. Schet tarkibini tahlil qiladigan bo‘lsak, to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari haqiqiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari ham haqiqiy, ustama xarajatlar esa budjetlashtirilgan stavka asosida taqsimlangan.

Ushbu operatsiyaning jurnal yozuvlari quyidagicha bo‘ladi:

Tayyor mahsulotlar nazorati	*198,800*	
Ishlab chiqarish jarayoni nazorati		*198,800*

Bosh kitobga yozuvlar amalga oshirilgandan keyin schetlar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Ishlab chiqarish jarayoni nazorati

(2) 91,000	**(7) 198,800**
(3) 39,000	
(6) 80,000	

Tayyor mahsulotlar nazorati

(7) 198,800	

***8-operatsiya*.** Realizatsiya qilingan mahsulotning tannarxi 190,000 p.b.ga tengligi aniqlandi.

Operatsiya natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar tahlil qilinadigan bo‘lsa, uning natijasida realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi 190,000 p.b.ga oshganligi hamda tayyor mahsulotlar esa shu summaga kamayganlini ko‘ramiz.

Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi

(8) 190,000	

Tayyor mahsulotlar nazorati

(7) 198,800	**(8) 190,000**

Ushbu yuqoridagi operatsiyalarning jurnal yozuvlari, bosh kitobga yozuvlari va ularning aloqadorligi hamda buyurtmali kalkulyatsiyaning qo‘llanilishi jarayonini sxematik ravishda 4-5 (98-bet)-chizmada aks ettiramiz.

Yuqoridagi 6-operatsiyada fabrika ustamalarini mahsulotga taqsimlashda budjetlashtirilgan ustama xarajatlari stavkasidan foydalanildi. Budjetlashtirilgan ustama xarajatlari stavkasini qo‘llashning asosiy sababi nimadan iborat. Ko‘pchilik menedjerlar ishlab chiqarish xarajatlarini turli xil mahsulotlarga yilning oxirida emas, balki doimiy ravishda olib borilishini istashadi. Agar ustama xarajatlarni haqiqiy hisob-kitob bo‘yicha amalga oshiriladigan bo‘lsa, yilning yakunini yoki soraklikning yakunini kutishga to‘g‘ri keladi. Mahsulotning to‘liq tannarxi to‘g‘risidagi axborotlarga ehtiyoj doimiy bo‘ladi. Ularni imkon qadar qisqa muddatlarda taqdim etishga zaruriyat bor, chunki qarorlar qabul qilishda kechikmaslik kerak. Shu bois, budjetlashtirilgan ustama xarajatlar va budjetlashtirilgan taqsimlash bazalari asosida budjetlashtirilgan ustama xarajatlari stavkasi hisoblanadi. Budjetlashtirilgan ustama xarajatlar stavkasini hisoblash uchun quyidagi bosqichdagi ishlar amalga oshiriladi.

1-bosqich. Taqsimlash bazasi tanlanadi va u barcha mahsulotlar uchun (tannarx ob’ekti) umumiy bo‘linuvchi bo‘lishi kerak. Taqsimlash bazasi bo‘lib to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari va mashina soatlari va boshqa bazalarni misol keltirish mumkin. Umumiy bo‘linuvchi xarajatlarni yoki xarajatlar guruhlarini, chunonchi ustama xarajatlarni mahsulot bilan bog‘lay olishi kerak. Bunda sabab oqibat bog‘lanishi bo‘lishi kerak.

2-bosqich. Rejalashtirilayotgan yil uchun fabrika ustama xarajatlarining budjetlarini tuzish talab etiladi. Bunda ikki masala hal qilinishi lozim bo‘ladi: (a) budjetlashtirilgan jami ustama va b) taqsimlash bazasi uchun asos qilib olinadigan budjetlashtirilgan hajm raqami.

3-bosqich. Budjetlashtirilgan ustama xarajatlarning stavkasini hisoblash. Buning uchun budjetlashtirilgan jami ustama xarajatlarini taqsimlash bazasi bo‘lgan budjetlashtirilgan hajm raqamiga bo‘lish talab etiladi.

4-bosqich. Hisobot sanasi yakuni bilan haqiqiy taqsimlash bazasini aniqlab olish talab etiladi. Misol uchun haqiqiy ishlangan mashina soat.

5-bosqich. Budjetlashtirilgan ustama xarajatlari stavkasi haqiqiy taqsimlash bazasiga ko‘paytirilib, mahsulot yoki ishlarning tannarxiga olib boriladigan ustama xarajatlar summasi aniqlanadi.

6-bosqich. Yil so‘ngida mahsulot tannarxiga olib borilgan ustama xarajatlar summasi bilan haqiqatda jamg‘arilgan ustama xarajatlari summasi o‘rtasidagi farq aniqlanadi.

Yuqoridagi misolimizda kompaniyaning jami budjetlashtirilgan ustama xarajatlari 1,056,000 p.b.ni tashkil etadi. Budjetlashtirilgan taqsimlash bazasi 13,200 mashina soatga teng. U holda byudetlashtirilgan ustama stavkasi quyidagiga teng bo‘ladi:

Taqsimlashning budjetlashtirilgan ustama stavkasi = jami byudjelashtirilgan fabrika ustamasi / budjetlashtirilgan taqsimlash bazasi jami hajmi = 1,056,000 p.b. / 13,200 mashina soat = 80 p.b. /mashina soat.

80 p.b./mashina soatni individual ish tannarxini kalkulyatsiya qilishda foydalanish mumkin. Misol uchun, 323-ish bo‘yicha ish-tannarx yozuvlari quyidagi axborotlarni qamrab oladi:

Haqiqatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari 700 p.b.
Haqiqatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari 280 p.b.
Haqiqatda ishlagan mashina soatlar 8

323-ish bo‘yicha ustama xarajatlarni amalga oshirish quyidagicha amalga oshiriladi: 8 haqiqatdagi mashina soatni budjetlashtirilgan stavka 80 = 640 p.b.. 323-ish bo‘yicha jami tannarx teng bo‘ladi: 700 p.b. + 280 p.b. + 640 p.b. = 1,620 p.b. Yilning yakuni bo‘yicha haqiqiy natijalar ko‘zda tutilgan 1,056,000 p.b. dagi ustama xarajatlar hamda 13,200 mashina soatga muvofiqlashtiriladi, qaysiki jami ustamalar yil davomida mahsulot turlariga aniq taqsimlanadi. 4.8-chizma (105-bet) buyurtmali kalkulyatsiya tizimining qo‘llanilishini sxematik aks ettirib beradi.

Schetlarga ochilgan registrlardagi ma’lumotlar ustida ishlash ustama xarajatlar hisobini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Yuqoridagi operatsiyalar asosida yozuvlar amalga oshirilgandan keyin kompaniyaning yanvar oyidagi schetlarining ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

Bo‘lim ustamalari nazorati		***Fabrika taqsimlangan ustamasi***	
(2) 4,000			(6) 80,000
(3) 5,000			
(5)75,000			
Balans **84,000**			

Fabrika Bo‘lim Ustamalari Nazorati scheti oylik jami debet summasi juda kam holatlarda Fabrika Taqsimlangan Ustamasi schetining oylik kredit summasiga teng bo‘ladi. Kompaniyaning yanvar oyidagi schetlarning holati shuni ko‘rsatib turibdiki, ikkita schetning oylik natijalari o‘rtasida 4000 p.b. farq yuzaga kelgan (84,000 - 80,000). 4000 p.b. *taqsimlanmay qolgan ustama summasi* deb ataladi. Agarda taqsimlangan balans jamg‘arilgan (haqiqatdagi) balansdan katta bo‘lsa u holda *ortiqcha taqsimlangan ustama summasi* yuzaga keladi. Oy maboynida schetlar tahlil qilinganda ularning balansida plyus va minus farqlar yuza kelishi mumkin. Ular bir-birini qoplab yil oxirida bu ikki schetning balanslari o‘rtasida katta farq yuzaga kelmasligi mumkin.

Agarda yil so‘ngida bu ikki schet o‘rtasida farq chiqib, natijada taqsimlanmay qolgan yoki ortiqcha taqsimlangan ustama yuzaga kelsa ularni qoplashning ikkita usuli mavjud.

Birinchi usul ***zudlik bilan yozuvlarni amalga oshirish usuli***, ya’ni o‘rtadagi farqni Realizatsiya Qilingan Mahsulot Tannarxiga olib borish bilan ish yakunlanadi.

Misol uchun, olaylik jamg‘arilgan (haqiqatda) ustama summasi 600,000 p.b., taqsimlangan ustama esa 550,000 p.b. ga teng bo‘lgan. Natijada, taqsimlanmay qolgan ustama summasi 50,000 p.b.ni tashkil etmoqda. Ushbu hollarda zudlik bilan yozuvlarni amalga oshirish usuli bo‘yicha qo‘yidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi 50,000
Fabrika taqsimlangan ustamasi 550,000
Fabrika bo‘lim ustamalari nazorati 600,000

Yozuv: Ustama schetlarini yopish hamda taqsimlanmay qolgan ustama xarajatlarni realizatsiya qilingan mahsulot tannarxiga olib borish.

Agarda ortiqcha taqsimlangan ustama xarajatlari yuzaga kelgan hollarda esa realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi scheti kreditlanadi.

50,000 p.b. yuzaga kelgan farq bir kompaniya uchun salmoqli bo‘lmasada, lekin boshqa bir kompaniya uchun salmoqli bo‘lishi mumkin. Agar menedjerlar ushbu summani salmoqli deb hisoblagan hollarda taqsimlanmay qolgan yoki ortiqcha taqsimlangan summalarni ikkinchi usul hisoblangan ***proporsiya usulida*** Ishlab Chiqarish Jarayoni Nazorati, Tayyor Mahsulot Nazorati hamda Realizatsiya Qilingan Mahsulot tannarxi schetlariga taqsimlaydi (3.4-jadval):

3.4-jadval

Taqsimlanmay qolgan yoki ortiqcha taqsimlangan summalarni proporsiya usulida taqsimlash

Schetlar	*Yil oxirida proporsiyaga qadar schetlar balansi (p.b.)*	*Taqsimlanmay qolgan ustama xarajatlarni schetlarga olib borish proporsiyasi (p.b.)*	*Yil oxirida proporsiyadan keyin schetlar balansi*
Ishlab chiqarish jarayoni	125,000	125/1,25050,000=5,000	130,000
Tayyor mahsulotlar	500,000	500/1,25050,000=20,000	520,000
Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	625,000	625/1,25050,000 =25,000	650,000
Jami	1,250,000	50,000	1,300,000

Ushbu proporsiya ma’lumotlari asosida quyidagi jurnal yozuvlarini amalga oshiramiz:

Ishlab chiqarish jarayoni nazorati 5,000
Tayyor mahsulot nazorati 20,000
Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi 25,000
Taqsimlagan fabrika ustamasi 550,000
Fabrika bo‘lim ustamasi nazorati 600,000

Amaliyotda proporsiya usulini agarda zahiralarni baholash katta ahamiyat kasb etgan hollarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Buyurtmali kalkulyatsiyaning ikkita turi mavjud

1. haqiqiy kalkulyatsiya (actual absorpsion costing)
2. Me’yoriy (normal) kalkulsiya (Normal absorpsion costing)

T-ko‘rinishidagi schetlar misolida ikkita buyurtmali kalkulsiyaning mazmunini tushunib olish mumkin:

Haqiqiy kalkulyatsiya Ishlab chiqarish jarayoni		***Me’yoriy (normal) kalkulyatsiya Ishlab chiqarish jarayoni***	
(1) To‘g‘ridan-to‘g‘ri material ***(haqiqiy)***		(haqiqiy)	
(2) To‘g‘ridan-to‘g‘ri Mehnat ***(haqiqiy)***		***(haqiqiy)***	
(3) O‘zgaruvchan ustama ***(haqiqiy)***		***Tannarx taqsimlash bazasining haqiqiy miqdori budjet-lashtirilgan ustama stavkasi***	
(4) Doimiy ustam ***(haqiqiy)***			

Schetning tuzilishidan ko‘rinib turibdiki, haqiqiy kalkulyatsiyada to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari hamda o‘zgaruvchan va doimiy ustama ishlab chiqarish xarajatlari ham haqiqiy miqdori olinadi. Budjetlashtirilgan ustama xarajatlarni taqsimlash stavkalaridan foydalanilmaydi.

Yuqoridagi keltirilgan 8 ta operatsiya bo‘yicha amalga oshirilgan kalkulyatsiya buyurtmali ish kalkulyatsiyasining me’yoriy kalkulyatsiyasiga misol bo‘la oladi.

Me’yoriy kalkulyatsiyaga aynan shu tipdagi quyidagi operatsiyalar yozuvi orqali qo‘llanilishini yana bir bor ko‘rib o‘tamiz.

1-guruh operatsiyalar va ularning jurnal yozuvlari. Materiallar xaridi va ularning ishlatilishi.

(1) Materiallar	25,000	
To‘lanadigan schetlar		25,000
(2) Ishlab chiqarish jarayoni	20,000	
Materiallar		20,000
(3) Ustama xarajatlar	3,000	
Materiallar		3,000

2-guruh operatsiyalar va ularning jurnal yozuvlari. Mehnat xarajatlari hisoblanishi

(4) Ishlab chiqarish jarayoni	70,000	
Mehnat haqi		70,000
(5) Ustama xarajatlar	2,500	
Mehnat haqi		2,500

3-guruh operatsiyalar va ularning jurnal yozuvlari. Boshqa ustama ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanishi

(6) Ustama xarajatlar	5,500	
To‘lanadigan schetlar		1,000
Amortizatsiya		4,000
Avans sug‘urtasi		500

Ustama xarajatlarning budjetlashtirilgan stavkasi 0,5 p.b./meh.soatga teng. Haqiqiatda 21,000 mehnat soat ishladi. U holda taqsimlangan ustama xarajatlar 10,500 p.b. ni tashkil etadi (21,000 0,5).

(7) Ishlab chiqarish jarayoni	10,500	
Taqsimlangan ustama xarajatlar		10,500
(8) Taqsimlangan ustama xarajatlari	10,500	
Ustama xarajatlar		10,500

Haqiqatda amalga oshirilgan ustama xarajatlari summasini aniqlaymiz: (3), (5), (6) provodkalarda:

Fabrika ustama xarajatlari

(3) Ustama material	3,000	(8) Taqsimlandi	10,500
(5) Ustama mehnat	2,500	(9) Farqi (11,000-10,500)	500
(6) Boshqa ustama	5,500		
	11,000	Jami	*11,000*

5-guruh. Operatsiyalar fabrika ustama xarajatlarini yopish va tayyor mahsulotlar kirimi va realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi.

(9) Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	500	
Ustama xarajatlar		500
(10) Tayyor mahsulot	100,500	
Ishlab chiqarish jarayoni		100,500
(11) Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	100,500	
Tayyor mahsulot		100,500

Ushbu kalkulyatsiya metodidan ko‘rinib turibdiki, taqsimlanmay qolgan ustama xarajatlari 500 p.b.ni tashkil etmoqda va zudlik bilan yozish usuliga muvofiq realizatsiya qilingan mahsulot tannarxiga olib borilmoqda. Natijada, hisobot davrida jami realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi 101,000 p.b. (10,500+500) ga teng bo‘lmoqda.

Buyurtmali kalkulyatsiyaning yana bir muhim jihati uning keng qamrovligi, uzoq muddatli kontraktlar bo‘yicha bajariladigan ishlarda ham qo‘llanilishidir.

2. Kalkulyatsiya qilishning normativ usuli

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli xarajatlar hisobi normativ usulining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bu usulning afzalligi unda hisob-kitoblarning oddiyligidir. quyidagi sabablarni mazkur usulning kamchiliklariga kiritish mumkin:

—foydalanilgan zabiralar miqdori va ularga qo‘yilgan baholar nazorati uchun meyorlarning mavjud emasligi;

—chetlanisb sabablari, uning aybdorlari, joyini aniqlash va tahlil yetish imkoniyatiningyoqligi;

—ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar hisob-kitoblari faqat hisobot davri oxirida o‘tkazilishi mumkin va h.k. Normativ usulda normativ xarajatlar bilan haqiqiy xarajatlar o‘rtasida yuzaga keladigan farq chetlanish, deb ataladi.

Bir dona ishlab chiqarilgan mahsulotga to‘g‘ri keladigan normativ xarajatlar quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi:

—bevosita normativ moddiy xarajatlar;

—bevosita moddiy xarajatlarning normativ miqdori;

—normativ ish vaqti (bevosita mehnat baqi xarajatlari);

—ish vaqtining normalashtirilgan stavkasi;

—o‘zgaruvchan umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsienti;

—doimiy umumishlab chiqarish xarajatlarining normativ koeffitsienti.

Ushbu usulni qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega: har bir xarajat turi bo‘yicha norma va norraativlarning o‘rnatilganligi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar birligi tannarxining normativ kalkulyatsiyasini tfizish, amaldagi normalar va ulardan chetlanishlar bo‘yicha xarajatlar hisobini yuritish.

Faqat miqdor bo‘yicha normalardan foydalanilganda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

Hx q Fzx-(Mf±Mhx) bu yerda,

Mf — xarajatlarning normativ miqdori;

Mhx — haqiqiy xarajatlarning normadan chetga chiqishi.

Sarflangan resurslardan ehtiyojga muvofiq normada foydalanilganda quyidagi formulani qo‘Uash maqsadga muvofiq:

Hx q (Fzx ± Mxb) ■ *M* bu yerda,

Mxb — sarflangan resurslarning bahosi o‘zgarishi natijasida chetlanishlar.

Sarflangan resurslarning miqdori va bahosi bo‘yicha normalardan foydalanib, haqiqiy xarajatlar quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Hx\ q\ (Fzx \pm Mxb) \blacksquare (M_m \pm MJ)$$ bu yerda,

M — normativ miqdor;

M_h — haqiqiy xarajatlarning normadan chetga chiqishi (sarflangan resurslar miqdori o‘zgarishi sababli).

Ushbu usul normativ kalkulyatsiyalarni har bir buyum bo‘yicha majburiy dastlabki tuzilishini ko‘zda tutadi, ular hisobot davri boshida amal qiluvchi xarajatlar normalari asosida hisob-kitob qilinadi. Tashkiliy va ilmiy-texnik tadbirlarni tatbiq etish normalari va normativ xarajatlar yangilanishi bilan normativ kalkulyatsiyalar ham yangilanadi.

Normativ usulda xarajatlar normalar doirasida va ulardan chotl.ii lishlar bo‘yicha olib boriladi. Mavjud chetlanishlar haqidagi axborot mahsulot tannarxini sbakllantirish jarayonida tezkor tasir o‘tkazish maqsadida **boshqaruv** qarorlari qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu **usulda** mahsulotning haqiqiy normativ tannarxi har bir modda bo‘yicha normalardan chetlanishlarni qo‘shish yoki ayirish yoli bilan hisoblanadi.

Normativ usuldan muvaffaqiyatli foydalanish uchun quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

—resurslarning barcha turlari bo‘yicha normativ asosni aniqlash;

—normativ kalkulyatsiyalarni oldindan tuzish;

—xarajatlarningkelib chiqishjoylari, normalardanchetlanishlarning aybdorlari va **normalar** o‘zgarishi sabablari bo‘jacha ishlab chiqarish xarajatlarini qayd etuvchi birlamchi hujjatlarni ishlab chiqish;

- har bir ishlab chiqarish bo‘linmasi va butun korxona bo‘yicha mahsulot tannarxini shakllantirish ustidan o‘rnatilgan nazorat natijasi bo‘yicha tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish va xulosalar chiqarish bo‘yicha ishlarni tashki] etish.

Normativ usul ombor xo‘jaligini to‘g‘ri tashkil etishni ham talab qiladi, Bunda omborni og‘irlik o‘lchov jihozlari bilan taminlash, ishlab chiqarish bo‘linmalarini esa — suv, gaz bug‘, elektr quvatini istemol qilish uchun o‘lchov asboblari bilan taminlash, mahsulotlar nomenklaturasini ishlab chiqish, birlamchi hujjatlar va boshqa tashkiliy-texnik tadbirlarni sifatli rasmiylashtirishdan iborat.

Shunday qilib, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ usuli korxonalarda xarajatlar hisobi xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxini aniqroq hisoblashga imkon beradi, bundan tashqari bu usul xarajatlar bo‘yicha chetlanishlarni batafsil tahlil etib, aniqlangan chetlanishlar va ularning sabablarini aniqlashga imkon beradi. Demak, mazkur usul xarajatlarni operativ nazorat qilish va chetlanishlarni boshqarish uchun qulaydir.

Rejali (taxminiy) tannarx bo‘yicha xarajatlarni hisoblash usuli normativ usulga qaraganda ko‘proq qo‘shimcha afzalliklarga ega. Unda normativ hajmlarga nisbatan rejalashtirilgan hajmlarni chuqurroq asoslanganligi, taxminlar aniqligi nazorat samaradorligini oshirishni taminlaydi. U mavjud ishlab chiqarish resurslarini hisobga olgan holda materiallar, yoqilg‘i, energiya,

ish haqi va boshqa xarajatlarni progressiv normalaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Bu usulning asosiy afzalligi shundaki, unda rejali xarajatlar erishilgan natijaga emas, balki kelgusidagi taxminga asoslanadi. Texnologik jarayonga nisbatan xarajat hisobini jarayonli va buyurtmalar bo‘yicha tashkil etish mumkin.

3. Tugallanmagan kontraktlar bo‘yicha foyda hisob

Buyurtmali kalkulyatsiyaga kontraktlar bo‘yicha xarajatlarni kalkulyatsiya qilish ham kiradi.

Kontrakt bo‘yicha xarajatlar kalkulyatsiyasi – bu odatda ishlab chiqarilishi ko‘p vaqtini talab etadigan hamda katta birlikdagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan qo‘llaniladigan xarajatlarni buyurtmali kalkulyatsiya qilish tizimidir. Bunga misol qilib, yirik kontraktlarni bajaradigan tarmoqlar qurilishi, fuqoralik mashinasozligi va kemasozligini keltirish mumkin, qaysiki ularning ishni bajarish muddati bir qancha oylarni tashkil etadi va ko‘p hollarda ish qurilish ob’ektining joylashgan joyida (pudratchining ishlab chiqarish ob’ektlarida emas) bajariladi.

Kontraktning tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayonida har bir kontrakt kalkulyatsiya qilinadigan mahsulotning alohida birligi sifatida qaraladi. Shu bois, har bir kontrakt bo‘yicha xarajatlar bosh kitobda alohida schotda to‘planiladi. Asosiy xarajatlar elementlari bo‘lib:

1) Asosiy materiallar. Kontraktga kiruvchi materiallar maxsus xarid qilingan materiallar hamda pudratchining omborxonasidan chiqarilgan materiallar kiritiladi. Bunda kontrakt scheti hisobidagi xarajatlar debetlanadi.

***2) Ishlab chiqarish xodimlari mehnat haqi*.** Kontraktga olib boriladigan mehnat xarajatlari rejalar (smetalar) va hujjatlarni tuzish bilan bog‘liq ofis ishlari, bevosita zavodda ishlab chiqarish operatsiyalari va qurilish uchastkasidagi ishlar uchun to‘lanadigan mehnat haqini qamrab oladi. Kontrakt bo‘yicha qurilish joylaridagi barcha ishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat deb qaraladi. Ma’lumot manbai bo‘lib ish vaqti hisobi tabellari hisoblanadi.

***3) Boshqa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar*.** Material va mehnat xarajatlaridan tashqari katta salmoqqa ega bo‘lgan kontrakt bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar ham amal qiladi. Ushbu kategoriyaga ikkita asosiy modda kiritiladi, ya’ni *ishlab chiqarish jihozlari* va *subpudratchilar ishlari*.

-Ishlab chiqarish jihozlari - bu kontrakt uchun maxsus xarid qilingan instrumentlar, asbob-uskunalar, moslashma-qurilmalar yoki buyurtmani komplektatsiya qilish uchun asbob-uskunalar (masalan, mehmonxona qurilishida uning jihozlari)dan iborat. Bunday hollarda ushbu xarajatlarga kontrakt scheti debetlanadi. Agar ishlab chiqarish jihozlari boshqa kontraktdan olingan bo‘lsa, yangi kontrakt scheti asbob-uskunalarning qolgan amortizatsiya summasiga debetlanadi. Agar ishlab chiqarish uskunalari ijaraga olinsa kontrak scheti ijara to‘lovlari summasiga debetlanadi.

- *Subpudratchi bo‘yicha ishlar*. Qachon katta kontraktlar bo‘lsa, qaysiki ishlarning aniq aspektlari bo‘yicha mutaxassislar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa,

kompaniya subpudratchilarni yollashlari mumkin.Subpudratchilarning har qanday ishlari kontraktning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlari sifatida e’tirof etiladi.

4) Bilvosita xarajatlar. Ko‘pchilik pudratchilar o‘z xarajatlarini alohida kontraktlar bo‘yicha taqsimlashga harakat qilishmaydi. Agarda shunday xarajatlar taqsimlanganda ushbu summa salmoqli bo‘lgan hollarda amalga oshriladi.

Kontrakt uzoq davr maboynida bajariladi, lekin har bir hisobot davriga talluqli bo‘lgan foyda summasini aniqlash talab etiladi. Tugallanmagan kontraktlarda foydaning qaysi miqdori tan olinishiga oid qarorlar qabul qilinayotganda quyidagi aspektlar diqqatga olinishi kerak**:**

a) Oraliq foyda tan olinayotganda kontrakt muvoffaqiyatli bo‘lishi hamda yakunlanishi aniq ma’lum bo‘lishi kerak, ya’ni uning to‘xtab qolishi, moliyalashtirishda katta muammolarning chiqishi yoki boshqa uni davom ettirishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa sabablarining yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo‘lmasligi talab etiladi.

b) Har qanday foyda ushbu sanadagi ishning yakunlanish darajasiga proporsional darajada olinishi lozim.

s) Kontrakt bo‘yicha kutilayotgan umumiy yo‘qotishlarga nisbatan chora-tadbirlar tezkorlik bilan qabul qilinishi lozim.

Tugallanmagan kontrakt bo‘yicha foyda hisobi beshta pog‘ona (qadam)da bajariladi:

1) Kontrakt realizatsiyasining umumiy summasi aniqlanadi (o‘zgarmas narxdagi kontraktlarda esa bu kontrakt qiymati hisoblanadi). Bu ***ko‘rsatkichni (a)*** bilan belgilaymiz.

2) Kontraktni bajarish jarayonida yuzaga keladigan ***xarajatlarning umumiy miqdori hisoblanadi,*** *buni* ***(b***) bilan belgilab olamiz. Bu ko‘rsatkichni hisoblash uchun i) ushbu sanadagi haqiqiy amalga oshirilgan xarajatlar (buyurtmani hisobga olish kortochkasidan) plyus ii) kontrakni tugallash uchun zarur bo‘lgan kelgusida amalda oshiriladigan orientirli (mo‘ljaldagi) xarajatlar.

3) Kontrak bo‘yicha orientirli (mo‘ljaldagi) foyda summa aniqlanadi:

Mo‘ljaldagi foyda (V) = Kontrakt qiymati (A) – umumiy xarajatlar (B), ya’ni

$$V = A - B$$

4) Ushbu sanadagi e’tirof etiladigan foyda ushbu vaqt momentidagi bajarilgan ish hajmidan kelib chiqishi lozim. U quyidagicha aniqlanadi:

E’tirof etiladigan foyda (G) = Ushbu sanada ekspertlarning xulosasi yoki bajarilgan ishlar akti bo‘yicha bajarilgan ishlarning qiymati (ushlab qolinadigan summalardan tashqari) (D) / kontarkning umumiy summasi (A) x mo‘ljaldagi foyda (V), ya’ni

$$G = D / A \; V$$

BHXSga muvofiq kontraktning tugallanganlik % quyidagicha aniqlanadi:

Ushbu sanada sarflangan xarajatlar (B) / kontraktning umumiy baholangan tannarxi (Ye) = tugallanganlik foizi (Yo), ya'ni

$$Yo = B / Ye$$

5) 4-bosqichda aniqlangan tugallanmagan kontraklar bo‘yicha foyda jamg‘arilgan foyda summasini tavsiflaydi. Joriy davrda olingan foyda summasini aniqlash uchun ushbu sanadagi foyda summasidan o‘tgan yillarda aniqlangan foyda summasini ayirish talab etiladi. Buni quyidagi formulada ifodalash mumkin:

Joriy davrda e'tirof etilgan foyda (J) = jamg‘arilgan e'tirof etilgan foyda (G) – o‘tgan davrda e'tirof etilgan foyda (Z), ya'ni

$$J = G – Z$$

Xalqaro standartda shartnomalar bilan bog‘liq xarajatlar uch guruhga ajratilgan: (a) aniq shartnoma bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar; (b) kontrakt faoliyati bilan umumiy bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, qaysiki maxsus kontraktlarga taqsimlanadi; (s) boshqa xarajatlar, qaysiki shartnoma shartlariga ko‘ra buyurtmachi tomonidan qoplanilishi mumkin.

Xalqaro standartda quyidagi ikki holatda bajarilgan ishlar darajasini aks ettirmaydigan xarajatlar ko‘rsatilgan: (a) qurilish shartnomasi bo‘yicha kelgusi faoliyatga taalluqli bo‘lgan xarajatlar (masalan, keltirilgan, lekin ishlatilmagan qurilish materiallarining qiymati), (b) subpudratchilarga avans to‘lovlari.

Xalqar standartga tushuntirishlarda pudratchi tashkilot tomonidan shartnomani bajarish stadiyasini aniqlash tartibi ko‘rsatilgan. Unga muvofiq shartnomani bajarish stadiyasi hisobot sanasida qurilish shartnomasi bo‘yicha ishlarni bajarish uchun sarflangan xarajatlarni qurilish shartnomasi bo‘yicha oxirgi hisobdagi jami xarajatlarning miqdoriga nisbati orqali topiladi. Qurilish davomida kompaniyaning moliyaviy ma'lumotlari quyidagi jadvalda keltirilgan (3.5-jadval):

3.5-jadval

Qurilish davomida kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlari

	20X5	**20X6**	**20X7**
Shartnomada kelishilgan tushumning boshlang‘ich summasi	9.000	9.000	9.000
Farqi	-	200	200
Qurilish shartnomasi bo‘yicha tushumning umumiy summasi	9.000	9.200	9.200
Hisobot sanasiga qurilish shartnomasi bo‘yicha amalga oshirilgan xarajatlar	2.093	6.168	8.200
Qurilish shartnomasi bo‘yicha uni bajargunga qadar amalga oshiriladigan xarajatlar	5.957	2.032	-
Qurilish shartnomasi bo‘yicha umumiy hisobdagi xarajatlar	8.050	8.200	8.200
Hisobdagi foyda	950	1.000	1.000
Bajarish stadiyasi	26%	74%	100%

Ushbu jadvalda qurilish shartnomasidagi ishlar bajarilganga qadar foydani tan olish tartibi ko‘rsatilgan.

Buyurtmali kalkulyatsiyaning amaliyotda ko‘plab qo‘llanilish shakllari mavjud bo‘lib, lekin ularning barchasining asosida buyurtma-ishning tannarxni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisoblash yotadi.

7-MA’RUZA. Jarayonli usul bo‘yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish *(process costing)*

Reja:

1.Kalkulyatsiya qilishning oddiy usuli
2.Jarayonli kalkulyatsiyaning tavsifi.
3. Ekvivalent birliklarni hisoblash. Jarayonli kalkulyatsiyaning bosqichlari.
4. Boshqa jarayonlarga berish va tugallenmagan ishlab chiqarishni baholash.

1.Kalkulyatsiya qilishni oddiy usuli

Korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning normativ, jarayonli, buyurtmali, to‘liq tannarx, marjinal xarajatlarni umumlashtirish, xarajatlarni mutanosib taqsimlash, aralash kabi usullari mavjud.

Korxonalarda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari texnologiya va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni taqozo etadi. Hozirgi paytda korxonalarda oddiy, jarayonli (shu jumladan, bo‘linmali) va buyurtmali usullar xarajatlarni hisobga olish va tannarxni aniqlashning normativ usuli bilan bog‘lab olib borilmoqda.

2010-"Asosiy ishlab chiqarish" schetining har bir mahsulot turiga ochilgan analitik schetlarida xarajatlar belgilangan xarajat moddalari bo‘yicha hisobga olib boriladi.

Analitik schetlar mahsulotlarni qayta ishlashdagi texnologik jarayonlar bo‘yicha ochiladi.

Xarajatlarni umumlashtirish usuli (oddiy usul)da mahsulot tannarxi mahsulotning‘ alohida qismlari yoki ularni tayyorlash jarayoni bo‘yicha aniqlanadi. Bu usul, odatda, bir xil mahsulot ishlab chiqarilganda qo‘llaniladi.
qo‘shimcha mahsulotga xarajatlarni chiqarib tashlash usuli shundan iboratki, bunda ishlab chiqarishdan olinadigan mahsulotlar asosiy, qo‘shimcha va yondoshlarga bo‘linadi. Asosiy mahsulot tannarxini aniqlash uchun qo‘shimcha mahsulotlar va chiqindilar oldindan belgilangan baholar bo‘yicha umumiy xarajatlardan chiqarib tashlanadi. Xarajatlarni mutanosib taqsimlash usuli mahsulotlarning bir necha turini bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish sharti bilan ular tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun qo‘llaniladi. Ushbu usul asosan aralash mahsulotlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Bunda xarajatlar hisobi ishlab chiqariladigan mahsulotlar guruhi bo‘yicha tashkil etiladi, guruhlar ichidagi xarajatlar esa iqtisodiy jihatdan asoslangan, bazida mutanosib ravishda mahsulotlarning alohida turlariga taqsimlanadi.

Kalkulyatsiya qilishning aralash usuli yuqorida sanab o‘tilgan usullarning har birini alohida qo‘llash imkoni bo‘lmasa yoki mahsulot tannarxini asosli hisobga olish taminlansa, ularning bir nechtasini o‘zaro birikuvini ifodalaydi.

2. Jarayonli kalkulyatsiyaning tavsifi

Jarayonli kalkulyatsiya keng qo‘llaniladigan kalkulyatsiya turi hisoblanadi. Bu usulda mahsulot tannarxi mahsulot tayyorlashning har bir texnologik jarayonida shakllanadi. Buyum bir jarayondan boshqasiga ushbu jarayonda mahsulot to‘liq tayyorlanmasdan o‘tkazilmaydi. Tayyorlash jarayoni bilan parallel ravishda ishlab chiqarish xarajatlarini jamg‘arish jarayoni ham olib boriladi, ya’ni buyumlar tannarxning o‘sishi amalga oshadi. Har bir texnologik jarayon uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita xarajatlarni aniqlash zarur.

Xarajatlar xuddi kalkulyatsiyaning buyurtmali usulidagi kabi aniqlanadi. Bunda ham xarajatlar xom-ashyo va materiallar, mehnat xaqi hamda ishlab chiqarish ustama xarajatlari moddalari bo‘yicha olib boriladi. Bunda ko‘pgina xarajatlar buyurtmali metodda bilvosita, jarayoli usulda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarga aylanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish, jarayon ichida asbob-uskunalar amortizatsiyasi va boshq.

Uchta texnologik jarayondan iborat bo‘lgan to‘liq ishlab chiqarish sikli va ishlab chiqarish jarayonida tannarxning o‘zgarishini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz (3.5-jadval):

3.5-jadval

Ishlab chiqarish jarayonida tannarxning o‘zgarishi

<table>
<tr><td colspan="2">A Jarayon</td><td colspan="2">B Jarayon</td></tr>
<tr><td>Material 2500
Mehnat 1500
UX 1000
Jami 5000</td><td>B Jarayonga o‘tkazildi
3000

Jami 3000</td><td>A Jarayondan 3000
Material 2500
Mehnat 1500
UX 500
Jami 7500</td><td>V jarayonga o‘tkazildi
7500

Jami 7500</td></tr>
<tr><td colspan="2">V Jarayon</td><td colspan="2">Tayyor mahsulot</td></tr>
<tr><td>B Jarayondan o‘tkazildi 7500
Material 3200
Mehnat 2300
UX 1100
Jami 14100</td><td>Tayyor mahsulot omboriga o‘tkazildi
14100

Jami 14100</td><td>V jarayondan olindi
14100

Jami 14100</td><td></td></tr>
</table>

Jarayonli kalkulyatsiyani sxematik ko‘rinishda 5.2-chizmada aks ettirish mumkin.

Buyumlarning tayyorlik darajasini aniqlash ma’lum bir qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Masalan, materiallar qiymati jarayonning boshida mahsulotga o‘tkazilishi, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlar ushbu jarayonda o‘sib boradi. Shu bois, ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiyasini tannarxning har bir komponenti bo‘yicha tuzish zarur. Shu bois, boshqaruv hisobi maqsadlarida

mehnat haqi xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlarini summasini qamrab oluvchi ko‘rsatkichni ***qayta ishlash qiymati*** deb atash qabul qilingan.

Jarayonli kalkulyatsiyada ham buxgalteriya yozuvlari bir-biriga o‘xshaydi. Lekin bu tizimda Ishlab Chiqarish Jarayoni scheti bittadan ortiq bo‘ladi. Quyidagi buxgalteriya yozuvlarini ko‘rib chiqamiz:

1. Ishlab chiqarish jarayoni – A jarayon	30	
Material zahiralari		30
Yozuv: *To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallarning ishlatilishi*		
2. Ishlab chiqarish jarayoni – A jarayon	20	
Material zahiralari		2
Ish haqi bo‘yicha majburiyatlar		8
Jamg‘arilgan amortizatsiya, asbob-uskunalar		10
Yozuv: *Qayta ishlash xarajatlari, jumladan ta’minot, ishchilik va hisoblangan amortizatsiya*		
3. Ishlab chiqarish jarayoni – B jarayon	45	
Ishlab chiqarish jarayoni – A jarayon		45
Yozuv: Mahsulotning B-jarayonga o‘tkazilishi		
4. Ishlab chiqarish jarayoni – B jarayon	8	
Material zahiralari		1
Ish haqi bo‘yicha majburiyatlar		2
Jamg‘arilgan amortizatsiya, asbob-uskunalar		5
Yozuv: *Qayta ishlash xarajatlari hisoblanishi*		
5. Tayyor mahsulot	50	
Ishlab chiqarish jarayoni – B jarayon		50
Yozuv: *B jarayondan tayyor mahsulot olinishi*		

Yuqoridagi buxgalteriya yozuvlari asosida A va B ishlab chiqarish jarayonlari schetlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Ishlab chiqarish jarayoni –A jarayon

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	30	Keyingi jarayonga ishlov berish uchun boshqa bo‘limga o‘tkazildi	45
Qayta ishlash xarajatlari	20		
	50		
Oxirgi Qoldiq	***5***		

Ishlab chiqarish jarayoni – B jarayon

A-jarayondan o‘tkazilgan tannarx	45	Yakunlangan mahsulotning tannarxi tayyor mahsulotga o‘tkazildi	50
Qo‘shimcha qayta ishlash xarajatlari	8		
	53		
Oxirgi Qoldiq	***3***		

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, jarayonli kalkulyatsiyaning bosh masalalaridan biri har bir bo‘limdan chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini hamda bo‘limda qolgan mahsulotning tannarxini aniqlash hisoblanadi. Agarda identifikatsiyalanadigan summa jarayondagi yakunlangan mahsulot birliklariga oid bo‘lsa u holda hisoblash jarayoni onson kechadi. Lekin, zahiradagi birliklar qisman yakunlangan bo‘lsa u holda jarayonli kalkulyatsiya tizimi ishlov to‘liq

yakunlangan va boshqa jarayonga chiqarilgan mahsulotlar hamda ishlov to‘liq yakunlanmagan va tashqariga chiqarilmagan birliklarni ajratib olishi lozim bo‘ladi.

Masalan, Davis Company bir xil turdagi qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqaradi. Materiallar birinchi jarayonda kiritiladi. Tayyor bo‘lgan mahsulot ikkinchi bo‘limga o‘tkazilib unda mahsulotga tayyor ko‘rinishga ega bo‘lish uchun qo‘shimcha ishlov beriladi. Aprel oyi davomida birinchi bo‘lim 25,000 birlik mahsulot ishlab chiqardi. Boshlang‘ich qoldiq mavjud emas. Bo‘limning aprel oyidagi xarajatlari quyidagicha:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar	*82,500 p.b.*
Qayta ishlash xarajatlari	*42,500*
	125,000 p.b.

Tayyor bo‘lgan mahsulot birligining tannarxi teng bo‘ladi 125,000 p.b. / 25,000 = 5,00 p.b. Agar bu ko‘rsatkichni tannarxi elementlari bo‘yicha hisoblaydigan bo‘lsak, u holda qo‘yidagicha hisob-kitob amalga oshiriladi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar	*82,500 p.b. / 25,000*	*3,30 p.b.*
Qayta ishlash xarajatlari	*42,500 p.b. / 25,000*	*1,70*
		5,0 p.b.

3. Ekvivalent birliklarni hisoblash. Jarayonli kalkulyatsiyaning bosqichlari

Tasavvur qilamiz, aprel oyi davomida 25,000 birlik hammasi ham tayyor holda emas. Misol uchun, 5000 birlik mahsulot aprel oyining oxirigacha ushbu jarayonda tayyor holatga keltirilmadi. Barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar jarayonning boshida kiritilgan, faqat jarayon so‘ngida tayyor holatga keltirilmagan 5000 birlik mahsulotga atiga 25% miqdoridagina qayta ishlash xarajatlari amalga oshirilgan, ya’ni bu mahsulotlar ¼ qismgagina tayyor. Bunday holatlarda jarayondan tashqariga chiqarilgan mahsulotlar hamda hisobot oyining so‘ngida jarayonda qolgan mahsulot birliklarining tannarxi qancha? Bu zahiralar tannarxini aniqlashning bosh masalasidir. Shu bois, jarayonli kalkulyatsiya to‘liq yakunlangan va boshqa jarayonlarga chiqarilgan hamda qisman yakunlangan va jarayondan chiqarilmagan mahsulotlarning tannarxini farqlagan holda hisoblash yo‘llarini ko‘rsata olishi lozim bo‘ladi.

Ushbu masalalarga javob topishda jarayonli kalkulsiyani quyidagi beshta bosqichga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

- ***Birinchi bosqich***: Birliklarning jismoniy miqdorini hisoblab chiqish.
- ***Ikkinchi bosqich***: Xarajatlar moddalari bo‘yicha birlik tannarxini hisoblashda ekvivalent birliklar miqdorini aniqlash.
- ***Uchinchi bosqich***: Xarajat moddalari bo‘yicha hamda jami tannarxni Ishlab Chiqarish Jarayoni scheti ma’lumotlari bo‘yicha aniqlash.
- ***To‘rtinchi bosqich***: Ekvivalent birlik tannarxini hisoblash.

- ***Beshinchi bosqich***: Tannarxni to‘liq yakunlangan birliklar hamda Ishlab Chiqarish Jarayoni oxiridagi birliklarga taqsimlash.

Birinchi va ikkinchi bosqichlardagi amalga oshiriladigan jarayonlar 3.6-jadvalda keltirilgan.

3.6-jadval

Birliklarning jismoniy miqdori va ekvivalent birlik hisobi

Mahsulot oqimi	1-bosqich. Jismoniy birliklar	2-bosqich. Ekvivalent birlik	
		To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	Qayta ishlash xarajatlari
Boshlangan va yakunlangan	20,000	20,000	20,000
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida	5,000 (25%)	5,000	1,250
Hisoblash uchun asos bo‘ladigan birliklar	25,000	25,000	21,250

Bu ishlab chiqarish jarayoni oxirida mavjud bo‘lgan birliklarga ishlov berilganlik darajasini tavsiflaydi.

5,000 jismoniy birlik x 25% qayta ishlash xarajatlarining amalga oshirilgan qismi.

Birliklarning jismoniy va ekvivalent birliklari Ushbu jadvalda birinchi bosqichida mahsulotlar jismoniy birliklari harakati ko‘rsatildi. Aprel oyida ishlab chiqarilgan mahsulot birligi qanchaga teng? 25,000 birlik bo‘lmaydi. Chunki, 20,000 birlik to‘liq yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan, 5,000 birlik esa qisman yakunlangan. Qisman yakunlangan birliklarni to‘liq yakunlangan birliklarga tenglashtirib bo‘lmaydi. Shu bois, ishlab chiqarilgan mahsulot birligini jismoniy birliklar bilan emas, balki ekvivalent birliklar bilan o‘lchash maqsadga muvofiqdir.

Boshqacha talqin qilinadigan bo‘lsa bu holatni quyidagicha talqin qilishimiz mumkin. Ishlab chiqarishning uzluksizligi texnologik jarayonlarni chuqurroq ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Hisobot davrining boshida va oxirida yarim fabrikantlar, ya’ni to‘liq ishlab chiqarish siklini o‘tamagan buyumlar amal qiladi. Bunday buyumlarning qiymati tayyor mahsulotning qiymatidan kichik. Shu bois, mahsulot birligining qiymatini umumiy qiymatni ishlab chiqarish jarayonidagi mahsulot birligiga bo‘lish orqali topish mumkin bo‘lmay qoladi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan birliklarni tayyor mahsulot ekvivalentiga aylantirish kerak. Masalan, kiritilgan 10,000 birlik buyumdan faqat 7000 tasi tayyor, qolgan 3000 tasi 1/3 qismga tayyor. Demak, 3000 ta yarim fabrikant 1000 dona tayyor mahsulotga ekvivalentli hisoblanadi. Demak, mahsulot birligi tannarxini hisoblashda tayyor mahsulot miqdori 8000 birlik olinadi.

Demak***, Ekvivalent birliklar*** deganda, bu ushbu jarayonda to‘liq yakunlangan hamda qisman yakunlangan birliklarning to‘liq mahsulot birligiga aynaltirilganda hisobga olinaligan birliklari to‘plami tushuniladi. 3.6-jadvalda 2-qadamda ko‘rsatilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar uchun ekvivalent birlik 25,000 birlik, qayta ishlash xarajatlari uchun ekvivalent birlik 21,250 birlik ekanligi hisoblangan. Demak, qayta ishlash xarajatlarining to‘rtdan bir qismi ishlab chiqarish jarayonining oxirgi qoldig‘iga qo‘shilmoqda.

3.7-jadvalda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisoboti keltirilgan. Bu hisobot 3, 4 va 5-bosqichlarni o‘zida aks ettirmoqda.

3.7-jadval

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisoboti

Qadamlar	Tannarx	Jami	Shu jumladan	
			To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	Qayta ishlash xarajatlari
3-qadam	Jami xarajatlar Ekvivalent birligi	125,000 p.b.	82,500 p.b. 25,000	42,500 p.b. 21,250
4-qadam	Ekvivalent birlik tannarxi		3,30	2,00
5-qadam	Tannarxni taqsimlash: Yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan (20,000 birlik)	106,000 p.b.	(20,000 5,30 p.b.)	
	Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida (5,000 birlik): To‘g‘ridan-to‘g‘ri material Qayta ishlash xarajatlari Jami ishlab chiqarish jarayoni oxirida qoldiq	 16,500 p.b. 2,500 19,000 p.b.	 5000 3,30	 1,250 2
	Jami tannarx	125,000 p.b.		

- Evivalent birligi tannarxi = 3,30 + 2,00 = 5,30 p.b.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 4-qadamda mahsulot ekvivalent birligining tannarxi aniqlangan. Bu ko‘rsatkich 5,30 p.b.dan tashkil topgan (3,30 + 2,00). 5-qadamda esa ishlab chiqarilgan, ya’ni to‘liq yakunlangan va boshqa jarayonga yoki tayyor mahsulotga o‘tkazilgan mahsulotlarning tannarxi 20,000 5,30 = 106,000 p.b. ga tengligi aniqlangan. Davr oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish ko‘rsatkichi xarajatlarning ikkita elementi bo‘yicha alohida hisoblangan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar bo‘yicha 5,000 birlik 3,30 p.b. = 16,500 p.b.ga teng. Qayta ishlash xarajatlari bo‘yicha esa 1,250 2 = 2,500 p.b. ni tashkil etmoqda. 5000 birlik 25%ga tayyor bo‘lganligi uchun tayyor mahsulot sifatida ekvivalenti 5000 birlik 25 % = 1,250 birlik bo‘ladi. Ikkita element bo‘yicha tannarxi summasi 19,000 p.b. bo‘lmoqda. Bu aprel oyining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ini beradi.

Ushbu operatsiyalarning jurnal yozuvlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Ishlab chiqarish jarayoni – A-jarayon *82,500*
Materiallar *82,500*
Yozuv: *Aprel oyida materiallar ishlab chiqarishga chiqarildi.*

2. Ishlab chiqarish jarayoni – A-jarayon *42,500*
Turli xil schotlar *42,500*
Yozuv: *Qayta ishlash xarajatlari: ta’minot, mehnat, amortizatsiya xarajatlari*

3. Ishlab chiqarish jarayoni – B-jarayon *106,000*
Ishlab chiqarish jarayoni – A-jarayon *106,000*
Yozuv: *Aprel oyida A-jarayonda to‘liq tugallanib B-jarayonga o‘tkazilgan birliklar tannarxi*

Ishlab chiqarish jarayoni scheti T ko‘rinishda quyidagicha bo‘ladi:

Ishlab chiqarish jarayoni scheti – A-jarayon

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	82,500	3. B-jarayonga o‘tkazilgan	106,000
2. Qayta ishlash xarajatlari	42,500		
Jami tannarxi	***125,000***		
30 apr. Balans	***19,000***		

Jarayonli kalkulyatsiyani to‘laroq tushunib olish uchun yuqoridagiga o‘xshash misollarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini boshqacha ko‘rinishdagi jadvallar yordamida tuzishni chuqurroq ko‘rib o‘taylik. Ushbu jadval uchta qismdan iborat bo‘lishi mumkin. Birinchi qismida ishlab chiqarishga kiritilgan mahsulot birligi, ishlab chiqarishdan tashqariga chiqarilgan birlik hamda ishlab chiqarishi tugallanmagan birlik miqdori, ya’ni birliklarning jismoniy harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar beriladi. Ikkinchi qismida hisobot davrida ishlab chiqarish tannarxi va mahsulot birligining tannarxi, uchinchi qismida esa ekvivalent birligi hisobi ko‘rsatiladi (3.8-jadval):

3.8-jadval

Grubbs Manufacturing Company
Ishlab chiqarayotgan mahsulot tannarxi to‘g‘risida hisobot

Hisobga olinadigan birliklar	***Birlik***	***Hisobga olingan birlik***	***Birlik***
Hisobot davrida ishlab chiqarishga olingan birlik	11,000	Ishlab chiqarishdan tashqariga chiqarilgan birlik	10,000
		Ishlab chiqarish jarayonidagi oxirgi qoldiq	1,000
Jami hisobga olinadigan birlik	**11,000**		**11,000**

Hisobga olinadigan tannarx	***Tannarx***	***Ekvivalent birlik***	***Birlik tannarxi***
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	$13,750	11,000	$1,25
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat	8,560	10,700	0,80
Ustama ishlab chiqarish	12,840	10,700	1,20

xarajatlari			
Hisobga olinadigan jami tannarx	**$35,150**		**$3,25**

Hisobga olingan tannarx	*I-ustun*	*II-ustun*	*III-ustun*	*IV-ustun*
Jarayondan tashqariga chiqarilgan birlik	10,000 birlik	$ 3,25		$32,500
Ishlab chiqarish jarayoni oxirida zahiralar:				
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	1,000 bir.	1,25	$1,250	
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat	700 bir.	0.80	560	
Ustama ishlab chiqarish xarajatlari	700 bir.	1.20	840	2,650
Hisobga olingan jami tannarx				**$35,150**

	Material	***Qayta ishlash xarajatlari***
Hisobot davrida ishlab chiqarishga olingan va yakunlangan birliklar	10,000	10,000
Ishlab chiqarish jarayoni yakunidagi material: 1,000 birlik 100% material qo‘shilishini hisobga olib	1,000	
Ishlab chiqarish jarayoni yakunida qayta ishlash: 1,000 birlik 70% qayta ishlangan		700
Hisobot davrida ishlab chiqarilgan ekvivalent birlik	***11,000***	***10,700***

Ishlab chiqarish tannarxi, mahsulot birligining tannarxi hamda ekvivalent birligini hisoblash tartibini yana qo‘layroq boshqacha jadval ko‘rinishida ko‘rib o‘taylik.

A jarayon to‘g‘risidagi axborotlar:

Hisobot davrining boshida tugallanmagan ishlab chiqarish	–
A jarayonga kiritilgan mahsulot birligi, birlik	16,000
Qayta ishlash yakunlangan va B jarayonga o‘tkazilgan mahsulot, birlik	11,000
Hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish, birlik	5,000
Ushbu darda material xarajatlari, p.b.	90,000
Davrda qayta ishlash qiymati, p.b.	60,000

Material xarajatlari jarayonning boshida amalga oshiriladi, qayta ishlash qiymati jarayon davomida tekis qo‘shilib boradi. Tugallanmagan ishlab chiqarishning tayyorlik darajasi 50% baholanmoqda. Aniqlash talab etiladi B

jarayonga o‘tkazilgan mahsulot tannarxi va hisobot davrining oxiridagi tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini hisoblash.

Talab qilinadigan hisob-kitoblar natijalarini quyidagi jadvalda rasmiylashtiramiz (3.9-jadval):

3.9-jadval

Mahsulot tannarxi to‘g‘risidagi hisobot

1. ***Mahsulot birligi tannarxining hisobi***:

Xarajatlar elementlari	***Umumiy tannarx, p.b.***	***Tayyor mahsulot, birlik***	***Jarayon yakunida qoldiq ekvivalent birligi***	***Ekvivalent birligi summasi***	***Birlik tannarxi, p.b.***
Materiallar	90000	11000	5000	16000	5.6250
Qayta ishlash qiymati	60000	11000	2500 (5000x1/2)	13500	4.4445
	150000			*29500*	*10.0695*

2. ***Jarayon yakunida ishlab chiqarishi tugallanmagan birliklar tannarxi***:

Materiallarning qiymati (5000 birlik 5.6250) 28125

Qayta ishlash qiymati (2500 bir. 4.4445) 11111 39236

3. Jarayonda yakunlangan tayyor mahsulot tannarxi

Tayyor mahsulot (11000 x 10.0695) 110764

A Jarayon bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish schoti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.10-jadval):

3.10-jadval

A-jarayon bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish jarayoni

	Summa		***Summa***
Materiallar Qayta ishlash xarajatlari	90000 60000	Mahsulot tannarxi Jarayon yakunida tugallanmagan birlik tannarxi	110770 39236
Jami	***150000***	***Jami***	***150000***

Oldingi A jrayonning tannarxi B jarayonda alohida element sifatida qaraladi.

Ishlab chiqarish jarayoni yo‘qotishlardan holi emas. Suyuqliklarning bo‘g‘lanishi, materiallarni ishlatishdagi yo‘qotishlar, ishlab chiqarishdagi brak va boshqa yo‘qotishlarni kiritish mumkin. Ishlab chiqarish to‘g‘ri tashkil etilgan hollarda ularni minimumga keltirish mumkin va bu normativ yo‘qotishlar deb ataladi (nazorat qilib bo‘lmaydigan). Qochib bo‘lmaydigan xarajatlardan tashqari ishlab chiqarishning normal tashkil etilishida yuzaga kelmasdan, balki texnologik

jarayonlardagi nuqsonlar e’vaziga yuzaga kelgan yo‘qotishlar ham mavjudir. Bunday yo‘qotishlar normadan yuqori yo‘qotishlar yoki nazorat qilinadigan xarajatlar deb ataladi.

Normativ yo‘qotishlar mahsulotlarning tannarxiga olib boriladi, normativdan yuqori yo‘qotishlar esa ishlab chiqarish davrining oxiridagi foyda va zararlar schetidan hisobdan chiqariladi.

1-misol. Ishlab chiqarish jarayonida 1300 litr, qiymati 13000 p.b bo‘lgan suyuqlik ishlatiladi. Normativ yo‘qotish 20%, bu 260 litrni tashkil etadi. Mahsulot birligi tannarxini aniqlash talab etiladi.

Tayyor mahsulotning tannarxi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Ishlab chiqarish xarajatlari} \quad 13000\ p.b}{\text{Kutilayotgan mahsulot chiqishi} \quad 1300\ l\text{-}260l.} = 13000/1040 = 12.5\ p.b./l$$

Agar ishlab chiqarish jarayonida nuqsonlarga yo‘l qo‘yilsa ushbu yo‘qotishlar ko‘payishi mumkin.

2-misol. 1040 l kutilayotgan mahsulot chiqishida 950 l mahsulot olindi. Bunda normadan ortiqcha yo‘qotish 90 l.ni tashkil etmoqda. Tayyor mahsulot tannarxini aniqlash talab etiladi.

Mahsulot birligi tannarxi bunda o‘zgarmaydi, ya’ni 1 misolda aniqlangan 12.5 p.b/l. ni tashkil etadi. Ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari quyidagicha taqsimlanadi:

Tayyor mahsulot (950 l. 12.5 p.b)	*11875 p.b*
Normadan ortiqcha xarajatlar (90 l.12.5 p.b)	*1125 p.b*
	13000 p.b

Tugallanmagan ishlab chiqarish scheti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.11-jadval).

3.11-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarish							
	Miqdori	Bahosi	Summa		Miqdori	Bahosi	Summa
Kiritilayotgan resurslarga xarajatlar	1300	10	13000	Normativ yo‘qotish Normativdan yuqori yo‘qotish Mahsulot tannarxi	260 90 950	 12.5 12.5	 1125 11875
Jami	***1300***		***13000***	***Jami***	***1300***		***13000***

Normativ yo‘qotishlar brak mahsulotlar bo‘lganda ularning hisobida shuni inobatga olish kerakki brak mahsulotlarning bir qismi realizatsiya qilinishi mumkin. Brak mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlarni tannarx schetining kreditida hisobga olish lozim.

Masalan, texnologik jarayonda 3500 ta, qiymati 15000 p.b. bo‘lgan tayyorlovga mo‘ljallangan buyumdan 3000 ta mahsulot olindi. 500 ta brak mahsulotni 1.5 p.b. dan realizatsiya qilish mumkin. U holda tannarxni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari (normativ yo‘qotishlar realizatsiyasi qiymatidan tashqari)
Kutilayotgan mahsulot chiqishi

= 15000 p.b. – (500 x 1.5 p.b.) / (3500-500) = 14250/3000 = 4.75 p.b.

Ushbu jarayonning tugallanmagan ishlab chiqarish scheti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.11-jadval):

3.11-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarish							
	Miqdori	Bahosi	Summasi		Miqdori	Bahosi	Summasi
Kiritilayotgan resurslarga xarajatlar	3500	4.30	15000	Normativ brak Mahsulot tannarxi	500 3000	1.5 4.75	750 14250
Jami	***3500***		***15000***	***Jami***	***3500***		***5000***

Normativdan ortiqcha braklar yuzaga kelganda, (masalan 100 birlik) uni sotishdan olingan daromad rejalashtirilmagan daromad bo‘lib, uni mahsulot birligi tannarxining kamayishiga olib borish mumkin bo‘lmaydi. Bu daromad alohida “Normadan yuqori yo‘qotishlar” schetining kreditida ko‘rsatiladi. Ushbu schetlarning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi (3.12-jadval):

3.12-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarish							
	Miqdori	***Bahosi***	***Summasi***		***Miqdori***	***Bahosi***	***Summasi***
Kiritilayotgan resurslarga xarajatlar	3500	4.30	15000	Normativ brak Normadan yuqori yo‘qotishlar Mahsulot tannarxi	500 100 2900	1.5 4.75 4.75	750 475 13775
Jami	***3500***		***15000***	***Jami***	***3500***		***15000***

Normadan yuqori yo‘qotishlar scheti							
	Miqdori	***Bahosi***	***Summasi***		***Miqdori***	***Bahosi***	***Summasi***
Tugallanmagan ishlab chiqarish	100	4.75	475	Brakni sotishdan olingan tushum Foyda va zararlar scheti	100	1.5	150 325
Jami	***100***		***475***	***Jami***	***100***		***475***

Agar haqiqiy yo‘qotishlar kutilayotgan yo‘qotishlardan kam bo‘lsa, normadan ortiqcha daromad yuzaga keladi, qaysiki normadan ortiq yo‘qotishlar kabi hisoblanadi, lekin tannarxni hisoblashda hisobdan chiqarilmaydi.

Masalan, navbatdagi jarayonga 1500 birlik umumiy qiymati 1500 p.b. miqdorida mahsulot o‘tkazildi. Normativ yo‘qotish boshlang‘ich qoldig‘iga nisbatan 1/6 tashkil qiladi, ya’ni 250 birlik, lekin haqiqatdagi yo‘qotish 150 birlikni tashkil etmoqda.

1 birlikning tannarxi = Ishlab chiqarish tannarxi = Mahsulotning kutilayotgan chiqishi

=1500 / (1500-250) =1500 / 1250=1.2 p.b

Tugallanmagan ishlab chiqarish scheti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.13-jadval):

3.13-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarish							
	Miqdori	***Bahosi***	***Summasi***		***Miqdori***	***Bahosi***	***Summasi***
Kiritilayotgan resurslarga xarajatlar Normadan yuqori daromad	1500 100	1.0 1.2	1500 120	Normativ brak Mahsulot tannarxi	250 1350	1.2	1620
Jami	***1500***		***1620***	***Jami***	***1500***		***1620***

Ushbu qoidalar umume’tirof etilgan qoidalar bo‘lib mahsulot tannarxini hisobga olishda inobatga olinishi talab etiladi.

4. Boshqa jarayonlarga berish va tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash

Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini aniqlashda ushbu davrda mahsulot birligi tannarxini kalkulyatsiya qilish uchun uning boshlang‘ich zahirasini joriy hisobot davriga taqsimlashni bajarish uchun yo‘l qo‘yilishlardan foydalaniladi. Ikkita muqobil usuldan foydalaniladi:

1. ***O‘rtacha salmoqli usul*** – bunda hisobot davrining boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish ishlab chiqarishga to‘liq jalb qilingan va tayyor mahsulot tannarxi hamda hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisoblashga kiritilgan deb qaraladi.
2. ***FIFO metodi*** – bunda hisobot davrining boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish birinchi qayta ishlangan va hisobot davrida tugallangan mahsulot birligi hisoblanadi.

Ushbu usullarning qo‘llanilishini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz (Upravlencheskiy uchet I. Tashkent 2003g. 127-128 b.).

Misol: Kompaniya ikkita jarayonni amalga oshiradi (X va U). Materiallar dastavall X jarayoniga kiritiladi, qo‘shimcha materiallar esa U jarayonida qo‘shiladi. Qayta ishlash qiymati ikkala jarayonda ham bir tekis qo‘shilib boriladi. Mahsulot birligi X jarayondan U jarayonga to‘g‘ridan – to‘g‘ri o‘tkaziladi. U jarayonidan esa tayyor mahsulot olinib omborga topshiriladi. Ushbu davr ma’lumotlari quyidagicha (3.14-jadval):

3.14-jadval

X va U jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

	X jarayon	***U jarayon***
Hisobot davrining boshida tugallanmagan ishlab chiqarish	6000 birlik, 3/5 tayyor holda, 24000 p.b. materiallar hamda qayta ishlash qiymati 15300 p.b.	2000 birlik, 4/5 tayyor holda, o‘tgan davr tannarxi 30600 p.b., materiallar 4000 p.b. va qayta ishlash qiymati 12800 p.b.
Ushbu davrda tayyorlanishi boshlangan mahsulot birligi	16000	18000
Hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish, birlik	4000 (3/4 tayyor holda)	8000 (1/2 tayyor holda)
Ushbu davrda qo‘shilgan materiallar	64000 p.b.	20 000 p.b.
Ushbu davrda qo‘shilgan qayta ishlash qiymati	75000 p.b.	86400 p.b.

Birinchi bosqichda hisobot davrida qayta ishlashi yakunlangan mahsulot miqdori birligini aniqlaymiz(3.15-jadval):

3.15-jadval

Qayta ishlashi yakunlangan mahsulot miqdori

	X jarayon	U jarayon
Hisobot davrining boshida tugallanmagan ishlab chiqarish, birlik	6000	2000
Hisobot davrida ishlab chiqarishi boshlangan mahsulotlar birligi	16000	18000
Hisobot davrida jami jalb qilingan birliklar	22000	20000
Minus: Hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish, birlik	4000	8000
Tayyor mahsulot, birlik	18000	12000

O‘rtacha salmoqli usul. Ushbu metodda X jarayoni uchun mahsulot birligi tannarxining hisobi quyidagicha aniqlanadi (3.16-jadval):

3.16-jadval

Mahsulot tannarxi hisobi

1. Mahsulot birligining tannarxi:

Xarajatlar elementlari	***TICh (d/b), p.b.***	***Joriy xarajatlar, p.b.***	***Umumiy tannarx, p.b.***	***Tayyor mahsulot, birlik***	***TICh (d/o) ekv. birligi***	***Ekv. birlik summasi***	***Mahsulot birligi tannarx, p.b.***
Materiallar	24000	64000	88000	18000	4000	22000	4.0
Qayta ishlash qiymati	15300	75000	90300	18000	3000 (4000 x ¾)	21000	4.30

	39300	***139000***	***178300***				***8.30***

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxi
Material qiymati (4000 bir x 4 p.b.) 16000 p.b.
Qayta ishlash qiymati (3000 bir. 4.30 p.b.) 12900 p.b. 28900
3. Tayyor mahsulot tannarxi (18000 bir x 8.30 p.b.) 149400
178300

X Jarayonning tagallanmagan ishlab chiqarish scheti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.17-jadval):

3.17-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarish scheti

TICh (d/b) 39300 Materiallar 64000 Qayta ishlash qiymati 75000	U jarayoniga o‘tkazilgan mahsulot 149400 TICh(d/o) 28900
178300 ***TICh (d/o) 28900***	***178300***

Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, hisobot davrining boshida tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari summasi joriy davr xarajatlari elementlariga qo‘shiladi va shu summa elementlar bo‘yicha hisobot davrida tayyor mahsulotlar summasini hisoblashda va xuddi shuningdek, hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishni baholashda foydalaniladi.

U jarayonda xarajatlar elementlari uchta bo‘ladi. X jarayondan qiymati alohida xarajat elementi sifatida qaraladi.

U jarayon uchun mahsulot birligi tannarxini hisoblaymiz (3.18-jadval):

3.18-jadval

1**. Mahsulot birligi tannarxining hisobi**

Xarajatlar elementlari	***TICh (d/b), p.b.***	***Joriy xarajatlar, p.b.***	***Umumiy tannarx, p.b.***	***TM, birlik***	***TICh (d/o) ekv. birligi***	***Ekv. birlik summasi***	***Mahsulot birligi tannarxi, p.b.***
Oldingi jarayon qiymati	30600	149400	180000	12000	8000	20000	9.0
Materiallar	4000	20000	24000	12000		12000	2.0
Qayta ishlash qiymati	12800	86400	99200	12000	4000 (8000 x 1/2)	16000	6.2
	47400	***255800***	***303200***				***17.20***

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxi (d/o)
O‘tgan jarayon qiymati (8000 bir. x 9 p.b.) 72000
Material qiymati yo‘q
Qayta ishlash qiymati (4000 bir. x 6.2 p.b.) 24800 96800
3. ***Tayyor mahsulot tannarxi*** (12 000 bir. x 17.20 p.b.) 206400
303200

U jarayonning tugallanmagan ishlab chiqarish scheti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.19-jadval):

3.19-Jadval

U jarayonining tugallanmagan ishlab chiqarish scheti

TICh (d/b)	***47400***	TM	206400
X jarayonidan olindi	149400	TICh (d/o)	96800
Materiallar	20000		
QI qiymati	86400		
303200		***303200***	
TICh (d/o)	***96800***		

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ma’lumki, oldingi jarayonning xarajatlari hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobga olishda to‘liq ishlab chiqarilgan mahsulotga qo‘shilgan deb tasavvur qilinayapdi.

FIFO usuli. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, hisobot davrining boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish joriy davrda qayta ishlanishi, yakunlanishi va tayyor mahsulot tannarxiga kiritilishi lozim. Davr boshidagi tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati tayyor mahsulotga alohida olib boriladi, mahsulot tannarxi esa joriy davr xarajatlariga asoslanadi.

Yuqoridagi misol ma’lumotlari bo‘yicha FIFO usulining qo‘llanilishini ko‘rib o‘taylik.

X jarayoni bo‘yicha (3.20-jadval):

3.20-jadval

FIFO usulida mahsulot tannarxi hisobi

1. Mahsulot birligining tannarxi

Xarajatlar elementlari	***Joriy xarajatlar, p.b.***	***TM minus TICh (d/b) ekv birligi***	***TICh ekv birligi (d/o)***	***Ekv. birligi summasi,***	***Birlik tannarxi, p.b.***
Materiallar	64000	12000 (18000-6000)	4000	16000	4.00
Qayta ishlash qiymati	75000	14400 (18000-3600)	3000 (4000 ¾)	17400	4.31
	139000		***178300***		***8.31***

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxi (d/o):

Materiallar qiymati (4000 bir. x 4.00 p.b.) 16000

Qayta ishlash qiymati (3000 bir. x 4.31 p.b.) 12931 28931

3. Tayyor mahsulot tannarxi:

Tugallanmagan ishlab chiqarish (d/b) (24000+15300) 39300

Material qiymati (12000 bir. x 4 p.b.) 48000

Qayta ishlash qiymati (14400 bir. x 4.31 p.b.) 62069 149369

178300

U jarayon bo‘yicha (3.21-jadval):

3.21-jadval

FIFO usulida mahsulot tannarxi hisobi

1. Mahsulot birligining tannarxi hisobi

Xarajatlar elementlari	*Joriy xarajatlar*	*TM ekv. birligi minus TICh (d\b)*	*TICh Ekv. birligi (d\o)*	*Ekv. birligi, birlik*	*Birlik tannarxi, p.b.*
X jarayonning tannarxi	149369	10000 (12000-2000	8000	18000	8.2983
Materiallar	20000	10000		10000	2.00
Qayta ishlash qiymati	86400	10400 (12000-1600) (2000 4/5=1600)	4000 (80001/2)	14400	6.00
Jami	255769				16.2983

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxi (d/o)

O‘tgan jarayon qiymati (8000 bir. x 8.2983)	63386	
Materiallar qiymati	yo‘q	
Qayta ishlash qiymati (4000 bir. x 6.00 p.b)	24000	90386

3. Tayyor mahsulot tannarxi:

Tugallanmagan ishlab chiqarish (d/b) (30600+4000+12800)	47400	
O‘tgan jarayon qiymati (10000 b.x 8.2983)	82983	
Materiallar qiymati (10000 b. x 2.00)	20000	
Qayta ishlash qiymati (10400 b.x 6.00)	62400	212783
303169		

Solishtirishlardan ko‘rinib turibdiki, agar narxlarning tebranishi unchalik katta bo‘lmasa o‘rtacha salmoqli va FIFO usuli bir xil natijani beradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, normativ yo‘qotishlar mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha xarajat sifatida qaralishi lozim. Normativ yo‘qotishlarni aks ettirish uchun ularni tayyor mahsulot tannarxiga qo‘shish yoki bir qism yo‘qotishlarni hisobot davrining oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxiga olib borish kerak bo‘ladi. Buning uchun biz yo‘qotishlar ishlab chiqarishning qaysi bosqichida yuz berganligini bilishimiz kerak bo‘ladi.

Agar normativ yo‘qotishlar jarayonning oxiriga yaqin yuz bersa va bu nazorat qilish orqali aniqlansa, yo‘qotishlarning qiymati faqat nazoratdan o‘tkazilgan mahsulotlarning tannarxiga olib borilishi kerak bo‘ladi.

Misol. Davrning boshida tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralariga ega bo‘lmagan bo‘lim ishlab chiqarish jarayoniga 1000 birlikda mahsulot kiritadi: 600 birligi qayta ishlash jarayoni tugatilgan, 300 birligi yarimiga tugallangan va 100 birlik brak qilingan (barcha yo‘qotishlar normativ). Yo‘qotishlar ishlab chiqarishning tugallanish stadiyasida aniqlandi. Nazorat tugallanish stadiyasida amalga oshirilgan. Materiallarning qiymati 5000 dollar, qayta ishlash qiymati 3400 dollar. Hisob-kitoblarni quyidagi jadvalda rasmiylashtiramiz (3.22-jadval)

3.22-jadval

Mahsulot tannarxi hisobi

1. Mahsulot birligi tannarxini hisoblash

Xarajatlarning elementlari	***Umumiy tannarxi, p.b.***	***TM, birlik***	***Normativ yo‘qotishlar, birlik***	***TIChekv. bir (d/o)***	***Ekv. birligi summasi***	***Birlik tannarxi, p.b.***
Materiallar	5000	600	100	300	1000	5.0
Qayta ishlash qiymati	3400	600	100	150 (300 x ½)	850	4.0
	8400					***9.0***

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxi (d/o):

Materiallar (300 bir. x 5 p.b.) 1500

Qayta ishlash qiymati (150 bir x 4 p.b.) 600 2100

3. Tayyor mahsulot (600 bir x 9 p.b.) 5400

plyus normativ yo‘qotishlar (100 b.x 9 p.b.) 900 6300

8400

Endi olib ko‘raylik, yo‘qotishlar ishlab chiqarish 50 % yakunlanish bosqichiga yetganda aniqlandi. Mahsulot tannarxini hisoblash tartibi quyidagicha bo‘ladi (3.23-jadval):

3.23-jadval

Mahsulot tannarxi hisobi

1. Mahsulot birligi tannarxini hisoblash

Xarajatlarning elementlari	***Umumiy tannarxi, p.b.***	***TM, birlik***	***Normativ yo‘qotishlar, birlik***	***TIChekv. bir (d/o)***	***Ekv. birligi summasi***	***Birlik tannarxi, p.b.***
Materiallar	5000	600	100	300	1000	5.0
Qayta ishlash qiymati	3400	600	50 (100 x ½)	150 (300 x ½)	800	4.25
	8400					9.25

Normativ yo‘qotishlar:

Materiallarning qiymati (100 birlik x 5 p.b.) 500.00

Qayta ishlash qiymati (50 birlik x 4.25 p.b.) 212.50

712.50

Bizning misolda yo‘qotishlar ishlab chiqarishning 50% lik yakunlanganlik stadiyasida aniqlandi. Demak, yo‘qotishlar miqdorini tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish o‘rtasida taqsimlash kerak. Agar yo‘qotishlar 60 %lik yakunlanganlik stadiyasida aniqlanganda edi, u holda yo‘qotishlar to‘liq tayyor mahsulot tannarxiga olib borilar edi.

Endi, me’yordan ortiqcha yo‘qotishlar yuz berganda mahsulot birligining tannarxini aniqlash tartibi bilan tanishib chiqaylik.

Masalan, hisobot davrining boshida tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralari nolga teng. 1000 birlik mahsulot ishlab chiqarish boshlandi. Shundan, 600 birligi to‘liq ishlab chiqarildi. 250 birligi 20% ga tayyorlandi, 150 birligi brak

qilindi (bundan 100 birligi normativ yo‘qotish, 50 birligi me’yordan ortiqcha yo‘qotish). Yo‘qotishlar jarayon tugagandan keyin aniqlandi. Materiallarning qiymati 8000 p.b. (barcha materiallar ishlab chiqarishning boshida kiritiladi), qayta ishlash qiymati 4000 p.b.. Hisob kitoblar natijalarini 3.24-jadvalda rasmiylashtiramiz:

3.24-jadval

Mahsulot tannarxining hisobi

1. Birlik tannarxini aniqlash

Xarajatlarning elementlari	***Umumiy tannarxi, p.b.***	***TM, birlik***	***Normativ yo‘qotishlar, birlik***	***NOY, birlik***	***TICh ekv. bir (D/O)***	***Ekv. birligi summasi***	***Birlik tannarxi, p.b.***
Materiallar	8000	600	100	50	250	1000	8.0
Qayta ishlash qiymati	4000	600	100	50	50 (250 x 20%)	800	5.00
	12000						***13.00***

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxi (d\o)

Materiallar (250 bir. x 8 p.b.) 2000

Qayta ishlash qiymati (50 bir. x 5 p.b.) 250 2250

3. Tayyor mahsulot (600 x13 p.b.) 7800

plyus normativ yo‘qotishlar (100 bir. 13 p.b.) 1300 9100

3. ***Normativdan ortiq yo‘qotishlar*** (50 b. x13p.b.) 650

12000

Jarayon bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish scheti

Materiallar 8000 Qayta ishlash qiymati 4000 ***Jami 12000*** ***TICh (d/o) 2250***	Keyingi jarayonga o‘tkazildi 9100 Foyda va zararlar hisobidan qoplangan normativdan ortiqcha yo‘qotishlar 650 TICh (d\o) 2250 ***12000***

Ushbu jarayondan ko‘rinib turibdiki, normativ yo‘qotishlar tayyor mahsulot tannarxiga olib borilgan. Normativdan ortiqcha yo‘qotishlar esa alohida hisobga olingan va foyda va zararlar schetiga olib borilgan. Ularning sotilmasligi hisobga olingan.

Jarayonli kalkulyatsiya so‘ngida joriy davrdagi haqiqiy xarajatlar me’yoriy xarajatlar bilan solishtirilib turiladi. Bu esa xarajatlarni me’yorlardan chetlanishini nazorat qilib turish imkonini beradi.

Ayrim chet el adabiyotlarida jarayonli kalkulyatsiyada hisob-kitoblarni 5 ta bosqichda amalga oshirish tartibi ko‘rsatilgan. Ushbu bosqichlar quyidagilardan iborat:

1-qadam. Jismoniy birliklar oqimlarini hisob-kitob qilish.

2-qadam. Boshqa jarayonga chiqarilgan ekvivalent birliklarni hisoblash.

3-qadam. Jami tannarxi hisobini to‘plash, qaysiki ishlab chiqarish jarayoni schetining jami debet summasi.

4-qadam. Ekvivalent birligi tannarxini hisoblash.

5-qadam. Tannarxni tugallangan birliklar va ishlab chiqarish jarayoni oxiridagi birliklarga taqsimlash.

Ushbu bosqichlarning bajarilishini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz.

A plastik kompaniyasi katta hajmdagi bolalar o‘yinchog‘ini ishlab chiqaradi, qaysiki kompaniya jarayonli kalkulyatsiyada ikkita jarayonni qo‘llaydi – *birinchi jarayon* quyish bo‘limi, *ikkinchisi* yakunlash bo‘limi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar quyish jarayonining boshida kiritiladi va qo‘shimcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar esa yakunlash jarayonining oxirida qo‘shiladi. Qayta ishlash qiymati ishlab chiqarish jarayonida bir tekisda qo‘shilib boradi. Quyish jarayoni yakunlangandan so‘ng, mahsulot zudlik bilan yakunlash jarayoniga o‘tkaziladi va bu jarayondan mahsulotlar tayyor mahsulotlarga o‘tkaziladi.

2009 yil mart oyida quyish jarayonining ma’lumotlari quyidagicha:

Ishlab chiqarish jarayoni:

Boshlang‘ich zahiralar:		10.000 birlik
To‘g‘ridan to‘g‘ri materiallar		$4.000
Qayta ishlash xarajatlari (40%)	1.110	$5.110
Mart oyida yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar		48.000 birlik
Mart oyida kirim qilingan birliklar		40.000 birlik
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirgi birlik		2.000 birlik (50%)
Mart oyida qo‘shilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri material		$22.000
Mart oyida qo‘shilgan qayta ishlash xarajatlari		$18.000

Zahiralar hisobi maqsadida buxgalter quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

- Jarayonda (bizning misolda quyish jarayoni) yakunlangan va boshqa jarayonga yoki bo‘limga o‘tkazilgan mahsulot tannarxini hisoblashlari;
- Ishlab chiqarish jarayoni yakunida oxirgi zahiralarni hisoblashlari;
- Operatsiyalar summalariga jurnal yozuvlarini amalga oshirishlari.

Yuqoridagi misol ma’lumotlardan foydalanib qayd etib o‘tilgan bosqichlar asosida mahsulot tannarxini jarayonli kalkulyatsiyasini amalga oshiramiz.

1-qadam. Jismoniy birliklar oqimlarini hisob-kitob qilish.

Zahiralar hisobida qoldiq va oborotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilashda quyidagi klassik formuladan foydalanamiz:

Boshlang‘ich zahira + Kirim qilingan birliklar = Boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar + Oxirgi zahira.

Ushbu formuladan foydalanib quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshiramiz.

Jismoniy birliklar hisob-kitobi

Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	10.000 (40%)
Joriy davrda kirim qilingan birliklar	40.000
Hisobga olish uchun birlik	***50.000***
Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar:	
Boshlang‘ich zahiralardan	10.000
Kirim qilinganlardan yakunlangani	38.000
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida	2.000 (50%)
Hisobga olingan birlik	***50.000***

Tugallanganlik darajasi, faqat shu bo‘lim qayta ishlash qiymati uchun, ya’ni tugallanmagan ishlab chiqarishdagi zahiralar holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

1-qadamdagi hisob-kitoblar jarayonli kalkulyatsiyaning ikkita usuli (o‘rtacha salmoqli hamda FIFO) uchun ham bir xil amalga oshiriladi. Lekin, 2-5-qadamdagi hisob-kitoblar tanlangan usulga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, ushbu bosqichlarning bajarilishini har bir usulda alohida ko‘rib o‘tamiz.

O‘RTACHA SALMOQLI USUL

2-qadam. Boshqa jarayonga chiqarilgan ekvivalent birliklarni hisoblash.
Mahsulotlarni Quyish Bo‘limida to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar jarayonning boshida kiritiladi. Natijada, xarajatlarning materiallar moddasi bo‘yicha jismoniy miqdor va ishlab chiqarish oxirida qolgan birliklar uchun ekvivalent hisoblanganda ishlab chiqarishi to‘liq tugatilgan va ushbu birliklar 100%ga to‘liq ishlangan deb qaraladi. Chunki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar bir marta kiritilib barcha jarayonga taqsimlanadi.
To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar uchun ekvivalent birlik quyidagi hisob-kitoblar bo‘yicha amalga oshiriladi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material

To‘liq yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar 48.000 x 100%.	48.000
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirgisi birliklar 2.000 x 100%.	2.000
Hisobga olinadigan ekvivalent birlik.	***50.000***

Qayta ishlash xarajatlari moddasi uchun esa ekvivalent birlik hisoblanganda to‘liq tugallangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar bo‘yicha 100% to‘liq olinadi. Ishlab chiqarish jarayoni oxiridagi birliklar bo‘yicha esa qancha foizga tugatilganligiga qarab ekvivalent birlik hisoblanadi. Bizning misolda tugatilganlik darajasi 50%ni tashkil etadi.
Qayta ishlash xarajatlari uchun ekvivalent birlik hisobi quyidagicha bo‘ladi:

Qayta ishlash xarajatlari

To‘liq yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar 48.000 x 100%.	48.000

Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida
birliklar 2.000 x 50%. 1.000
Hisobga olinadigan ekvivalent birlik. ***49.000***

1 va 2-qadamda amalga oshirilgan hisob-kitoblarni quyidagi ko‘rinishdagi jadvalda umumlashtiramiz (3.25-jadval):

3.25-jadval

1-2-qadamdagi hisob-kitoblar

Mahsulot harakati (oqimi)	**1-qadam**	**2-qadam**. Ekvivalent birlik	
	Jismoniy birlik	To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	Qayta ishlash qiymati
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	10.000 (40%)	Joriy davrga qadar ishlangan	
Joriy davrda kirim qilingan birliklar	40.000		
Hisobga olish uchun birlik	50.000		
Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan	48.000	48.000	48.000
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida	2.000 (50%)	2.000	1.000
Hisobga olingan birlik	50.000		
Ishlamga olinadigan birlik		50.000	49.000

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘rtacha salmoqli usul ishlamga olinadigan birlik joriy davrda yakunlangan hamda ishlab chiqarish jarayoni oxiridagi birliklardan tashkil topadi.

3-qadam. Ushbu bosqichda jami tannarxi hisobini to‘plash, qaysiki ishlab chiqarish jarayoni schetining jami debet summasini aniqlash talab etiladi. Masalaning shartida berilgan ma’lumotlar bo‘yicha ishlab chiqarish jarayonining boshida qoldiq $5.110, bunga qo‘shiladi mart oyida amalga oshirilgan xarajatlar, $22.000 + $18.000 =$40.000. Jami tannarx $45.110 (5.110+40.000)ni tashkil etadi.

4-qadam. Bu bosqichda ekvivalent birlik tannarxi hisoblanadi. O‘rtacha salmoqli usulda ekvivalent birliklarga taqsimlanadigan tannarxi joriy davrda amalga oshirilgan xarajatlar hamda ishlab chiqarish jarayonining boshidagi qoldig‘i summasini qamrab oladi. Hisob-kitoblarni quyidagi jadvalda amalga oshiramiz (3.26-jadval):

3.26-jadval

Ekvivalent birligi tannarxining hisobi

Tannarx	Jami	Shu jumladan		
		To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	Qayta ishlash qiymati	Ekvivalent birlik
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	$5.110	$4.000	$1.110	
Joriy davrda amalga oshirilgan xarajatlar	40.000	22.000	18.000	
Jami hisobga olinadigan	***$45.110***	***$26.000***	***$19.110***	

tannarx				
Taqsimlash uchun ekvivalent birlik		50.000	49.000	
Ekvivalent birlik tannarxi		***$0.52***	***$0.39***	***$0.91***

5-qadam. Bu bosqichda jami tannarx ishlab chiqarishi tugallangan va ishlab chiqarishi tugallanmagan birliklarga taqsimlanadi. Masalaning shartida 48.000 birlik to‘liq tugallangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan. 4-qadamda mahsulot birligining tannarxi $0.91 (0.52+0.39) aniqlangan edi. Ishlab chiqarish jarayonining oxirida 2000 birlik tannarxi uning elementlari bo‘yicha aniqlanadi, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri material moddasi bo‘yicha 2000 birlik $0.52, qayta ishlash qiymati bo‘yicha esa 1000ta ekvivalent birlik $0.39 dan hisoblanadi. Hisob-kitob natijalarini quyidagi 3.27-jadvalda rasmiylashtirish mumkin.

3.27-jadval

Jami tannarxni tugallangan mahsulot va ishlab chiqarish jarayoni oxiridagi birliklarga taqsimoti (O‘rtacha salmoqli usul)

Ko‘rsatkichlar	Jami	Shu jumladan	
		To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	Qayta ishlash qiymati
Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan	$43.680	48.000 ($0.91)	
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida (2000 birlik): To‘g‘ridan-to‘g‘ri material Qayta ishlash qiymati Jami	 $1.040 390 $1.430	 2.000 ($0.52) 1.000 ($0.39)	
Jami tannarx	***$45.110***		

Yuqoridagi barcha bosqichlar natijalarini quyidagi jadvalda umumlashtiramiz (3.28-jadval).

3.28-jadval

Mahsulot tannarxi hisoboti. 31 mart bilan yakunlanadigan hisobot davri. O‘rtacha salmoqli usul.

	Ko‘rsatkichlar	Jami	Shu jumladan	
			To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	Qayta ishlash qiymati
	Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	$5.110	$4.000	$1.110
	Hisobot davri davomida qo‘shilgan tannarx	40.000	22.000	18.000
3-qadam	***Jami hisobga olish uchun tannarx***	***$45.110***	***$26.000***	***$19.110***
	Bo‘linadi: ekvivalent birlik		50.000	49.000
4-qadam	Ekvivalent birlik tannarxi		$0.52	0.39
5-qadam	Tannarxni taqsimlash: Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan	$43.680	48.000 ($0.91)	
	Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida (2000 birlik):			

	To‘g‘ridan-to‘g‘ri material Qayta ishlash qiymati Jami	$1.040 390 $1.430	2.000 ($0.52) 1.000 ($0.39)
Jami hisobga olingan tannarx		***$45.110***	

Jarayonli kalkulyatsiyada buxgalteriya yozuvlari buyurtmali kalkulyatsiyaga o‘xshash bo‘ladi. Buning farqli tarafi, faqat ishlab chiqarish jarayoni schetining har bir jarayonga ochilishi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi misol ma’lumotlari asosida jurnal yozuvlarini amalga oshiramiz:

1. Ishlab chiqarish jarayoni – Quyish 22.000
Material zahiralari 22.000
Yozuv: Mart oyida jarayonga kiritilgan materiallarning qiymati summasiga

2. Ishlab chiqarish jarayoni – Quyish 18.000
Turli schotlar 18.000
Yozuv: Mart oyida qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlar, misol uchun har xil ta’minot, mehnat va amortizatsiya

3. Ishlab chiqarish jarayoni – Quyish 43.680
Ishlab chiqarish jarayoni – Yakunlash 43.680
Yozuv: Quyish jarayonida tugallangan mahsulot tannarxini Yakunlash jarayoniga o‘tkazish

Yuqorida 5 ta qadamda amalga oshirilgan hisob-kitoblarni hamda jurnal yozuvlar “Ishlab chiqarish jarayoni – Quyish” T-schot ko‘rinishidagi shakliga o‘tkazilsa quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi (3.29-jadval):

3.29-jadval

Ishlab chiqarish jarayoni - Quyish

	Jismoniy birlik	Summa		Jismoniy birlik	Summa
Boshlang‘ich zahira	***10.000***	***$5,110***			
Amalga oshirildi: To‘g‘ridan-to‘g‘ri material Qayta ishlash qiymati	40.000	 22.000 18.000	Boshqa jarayonga o‘tkazilgan	48.000	$43.680
			Oxirgi zahira	2.000	1.430
Jami	***50.000***	***$45.110***	***Jami***		***$45.110***
Oxirgi zahira	***2.000***	***$1.430***			

Ushbu hisob-kitob ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, boshqa jarayonga o‘tkazilgan mahsulot tannarxi $43.680, ishlab chiqarish jarayoni davr oxirida $1.430 ni tashkil etmoqda. Ushbu ma’lumotlar realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi ko‘rsatkichlarini hisoblashda foydalaniladi va oxir natijada foyda va

zararlar to‘g‘risidagi hisobotlarda standartlar talablariga muvofiq sifatli axborotlarni tayyorlashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

FIFO USULI

1-2-qadam. Jismoniy birliklar va ekvivalent birliklarni aniqlash. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 1-qadamdagi hisob-kitoblar o‘rtacha salmoqli usuldagi kabi amalga oshiriladi.

1-2 qadamda qilingan hisob-kitob natijalarini quyidagi jadvalda umumlashtiramiz (3.30-jadval):

3.30-jadval

Jismoniy birlik ekvivalent birliklar hisobi. FIFO usuli.

Mahsulotning harakati	***(1-qadam) Jismoniy birlik***	***(2-qadam) Ekvivalent birlik***	
		To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	***Qayta ishlash qiymati***
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	10.000 (40%)	Joriy davrga qadar bajarilgan	
Joriy davrda kirim qilingan birliklar	40.000		
Jami hisobga olish uchun birlik	***50.000***		
Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar: Boshlang‘ich zahiralardan	10.000	-	6.000
Kirim qilinganlardan yakunlangani	38.000	38.000	38.000
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirgisi	2.000 (50%)	2.000	1.000
Jami hisobga olingan birlik	***50.000***	***40.000***	***45.000***

Tugallanganlik darajasi, faqat shu bo‘lim qayta ishlash qiymati uchun, ya’ni tugallanmagan ishlab chiqarishdagi zahiralar holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar

10.000 x (100%-40%) = 10.000 x 60% = 6.000

2.000 x 50% = 1.000

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, ekvivalent birlikni hisoblaganda boshlang‘ich zahiralarda faqat qayta ishlash qiymati moddasi bo‘yicha olinadi. Boshlang‘ich zahiralarning 60% hisobot davrida qayta ishlanadi, chunki ishlamning 40% joriy davrga qadar oldingi hisobot davrida amalga oshirilgan. Boshlang‘ich zahiralarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar moddasi bo‘yicha ekvivalent birlik olinmaydi, chunki 10.000 birlik oldingi hisobot davrida hisobga olingan.

3, 4 va 5 qadamlar. Mahsulot tannarxi hisoboti.

FIFO usulida mahsulot tannarxi to‘g‘risidagi hisobotni tuzishni 3.31-jadvalda ko‘rib o‘taylik:

3.31-jadval

Quyish sexida mahsulot tannarxi hisoboti

	Tannarx	***Jami***	***Shu jumladan***	
			To‘g‘ridan-	***Qayta ishlash***

			to‘g‘ri material	***qiymati***
	Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	$5.110	Joriy davrga qadar amalga oshirilgan	
	Joriy davrda amalga oshirilgan xarajatlar	40.000	$22.000	$18.000
3-qadam	Jami hisobga olish uchun tannarx	***$45,110***		
	Bo‘linadi: Ekvivalent birliklar		÷40.000	÷45.000
4-qadam	Ekvivalent birlik tannarxi		$0.55	$0.40
5-qadam	Tannarxning taqsimlanishi: Yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birliklar (48.000):			
	Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich (10.000)	$5.110		
	Joriy davrda qo‘shilgan xarajatlar: To‘g‘ridan-to‘g‘ri material			
	Qayta ishlash xarajatlari	2.400		6.000(0.40$)
	Boshlang‘ich zahiralarning jami	$7.510		
	Kirim qilingan va yakunlangan (38.000)	36.100	38.000 ($0.95)	
	Boshqa jarayonga o‘tkazilgan jami tannarx	$43.610		
	Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida (2.000): To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	$1.100	2.000 ($0.55)	
	Qayta ishlash qiymati	400		1.000 ($0.40)
	Jami	$1.500		
	Jami hisobga olingan tannarx	***$45.110***		

Bajarilgan ekvivalent birlik

Ekvivalent birlikning jami tannarxi =$0.55+$0.40=$0.95

FIFO usulining qo‘llanilishini o‘rganish uchun 3.9-jadvalni to‘ldirilishini diqqat bilan o‘qish kerak bo‘ladi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hisob-kitoblarda birinchidan tugallangan va boshqa jarayonga chiqarilgan mahsulotlarning tannarxi, ya’ni 48.000 birlikning tannarxi aniqlangan va u $43.610 ni tashkil etmoqda. Ikkinchidan ishlab chiqarish jarayoni oxirida 2.000 birlikning tannarxi aniqlanib, u $1.500 bo‘lgan. Bunga tugallangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan mahsulot tannarxi $43.610 qo‘shilib, jami tannarxi $45.110 aniqlanadi va bu ko‘rsatkich ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich summasi ($5.110) va joriy davrda qo‘shilgan tannarx ($40.000) yig‘indisi $45.110 ga teng bo‘lish kerak. Ushbu tenglik hisob-kitoblarning to‘g‘ri bajarilganligini ko‘rsatadi.

O‘rtacha salmoqli usulda mahsulot ekvivalent birligining o‘rtacha tannarxi $43.610 ÷ 48.000 = $0.9085. FIFO usulida esa mahsulot birligining tannarxi $0.95 ni tashkil etmoqda. FIFO usuli va o‘rtacha salmoqli usul o‘rtasidagi asosiy farq ekvivalent birlik qanday hisoblanganligi natijasida kelib chiqadi.

8-MA’RUZA. Normativ usul bo‘yicha mahsulotlar kalkulyatsiyasini amalga oshirish

Reja:

1. Ishlab chiqarish zararsizligi nuqtasi.
2. Ishlab chiqarish zararsizligi tahlili
3. Sotiladigan mahsulotlar (tovarlar) assortimentini rejalashtirish
4. Bahoni shakllantirish bo‘yicha qaror qabul qilish

1. Ishlab chiqarish zarasizligi nuqtasi.

“Tannarx – mahsulot hajmi – foyda” (CVP) tahlilining maqsadi agar ishlab chiqarish / realizatsiya darajasi o‘zgargan taqdirda moliyaviy natijalarda qanday o‘zgarish yuz berganligini aniqlash bo‘lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda CVP usuli faoliyat darajasi bilan biznes faoliyati uchun zarur bo‘lgan resurslar sarflanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilaydi. Bu tahlil sistematik ravishda mahsulot tannarxi, sotishdan olingan daromad (ishlab chiqarish hajmi) va foyda ko‘rsatkichlarining bir-biriga asoslanganligini ko‘rsatadi.Ushbu tahlil yordamida tannarx tabiati aniqlanadi va natijada menedjerlarga faoliyatni nazorat qilish va rejalashtirish, faoliyatning muqobil kurslarini tahlil qilish, iqtisodiy shart-sharoitlar o‘zgargan taqdirda oqilona qarorlar qabul qilishga doir axborotlar yetkazib beriladi. CVP tahlili zararsizlik nuqtasini aniqlashda foydalaniladi, qaysiki bu tahlilni faqat foyda olib ishlovchi biznes sohasidagina emas, balki foyda olishni maqsad qilib qo‘ymagan tashkilotlarda ham qo‘lash mumkin bo‘ladi.

Zararsizlik nuqtasi yoki kritik nuqta (Break-Even Point)– bu faoliyat darajasining (ishlab chiqarish hajmi yoki realizatsiya hajmining) shunday nuqtasiki bunda jami daromad to‘plam xarajatlarga teng bo‘lgan, ya’ni foyda ham zarar ham bo‘lmaydi.

Foyda (zarar) – bu kontributsiya marjini va doimiy xarajatlar o‘rtasidagi farqdir. Shunday qilib zararsizlik nuqtasi bu kontributsiya marjinining doimiy xarajatlarga teng bo‘lgan joyida aniqlanadi.

Kritik nuqta tahlili korxonaning foydaligini boshqarishda qo‘llaniladi. Kritik nuqtani butun bir korxona bo‘yicha hisoblab bo‘lmaydi. Bunda qismlar, alohida olingan mahsulot, mahsulotlar guruhi, sotish regionlari va boshqa tanlangan tannarx ob’ektlari tahlil jarayonida foydalanishi mumkin.

Boshqaruv hisobida kritik (zararsizlik) nuqtasini hisoblashning uchta metodi amal qiladi.

1) matematik (tenglama metodi),
2) kontributsiya marjini metodi
3) grafik metodi

Matematik metod. Matematik metodda kritik nuqtani aniqlashning formula usuliga tayanadi. Bizga ma’lumki, foydani hisoblashning bazisli usuli bu daromadlardan xarajatlarni ayirish orqali hisoblash bo‘lib hisoblanadi. Demak, agar to‘plam xarajatlarga daromadlarni olish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar qo‘shilganligini ta’minlashga e’tibor qaratish lozim. Bu kritik nuqtani aniqroq hisoblash imkonini beradi. CVP tahlilida to‘liq tannarxi hisobot davri

davomida xarajatlarga olib borilgan (hisobdan chiqarilgan) deb qaraladi. Shu bois, bu tahlil maqsadlarida tannarxi va xarajat bir ko‘rsatkich deb olinadi.

Jami daromadlar – Jami tannarx = Foyda (1)

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kritik nuqtada foyda ham zarar ham bo‘lmaganligi uchue (1) tenglik natijasi nolga teng bo‘ladi. U holda (1)- formala quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Jami daromadlar – Jami tannarx = 0 (2) bundan,

Jami daromadlar = Jami tannarx (3) kelib chiqadi

Jami tannarx o‘zgaruvchan va doimiy tannarxdan tashkil topganligini inobatga oladigan bo‘lsak, (3)-formulani kengaytirish mumkin.

Jami daromadlar = O‘zgaruvchan tannarx + Doimiy tannarx (4)

Belgilashlarni kiritib olsak: Jami daromad - Y, O‘zgaruvchan tannarx - (O‘T), Doimiy tannarx - (DT). U holda yuqoridagi formulani belgilashlar asosida yozishimiz mumkin bo‘ladi:

$$Y = O‘T + DT \ (5)$$

Agarda, jami daromad (Y) Sotilgan (yoki ishlab chiqarilgan) Mahsulot Birligi (X) va Sotish narxi (SN) ko‘paytmasidan iborat. Bunda o‘zgaruvchan tannarx ham Sotilgan (yoki ishlab chiqarilgan) Mahsulot Birligi (X) va Mahsulot Birligining O‘zgaruvchan Tannarxi (O‘Tb) ko‘paytmasidan iborat bo‘ladi. Bu ko‘paytmalarni hisobga oladigan bo‘lsak, (4) va (5) formulalarni quyidagi ko‘rinishga keltirish mumkin bo‘ladi:

Mahsulot birligi (X) Sotish narxi (SN) = Mahsulot birligi (X) Mahsulot birligining o‘zgaruvchan tannarxi(O‘Tb) +Doimiy Tannarx(DT)

Belgilashlar asosida formulani yozadigan bo‘lsak,

$$X\ SN = X\ O‘Tb + DT \ (6)$$

Ushbu formulada (X O‘Tb) ni tenglikning chap tamoniga o‘tkazsak, u holda

$$X\ SN – X\ O‘Tb = DT$$

X ni qavsning tashqarisiga chiqarsak, u holda

$$X\ (SN – O‘Tb) = DT$$

Bundan X (Mahsulot birligi) ni topsak,

$$X = DT / (SN - O'Tb) \quad (7)$$

X mahsulot birligida foyda nolga teng bo‘lganligi bois (7) da (X) mahsulot birligi ko‘rsatkichi kritik nuqta bo‘ladi. Demak,

Kritik nuqta (X) = Doimiy tannaarx (DT) / (Sotish narxi (SN) – Mahsulot birligi o‘zgaruvchan tannarxi (O‘Tb) (8)

Kritik nuqtani hisoblash tartibini amaliy misolda ko‘rib o‘tamiz. Kompaniyaning faoliyat darajasi mahsulot birligi miqdori bilan belgilanadi deb tassavur qilamiz. Kompaniya rejasi bo‘yicha yangi kompass ishlab chiqishni mo‘ljallagan. Doimiy tannarx 20,000 p.b., mahsulot birligiga o‘zgaruvchan xarajatlar 6 p.b.ga teng. Kompaniya mahsulotni 10 p.b. sotishni ko‘zda tutmoqda. Kritik nuqtani aniqlash talab etiladi.

Kritik nuqtani aniqlash formulasi:

$$X = DT / (SN - O'Tb)$$

Masalaning shartida DT - 20,000 p.b., SN - 10p.b., O‘Tb - 6 p.b.ga teng. Ushbu qiymatlarni formuladagi ko‘rsatkichlar o‘rniga qo‘ysak kritik nuqtani aniqlash mumkin bo‘ladi:

$$X = 20{,}000 / (10 - 6) = 20{,}000 / 4 = 5{,}000 \text{ birlik}$$

Demak, 5,000 birlik kompass ishlab chiqarilgan taqdirda foyda ham zarar ham bo‘lmaydi. Chunki, sotish hajmi 5,000 10 p.b. = 50,000 p.b. bo‘ladi. O‘zgaruvchan xarajatlar 5,000 6 p.b. = 30,000 p.b. ga teng. Jami xarajatlar 30,000 p.b. + 20,000 = 50,000 p.b. ni tashkil etadi. U holda jami daromad va jami tannarxi bir biriga teng. Natija esa nolga teng bo‘ladi (50,000 daromad - 50,000 xarajat = 0). Demak, 5,000 birlikdan oshgan har bir birlikdan korxona foyda olishga o‘tadi. 5,000 birlikdan kam ishlab chiqargan taqdirda esa zararga o‘tadi.

Kontributsiya marjini metodi. Bizga ma’lumki, ***kontributsiya marjini*** bu jami daromadlardan o‘zgaruvchan tannarxni chigirish orqali topilgan summa bo‘lib, u doimiy xarajatlarni qoplash va foydani ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi. Kontributsiya marjini jami summada yoki mahsulot birligiga nisbatan hisoblanishi mumkin. Yuqoridagi Rember Company sida mahsulot birligiga nisbatan kontributsiya marjini quyidagicha hisoblanadi:

Kontributsiya marjini = Daromad – O‘zgaruvchan tannarx (9)

Mahsulot birligiga nisbatan kontributsiya marjini = Sotish narxi – Mahsulot birligining o‘zgaruvchan tannarxi (10)

Yuqoridagi ma’lumotlarni (10) dagi ifodalar o‘rniga qo‘ysak, u holda quyidagi natijani olamiz.

Mahsulot birligiga kontributsiya marjini = 10 p.b. – 6 p.b. = 4 p.b.

(10)-formuladagi sotish narxidan mahsulot birligining o‘zgaruvchan xarajatlarini ayirish natijasida olingan summa mahsulot birligiga nisbatan kontributsiya marjini berganligi bois, (8)-formulaning maxrajidagi ifadaning o‘rniga mahsulot birligiga kontributsiya marjini ko‘rsatkichini qo‘ysak, u holda kritik nuqtani kontributsiya marjini (marjinal daromad) orqali aniqlash formulasi kelib chiqadi:

Kritik nuqta (X) = Doimiy tannarx (DT) / Mahsulot birligiga kontributsiya marjini(KMb)
Yoki

$$X = DT/KMb \quad (11)$$

Yuqoridagi misol ma’lumotlarini (11)-formuladagi ifodalarga qo‘ysak kritik nuqta ko‘rsatkichi kelib chiqadi.

$$X = 20{,}000 \text{ p.b.} / 4 \text{ p.b.} = 5{,}000 \text{ birlik}$$

1-chizmada kritik nuqta va kontributsiya marjini joylashishi illustrativ tarzda ko‘rsatib berilgan. Diagrammada kontributsiya marjini doimiy xarajatlarni qoplab kritik nuqta ustidan e’tiboran foydani ta’minlashi hamda kritik nuqtadan pastki qismida esa doimiy xarajatlarni to‘liq qoplay olmasdan zarar maydoni shakllanishi aks ettirilgan. Agar 6,000 birlik ishlab chiqilganda jami kontributsiya marjini 24,000 p.b. da bo‘lib (6,000 birlik 4 p.b./birlikka), bu summa 20,000 p.b. dagi doimiy xarajatlarni qoplab kompaniyaga 4,000 p.b.dagi foydani ta’min etadi.

Kritik nuqtani summada hisoblash tartibi. Kontributsiya marjini metodi kritik nuqtani summada hisoblash imkonini ham beradi. Bunning uchun (11)-formulaning maxrajida klntributsiya marjini darajasi ko‘rsatilishi kerak bo‘ladi. Kontributsiya marjini darajasi quyidagicha aniqlanadi:

Kontributsiya marjini darajasi = Kontributsiya marjini / Sotishdan olingan daromad

yoki

Kontributsiya marjini darajasi = Mahsulot birligiga kontributsiya marjini / Sotish narxi

Yuqoridagi misol ma’lumotlarini qo‘ysak

Kontributsiya marjini darajasi = 4 p.b. / 10 p.b. 100% = 40% yoki 0.40 koeffitsient

Ushbu ko‘rsatkichdan foydalanib kritik nuqtani summada hisoblash formulasini keltirib chiqaramiz:

Kritik nuqta (summada) = Doimiy xarajatlar / Kontributsiya marjini darajasi (12)

Yuqoridagi misol ma’lumotlarini (12) formulaga qo‘ysak, kritik nuqtani summadagi ko‘rsatkichi kelib chiqadi:

Kritik nuqta (summada) = 20,000 p.b. / 0.40 = 50,000 p.b.

Demak, kritik nuqta birlikda 5,000 birlikni, summada esa 50,000 p.b.ni tashkil etmoqda. Hisob-kitoblarning to‘g‘riligini tekshirish uchun 5,000 birlikni 10 p.b. ko‘paytirib kritik nuqtaning 50,000 p.b.dan iborat ekanligini aniqlaymiz.

Grafik metodi. Grafik usulida kordinatlar tizimida faoliyat darajasi (ishlab chiqarish hajmi yoki sotish hajmi) bilan daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ri chiziqlar orqali aniqlanadi. Bizga ma’lumki, doimiy xarajatlar X o‘qiga nisbatan to‘g‘ri chiziq ko‘rinishida bo‘ladi, ya’ni bizning yuqoridagi misolimizda doimiy tannarx chizig‘i U o‘qidagi 20,000 p.b. dan X o‘qiga parallel chiziq tortiladi. O‘zgaruvchan tannarx chizig‘i noldan o‘suvchi tartibda chiziq orqali ifodalanadi. Bunda shunga mahsulot birligiga o‘zgaruvchan tannarx 6 p.b. ga teng. Demak, chiziqni chizishda shunga e’tiborni qaratish lozimki mahsulot birligi 1 birlikka oshganda o‘zgaruvchan xarajatlar 6 p.b. ga oshadi. Bu chiziq chizish uchun orentir hisoblanadi. Jami to‘plam tannarx chizig‘i esa U o‘qidagi 20,000 p.b. dan o‘zgaruvchan xarajatlar chizig‘iga parallel chiziq orqali tasvirlanadi. To‘plam daromadlar chizig‘i esa noldan tortiladi va bu chiziq o‘zgaruvchan xarajatlarning ustidan o‘tadi. Bu chiziqni chizishda shunga e’tiborni qaratish lozimki mahsulotni sotish narxi 10 p.b. bo‘lganligi uchun sotish birligi bir birlikka oshganda sotishdan olingan daromad 10 p.b. ga oshadi. Shu sababli chiziqni chizishda sotish narxi kompass vazifasini bajaradi.

Hosil bo‘lgan daromad va xarajatlar chizig‘ining kesishish nuqtasi kritik nuqtani beradi. Ushbu jarayonning illyutrativ aks ettirilishi 2-chizmada keltirilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki mahsulot ishlab chiqarishining 5,000 birligida to‘plam daromadlar chizig‘i to‘plam tannarx chizig‘i bilan kesishmoqda. Bu nuqtada foyda ham zarar ham bo‘lmaydi. Ushbu kesishish nuqtasidan pastdagi daromadlar va xarajatlar chizig‘i o‘rtasidagi maydon zararlilik maydoni deb ataladi. Aksincha esa, kritik nuqtadan yuqorida daromadlar chizig‘i bilan xarajatlar chizig‘i orasidagi maydon foydalilik maydoni deb ataladi.

Grafik usul faollik darajasining (ishlab chiqarish yoki sotish hajmining) istalgan miqdorida to‘plam daromadlar va to‘plam tannarxni aniqlash imkonini beradi. Misol, 6,000 birlik ishlab chiqarilganda va sotilganda grafikda jami daromad 60,000 p.b. ekanligini hamda jami tannarxi 56,000 p.b.ga teng ekanligini aniqlash mumkin. Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi farq foydani beradi, ya’ni bu 4,000 p.b. ga teng (60,000 p.b. – 56,000 p.b.). Bu ko‘rsatkichni formula orqali

ham hisoblash mumkin bo‘ladi. Sotish hajmining xarajatlar va foyda bog‘liqligi formulasini keltiramiz :

Sotish birligi (X) Sotish narxi (SN) = Sotish birligi (X) Mahsulot birligining o‘zgaruvchan tannarxi(O‘Tb) +Doimiy Tannarx(DT) +Foyda (F)

Bu formuladan foydani aniqlash formulasini keltirib chiqaramiz:

$$F = X\ (SN - O‘Tb) - DT \quad (13)$$

Yuqorida berilgan ma’lumotlar asosida 6,000 birlik ishlab chiqarilganda va sotilganda foyda summasi (13)-formula asosida hisoblanganda

$$F = 6{,}000\ (10 - 6) - 20{,}000 = 24{,}000 - 20{,}000 = 4{,}000 \text{ p.b.}$$

kelib chiqadi.

2-chizmadagi grafik ***CVP diagrammasi*** yoki ***CVP xaritasi*** ham deb ataladi. Grafik usuli CVP tahlilini o‘tkazishda keng foydalanadi. Grafik tahlili bir qancha afzalliklarga ega hisoblanadi. Grafik usuli faoliyat darajasining ma’lum oralig‘ida natijalarni aniq ko‘rish mumkin bo‘ladi, qaysiki formula usulida faqat bitta faoliyat darajasida natijalarni hisoblash mumkin bo‘ladi. Grafik natijasida kompleks tahlil natijalarini yaqqol ilustrativ tarzda ko‘rsatish imkoniyati bo‘lsa, qaysi bu holat uning tushunarlilik darajasini oshiradi. Individual tartibda har bir faoliyat darajasida natijalar o‘rganilganda bir qancha ma’lumotlarni hisob-kitob qilishda qiyinliklar tug‘ilishi mumkin. Faqat grafik usulini kompyuter vositasida dasturda tayyorlansa yana ham maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

2. Ishlab chiqarish zararsizligi tahlili

Menedjerlar doimiy tannarxi, o‘zgaruvchan tannarxi, sotish narxi o‘zgarishi va ularning kombinatsiyasining foydaga ta’sirini aniqlashda CVP bog‘liqligini tahlil qilishga zaruriyat sezadi. CVP tahlili *Mo‘ljaldagi Foydani (Target Profit)*olish uchun zarur bo‘lgan faoliyat hajmi, tannarxi va sotish narxi, yoki faoliyatning turli darajalarida foyda va tannarx qanday bo‘lishini aniqlashga doir axborotlar bilan ta’min etadi.

Dasttaval biz CVPning har bir komponentining boshqasidan mustaqil holda o‘zgarishi natijalarini o‘rganib chiqamiz. Keyinchalik esa turli komponentlarning birgalikda o‘zgarishi natijalarini ko‘ramiz. Barcha holatlarda biz muammolarni hal qilishda biz ayni bir tenglik formulasidan foydalanamiz:

$$Daromad = O‘T + DT + Foyda$$

Doimiy tannarxda o‘zgarish. Bizga ma’lumki, doimiy tannarx ma’lum relevant diapazonda va o‘rganilayotgan davr davomida o‘zgarmas hisoblanadi. Biroq, menedjerlar kelgusi operatsiyalarni rejalashtirayotganda unimdorlikning

oshishi, mehnat muammolarining hal qilinishi, operatsion jarayonning yaxshilanishi natijasida doimiy tannarxning kamayishi yoki ko‘payishiga doir qarorlar qabul qilishi mumkin. CVP tahlili menedjerlarga kam hissada bo‘lgan yoki korxona nazoratidan tashqarida bo‘lgan xarajatlarni ham tahlil qilish imkonini beradi, jumladan doimiy xarajatlar mol-mulk solig‘i o‘zgarishi natijasida ham yuz berishi mumkin. Ushbu tahlil natijalari menedjerlarga jami foydaning doimiy tannarxi hisobidan o‘zgarishini baholashga yordam beradi, xususan shunday omillarga operatsion kapastasining (capacity) yangi avtomatik asbob-uskunalarning o‘rnatilishi natijasida oshishini kiritish mumkin.

Misol uchun, Rember Company menedjmenti keyingi yilda ijaraga olingan maydonni qisqartirgan holda faollik darajasini ta’minlashni mo‘ljallamoqda. Ushbu maydon uchun ijara summasining tejalishi hamda operatsion jarayonni ijaradagi maydondan o‘z maydoniga o‘tkazish natijasida doimiy tannarx 4,000 p.b. ga qisqarishiga erishilmoqda. U holda doimiy xarajatlarning o‘zgarishi munosabati bilan yangi kritik nuqtani aniqlash talaba etiladi. Yangi kritik nuqta:

$$X = DT / (SN\text{-}O‘Tb) = 16{,}000 \text{ p.b.} / (10 \text{ p.b.} – 6\text{p.b.}) = 16{,}000 / 4 = 4{,}000 \text{ birlik}$$

Bu shuni anglatadiki, mahsulot birligiga kontributsiya marjini 4 p.b. saqlangan holda doimiy tannarxning 4,000 p.b. kamayishi kompaniyaga yani 1,000 birlik mahsulotni doimiy tannarxni qoplashga va foydani ta’min etishga yo‘naltirish imkoniyati tug‘ilmoqda. Agar kompaniya 6,000 birlikda mahsulot ishlab chiqarsa va sotilsa foyda teng bo‘ladi.

$$F = X\ (SN – O‘Tb) – DT$$

Ma’lumotlarni formulaga qo‘ysak,

$$F = 6{,}000 \text{ b.} (10 \text{ p.b.} – 6 \text{ p.b.}) – 16{,}000 \text{ p.b.} = 8{,}000 \text{ p.b.}$$

Doimiy tannarxining o‘zgarishi ***3-chizmada*** (***a)*** diagarammada keltirilgan. Doimiy tannarxning kamayishi, o‘zgaruvchan tannarxning o‘zgarmasdan qolishi natijasida to‘plam tannarx kamaygan, natijada to‘plam tannarx chizig‘i kordinatlar tizimida oldingisiga nisbatan pastroqdan o‘rin olgan. Daromadlar chizig‘ida va o‘zgaruvchan xarajatlar chizig‘ida o‘zgarish yuz bermaydi. To‘plam xarajatlar chizig‘ining pasayishi daromadlar bilan to‘plam xarajatlarning kesishish nuqtasi, ya’ni kritik nuqtaning ham pasayishiga sabab bo‘lgan. Diagrammada 6,000 birlik ishlab chiqilganda va sotilganda foydaning chiqishi ham ko‘rsatilgan.

O‘zgaruvchan tannarxda o‘zgarish. O‘zgaruvchan tannarx juda ko‘p sabablarga ko‘ra o‘zgarishi mumkin. Masalan, yangi mehnat shartnomasi, material tannarxining yuksalishi, yuqori energiya xarajatlari va boshqa o‘zgaruvchan xarajatlar oshishi yoki kamayishi mumkin bo‘ladi.

Rember Company yangi mehnat shartnomasi qabul qilishi natijasida mahsulot birligiga o‘zgaruvchan tannarx 1 p.b. oshmoqda. Natijada jami o‘zgaruvchan tannarx 7 p.b. ga teng bo‘ladi. Doimiy tannarx o‘zgarmasdan qolmoqda. Bu hola yangi kritik nuqta teng bo‘ladi:

X = DT / (SN – O‘Zb) = 20,000 / (10 – 7) = 6,667 birlik

Tannarxning 1 p.b. ga oshishi sotish narxining 10%ni (1 p.b./10 p.b.), kontributsiya marjinining esa 25%ni (1 p.b./4 p.b.) tashkil etadi va bu natijada kritik nuqtaning 33 % (1,667 birlik / 5,000 birlik)ga oshishiga sabab bo‘ladi. Kontributsiya marjining kichik bo‘lishi doimiy tannarxni qoplash uchun ko‘proq birlikda mahsulot birligi talab etadi va natijada yuqori bo‘lgan kritik nuqta yuzaga keladi. Agar kompaniya 6,000 birlik ishlab chiqargan taqdirda ham 2,000 p.b. da zarar ko‘radi. 3-chizmadagi (b) diagrammada o‘zgaruvchan tannarx o‘sishining ta’siri aks ettirilgan. Kordinatlar maydonida jami tannarx chizig‘i yuqoridan o‘rin olgan, bu esa kritik nuqtani 5,000 birlikdan 6,667 birlikka chiqishiga sabab bo‘lgan, yoki summa hisobida 66,670 p.b.ni sotish hajmini tashkil etmoqda.

Sotish narxida o‘zgarish. Sotish narxining o‘zgarishi albatta kontributsiya marjiniga ta’sir ko‘rsatadi. Agar sotish narxi yuksalsa, tannarx o‘zgarmasdan qolgan hollarda kritik nuqta pasayadi. Misol uchun sotish narxi 11 p.b. o‘zgardi (oldin 10 p.b. edi). Kritik nuqta teng bo‘ladi:

X = 20,000 / (11 – 6) = 20,000 / 5 = 4,000 birlik

Kritik nuqtadagi sotishdan olingan daromadni topish uchun sotish miqdorini sotish narxiga ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Yangi sotish narxida kritik nuqtadagi daromad 44,000 p.b. ga teng (4,000 11). 3-chizmadagi (s) diagrammada sotish narxi o‘zgarishining natijasi ko‘rsatilgan. Agar 6,000 birlik ishlab chiqarilib sotilsa, narx va boshqa omillar o‘zgarmasdan oldin 4,000 p.b.da foyda olingan. 6,000 birlik 11 p.b. sotilganda esa 10,000 p.b.da foyda olingan, bu esa 250% o‘sganligidan dalolat beradi, qaysiki sotish narxi faqat 10% o‘sgani holda.

Mo‘ljaldagi foyda (Target Profit). Menedjerlar yetarli darajada axborot olishlari uchun faqat kritik nuqta yetarli bo‘lmaydi. Tahlil yetarli bo‘lishlari uchun mo‘ljaldagi foydani olishlari uchun qaysi faollik darajalari (ishlab chiqarish va sotish hajmi)ga erishishlari lozimligiga doir axborotlar talab etiladi.

Misol uchun, Remler Company si 15,000 p.b. foyda olishni mo‘ljallamoqda va shunga yarasha kompass sotish miqdorini belgilashi lozim bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun, yuqoridagi formulalardan :

Daromad = O‘T + DT + Mo‘ljaldagi Foyda (MF)

Bu formula asosida mo‘ljaldagi foydada kritik nuqtasi (X m.f.) aniqlash formulasini topish mumkin:

Xm.f = (DT + MF) / (SN-O‘Tb) (14)

Shu formulaga qiymatlarni qo‘yib mo‘ljaldagi foydada kritik nuqtani ***(Xm.f.)***topamiz:

Xm.f. = (20,000 p.b. + 15,000 p.b.) / (10 p.b. – 6 p.b.) = 35,000 p.b. / 4 p.b. = 8,750 birlik

Bu 8,750 birlikni kompaniya ishlab chiqarish yoki sotish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin. Kompassga bo‘lgan ehtiyoj sotish darajasiga muvofiq kelmasligi mumkin. Ushbu birlik miqdori zavodning kapastasidan tashqarida yoki faoliyat darajasi relevant oraliqdan tashqarida bo‘lishi mumkin. Shu bois, menedjerlar rial holatga baho bera olishlari lozim bo‘ladi. Agar menedjerlar 8,750 birlikni ishlab chiqish noreal deb baholasa u holda qancha birlik ishlab chiqishi mumkin bo‘ladi va undagi mo‘ljaldagi foyda qancha bo‘lishini aniqlashi talab etiladi.

(12)-formuladan foydalanib mo‘ljaldagi foydada kritik nuqtani (summada) topish formulasini keltirib chiqaramiz:

Mo‘ljaldagi foydada kritik nuqta (summada) = (Doimiy xarajatlar + mo‘ljaldagi foyda) / Kontributsiya marjini darajasi (15)

Masalan, agar kompaniyaning imkoniyatidan kelib chiqib mo‘ljaldagi foydani aniqlash ikoniyati hisoblash mumkin deb hisoblaylik. Bunda kompaniyaning o‘zgaruvchan xarajatlari sotish narxining 60%ni, foyda esa sotish narxining 15%ni tashkil etish mo‘ljallangan bo‘lsa:

Daromad (U) = O‘X + DX + Mo‘ljaldagi foyda = 60% daromad + DX +15% daromad

Ma’lumotlar formulaga qo‘yib:

U = 80,000 p.b. aniqlaymiz.

Buni 10 p.b. sotish narxiga bo‘lib mo‘ljaldagi foydada kritik nuqta (birlikda), 8,000 birlikka tengligini topamiz:

3-chizmada (d)-diagrammada faoliyatning 8,000 birligida daromad va xarajatlar chizig‘idagi yuzaga kelgan mo‘ljaldagi fayda maydoni aks ettirilgan.

Kombinatsion o‘zgarish. Amaliyotda CVP tahlilida o‘zgaruvchan tannarx boshqalariga nisbatan ko‘proq o‘zgaradi. CVP tahlilida bir vaqtdagi barcha o‘zgarishlarni o‘z ichiga olishi talab etiladi. Bitta omilning o‘zgarishi boshqa omillarning ham o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, bir qancha doimiy tannarx elementlarining oshishi bir qancha o‘zgaruvchan tannarx zarrachalarining kamayishiga sabab bo‘ladi yoki sotish narxining o‘sishi doimiy yoki o‘zgaruvchan tannarxning oshishi natijasida yuz bergan bo‘lishi va shuning natijasida kompensatsiyalanishi mumkin. Narxning oshishi sotish hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin. Aniq misolda ko‘rib o‘taylik.

Masalan, *Rember Company* mahsulot birligiga 0.80 p.b.da mehnat haqi xarajatlarining oshishini doimiy xarajatlarni kamayishi hisobidan kompensatsiyalaydi. Bu ijaraga olingan maydondagi barcha operatsiyalarni xususiy binodagi maydonga ko‘chirish orqali erishilmoqda, natijada doimiy xarajatlar 2,000 p.b. ga kamaymoqda. Bir vaqtning o‘zida menedjer har birlik

mahsulotga belgilangan narxni 0.40 p.b. ga oshirishni mo‘ljallamoqda, qaysiki bu holat mahsulotga bo‘lgan ehtiyojni qisqartirmaydi. Kompaniya tomonidan 9,000 p.b. mo‘ljaldagi foydani olish ko‘zda tutilgan. Mo‘ljaldagi foydani olish uchun talab etiladigan ishlab chiqarish va sotish hajmi:

X = (18,000 + 9,000) / (10.40 – 6.80) = 27,000 p.b. / 3.60 = 7,500 p.b.

Demak, barcha omillar bir vaqtning o‘zida o‘zgarganida 9,000 p.b. dagi foydani olish uchun 7,500 birlik sotish talab etiladi.

Soliqlar ta’siri. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, CVP tahlili mahsulotga oid bo‘lgan bazisli komponentlar – doimiy tannarx, o‘zgaruvchan tannarx, hajm va foyda ko‘rsatkichlariga tayanadi. Bu tahlilni yana chuqurlashtirish mumkin. Masalan, o‘zgaruvchan xarajatlarni ularni tashkil etuvchi komponentlari to‘g‘ridan to‘g‘ri materiallar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi va o‘zgaruvchan UIChX, o‘zgaruvchan sotish va ma’muriy xarajatlar ajaritilgan holda tahlil qilinishi mumkin. Bundan tashqari foyda solig‘i, soliqdan keyin foyda ko‘rsatkichlarini ham tahlil jarayoniga kiritish mumkin. Bunda, foyda solig‘ining chizig‘i kritik nuqtadan keyin yuzaga keladi, chunki ungacha foyda solig‘i bo‘lmaydi.

Foyda solig‘i soliqgacha foydaga nisbatan foiz hisobida beriladi. Rember Company si uchun foyda solig‘i stavkasi 30% belgilangan. Menedjerlarga soliqdan keyingi foyda (sof foyda) summasi 8,400 p.b.dan iborat ekanligi ma’lum (mo‘ljaldagi sof foyda). Ushbu ma’lumotlar asosida soliqgacha foyda summasini hisoblaymiz:

Soliqgacha foyda summasi = mo‘ljaldagi sof foyda / (1 – soliq stavkasi)

Ma’lumotlarni ushbu formulaga qo‘yamiz:

Soliqgacha foyda summasi = 8,400 p.b. / (1 – 0.30) = 8,400 p.b. / 0.70 = 12,000 p.b.

Ushbu ma’lumotlar asosida soliqgacha foyda summasidagi kritik nuqtani nuqtani aniqlash mumkin bo‘ladi:

X = (20,000 + 12,000) / (10 – 6) = 32,000 p.b. / 4 p.b. = 8,000 birlik.

Demak xulosa qilish mumkinki, 12,000 p.b.dagi soliqqacha foyda summasini olishi uchun kompaniya 8,000 birlikdagi mahsulot ishlab chiqarishi va sotishi talab etiladi.

3. Sotiladigan mahsulot (tovarlar) assortimentini rejalashtirish

Mahsulotni ishlab chiqarish hajmi va uning sotish assortimentini rejalashtirish Ishlab chiqarish hajmi va mahsulot assortimentiga nisbatan boshqaruv qarorlari moliyaviy hisobot asosida qabul qilinadi. Shu holda subektlar turli yo‘llar bilan sotiladigan mahsulotlarni keng assortimentda ishlab chiqaradilar;

katta va kichik hajmda, ulgurji va chakana savdo yordamida, turli geografik hududda joylashgan iste’molchilarga yetkazib berish yo‘li bilan va hokazo. Bunday amaliyot mahsulotning turlari va bozorlarning segmentlari bo‘yicha olinadigan daromadlar to‘g‘risida alohida hisobotlarni talab qiladi. Buxgalter tomonidan subektning moliyaviy-sotuv faoliyati haqidagi to‘liq moliyaviy ma’lumotni ishlatish subekt ishining unumdorligini oshirishga qaratilgan nazoratning amaldagi tizimini yaratishga imkon beradi. Alohida segmentlar bo‘yicha moliyaviy hisobotlarga umumiy summalarni kiritish kerak va subektning umumiy moliyaviy hisobotiga ham ushbu summalar umumlashtirilgan holda kiritilishi kerak. Masalan, har bir mahsulot yoki mahsulotning assortimentini ishlab chiqarishdan olingan foyda yalpi foydaning bir qismi bo‘lishi kerak, ishlab chiqarish hajmi esa o‘zgaruvchan xarajatlarning hajmi bilan o‘zaro bog‘liqlikni saqlashi kerak. Bir ishlab chiqarish bo‘linmalarining xarajatlari butun subekt darajasida ishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi hisoblanadi va ishlab chiqarishning samaradorligini, mahsulot turi, ish vaqtidan to‘liq foydalanganlikni hisobga olgan holda nazorat qilinishi lozim. Tadbirkorlik faoliyatining har bir segmentini baholash ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblovchi buxgalterga muammo tug‘diradi. Uning yechimi ko‘proq rentabelli mahsulotni va subektning yalpi foydasining ishlab chiqarish hajmini va assortimentini nazorat qilish tizimini tuzish jarayonida ro‘yobga chiqadi. Bir subekt uchun nazorat tizimining o‘ziga xosligiga qaramay u quyidagi namunaviy muolajalarni o‘z ichiga olishi lozim: har bir mahsulotning rentabelligini kuzatish; har bir mahsulotdan olingan yalpi foydani nazorat qilish; haqiqiy foydaning kutilayotganidan chetga chiqishini aniqlash; xarajatlar tizimini hisoblab chiqish, o‘ta yashirin xarajatlarni chiqarib tashlash; alohida mahsulotga to‘g‘ri keladigan ustama sarflarni hisoblab chiqish; subektda qo‘llaniladigan talabning elastikligiga va boshqa nazorat muolajalariga narx o‘zgarishining ta’sirini aniqlash. Nazorat muolajalaridan foydalanish kutilayotgan foydani ta’minlash uchun ishlab chiqarish hajmining qancha bo‘lishini, foydaning aniq hajmini olish uchun sotishda qanday narx qo‘yish kerakligini, subekt ishining zararsizlik chegarasining, xavfsizlik hududining va sotilgan mahsulot tizimining qandayligini aniqlashga imkon beradi. Mahsulot birligining miqdorini hisoblash zararsizlik nuqtasini hisobga olmasdan quyidagi tenglamaga asoslanadi: Kutilgan foydani olish uchun sotilgan mahsulot birligining miqdori = Doimiy xarajatlar + Kutilgan foyda Birlik mahsulotning narxi Oldingi misolning ma’lumotlari bo‘yicha: (40000 + 146000) : 150 = 1240 dona ya’ni, ishlab chiqarishning hajmini 760 donagacha (2000-1240) tushirish kerak. 209 Hisobning to‘g‘ri usuli deb yalpi foyda usuliga aytiladi, uning asosida quyidagi tenglama yotadi: Yalpi foyda (yoki marjinal daromad) = Mahsulotni sotishdan tushgan daromad - O‘zgaruvchan sarflar Bizning misol uchun yalpi foydaning chizmasini tuzish quyidagi rasmda ko‘rsatilgan (14.4-chizmaga qarang). Sarflar va daromad, m.s. 400000 Ishlab chiqarish hajmining qulay diapazoni(maydoni) 350000 S 300000 250000 Zararsizlik nuqtaasi 200000 Foyda xududi D 150000 Zararlar xududi K 100000 V 50000 0 200 400 600 800 100 0 120 0 140 0 160 0 180 0 200 0 220 0 240 0 Mahsulotning birligi, dona 14.4-chizma. Yalpi foydaning chizmasi (marjinal daromad) O‘zgaruvchan sarflar chizig‘i (OK) ishlab chiqarish

hajmi birligiga 2000 dona buyum va 100000 so‘m hisobidan tuziladi. Doimiy xarajatlar (KD) yalpi (AD) va o‘zgaruvchan (OK) xarajatlarning o‘rtasidagi farqqa teng. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmining butun maydoni (diapazoni) uchun doimiy qiymat hisoblanadi. 40000000 so‘mdagi doimiy xarajatlarning summasi o‘zgaruvchan xarajatlarga qo‘shiladi, natijada yalpi xarajatlar chizig‘i o‘zgaruvchan xarajatlar chizig‘iga parallel bo‘ladi. Marjinal daromad grafikda sotishdan olingan daromad chizig‘i (OS) va o‘zgaruvchan xarajatlar chizig‘i o‘rtasida ko‘rsatilgan. Mahsulotlarning qulay maydoni (diapazoni) - mahsulotning 600dan 2000 donagacha bo‘lgan birligi darajasida joylashgan. Shunga e’tibor qaratish lozimki, ishlab chiqarishning belgilangan maydoni (diapazoni) chegarasida qarorlar qulay bo‘ladi. Bu maydon (diapazon)dan tashqarida mahsulot birligiga bo‘lgan sotish narxi va o‘zgaruvchan sarflar boshqacha bo‘ladi. Ayrim hollarda tahlil uchun xavfsizlik hududi, shuningdek xavfsizlik chegarasining koeffitsienti hisoblab chiqiladi: Xavfsizlik hududi = Rejalashtirilayotgan sotish hajmi - Zarasizlik nuqtasidagi sotish hajmi Xavfsizlik chegarasining koeffitsienti = Rejalashtirilayotgan sotish hajmi + Zararsizlik nuqtasidagi sotish hajmi 210 Rejalashtirilayotgan sotish hajmi Zararsizlik nuqtasi xavfsizlikning chegarasini ko‘rsatmoqda. U subektning zarar ko‘rishidan oldin sotish hajmi qanchaga qisqartirilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Mahsulotning rentabelligi = Mahsulot birligiga ta’luqli marjinal daromad Mahsulot birligining narxi x 100 Umumiy tahlildan so‘ng har bir mahsulot yoki mahsulotning assortimenti tomonidan foydaga qilingan individual qo‘yilmalarning jadvali tuziladi (14.3- jadvalga qarang). 14.3-jadval Mahsulotning assortimenti tomonidan foydaga qilingan individual qo‘yilma Mahsulot Mahsulotning rentabelligi, % Marjinal daromad, so‘m Mahsulotning assortimenti tizimi, % A 62 10000000 20 B 60 20000000 40 V 50 20000000 40 Yalpi marjinal daromad 50000000 100 Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, V mahsuloti eng kam rentabellidir. Shu mahsulotni ishlab chiqarish natijasida umumiy rentabellik tushib ketgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, rentabellik foyda bo‘yicha 14,5dan 16 %gacha o‘sgan bir davrda marjinal daromad bo‘yicha hisoblanganda esa 61%dan 55,9 %ga tushib ketdi. Umumiy yalpi marjinal daromadning 40 %ni egallagan V mahsuloti ushbu mahsulotning ishlab chiqarilishi va marketingi haqida ma’lumot olingan sari kamayadigan ma’lum boshlang‘ich xarajatlarning mavjudligi aniqlandi. V mahsuloti boshqa mahsulotga nisbatan yuqori narxga ega. Bu sharoit mahsulotning assortimentini o‘zgartirish uchun rahbarlar tomonidan qaror qabul qilishga olib kelsa ajab emas. Mahsulotning hajmi va assortimentiga yanada keng qarash maqsadida ko‘p pog‘onali segment hisobi ma’lumotlariga asoslangan segment tahlili usuli qo‘llaniladi (14.4- jadvalga qarang). 14.4-jadval Mahsulot hajmi va assortimentining segment tahlili Ko‘rsatkichlar V mahsulotini ishlab chiqargunga qadar, ming so‘m V mahsulotini ishlab chiqarishdan so‘ng, ming so‘m Sotishdan tushgan daromad 49500 89500 O‘zgaruvchan xarajatlar 19500 39500 Marjinal daromad 30000 50000 Doimiy xarajatlar, shundan: To‘g‘ri 6800 21500 Egri 16000 16000 Foyda 7200 12500 Ishlab chiqarishning o‘rtacha rentabelligi, % 61,0 55,9 Foyda darajasi nafaqat mahsulotlar bo‘yicha, balki har bir zonani foydaning umumiy summasiga qilgan qo‘yilmalari bo‘yicha baholanadi.

Subektning marjinal 211 daromadi tizimi bozor zonalari bo‘yicha hisoblanadi, zonalar ichida esa mahsulotlarning turi bo‘yicha hisoblanadi. Tadbirkorlik segmentlarini nazorat qilish shakllari ishlab chiqarish bo‘linmalari tomonidan har bir mahsulot uchun sotish narxini belgilashni ham ko‘zda tutadi. Ishlab chiqarish bo‘linmasi tomonidan mahsulot sotishsini baholash odatda ustalar, bo‘lim va sex boshliqlarini moddiy rag‘batlantirishda qo‘llaniladi. Shuni esda tutish kerakki, transfert narxlarini hisoblashning eng qulay varianti bo‘lib xarajatlarning me’yorlari hisoblanadi. Shuning uchun foyda summasiga har bir bo‘linma tomonidan qilingan qo‘yilma to‘g‘ri ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy ustamalarini emas balki yalpi qoplanishi va subektning sof daromadiga bo‘lgan ta’siri sifatida qaraladi. Nazoratning kam ahamiyatli bo‘lmaganining yana biri sifati bu mahsulot turlari bo‘yicha talabning elastikligini kuzatishdir. Sotishdan olingan foydaning asosiy konsepsiyasi: narxlarning ko‘tarilishi - sotish hajmining kamayishi yoki narxlarning pasayishi - sotish hajmining o‘sishi hisoblanadi. Talabning elastikligi har bir mahsulot bo‘yicha aniqlanadi. Agar talab elastik bo‘lsa sotishning o‘sishi haqiqiy hajmining 1/3 qismidan oshmasligi kerak va narxlarning darajasini ushlab turishda alternativ qadam bo‘lib xarajatlarni pasaytirish dasturi xizmat qilishi mumkin. Shunda sarflarning umumiy summasining pasaytirilgani sotishning haqiqiy hajmini 1/3 qismidan oshmasligi kerak. Agar mahsulot assortimenti marjinal qo‘yilma va sof daromad darajasi bilan belgilansa, unda o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar sotish xarajatlariga mutanosiblikda o‘zgaradi. Bunday holda sotishning yuqori darajasi xarajatlarni pasaytiradi. Ishlab chiqarish quvvatlarining yetishmasligi sotish hajmining o‘sishi uchun qo‘shimcha qo‘yilma va ishchi kuchi to‘plamini talab qiladi, buning natijasida ishlab chiqarishning samaradorligi pasayib xarajatlar ko‘tarilib ketadi. 5. Bahoni shakllantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish Mahsulotga sotuv narxini o‘rnatish- subektning asosiy masalasi va menejerning san’ati hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bahoni shakllantirishning bir necha yondashuvlari mavjud. Birinchi yondashuv- shunday narx qo‘yish kerakki, u sotuvchini jalb qilsin; boshqasi- o‘zi uchun ma’lum narx chegarasini belgilash maqsadida raqibning o‘rnatgan narxidan foydalanish; uchinchisi- rentabellik pog‘onasini, o‘zgaruvchan xarajatlar va marjinal daromadning qiymatini aniqlash uchun mahsulot tannarxi haqidagi ma’lumotdan foydalanish. Mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarga quyidagi narx va tariflar o‘rnatilishi mumkin: sotuvchi va xaridorlar uchun majburiy bo‘lgan- rasmiy, subektning mazkur mahsulotini hamma sotib oluvchilari uchun bir xil bo‘lgan- muqobillashtirilgan, sotishsotib olish dalolatnomasining har birida-kelishuv. Rasmiy va muqobillashtiriladigan narxlar jahon bozori narxlari yoki ishlab chiqarishning asoslangan xarajatlari asosida o‘rnatiladi. Kelishuv narxlari esa yoki individual xarajatlar, yoki foydalanish parametrlari, yoki talab va taklifning o‘zgarishi asosida aniqlanadi. Real narxni shakllantirish masalasi hozirgi davrda subektlarda ishlab chiqarishning tushib ketishida ortiqcha quvvatlarning vujudga kelishi, ularni ta’minlash sarflarining oshishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflatsiya va qo‘shimcha qiymat solig‘ini hisoblash uslubining mavjudligi uchun qiyinlashgan. Subektning ma’muriyati iqtisodiy asoslangan narxni o‘rnatish uchun qator muammolarni yechishi kerak: qaror qabul

qilishda hisobga olinadigan xarajatlarning tarkibini asoslash; kalkulatsiya qilish uslubini tanlash; doimiy xarajatlar minimal bo‘lgan ishlab chiqarish darajasini o‘rnatish; subekt foydasining summasini hisoblab chiqish. 212 Birinchi uchta masala ishlab chiqarish faoliyati haqidagi bobda ko‘rib chiqilgan. Subektning foydasini formula bo‘yicha va foyda bilan ishlab chiqarish hajmining o‘zaro aloqasini aks ettiruvchi grafik usuli yordamida hisoblab chiqish mumkin. Formula bo‘yicha foydani hisoblash usuli sof foyda tenglamasi va kapitalning qaytimiga asoslangan: Fond qaytimi x Ustav kapitali R = O‘tgan yil uchun ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarning umumiy summasi x 100 bu yerda, R- mahsulot rentabelliginining darajasi. Fond (kapital) qaytimining me’yori = Sof foyda Hissadorlik kapitali Masala. Mazkur sanoat tarmog‘i uchun fond qaytimining o‘rtacha me’yori 10 %. Ustav kapitali- 200 mln. so‘m. Mahsluot ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar- 400 mln. so‘m, shunda rentabellik R = 10% x 200000 x 100 q 5 %ni tashkil etadi. 400000 Agar subektning foydasi hisob narxidan past bo‘lsa. unda narxni kalkulatsiya qilishda foydaning o‘rtacha me’yoridan yoki uning ozmuncha o‘sishini hisobga olgandan kelib chiqadi. Inflyatsiya sharoitlarida foydaning o‘rtacha me’yoriga subektda inflatsiyani kompensatsiya qilish uchun tuzilgan zaxiralarning qiymati qo‘shiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, inflatsiya sharoitlarida va subektning xarajatlarni pasaytirishga qaratilgan qiziqishlari bo‘lmagan paytda formulalarning ma’luomtlari juda muammoli hisoblanadi. Narxni o‘rnatishga xarajatlar eng katta ta’sirni ko‘rsatadi. Xarajatlarning tarkibini tanlashda quyidagi formula qo‘llaniladi: 1. O‘zgaruvchan ishlab chiqarish sarflari + daromad. 2. Umumiy o‘zgaruvchan sarflar + daromad. 3. Ishlab chiqarish tannarxi + daromad. 4. To‘liq tannarx + daromad. Xarajatlarning ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligi zararsizlikni tahlil qilishda o‘rganib chiqilgan. Bu yerda asosiy e’tibor foydaning ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqligiga qaratilgan, chunki mahsulotga bo‘lgan narxning o‘zgarishi ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi bilan yoki sotishdan olingan yalpi foydaning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Narxlarni, mahsulot birligiga bo‘lgan o‘zgaruvchan xarajatlar, doimiy xarajatlar va ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa quyidagi 14.5- chizmada ko‘rsatilgan. A. Sotish narxining o‘zgarishi B.Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlarning o‘zgarishi Foyd a, m.s. Foyd a, m.s. 80 80 60 60 40 40 20 20 500 100 150 200 250 500 100 150 200 250 213 0 0 0 0 0 0 0 0 0 Hajmi, dona Hajmi, dona 14.5-chizma. Narxlarni, mahsulot birligiga bo‘lgan o‘zgaruvchan xarajatlar, doimiy xarajatlar va ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqasi Masala. Ishlab chiqarishning hajmi- 2000 dona. Mahsulot birligining sotish narxi- 150 so‘m. Mahsulot birligiga bo‘lgan o‘zgaruvchan xarajatlar- 100 so‘m. Doimiy xarajatlar- davr uchun 40 ming so‘m. Joriy foyda- 60 ming so‘m (150-100) x 2000-40000) = 60000 so‘m. Faraz qilaylik, har bir ko‘rsatkich 10%ga o‘zgardi, unda ma’lumotlar quyidagicha o‘zgaradi. Ishlab chiqarishning hajmi- 2200 dona (2000 x 10 % = 200); Mahsulot birligining sotish narxi- 165 so‘m (150 x 10% = 15); Mahsulot birligiga bo‘lgan o‘zgaruvchan xarajatlar- 90 so‘m(100 x 10% = 10); Doimiy xarajatlar- davr uchun 36 ming so‘m (40 x 10% = 4); Hamma o‘zgarishlar natijasidagi joriy foyda ((165-90) x 2200 -36000) = 129000 so‘m. 14.5-jadval

Ko‘rsatkichlarning o‘zgarishidan olingan natija Omillar Yangi foyda, so‘m Foydaning o‘sishi So‘m % A. Sotuv narxining ko‘tarilishi 90000 +30000 +50 B. Mahsulot birligiga bo‘lgan o‘zgaruvchan xarajatlarning pasayishi 80000 +20000 +33 V. Doimiy xarajatlarning pasayishi 64000 +4000 +7 G. Ishlab chiqarish hajmining oshishi 70000 +10000 +17 Mazkur hisoblar omillar bir-biriga bog‘lanmagan holda harakat qiladigan sharoitda amalga oshiriladi. Lekin amaliy holat bu omillarning to‘liq bir-biriga aloqadorligini va boshqalarning ta’sir ko‘rsatishini chiqarib tashlamaydi, shuningdek, sotib oluvchilarning talablarini, raqiblarga yo‘naltirilgan tezkor narx siyosatini va boshqalarni. Undan tashqari, maxsus buyurtmalarga narx o‘rnatishda ozod ishlab chiqarish quvvatlarini hisoblashda yoki ularning yetishmasligidan qiyinchiliklar sodir bo‘ladi. Bunday holatlarda narxning shakllanishi nafaqat bozor bilan, qo‘shimcha sarmoyalar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Yangi mahsulotni ishlab chiqarish konsepsiyasini ishlab chiqish olib boriladigan siyosat, reja va ish tajribasini aniq tahlil qilishni talab qiladi. Bunda- nihoyatda yangi mahsulot yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotning modifikatsiyasi muhimdir. Yangi deb, yangi xususiyatlarga ega bo‘lgan va mavjud bo‘lgan assortimentga qo‘shiladigan mahsulotga aytiladi. Buyumlar absolut yangi bo‘lishi mumkin yoki mahsulotni o‘zi o‘zgartirilmasdan yangi uskunalar va mexanizmlarning kombinatsiyasidan tashkil topishi mumkin. Absolut yangi mahsulotni ishlab chiqarish qo‘shimcha sarmoyalarni talab etadi. Shuning uchun yangi mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha qarorlarni qabul qilish investitsiyalar bo‘yicha qaror qabul qilish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi, subekt boshqaruvining yuqori darajasida amalga oshiriladi. Sarmoyalarni boshqarishning maqsadi- quyidagi sohalarda asosiy strategik yo‘nalishlarni aniqlash: yangi mahsulotni ishlab chiqish va tatbiq etish; ishlab chiqariladigan mahsulotni modernizatsiya qilish va takomillashtirish; odatdagi 214 mahsulotni ishlab chiqarishni keyinchalik rivojlantirish; eskirgan mahsulotni ishlab chiqarishdan olib tashlash hisoblanadi. Ammo yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarish boshqa hamma yo‘nalishlarni aniqlovchi subektning strategiyasida prioritet yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Innovatsion menejmentini tuzish quyidagi formulani taklif etadi: "Fan Ishlab chiqarish Mahsulot" Yangi mahsulotni ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiya siyosatini qaror qabul qilishda kerak bo‘lgan ko‘rinish, hajm va ma’lumot mazmunini topshiradi. Innovatsiya jarayonini 6ta bosqichga bo‘lish mumkin: 1. Bozordagi texnologik yangi o‘zgarishlar, ilmiy-izlanish va tajribakonstruktorlik ishlab chiqish bo‘limlaridan (IITKI), marketing bo‘linmalaridan, sotuv bo‘limi appartidan, savdo dallollaridan, xaridorlardan tushadigan ma’lumotlarni yig‘ish va tizimlash; subektni yangi mahsulotni ishlab chiqarish va tatbiq etish, tavakkalchilik darajasi va miqdorini aniqlashda mavjud imkoniyatlari haqidagi maqsadli bozorlar va ularning rivojlanish tendensiyalari haqidagi ma’lumotni yig‘ish va tizimlash. Ma’lumotni yig‘ish va tizimlashning bu bosqichida mahsulotga bo‘lgan talabga ta’luqli omillar aniqlanishi kerak. Qiyinchiligi shundaki, bir xil mahsulotlar talabni qondirish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, boshqalari esa talab va bozorni rag‘batlantirish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Izlanish ishining eng boshida bozorni tahlil qilish mahsulotning standartlarga to‘g‘ri kelishini, uning xaridorlar uchun ko‘zga tashlanishini, katta va

kichik guruhlarda sotish hajmlarini o‘rnatishga imkon beradi. 2. Yangi mahsulot g‘oyasiga ta’lluqli ma’lumotni tanlash, g‘oyalarning imkoniyatlari va amaliy sotishsini aniqlash; yangi va eski mahsulotlarning texnologiyasida o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash; yangi mahsulot subektning ixtisosligiga to‘g‘ri kelishi; bo‘lajak buyumning patent tozaligini aniqlash. 3. Yangi mahsulotning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish marketing dasturini ishlab chiqish bilan birga amalga oshiriladi: mahsulotning loyihasini texnik ishlab chiqish; mahsulotning texnik-iqtisodiy tavsifini tanlash, uning sifati va iste’mol xususiyatlarini baholash; sotuv talabi va hajmini baholash; yaratish va o‘zlashtirishga ketgan sarflarni aniqlash, sarflarining qoplanish muddatlari; ishlab chiqarish uchun zarur resurslarning mavjudligi- mashina, uskuna, xomashyo, materiallar, ishchi kuchi va moliya; mahsulotni o‘zlashtirish va u bilan birga bozorga chiqish muddatlari; ishlab chiqarishning foydaliligini tahlil qilish va baholash. 4. Yangi mahsulotni ishlab chiqarishni tashkil etish- yangi buyumni ishlab chiqarishda band bo‘lgan har bir ishlab chiqarish bo‘linmasi uchun ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish; namunani yaratish va ekologik jihatdan, xavfsizlik jihatdan texnik sinashlarni o‘tkazish va boshqalar; tovarning nomlanishini, uning tovar belgisini, bezatish, qadoqlash va markirovka qilishni ishlab chiqish. 5. Cheklangan bozorda mahsulotga bo‘lgan narxga va boshqa tijorat shartlarga nisbatan uch oydan kam bo‘lmagan muddatda izlanishlar olib borish; sotish qilishni muqobil kanallarini tanlash; reklama vositalari va usullarini tanlash. 6. Sotuv hajmi, mahsulotning rentabelligi, talab va taklifni qondirish darajasi, xaridorlar bilan bo‘lgan aloqaning bir maromliligini; ishlab chiqarish quvvatlari, resurslari, xodimlarning malakaviy tarkibini; ishlab chiqarish va sotuvga sarflangan umumiy summasini, moliyalashtirish manbalari, hisoblash davriga bo‘lgan foyda va zarar bo‘yicha ko‘zlanayotgan natijalarni hisoblash asosida yangi mahsulotni ishlab chiqarishga kiritish haqida qaror qabul qilish. Yangi mahsulot ustidan izlanish olib borish va yaratish bosqichlarida muhim masala bo‘lib bu maqsad va sotish hajmiga bo‘lgan sarflarning nisbatini, ishlab chiqarish sarflari va yalpi foyda (marjinal daromad)ning nisbatini aniqlash turadi. Qaror qabul qilishda muhim xususiyat bo‘lib butun subekt bo‘yicha sotish hajmiga va boshqa buyumlar sotishsining hajmiga yangi mahsulotni tatbiq etish ta’sirini baholash qo‘llaniladi, shuningdek yaratishga, ishlab chiqarishga, sotishga, reklamaga ketgan xarajatlarning qoplanish vaqtini baholash qo‘llaniladi. Yangi mahsulotni yaratishning samaradorligini baholashning turli usullari mavjud: ekspert baholash; foydaning kutilayotgan me’yori; ehtimolli yondashish; kutilayotgan foydaning dinamikasini baholash; baholash kriteriyalarining ko‘p o‘lchamligi; tarmoqni jalb qilish qobiliyati, raqiblarning unga ta’siri va kirishi; hozirda ishlab chiqarilayotgan tovarlarni takomillashtirish uchun yangi yaratmalarni qo‘llash imkoniyatlari; yangi mahsulot ishlab chiqarish va sotuvini subektning moliyaviy faoliyatiga ta’siri. Mahsulotning muvaffaqqiyatligi ko‘p jihatdan mahsulotga narx o‘rnatish bilan kafolatlangan. Mahsulotga bo‘lgan narxni belgilashning asosiy kriteriyasi eski yoki shunga o‘xshash mahsulotning narxi xizmat qiladi. Bozorning talabi va undagi mahsulotlar doim o‘zgarib turganligi sababli yangi mahsulotning paydo bo‘lishi boshqa ishlab chiqaruvchilar uchun ma’lum bo‘ladi. Shundan, reklama

kompaniyasini kengaytirish, reklama qilinayotgan mahsulotning funksional roli, o‘xshagan parallel mahsulotni ishlab chiqarish, bunday mahsulot uchun "o‘zining" bozorini yaratish yoki talab qayishqoqligini hisobga olgan holda uncha ko‘rimsiz bo‘lgan mahsulotlarga narxni belgilash. Turli holda yangi mahsulotga narxni o‘rnatish va hisoblash uchun sarflar va foyda koeffitsientlari, sotish nuqtasi va mahsulotning zararsizlik grafigi ishlatiladi. Qator loyihalarning mavjudligida yirik subektlar birdaniga bir nechasiga sarmoya kiritadi, keynchalik esa, qaror qabul qilingandan, mahsulot tekshirilgandan so‘ng ularni tanlashni boshlaydi. Ayrim hollarda o‘tmishdagi "omadsiz" mahsulot kelajakda "omadli" bo‘lib ketadi. Mahsulot narxining va qiymatining to‘g‘ri kelishini o‘rnatish uchun bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobotlar tuzish tizimi tez va samarali bo‘lishi kerak, buxgalteriya hisobotlariga qo‘shimcha qilib buxgalterlar yangi mahsulotning hulqini tavsiflovchi alohida jadvallar tuzishlari kerak. Mahsulot ishlab chiqarilgandan so‘ng uning sotishsini tekshirish jarayoni o‘tkaziladi. Yangi mahsulot sotishsining tezligi va sotish qiymatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar haqidagi ma’lumot buxgalteriya hisobotida ro‘yxatga olinadi. Undan tashqari, yangi mahsulotning bozordagi hulqini o‘rganishning boshqa usullari ham qo‘llaniladi. Bu- pochtali korrespondensiya, savolnoma yoki telefon yordamida xususiy shaxslarni savol-javob qilish. Yangi mahsulotni baholashdan tashqari xaridor tomonidan mazkur mahsulot sotib olingan sharoitlar o‘rganiladi, bu esa narxni aniqlashda, bo‘lajak mahsulotlarni baholashda va reklamada muhim o‘rin tutadi.

4.Bahoni shakllantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish

Sotiladigan mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar)ga ilmiy asoslangan baho siyosatini ishlab chiqish boshqaruv hisobining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘z mahsulotini ishlab chiqara boshlashidan avval har bir korxona qancha foyda olishi mumkinligini rejalashtiradi. Korxona foydasi, odatda, asosan ikki ko‘rsatkichga bog‘liq: mahsulot bahosi va uni ishlab chiqarishga sarflanadigan haqiqiy xarajatlar. Erkin raqobat sharoitida mahsulot bahosi ishlab chiqaruvchi yoki xaridor xohishi bo‘yicha baland yoki past bo‘lishi mumkin emas, u talab va taklif asosiga qurilgan bozor qonuniyatlari bilan tartibga solib boriladi. Professor T.Malikov, korxonaga investitsiya va moliyaviy qarorlar qabul qilmog‘i uchun birinchi navbatda uning mahsulotiga bo‘lgan talab to‘g‘risida ma’lumot zarur bo‘ladi, deb hisoblaydi. Shuning uchun, marketing tadqiqotlarining muhim instrumentlaridan biri talab va taklif egri chiziqlari ekanligini tan olgan holda, shular ustida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir (3.75., 12 b.). Ma’lumki, inflyatsiya jarayonida baholarning o‘sishi sodir bo‘layotgan paytda pulning foydaliligi pasayib boradi. Shu sababli bunday sharoitda barcha hisob-kitoblarni qiyosiy yoki bazis davri baholarida amalga oshirmoq zarur. Aks holda, noto‘g‘ri ma’lumotlarga asosida to‘g‘ri moliyaviy qaror qabul qilib bo‘lmaydi. Shu nuqtai-nazardan qiyosiy baholardan foydalanish moliyaviy menejmentdagi hamma hisob-kitoblarga tegishli bo‘lgan talab hisoblanadi. Bunda bir o‘lchamning o‘zgarishi ikkinchi o‘lchamning o‘zgarishiga qanday ta’sir etishi tahlil qilinadi. 161 Ishlab

chiqarishning hajmi va baholar darajasi turlicha bo‘lgan sharoitda foyda summasini solishtirishni bir nechta variantlari mavjud. Mahsulotning qo‘shimcha birligini ishlab chiqarish umumiy tushumning ma’lum bir birlikda oshishiga olib keladi va u cheklangan tushum deyiladi. O‘z navbatida xarajatlar miqdorining ham bir birlikda oshishi kuzatiladi va u cheklangan xarajatlar deb ataladi. Maksimal foyda cheklangan tushum bilan cheklangan xarajatlar bir-biriga teng bo‘lgan yoki ular bir-biriga maksimal darajada yaqinlashgan holda olinishi mumkin. Foydalilikning cheklanganligi nazariyasiga muvofiq, ishlab chiqarishning o‘sishi tufayli cheklangan tushum cheklangan xarajatlarga nisbatan tezroq sur’atlarda o‘sib borgunga qadar foyda hajmi o‘sib boraveradi. Biroq, cheklangan xarajatlar cheklangan tushumdan oshib ketgan paytda mahsulot ishlab chiqarishni qisqartirish zarur. Xulosa qilganimizda, cheklangan xarajatlarning cheklangan tushumga yaqinligi (maksimal) eng yuqori darajada ta’minlanganda yoki unga tenglashtirilganda mahsulot ishlab chiqarishning hajmi va uning bahosi ishlab chiqaruvchini eng yuqori (maksimal) foyda bilan ta’minlaydi. Muallifning yana bir fikri diqqatga sazovordir ya’ni baho oshgan (yoki pasaygan) holatda talab hajmining elastikligi masalasidir. (12-jadval). 12-jadval Talabning turli ko‘rinishlarida xaridorlarning xatti-harakatlari Talab xarakteri Baholar pasayganda xaridorlarning xattiharakatlari Baholar oshganda sotib oluvchilarning xattiharakatlari Talab elastikli (TE>1) Sotib olish hajmi keskin oshadi (bahoning pasayi-shiga nisbatan talab tez-roq o‘sadi). Korxonaning tushumi ortadi. Sotib olish hajmi keskin kamayadi (bahoning oshishiga nisbatan talab yuqori sur’atlarda pasaya boradi). Korxonaning tushumi orta-di. Korxonaning tushumi kamayadi. Talab elastikligi birga teng (TE=1) Bahoning pasayishiga mos ravishda talab sur’atlari ham o‘sa boradi. Korxona-ning tushumi ortadi. Bahoning o‘sish sur’atlariga mos ravishda talab ham pasaya boradi. Tushum o‘zgarmaydi. 162 Talab elastik emas (TE

Tashqi muhitdagi quyidagi makrodarajadagi o‘zgarishlar korxona darajasida bahoni shakllantirishga shubhasiz ta’sir ko‘rsatadi: 1. Iqtisodiyotdagi o‘sish va pasayish (har qanday mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj aholining real daromadlari, investitsiya faolligi, davlat Boshqaruvning asosiy funksiyalari: Rejalashtirish, tashkil etish Nazorat Iqtisodiy tahlil Hisob: buxgalteriya, statistik, operativ- texnik Boshqaruvning ta’minot funksiyalari: Boshqariluvchi tizim: ishlab chiqarish jarayoni transfert bahoni shakllantirish bo‘yicha qaror-lar qabul qilish Boshqaruvchi tizim: Turli darajadagi rahbarlar Bahoni shakllantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish Tashqi muhit To‘g‘ri aloqa Teskari aloqa 163 xarajatlari, kredit olish va uni qaytarishga imkoniyatlari, baholarning o‘zgarishiga bog‘liq). Shu sababli tashqi muhitni tahlil qilish korxonani baholash uchun boshlang‘ich nuqta va qadam bo‘lib hisoblanadi; 2. Tabiiy resurslarga yaqinlik va ularning zahirasiga ega bo‘lish nafaqat mahsulot yetishtiruvchi, balki qayta ishlovchi korxonalarni strategik rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega; 3. Siyosat va huquq. Korxonaning faoliyat yuritishida davlatning iqtisodiy barqarorligi, turli xil mulk egalarining huquqiy jihatdan muhofaza qilinganligi, soliq qonunchiligining o‘zgarib turishi, bojxona huquqi kabi omillar ham hal qiluvchi ahamiyatga ega; 4. Demografiya. Korxona joylashgan hududdagi aholining soni va tarkibi uning

faoliyatiga juda ham bog‘liqdir. Agar hududda tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lsa, bolalar assortimentiga talab katta bo‘ladi yoki katta yoshdagi aholining hissasiga qarab ularning talabidagi mahsulotlar ishlab chiqarish zarur bo‘lsa, korxona shu bozorga qarab mo‘ljal olishi zarur; 5. Ijtimoiy-madaniy muhit. Jamiyatning iqtisodiy farovonligi oshib borishi bilan unda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga, kam aholining ta’minlangan va ishsiz qatlamlarini himoya qilishga ehtiyoj oshib boradi; 6. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Baho ciyosati masalasi bo‘yicha moliyachi va marketologlar o‘rtasidagi bahoga nisbatan ikki muqobil yondashuv - xarajatlar va qiymat yondashuvlari sohasida bahs-munozara kelib chiqadi. Ularning mohiyatini 14-chizma yordamida tasvirlash mumkin. Bahoga nisbatan xarajatlar yondashuvi eng sinalgan va ishonchli yondashuvdir. Uning asosida real kategoriya yotadi, bu - mahsulot ishlab chiqarilishi va sotilishiga sarflanadigan korxona xarajatlaridir. Bu xarajatlar mahsulot ishlab chiqarishga va sotishga qilingan haqiqiy xarajatlar kategoriyasi orqali ifodalanadi va buxgalteriyada dastlabki hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘ladi. T/n Xarajatlar asosidagi yondashuv Qiymat yondashuvi 1. Mahsulot Xaridorlar 2. Texnologiya Qiymatliklar 3. Xarajatlar Baho 4. Baho Xarajatlar 5. Qiymatliklar Texnologiya 6. Xaridorlar Mahsulot 14-chizma. Bahoni shakllantirishga yondashuvlar Buning ustiga, ma’lum darajada bu yondashuvning nufuzi iqtisodiy nazariyada qo‘llab-quvvatlanishi bilan bog‘liq, chunki, mahsulotlar o‘rtasida xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash, tannarxni shakllantirish va boshqarish bahoni korxona uchun naflilik nuqtai-nazaridan daromad olish manbaiga aylantiradi. (15-chizma). 15-chizma. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho va xarajatlar o‘rtasidagi real bog‘liqlik Mahsulot sotishda baho darajasini sotishning taxminiy hajmi va shunga mos ishlab chiqarishning taxminiy miqyosi belgilaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy nazariya ham, boshqaruv hisobi ham e’tirof etadiki, mahsulot birligini ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari hajmi bevosita ishlab chiqarish miqyosiga bog‘liq. Ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o‘sishi bilan bir buyumga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar summasi va ishlab chiqarishga sarflanadigan o‘rtacha xarajatlar hajmi ham o‘sadi. Binobarin, uddaburon menejer bahoni belgilayotganda xarajatlar usuli asosida yoki raqobatchilar tomonidan baho bo‘yicha qabul qilingan qarorlar ta’siri ostida passiv baho belgilash yo‘lini tanlamasligi lozim. Eng oqilona yondashuv - bahoni shakllantirishga faol yondashuv bo‘lib, Baho Sotishlarning rejalashtirilayotgan hajmi Ishlab chiqarishning kutilayotgan hajmi Mahsulot birligiga sarflangan xarajatlar 165 bunda bahoni boshqarish orqali sotishlarning zarur hajmiga mos keluvchi o‘rtacha xarajatlar hajmiga erishiladi, bu esa korxonani foydalalilikning kutilayotgan darajasiga olib chiqadi. Bahoni shakllantirishga faol yondashuv mantiqiga o‘xshash masalalarni quyidagicha ta’riflash mumkin: “Eng past bahoda sotiladigan tovarlar miqdorini katta miqdordagi foyda olish uchun qanchagacha oshirishimiz kerak?” yoki “Sotiladigan tovarlarning qancha miqdorini yuqoriroq bahoda ko‘proq foyda olish uchun qurbon qilishimiz kerak?”. Aynan mana shunday yondashuv “zaif” bozorlarda (ya’ni, talab pasayib boruvchi bozorlarda) yoki “kuchli” bozorlarda (ya’ni, talab ortib boruvchi bozorlarda juda yuqori baholar xarajat yondaщuvini jiddiy kamchiligini chetlab o‘tish imkonini beradi). Shuni ta’kidlash joizki, bahoni

shakllantirishga xarajatli yondashuvdan voz kechish korxona menejerlariga oson bo‘lmaydi, chunki ular ishlab chiqarishga yangi mahsulot uchun investitsiya qilish va bahoni shakllantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinguncha, kutilayotgan foydani aniqlashni talab etadilar. Loyihalashtirilayotgan yangi mahsulot zamonaviy texnik darajaga mos keluvchi o‘lchamlar va xossalarga ega bo‘lishi, konstruktorlik xizmatlari, texnologlar, moliya-iqtisodiy bo‘lim va buxgalteriyada texnikiqtisodiy asosnoma (TIA) bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Shu bosqichning o‘zida baho aniqlanadi, u xarajatlarning o‘rnini to‘ldirishi va investitsiyalarni zaruriy darajada qoplashi kerak. Shundan so‘nggina marketologlar (agar shunday mutaxassislar bor bo‘lsa) mahsulot sotish hajmini aniqlaydilar. Ular mahsulot sotishni tashkil etish, mahsulot xossasi va sifatiga xaridorlarni ishontirishga intiladilar. Agar bunday “targ‘ibot” natijalari ijobiy natija bermasa, korxona rahbariyati odatda bahoni pasaytirish taklifi hisobiga vaziyatni saqlab qolishga harakat qiladi. Bunday sharoitda, odatda, xaridorlar bozorda ustunlik qiladigan 166 vaziyat yuzaga keladi. Bunda aynan ular o‘z shartlarini qo‘yadilar va bahoni yanada ko‘proq arzonlashtirishga erishadilar, aks holda tovarlarni sotib olishdan butunlay bosh tortishlari mumkin. Professor Vaxrushina M.A. boshqaruv hisobida bahoni belgilashda xalqaro amaliyotda mavjud ikki xil holatni ko‘rsatib o‘tadi: 1) Bahoning uzoq muddatli quyi chegarasi; 2) Bahoning qisqa muddatli quyi chegarasi. Birinchi holat korxona mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun qilingan jami xarajatlarni qoplash uchun qanday minimal bahoni o‘rnatishi zarurligini ko‘rsatadi. Bu quyi chegara mahsulotning to‘liq tannarxiga mos keladi. Ikkinchi holat korxona xarajatlarning faqat o‘zgaruvchan xarajatlarga teng qismini qoplaydigan bahoni nazarda tutadi. Mazkur quyi chegara “direkt-costing” usuli asosida hisoblanadigan o‘zgaruvchan xarajatlarga tengdir. Ayrim vaziyatlarda korxonada ishlab chiqarish quvvatlari to‘liq ishlatilmaganda qo‘shimcha buyurtmalar uchun qilingan xarajatlar to‘liq qoplanmagan holatda ham ularni bajarishga to‘g‘ri keladi. Bunda korxona buyurtmaning bahosini uning qisqa muddatli quyi chegarasigacha tushirishga majbur bo‘ladi. (3.36., 233 b.). Shu o‘rinda professor Jumanov O.ning quyidagi fikrini o‘rinli deb hisoblaymiz:“Ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanilmayotgan korxonalarda doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni har bir buyurtma bo‘yicha guruhlarga bo‘lish zarurdir. Ba’zan baho belgilash vaqtida bir nechta kichik buyurtmalar uchun taalluqli doimiy xarajatlarni ta’sirini hisobga olmaslik ham mumkin”. (3.53., 152.). Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, bahoni shakllantirishga xarajatli yondashuvga mo‘ljal qilib muvaffaqiyatga erishish g‘oyat mushkul. Bizning fikrimizcha, bunday sharoitda bahoga qiymatli yondashuvga ko‘proq e’tibor berish lozim. (16-chizma). 167 16-chizma. Bahoni shakllantirishga qiymatli yondashuv Akad.M.Sharifxo‘jaev va prof.g‘.Abdullaevlarning «Menej-ment» darsligida yuqori foyda olishning uchta shartini oqilona muvofiqlashtirish sharoitidagina ma’qul va ishonchli qarorlar qabul qilishga, tanlovni to‘g‘ri bajara olishga erishish mumkinligini ta’kidlashimiz zarur. (17-chizma). (3.175., 6 b.). 17-chizma. Yuqori foyda olishning uch sharti Bahoga nisbatan qiymatli yondashuvning vazifasi korxona mijozlarining rag‘batlantirilishidan iborat emas. Bunday natijaga bahoga katta chegirmalar berish hisobiga ham erishish mumkin. Lekin, qiymatli

yondashuv, korxona uchun sotishlar hajmini tobora avj olishi hisobiga emas, balki “qiymat - xarajatlar” nisbatining mutanosibligiga erishish hisobiga foyda olishni ta’minlashi kerak. Odatda, bahoni shakllanishi mehnat bozorida raqobatda bo‘lgan boshqa korxonalar ta’siriga ham bog‘liq. Shu bois, korxonaning baho siyosati buxgalterlar, moliyachilar, marketologlar, menejerlar va bozorni o‘rganuvchi axborot xizmatchilarining doimiy hamkorligi natijasida tug‘iladi va takomillashadi. Bunday sharoitda baho siyosatini shakllantirish korxonaga Foyda Xarajat Naf Baho Xaridorning manfaati va yutug‘i Korxonaning foydasi BAHO Korxonaning xarajatlari QIYMAT (NAF) 168 foyda, xaridorga esa ko‘proq naf keltirishi lozim. Bahoni shakllantirishda mahsulotni zararsiz sotilishini belgilash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mahsulotni zararsiz sotish bahosini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz: 1 Yuqorida ta’kidlangan zararsizlik bahosini aniqlash uchun quyidagi misoldan foydalanamiz. 1-misol. Korxona bir xil tovar ishlab chiqaradi va sotadi. O‘uyida uning faoliyatini izohlaydigan ma’lumotlar keltirilgan. Sotishdan olinadigan tushum, so‘m 470000 O‘zgaruvchan xarajatlar, so‘m 280000 Marjinal daromad, so‘m 190000 Doimiy xarajatlar, so‘m 115000 Operatsion foyda, so‘m 75000 Ishlab chiqargan mahsulot hajmi, dona 250 Birinchi navbatda, ostonaviy tushumni belgilab olish uchun quyidagicha hisob-kitoblar qilinadi: 1. Marjinal daromad kattaligini topamiz: 470000-280000=190000 3. Marjinal daromad koeffitsientini chiqarib tashlaymiz: 190000:470000=0,4 4. Ostonaviy tushum (zararsizlik nuqtasi)ni aniqlaymiz 115000:0,4=287500 Ostonaviy tushumni hisoblab topgach, uning yordamida mahsulotni zararsiz sotish bahosini aniqlash mumkin: 287500:250dona=1150 so‘m. 1 2.2.1 paragrafda zararsizlik nuqtasi va ostonaviy tushum batafsil ko‘rib chiqilgan. Ostonaviy tushum Zararsizlik bahosi = Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 169 Demak, mahsulotni bir birligini sotish bahosi 470000:250dona=1880 so‘m bo‘lsa, bir birlikka to‘g‘ri keladigan foyda summasi 730 so‘mni tashkil etadi. Zararsizlik bahosi formulasi mahsulotning belgilangan hajmini sotish jarayonida foydaning ma’lum darajasiga erishish uchun sotishning zararsiz bahosini aniqlashga imkon beradi. Baho ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni qoplashi va korxonaga foyda keltira boshlashiga imkon berish uchun uni sotiladigan mahsulotga qanday belgilash lozim? Bu savolga javob berish uchun quyidagi misoldan foydalanamiz. 2-misol. Korxona 5000 dona mahsulot sotishni rejalashtirgan, bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan o‘zgaruvchan xarajatlar 1600 so‘mni tashkil etadi Doimiy xarajatlar - 2000000 so‘m. Korxona 3000000 so‘m miqdorida foyda olishni mo‘ljallagan. Mahsulotni qanday bahoda sotish kerak? 1. Dastlab, marjinal daromad hajmini aniqlaymiz. Buning uchun doimiy xarajatlarga foydaning rejalashtirilgan hajmini qo‘shamiz. 2000000 so‘m+3000000 so‘m = 5000000 so‘m 2. Bir birlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan marjinal daromad summasini topish uchun yalpi marjinal daromad summasini sotiladigan mahsulotlar miqdoriga bo‘lamiz: 5000000 so‘m:5000dona = 1000 so‘m. 3. Mahsulot birligi bahosini aniqlash uchun o‘zgaruvchan xarajatlar orqali hisoblangan marjinal daromad summasiga doimiy xarajatlar va foydani qo‘shish natijasida aniqlangan marjinal daromad summasini yig‘ib topamiz: 1600 so‘m+1000 so‘m = 2600 so‘m

9-MA’RUZA. Zamonaviy “Standart-cost” tizimi asosida boshqaruv hisobini tashkil etish

Reja:

1. Zamonaviy “Standart-cost” tizimi asosida boshqaruv hisobini tashkil etish
2.«Standart-cost» hisob tizimida xarajat moddalari bo'yicha chetlanishlarni turkumlash

«Standart-cost» tizimi bo‘yicha boshqaruv hisobini tashkil etish Bozor mimosabatlari sharoitida korxonalar o‘rtasida iqtisodiy raqobatbardoshlik muhitining shakllanishi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini hisoblashning ilg‘or tizimlaridan foydalanish zaruratini tug‘diradi. Xorijiy m am lakatlarda .buxgalteriya hisobini yuritishning zamonaviy sharoitida strategik va taktik xususiyatga ega bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni korxonaning xarajatlari va moliyaviy natijalari haqidagi axborotga tayanadi. Bu vazifani bajarishda «Standart-cost» liisob tizimi korxona xarajatlarini boshqarishda samarali qurollardan biri hisoblanadi. Uning asosida belgilangan normalar doirasida hamda ulardan chetlanishlar bo'yicha hisob yuritish va nazorat qilish tamoyillari yotadi. «Standart-cost» atamasi ikki so'zdan tashkil topgan: «standart» — mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zaruriy bo‘lgan moliyaviy, moddiy va mehnat xarajatlari uchun oldindan hisoblab qo'yilgan xarajatlarning normativini anglatsa, «cost» so'zi esa mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni bildiradi. Shunday qilib, «Standart-cost» so‘zi to'liq ma’noda standart xarajatlarni anglatadi. Standartlar — eng awalo, ishlab chiqarishning bevosita xarajatlaridan foydalanish ustidan nazoratni o‘rnatishga qaratilgan va birbiriga bogiiq, smetalar esa.taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun m o‘ljallangan. «Standart-cost» tizimi — bu xarajatlar hisobi va tannarx aniqlash tizimi bo'lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi avvaldan puxta, obdon hisoblab chiqilgan normativ xarajatlar yordamida baholanadi, keyin esa haqiqiy qiliiigan xarajatlar bilan taqqoslanadi. Normativ va haqiqiy xarajatlar o‘rtasidagi farq chetlanish deb ataladi. Xarajatlarni samarali boshqarishning muhim vositalaridan biri chetlanishlar tahlili deb yuritiladi. «Standart-cost» tizimining tarkibi moddalar bo'yicha xarajatlarning quyidagi dastlabki (ishlab chiqarish jarayoni boshlanguncha) normalandan tashkil topadi: — asosiy materiallar; — asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarning mehnat haqi; — ishlab chiqarishdagi taqsimlanadigan xarajatlar (yordamchi ishlab chiqarishdagi xodimlar ish haqi, yordamchi materiallar, ijara haqi, jihozlar amortizatsiyasi va h.k.) — sotish xarajatlari (mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlar). «Standart-cost» hisob tizimi bo‘yicha foyda quyidagi tartibda aniqlanadi: 1) mahsulot sotishdan olingan yalpi daromad; 2) mahsulotning standart tannarxi; 3) yalpi foyda (lq.-2q.); 4) standartlardan chetlanishlar; 5) foyda (3q.-4q.). Standartlar va normalar yordamida hisoblab chiqilgan kalkulatsiyalar ishlab chiqarish va xarajatlarni tezkor boshqarish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Xarajatlarning belgilangan standart normalaridan chetlanish darajasi mazkur chetlanishlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun tahlil qilinadi. Bu esa m a’muriyatga ishlab

chiqarishdagi kamchiliklarni tezkor bartaraf etishga, kelajakda ham ularning oldini olishga imkon yaratadi. Shuni ta’kidlash kerakld, «Standart-cost» hisob tizimi xorij amaliyotida normativ hujjatlar bilan belgilab qo‘yilmagan, shu sababli bu tizim standartlami belgilashni va hisob qaydnomalarini yurgizishning yagona usuliga ega emas, natijada birgina korxona ichida ham bazisli, joriy, mutlaq, taxminiy va yengillashtirilgan kabi turli normalar amal qiladi. Normalami belgilashda mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo, ishchi kuchi va xizmatlar xarajatini tabiiy holda ifoda etishga imkon beruvchi miqdoriy standartlardan keng foydalaniladi. Taqsimlanadigan xarajatlar. Taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun mahsulotning taxminiy hajmidan kelib chiqib, ma’lum davr uchun stavkalar belgilanadi. Taqsimlanadigan xarajatlar smetalari doimiy tavsifga ega, biroq ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishida taqsimlanadigan xarajatlar nazorati uchun o‘zgaruvchan standartlar va sirpanchiq smetalar tuziladi. Taqsimlanadigan xarajatlarning sirpanchiq smetalari mahsulot ishlab chiqarish miqdoriga bog‘liq ravishda doimiy, o‘zgaruvchan 63 va yarim o ‘zgaruvchan xarajatlarga bo‘linadi. So‘nggilari o‘z navbatida, doimiy va o‘zgaruvchan tarkibiy unsurlarga bo‘lib cliiqiladi. Bunday usulda taqsimlanadigan xarajatlarning smeta stavkasi (normasi) mahsulot ishlab chiqarish va doimiy xarajatlar birligiga oldindan belgilangan normalar ulushining
o‘zgaruvchan qismi sifatida aniqlanadi. Mahsulotning standart tannarxini aniqlash uchun xom ashyoning normativ xarajatlari, ishchi kuchi va taqsimlanadigan xarajatlar umumlashtiriladi. «Standart-cost» hisob tizimidan foydalanadigan korxonalar odatda, quyidagi xarajat moddalari bo‘yicha hisobni tashkil etadi: (3.1-jadval): — xomashyo xarajati bo‘yicha chetlanishlar; — mehnat haqi bo‘yicha chetlanishlar; — umumishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha chetlanishlar; — davr xarajatlari bo‘yicha chetlanishlar. Zarurat tug‘ilganda (masalan, javobgarlik markazlari bo‘yicha bohinmalarda chetlanishlarni aks ettirishda) bu xarajat moddalarining har biri bo‘yicha analitik schotlar ochilishi mumkin. «Standart-cost» hisob tizimidagi asosiy talab — bu xarajatlarning belgilangan normalaridan chetlanishlari ustidan nazorat bo‘lib, u xarajatlar standartlarini takomillashtirishga imkon beradi. Agar bunday nazorat qo‘llanilmasa, u holda «Standart-cost» tizimining qo‘llanishi shartli bo‘lib qoladi va ijobiy natija bermaydi. «Standart-cost» hisob tizimi quyidagi afzalliklarga ega: — «Standart-cost» tizimi xarajatlarni operativ boshqarishga ko‘maklashadi. Chetlanishlarni o‘rganishda e’tibor reja va normativlar mos kelmaydigan obyektlarga qaratiladi. «Standart-cost» tizimida chetlanishlar boshqa tizimlardan ko‘ra tezkor va ancha aniq hisoblanadi; — ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va qolashga ko‘maklashadi. Investitsiyalar asosan tejamli texnologiyalarga yo‘naltirilishi lozimligi sababli, ishlab chiqarish texnologiyalari doimo qayta ко‘rib boriladi. Zarur paytda foydalanilayotgan ayrim elementlargina emas, balki butun texnologiya ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin;

«Standart-cost» hisob tizimida xarajat moddalari bo'yicha chetlanishlarni turkumlash

— Xarajatlarni qattiq va aniq nazorat qilishni ta’minlaydi. «Standart-cost» hisob tizimi tayyor mahsulot va lining tarkibiy qismlari aniq baholanishini nazarda

tutadi. Normativ xarajatlar bu tizimda nafaqat o'rtacha norma, balki awalgi yillar tajribasi asosida sinalgan kompleks baholash mezonlaridir. Yuqoridagi ijobiy tomonlar -bilan birgalikda «Standart-cost» tizimining quyidagi kamchiliklari ham mavjud: — «Standart-cost» tizimini qo‘llash va uni takomillashtirish ko‘p vaqt va xarajatlar talab qiladi. Ammo amaliyot ko‘rsatishicha, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hisobiga bu xarajatlar tezda qoplanib ketadi; — «Standart-cost» tizimi iqtisodiyotda baholar, foiz stavkalari, ishlab chiqarish texnologiyalari va usullari intensiv o ‘zgarib turadigan, beqaror sharoitlarda ijobiy samara bermay, o'z dolzarbligini yo‘qotadi. O‘z navbatida, bunday sharoitlarda tizim xarajatlarni operativ nazorat qilishdagi ustuvor vazifalarni bajarmay, samarali boshqarish dastagi rolini ijro etmay qoladi; — xususan, bozordagi raqobat natijasida shakllangan bahoning o‘zgarishi va inflatsiyani, ombordagi tayyor mahsulotlar qoldig‘i va tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisoblashni murakkablashtiradi; — standartlarni barcha ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘llab bo‘lmaydi, shu sababli ularni nazorat qilish susayadi; — korxona qisqa muddat ichida tavsif va tipi bo‘yicha turli buyurtmalarni katta miqdorda bajarayotganda standartlarni har bir buyurtmaga-chiqish imkoni chegaralangan.Bunday hollarda ilmiy asoslangan standartlar o‘rniga har bir mahsulotga o‘rtacha qiymat beigilanadi, u mahsulotga baho belgilash uchun asos (bazis) bo‘lib hisoblanadi. Ushbu kamchiliklarga qaramay korxonalarning rahbarlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulatsiyalash, shuningdek, boshqarish, rejalashtirish va zaruriy qarorlar qabul qilish uchun nazorat o'rnatishning ishonchli quroli sifatida «Standart-cost» hisob tizimidan foydalanadilar. Norm ativ usul va «Standart-cost» tizim ini o ‘rganish ular o‘rtasida umumiyliklar mavjudligini tasdiqlaydi. Demak, har ikkala tizim uchun quyidagilar umumiy tamoyil bo‘lib hisoblanadi: — xarajatlarni qat’iy normalashtirish; — xarajatlarni alohida moddalari bo‘yicha norm ativ kalkulatsiyani oldindan (hisobot davri boshlanguncha) tuzish; — chetlanishlarning paydo boiishi va javobgarlik markazlaridagi chetlanishlar va joriy normalar bo‘yicha xarajatlaming bo‘linish hisobi hamda nazorati; — ishlab chiqarish jarayonida va xarajatlarni boshqarishdagi salbiy hodisalarni bartaraf etish uchun axborotdan foydalanish maqsadida paydo bo‘lgan chetlanishlarni tizimli umumlashtirish va tahlil qilish; — mahsulot tannarxini kalkulatsiya qilish va xarajatlar hisobi usullarining har taraflamaligi hamda imkoniyatlarini inobatga olish. Shuni ta’kidlash lozimki, qayd qilingan umumiy tamoyillar o'rtasida quyidagi ayrim tafovutlar mavjud: — normativ usuldan farqli ravishda «Standart-cost» hisob tizimida xarajatlar normalari o‘zgarishlarining alohida hisobi olib borilmaydi; — xarajatlam ing dastlabki hisoblangan norm alari haqiqiy xarajatlarni standartlarga muvofiq holga keltirish uchun qat’iy belgilangan stavkalar sifatida ko‘rib chiqiladi; — chetlanishlar paydo bo‘lganda standart normalari o‘zgarmaydi; — ular butun hisobot davriga nisbatan barqaror bo‘lib qoladi. «Standart-cost» hisob tizimidan farqli o‘laroq, normativ hisob ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lib, sotish jarayoniga mo‘ljallanmagan. Bu esa mahsulotning sotish bahosini belgilash va asoslashni qiyinlashtiradi.

10-MA’RUZA. Zamonaviy “Direkt-costing” tizimi bo‘yicha xarajatlar hisobini tashkil etish

Reja:

1. «Direkt-costing» tizimi bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish
2. «Direkt-kosting» hisob tizimining afzalliklari

«Direkt-costing» tizimi bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish Korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish va samarali boshqarish tannarx aniqlashning zamonaviy tizimlarini amaliyotga joriy qilishni taqozo etadi. «Direkt-costing» hisob tizimi ham respublikamiz buxgalteriya hisobi uchun yangi tizimlardan hisoblanib, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Germaniya va Avstraliyada mazkur usul «qisman xarajatlar hisobi» deb ataladi. Britaniyada u «marjinal xarajatlar hisobi», Fransiyada «marjinal buxgalteriya» yoki «marjinal hisob« degan nomlarni olgan. O‘zbekistonda esa «cheklangan, to‘liq bo‘lmagan yoki qisqartirilgan tannarx hisobi» tushunchalari qodlaniiib kelmoqda. G‘arb m am lakatlarida marjinal daromad usulidan ishlab chiqarishni (ekstensiv) rivojlantirish modeli o‘rniga yangi model — intensiv rivojlanish modeli sifatida foydalanila boshlandi. Bunday modeldan foydalanish, o ‘z navbatida, xarajatlarni bevosita va bilvosita, asosiy va qo‘shimcha, doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga aniq bo‘lishni va shu asosda boshqarishning strategik vazifalarini hal etishni talab qiladi. Shuni nazarda tutish kerakki, «Direktcosting» tizimining paydo bo'lishi sof buxgalteriya hisobi bilan bog‘liq edi. Hisob xodimlari o‘sha davrda shunday xulosaga kelishdiki, barcha xarajatlar mazkur hisobot davriga va shu davrdagi ishlab chiqarilgan mahsulot bilan bog'liq, ya’ni ular mahsulot sotilgandagi hisobot davriga tegishli bo‘lishi lozim. «Direkt-costing» tizimining asosiy maqsadi korxona xarajatlarini ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog‘liq holda doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga bo'lishdan iborat. Dastlabki bosqichda tannarxga faqat o'zgaruvchan xarajatlar kiritilar edi, doimiy xarajatlar esa korxonaning moliyaviy natijalariga hisobdan chiqarilar edi. Direct-Costing-System (bevosita xarajatlar hisobi tizimijning nomi ham shundan kelib chiqqan, keyinroq «Direkt-costing» tizimi shunday hisob tizimiga aylandiki, unda tannarx faqat bevosita o ‘zgaruvchan xarajatlar qismida hisob qilinadigan bo‘ldi. Mazkur nomdagi bir qator shartliliklar ana shundan kelib chiqqan.Amaliyotda «Direkt-costing» tizimini turli variantlarda qollash imkoniyati mavjud. Bevosita xarajatlar bo'yicha kalkulatsiyalashni ko‘zda tutuvchi klassik «Direkt-costing» tizimida xarajatlarni kalkulatsiyalash o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunda ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona va to ‘liq quwati bo‘yicha foydalanish xarajatlarini kalkulatsiyalash jarayoniga barcha o‘zgaruvchan xarajatlar hamda umumishlab chiqarish xarajatlarining bir qismi kiradi. Bularning barchasi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsientiga muvofiq aniqlanadi.

Shunday qilib, «Direkt-costing» hisob tizimi quyidagi xususiyatlarga ega: — hisobning birinchi navbatda marjinal daromad, ya’ni oraliq moliyaviy natijani aniqlashga yo‘ naltiri lishi; — mahsulotni faqat o‘zgaruvchan xarajatlar nuqtayi nazaridan hisobga olish va ishlab chiqarish tannarxini aniqlash; — korxona bo‘yicha doimiy xarajatlar hisobi va ularni yakuniy moliyaviy natijani aniqlash

uchun operatsion foydani kamaytirishga qaratish; — bahoning tezkor boshqarish jarayoni asosi sifatida marjinal daromadni aniqlash; — sotish hajmi, tannarx va foyda o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va munosabatni aniqlash; * — zararsizlik nuqtasini belgilash.«Direkt-costing» hisobi tizimining asosiy afzallildari quyidagilar: — mahsulot tannarxini hisoblashdagi soddalashtirish va aniqlik (chunki, tannarx faqat o‘zganivchan xarajatlar qismidagina rejalashtiriladi va hisobga olinadi); — mahsulot turlari o'rtasida doimiy xarajatlarni shartli taqsimlash uchun murakkab hisob-kitoblar qilinmasligi (ular mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilmaydi va moliyaviy natijalar hisobidan qoplanadi); — rentabellik darajasi (zararsizlik nuqtasi, sotish hajmi), mahsulot bahosining quyi chegarasini aniqlash imkoniyati; — mahsulotning xiima-xil turlari bo‘yicha rentabellik darajasining qiyosiy tahlil qilish imkoniyati; — mahsulot ishlab chiqarish va sotishning qulay dasturining aniqlash imkoniyati; — o‘zi ishlab chiqargan mahsulot yoki xizmatlar hamda ularni chetdan sotib olishdagi tanlov imkoniyati. «Direkt-costing» hisob tizimi rahbarlarga korxona miqyosida va turli mahsulotlar bo'yicha matjinal daromadning o‘zgarishiga e’tiborni kuchaytirishga imkon beradi, bunda yuqori rentabelli .mahsulotni aniqlashda sotish bahosi va o ‘zgaruvchan xarajatlar summasi o‘rtasidagi tafovut alohida mahsulotlar tannarxiga doimiy 72 xarajatlarni kiritish natijasida yashirinib qolmaydi, mazkur tizim bozor sharoiti o‘zgarishiga javoban xaridorgir mahsulotlarni tez ilg‘ab olish imkonini beradi. Erkin bozor raqobati sharoitida «Direkt-costing» hisob tizimi korxonaning boshqarish tizimi — marketingning tarldbiy qismiga aylanadi. Bundan tashqari, «Direkt-costing» hisob tizimi doimiy xarajatlar ustidan tezkor nazorat o£matishga ko'maklashadi, chunki tannarxni nazorat qilish jarayonida standart (normativ) xarajatlar («Direktcosting» hisob tizimi «Standart-cost» tizimi bilan birgalikda tashkil etiladi) yoki moslashuvchan smetalardan foydalaniladi. Modomiki, «Direkt-costing» tizimida standartlar qo‘llanilar ekan, bunda o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga normalar belgilanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, todiq tannarx hisobi tizimida qo‘shimcha xarajatlar taqsimlanmagan summasining bir qismi bir hisobot davridan boshqasiga o‘tadi, shu bois, ularni nazorat qilish sustlashadi. Bunday holda «Direkt-costing» tizimi qo‘shimcha xarajatlar taqsimlanishining mehnattalabligini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, «Direkt-costing» tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish unga xos bo‘lgan quyidagi kamchiliklarni aniqlashga imkon beradi: — raqobat kurashida baholarni sun’iy ravishda pasaytirish kuzatilsa, doimiy xarajatlar marjinal daromad hisobidan qoplanishi mumkin bodmaydi, ya’ni korxona zarar ko‘ra boshlaydi. «Direkt-costing» tizimini muxoliflarining fikricha, bu tizim ishlab chiqarilgan mahsulotning to‘liq tannarxini schotlar tizimida aniqlash mushkul. Shu bois, tayyor mahsulot yoki tugallanmagan ishlab chiqirishning to‘liq tannarxini aniqlash zarur bodganda shartli-doimiy xarajatlarni qo‘shimcha tarzda taqsimlash talab etiladi; — faqat ishlab chiqarish tannarxi, ya’ni moddalarni qisqartirilgan nomenklatura nuqtayi nazaridan hisob olib borish hisob talablariga javob bermaydi, chunki bunda zaruriy mahsulotning to‘la tannarxi hisob-kitob qilinmaydi. «Direkt-costing» tizimini O‘zbekiston korxonalarini boshqarishda qodlashning imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligini tahlil etish tadqiqotning

navbatdagi bosqichi hisoblanadi. Mustaqillik yillarigacha mahsulotning to‘liq tannarxini kalkulatsiya qilish O‘zbekiston buxgalteriya hisobi uchun an’anaviy hisoblangan. Undagi hisob mahsulotning to‘liq tannarxi haqida ma’lumotlar olishga qaratilgan. Bu variantda mahsulot tannarxi doimiy va o‘zgaruvchan, asosiy hamda qo‘shimchalarga, bevosita va bilvosita, uzluksiz ishlab chiqariladigan va davriyga bo'linishidan qat’i nazar, unga korxonaning barcha xarajatlari kiradi. Bevosita mahsulotga aloqador bo‘lmaydigan xarajatlar hisobot davri mobaynida yig‘ib-taqsimlovchi schotlarda to‘planadi, so‘ngra hisob siyosati bo'yicha tasdiqlangan bazaga mutanosib ravishda mahsulot tannarxiga o‘tkaziladi, biroq bu variantda mahsulot birligi tannarxi mahsulotning ishlab chiqarish hajmi o‘zgarganda o‘zgarishi hisobga olinmaydi. Agar korxona mahsulot ishlab chiqarish va sotishni kengaytirsa, mahsulot birligi tannarxi pasayadi, agar korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqartirsa, tannarx o‘sadi. Bunday sharoitda O‘zbekiston korxonalarida «Direkt-costing» tizimini qo'llash zarurligi va maqsadga muvofiqligi dolzarb bo‘lib qoladi. «Direkt-costing» tizimi elementlarini respublikamiz amaliyotiga qo‘llashda 1994-yil burilish davri bo‘ldi. Bunda korxonalar astasekin tannarxni kalkulatsiya qilishning O‘zbekiston hisobi uchun noan’anaviy boigan usulini o‘zlashtira boshladi. Bu usul «Direkt-costing» tizimi asosida joriy qilina boshladi.

11- MA’RUZA. Ilg‘or boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Reja:

1.Boshqaruv qarorlari va ulami qabul qilish bosqichlari
2. Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari

Korxonalar iqtisodiy faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni alohida o ‘rin tutadi, u yuqori malaka va amaliy tajribaga ega bo'lishni talab qiladi. Boshqaruv qarorlari qabul qilish korxona oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalami aniqlashdan boshlanadi. Boshqaruv qarorlari amal qilish davriga ko‘ra strategik (uzoq muddatli) va qisqa muddatli qarorlarga bo‘linadi. Strategik boshqaruv qarorlari korxonaning oldiga qo'ygan maqsadiga erishishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur qarorlar korxona rahbariyati tomonidan istiqbolli rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish maqsadida qabul qilinadi. Qisqa muddatli qarorlar qo‘yilgan maqsadga erishishda qabul qilinadigan tezkor qarorlardir. Ular korxonaning joriy rejalarini tuzish, kadrlar masalasini hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda qabul qilinadigan boshqaruv qarorlariga bir qancha talablar qo‘yiladi. Bu talablar boshqaruv qarorlarining ishonchliligini ta’minlash va iqtisodiy samaradorhgini oshirish zarurati bilan izohlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga quyidagi talablar qo'yiladi: — aniq yo‘nalishga ega bo ‘lishi va korxona man faatlarin i to‘liq ifoda etishi. Bunda boshqaruv qarorlarining korxona oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga hamda uning foydasini oshirishga yo‘naltirilishi nazarda tutiladi; — ilmiy-amaliy jihatdan asoslanishi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati tahlili natijalari, uning iqtisodiy imkoniyatlari ham da zamonaviy fan-texnika yutuqlarini

to‘liq hisobga olish zarur; — muddatlarda qabul qilinishi va amalga oshirilishi. Boshqaruv qarorlarini amalga oshirish davri belgilab olinishi lozim. Bu holat uni o‘z vaqtida va oqilona bajarilishini nazorat qilishga ko‘maklashadi; — tezkor bo‘lishi. Boshqaruv qarorlari bozor talablari va korxona moliyaviy xo‘jalik faoliyatidagi o‘zgarishlardan kelib, chiqib zarur hollarda tezkor qabul qilinishi zarur; — yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lishi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda unumsiz va ortiqcha xarajatlarni rejalashtirilishiga yo‘l qo'ymaslik lozim. Shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xodimlar manfaatlarini korxonaning umumiy manfaatiga mos bo‘lishi, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan tejamli foydalanish, korxonaning iqtisodiy, texnikaviy salohiyatini tahlil etish kabi jihatlarga ham alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu hoi esa o‘z navbatida korxonalardan boshqarishni bozor iqtisodiyotiga mos mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi. Ushbu mexanizmlar korxonaiarning yuqori samaradorlik bilan faoliyat ko‘rsatishi, bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini va mahsulotlarining raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlashi zarur. Bu masalalarni hozirgi zamon menejmentisiz hal etish murakkab hisoblanadi. Shu sababli, korxonalarni rivojlantirishda zamonaviy menejmentning mazmun va mohiyati, Vazifalariga batafsilroq to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Boshqaruv vazifa sifatida u tomonidan boshqaruv vazifalari, deb nom olgan boshqaruv jarayonlarini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Ular birinchi marta fransuz olimi A.Fayol tomonidan asoslangan edi. .Bu vazifalar rejalashtirish, tashkil etish, farmoyish berish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabilardan iborat. Keyinchalik, boshqaruv jarayonlarini yanada mukammallashtirish hisobiga ko‘pgina ishlanmalarda bu vazifalar to‘ldirib borilgan. Jumladan, menejment vazifalariga motivlashtirish, kommunikatsiya, tadqiq etish, baholash, qarorlarni qabul qilish kabilar qo‘shildi. Bozor munosabatlari sharoitida hat qanday ishlab chiqarish korxonasining rahbari turli xil oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilishga majbur boiadi. «Xarajatlar — ishlab chiqarish hajmi — foyda» (Cost-VolumeProfit) o‘zaro aloqadorlik tahlili zararsizlik nuqtasini aniqlashda menejerlar uchun muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, mazkur tahlil tizimi yordamida buxgalterlar, auditorlar, ekspertlar va maslahatchilar korxona moliyaviy natijasini haqqoniy baholash va yaxshilash uchun muhim tavsiyalar berishlari mumkin. Zararsizlik nuqtasi k'orxona daromadlari uning xarajatlarini to‘liq qoplash nuqtasi bo‘lib, moliyaviy natijalarni aniqlashning oddiy va aniq usuli hisoblanadi. Baholar, korxona xarajatlari, m ahsulotni sotish hajmi va tarkibiga oid har bir qabul qilingan qaror pirovard-natija korxona moliyaviy natijasida namoyon bo‘ladi. «Xarajatlar — ishlab chiqarish hajmi — foyda» quyidagi imkoniyatlarni beradi: — ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish; — xarajatlar, ishlab chiqarish hajmi va foydaning o ‘zaro bog‘liqligi ta ’siri natijasida xarajatlarning qanday o ‘zgarishi mumkinligini aniqlash; — korxona rahbarlarining qisqa muddatli boshqaruv qarorlari qabul qilishlariga ko‘maklashish; — korxonaning istiqbolli rivojlantirish imkonini beradigan variantlar orasidan eng maqbulini tanlash;. «Xarajatlar — ishlab chiqarish hajmi — foyda» tahlili tizimi nafaqat kichik tadbirkorlik subyektlari, balki yirik korxonalar rahbarlari uchun ham ishonchli boshqaruv qarorlari qabul

qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizimida xarajatlar, ishlab chiqarish jarayonlari va moliyaviy natijalar bog‘liqligiga ta’sir etuvchi turli xil omillar o'rganiladi. Bu holat korxona menejerlarini muntazam (avishda sotish bahosi, o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar, resurslami sotib olish va ulardan oqilona foydalanish borasida qarorlar qabul qilishi zarurligi bilan ifodalanadi. «СУР» tahlili marjmal daromad, rentabellik ostonasi (zararsizlik nuqtasi), ishlab chiqarish dastagi va chidamlilikning maijinal zaxirasi kabi asosiy elementlardan iborat. Marjinal daromad korxonalarda mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olinadigan tushum va ularni ishlab chiqarish tannarxi summasi o‘rtasidagi tafovutni ifodalaydi. Doimiy va o ‘zgaruvchan xarajatlami qoplovchi tushum hajmini hisoblash uchun korxonalarda marjinal daromad hajmi va koeffitsienti ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Marjinal daromad hajmi korxonaning doimiy xarajatlami qoplash va foyda olishga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi. Uni hisoblashning ikki usuli mavjud: — birinchi usulda mahsulotlami sotishdan tushgan tushumdar barcha o'zgaruvchan xarajatlar chiqarib tashlanadi; — ikkinchi usulda esa marjinal daromad hajmi korxona doimiy xarajatlari va foydasini qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi. Marjinal daromadning o‘rtacha hajmi deganda, mahsulot bahosi bilan o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar o‘rtasidagi tafovut tushuniladi. Bu ko‘rsatkich mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan doimiy xarajatlarni qoplashga qo‘shilgan hissa va olingan foydani aks ettiradi.

12-MA’RUZA. Boshqaruv hisobida rejalashtirish va byudjetlashtirish

Reja:

1. Boshqaruv hisobi tizimida rejalashtirish. “Standard cost” va farqlanishlar tahlili

2. Asosiy smeta. Operativ budjet, moliyaviy budjet va kapital sarflar budjeti.

3. Pul oqimi farazi. (Pul mablag‘lari budjeti)

1. Boshqaruv hisobi tizimida rejalashtirish

“Budjet” atamasi keng manoda, davlat miqyosida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida hukumat ixtiyorida markazlashgan pul fondlarining, korxonalar ixtiyorida esa markazlashmagan pul fondlarining shakllanishi va ulardan oqilona foydalanishni anglatadi.

Tor manoda esa, “budjetlashtirish” atamasi hali bizning iqtisodiy adabiyotlarda atroflicha yoritilmagan, chunki korxonaning doimiy asosga qo‘yilgan kompleks rejalashtirish, nazorat va xo^alik faoliyati tahlili tizimi shu paytgacha faqatgina biznes-rejalashtirish bilan cheklangan edi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar boshqaruv hisobida rejalashtirish jarayonini tariflash uchun "budjetlashtirish" atamasidan keng foydalaniladi.

Budjetlashtirish korxonaning malum davrga mo‘ljallangan moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish hisoblanadi.

Budjetlashtirishning afzalligi korxona moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarini uzoq, qisqa va o‘rta muddatli rejalashtirish, raqobatchilarning xatti-harakati, ishlab chiqarilgan

mahsulotlarga bo‘lgan bozor talablarini o‘rganishda o‘z ifodasini topadi. Budjetlashtirishda asosiy etibor mahsulot,ish va xizmatlarni sotishdan olinadigan daromad (foyda) hajmini taxminlashga qaratiladi.

Budjetlashtirishning quyidagi ijobiy jihatlari mayjud:

—korxonaning asosiy maqsadini taminlashda xizmat qiladiganjarayonlarni rejalashtiradi;

—alohida bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

—korxona bo‘linmalari rahbarlarini o‘z vazifalarini samarali amalga oshirishlariga ko‘maklashadi;

—korxona xodimlarini ichki tartib-qoidalarga rioya qilishlarini taminlashga xizmat qiladi;

korxona alohida bo‘linmalari rahbarlarini belgilangan rejalarning bajarilish darajasini baholashlarida asos bo‘ladi.

Budjetlashtirish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

—korxonaning maqsadlariga erishishini taminlovchi xo‘jalik muomalalarini rejalashtirish;

—barcha darajadagi rahbarlarni o‘zlari javobgar markazlar maqsadiga yerishishlarida rag‘batlantirish;

—turli xil bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish. Bunda bolinmalar xodimlarining manfaatlari etiborga olinadi;

—korxona joriy faoliyatini nazorat qilish, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilinishini taminlash;

—javobgarlik markazlari va ular menejerlari oldiga qo‘yilgan rejalarning bajarilishini baholashda asos vazifasini o‘tash;

—menejerlar malakasini oshirishda ko‘maklashish.

quyida ushbu vazifalarga batafsilroq to‘xtalamiz.

Rejalashtirish. Ko‘pchilik hollarda, boshqaruv qarorlari bo‘yicha rejalar ishlab chiqarish dasturini tayyorlash jarayonida shakllantiriladi va budjetlarni tuzishda mazmunan aniqlashtiriladi.

Muvofiqlashtirish. Korxonaning har bir javobgarlik markazi boshqa javobgarlik markazlari ish jarayoniga tasir etadi va ularning faoliyatiga bog‘liqbo‘ladi.

Budjetlarni tayyorlashda alohida faoliyat turlari o‘zaro muvofiqlashtiriladi, bunda barcha bo‘linmalar kelishuv asosida, korxona umumiy maqsadidan kelib chiqib faoliyat ko‘rsatadi. Bu holatda ishlab chiqarish rejasini marketing bo‘limi rejasi bilan muvofiqlashtirish, jumladan, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini rejalashtirilgan sotuv hajmi va tayyor mahsulotlar qoldig‘i bilan taqqoslash asosiy talablardan hisoblanadi. Xomashyo va materiallarni sotib olishni rejalashtirishda ishlab chiqarish budjetida ifodalangan mahsulot ishlab chiqarishga bo‘lgan talab tahlil qilinadi.

Ishlab chiqilgan rejalar barcha qatnashchilar ularning shartlari bilan to‘liq tanishib olmaguncha amalga oshirilmasligi lozim.

Rejalar quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘ladi:

— qancha mahsulot (tovar, ish va xizmat) ishlab chiqariladi;

—ishlab chiqarishda qatnashadigan xodimlar, foydalaniladigan usullar va asbob-uskunalar to‘g‘risida malumotlar;

—qancha xomashyo va materiallar sotib olinadi;

—sotish bahosi qanday belgilanadi, kelgusida qanday cheklovlarga rioya qilinadi va h.k.

—Ushbu malumotlar reklama, texnik xizmat ko‘rsatish, mamuriy va mehnatga haq toiash xarajatlarini rejalashtirish hamda mahsulot sifatini samarali boshqarishga imkon beradi.

—*Rag‘batlantirish*. Budjetlarni tuzish jarayoni javobgarlik markazlari rahbarlari maqsadini amalga oshirishda muhim rag‘batlantirish vositasi bo‘lishi mumkin.

Budjetlarning rag‘batlantirish roli ko‘proq menejerlarni o‘z bo‘linmalarida budjetlarni tuzish jarayonida faol qatnashishlarida namoyon bo‘ladi.

Odatda, rejalashtirish jarayoni amal qilish vaqtiga muvofiq uzoq, o‘rta va qisqa muddatli, qo‘yilgan maqsadga ko‘ra esa operativ, taktik va strategik rejalashtirishga bo‘linadi.

Tezkor yoki qisqa muddatli rejalashtirish tizimi kun, hafta, dekada, oy, chorak yoki bir yil davomida amalga oshiriladi. Bu rejalar bosh dastur asosida ishlab chiqilib, aniq maqsad va yo‘nalishga ega bo‘ladi, ularni bajarishda turli xil usullar qo‘llaniladi. Tezkor rejalar korxona asosiy maqsadini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan taktik rejalarni ifoda etadi. Ular jumlasiga ishlab chiqarish rejasi, umumishlab chiqarish xarajatlari rejasi, moddiy - texnika taminoti rejasi kabilar kiradi.

Taktik yoki o‘rta muddatli rejalashtirish 3-5 yil muddatni qamrab olib, korxonaning uzoq muddatli maqsadlarga moljallangan dasturlarini ishlab chiqish yordamida amalga oshiriladi. Mazkur rejalashtirishda korxona maqsadining resurslar bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi va turli xil moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi mutanosibliklar aniqlanadi.

Strategik yoki uzoq muddatli rejalashtirishda korxonaning 5-10 yil muddatga belgilangan rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqiladi. Bu konsepsiya korxonani bozorda barqaror holatni saqlash va o‘z segmentiga ega bo‘lish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, tolov qobiliyatini yaxshilash, foydani eng yuqori darajaga olib chiqish va rentabellikni oshirish kabi strategik maqsadlariga erishishini taminlaydi. Strategik rejalar biznesni va tashkiliy tuzilmani belgilash, aniqlab olish bo‘yicha tuziladigan bosh rejalar hisoblanib, alohlda ehtiyoj bolmasa qayta tuzdlmaydi. Ularga yangi texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlarni o‘rganish va xaridorlarni jalb qilish kabilarni kiritish mumkin

Uzoq va o‘rta muddatli rejalar korxona strategiyasini, qisqa muddatli rejalar esa taktikasini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Biznes-rejalashtirishni amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

—biznes-rejalashtirishning uzluksizligi;

—qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘laridan eng maqbulini tanlashga imkon beruvchi ko‘p variantlilik;

—korxona xodimlarini rejalashtirishga toiiq jalb etilishini taminlovcbi ishtirok etishlilik.

Biznes-reja nazarda tutilgan biznesning qisqa va tushunarliligini, belgilab olingan asosiy vazifalarning to‘g‘ri echimlarini topishga imkort beruvchi muhim quroldir.

Biznes-reja quyidagituzilmaga ega:

Biznes konsepsiyasi;

2. Hozirgi vaqtdagi vaziyat va korxona haqidagi qisqacha axborot;
3. Biznes obekti tavsifi;
4. Bozorni taktik tahlil etishning mavjudligi;
5. Tashkiliy reja, shu jumladan, huquqiy taminot;
6. Xodimlar faoliyati va boshqaruv;
7. Ishlabchiqarishrejasi;
8. Marketing rejasi;
9. Yirik tavakkalchilik va xavf-xatarlar;
10. Moliyaviy reja va moliyaviy strategiya.

Biznes-reja ko‘zda tutilgan biznesni asoslash va muayyan vaqt mobaynidagi natijalarni baholash uchun mo‘ljallanadi.

Biznes-reja faoliyat yo‘nalishini belgilab olishga va biznes boshqarishga imkon beruvchi harakat hisoblanadi. Shu sababli, uni ichki xo‘jalik rejalashtirilishining uzviy qismi yoki ijro va nazorat uchun amaliy qo‘llanma sifatida etirof etish mumkin.

Korxonalarda biznes-reja investitsiyalarni yuqori daromad keltiradigan sohalarga yo‘naltirishda ijobiy samara beradi. Shu jihatdan u investorlar uchun biznesni moliyaviy mablag‘lar bilan taminlashning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Biznes-reja nazarda tutilgan biznes muvaffaqiyatini kafolatlashi va korxonaning tavakkalchilikka tayyorligini taminlashi kerak.

Yuqorida takidlanganidek, biznes rejalashtirish — bu mahorat va sanatni talab qiluvchi jiddiy jarayondir.

Biznes rejalashtirishni jarayon sifatida amalga oshirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish lozim:

—korxona faoliyat ko‘rsatayotgan muhitdagi o‘zgarishlarga doimiy moslashuvchanlik;

—rejalashtirishning moslashuvchanlik xususiyatlarini nazarda tutuvchi uzluksizlik;

—manfaatlar muvofiqligi va integratsiyasiga asoslangan aloqadorlik;

—biznes-rejaning avval tuzilgan bo‘limlarini umumlashtirish asosidagi takrorlanuvchanlik;

—qo‘yilgan maqsadga erishishning muqobil imkoniyatlardan eng maqulini tanlab olishga imkon beradigan ko‘p variantlilik;

—korxona barcha xodimlarini rejalashtirishga jalb etish nuqtai- nazardan jarayonni muhimligini nazarda tutuvchi ishtirok etish tamoyui;

—rejalashtirish jarayonida real muammolar va o‘z-o‘ziga baho berishni aks ettirishning aynan bir xilligi.

, Biznes-rejalarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari va afzalliklari mavjud:

—o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari bo‘yicha: bunda ikkita mustaqil biznes-reja qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi va ulardan muqobil hamda yuqori daromad keltiradigani tanlab olinadi;

—kutilayotgan daromad bo‘yicha: xarajatlarni qisqartirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va texnologiyalarni yangilash hisobiga qo‘shimcha daromad olish, bozorda mmiosib o‘ringa ega bolish, biznesning yangi sohalarini o‘zlashtirish, ijtimoiy samara va sifatga erishish;

—tashkiliy ishlar bo‘yicha: aniq maqsadni belgilash, bozorni tadqiq yetish va yuqori imkoniyatga ega loyihalar asosida rivojlanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish.

Takidlash lozimki, texnik-iqtisodiy asoslanish (TIA) ham ko‘p jihatdan biznes-rejagayaqin turadi. Undan biznes-rejaning asosiy farqi strategik yo‘nalishi va tadbirkorlik xususiyatida hamda korxona ichki imkoniyatlarini tashqi muhit tasiridagi ishlab chiqarish, moliyaviy faoliyatning bozor xususiyatlari bilan o‘zaro birikuvida namoyon bo‘ladi.

Amaliyotda ko‘pgina hollarda biznes rejalashtirish asossiz ravishda ichki xo‘jalik rejalashtirilishi bilan bir xil deb qaraladi. Ammo, ular orasida quyidagi tafovutlar mavjud:

— ichki xo‘jalik rejalashtirishidan farqli o‘laroq, biznes-rejalashtirish korxona umumiy maqsadini emas, balki faoliyatning yangi turini rejalashtirish yoki biznes-rejaning mazmunini aniqlovchi eng muhim vazifalarni qamrab oladi. Biznes-reja, asosan, korxona rivojlanish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishga mo‘ljallanadi, ichki xo‘jalikni rejalashtirish esa yuqoridagilardan tashqari joriy va istiqbolli faoliyatning xilma-xilligini ham o‘z ichiga oladi;

—biznes-reja, odatda, bajarilishi muayyan muddatlar bilan belgilangan innovatsion loyihalarga ishlab chiqiladi, bu muddatlar tugashi bilan loyiha ustida olib borilayotgan ish tugallanadi. Ichki xo‘jalik rejalashtirishi korxonani boshqarishning barcha davrlarida uzluksiz amalga oshiriladi. Bunda davriy va yillik rejani bajarish mobaynida . tegishli tuzatishlar kiritilgandan keyin navbatdagi rejani amalga oshirishga o‘tiladi va h.k. Biznes-reja nafaqat aniq, balki yanada torroq. chegaralarga ega, har qanday ichki xo‘jalik rejasi esa bunday aniq cheklovlarga ega bo‘lmaydi;

—biznes-reja tadbirkorlar yangi faoliyatni boshlashi va mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur resurslar, awalambor moliyaviy resurslarga yega bo‘lish, shuningdek, ishonchli sheriklar qidirib topish, asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni puxta tahlil qilishni talab etadi, bunda nafaqat ichki xo‘jalik-ishlab chiqarish faoliyati, balki kredit, moliyaviy va bank tizimlarida tavakkalning mavjud darajasi hisobga olinadi. Ichki xo‘jalik rejalari ko‘proq xususiy ravishda foydalanish uchun, biznes-rejalar esa investorlar va kreditlar olish uchun zarur xolos;

—biznes-rejalar korxona rahbariyati ishtii-okida ishlab chiqiladi. Ichki xo‘jalik rejalashtirishini amalga oshirish bilan esa korxonaning tajribali menejerlari va bo‘linmalar mutaxassislari shugullanadilar. Ichki xo‘jalik rejasini ishlab chiqishda har bir tadbirkorning shaxsan ishtiroki nafaqat real strategik va tezkor maqsadni ishlab chiqishga imkorf tugdiradi, balki kelajakda xarajatlar va daromadlarni solishtirish asosida biznes-loyihani bajarishning eng mukammal shaklini tashkil etishni ham taminlaydi.

“Standard cost” va farqlanishlar tahlili

Dasttaval budjet bilan standart o‘rtasidagi farqni tushunib olishga harakat qilaylik. Egiluvchan Budjet tizimi (flaxible budgeting system) bu kengroq ma’noni anglatib bu faoliyatning keng jabhasini qamrab olib, faoliyatga oid rejalarni ifodalaydi (faollik ko‘rsatkichlari, iqtisodiy-texnik ko‘rsatkichlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarga oid ko‘rsatkichlar bir-biriga uzviy bog‘liqlikda qaraladi). Ta’kidlab o‘tish lozimki, tashkilotda egiluvchan budjet tizimining o‘rnatilishi asosiy tannarx elementlari bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri material va to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi tannarxi standartlarining rivojlanishiga olib keladi. *Standard cost* bu asosan yagona bir birlik uchun ifodalangan ko‘rsatkich bo‘lib u oldindan aniqlanadigan tannaxr hisoblanadi. Ushbu oldindan aniqlangan tannarx erishiladigan darajada bo‘lishi kerak. Standard cost bir birlik mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish uchun talab etiladigan oldindan aniqlangan resurslar qiymatidir. *Standard cost* bu egiluvchan budjet tizimi hamda teskari aloqalar uchun qurilish bloki hisoblanadi. Standartlar asosan o‘rganilayotgan jarayon nomoliyaviy atamalarda (vaqt, hajm, kilogramm va boshqa birliklar) hamda shu bir birliklarning tannarxi ko‘rinishida beriladi. Ishlar bajarilib bo‘lingandan so‘ng haqiqiy tannarx standart tannarx bilan solishtirilib yuzaga keluvchi farqqa sabab bo‘luvchi omillar va faoliyatlar o‘rganiladi. Buxgalteriya hisobining mohiyatini o‘rganganimizda teskari bog‘liqlik haqida fikr yuritilgan edi. Unga muvofiq haqiqiy natijalar bilan standart natijalar o‘rtasidagi yuzaga kelgan farqlar o‘rganilib tegishli qarorlar, ya’ni farqning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi kamchiliklarni barataraf etish yoki standartlar hamda budjetlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi.

Standart tannarx va budjet tannarx o‘rtasida qanday farq mavjud? Agarda standartlar erishiladigan bo‘lsa u holda budjet tannarxidan konseptual farq qilmaydi. *Standard cost* asosan ishlab chiqarilib tayyor holga keltirilgan yagona bir birlikka nisbatan belgilansa, *budjet tannarxi* esa umumiy summada belgilanadi. Buni to‘g‘ridan-to‘g‘ri material moddasi bo‘yicha quyidagi misolda ko‘rish mumkin bo‘ladi:

	Bir birlikka nisbatan budjet	**Hajm ko‘rsatkichining (Sotish birliklari) turli darajalari**

Sotilgan birliklar	1	10.000	12.000	14.000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	60 p.b.	600.000 p.b.	720.000 p.b.	840.000 p.b.

Ushbu misolda to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar moddasi bo‘yicha Standard cost tayyor mahsulot birligiga 60 p.b. ga teng. Budjet tannarxi 10.000 birlikka nisbatan 600.000 p.b. yoki 12.000 birlikka nisbatan 720.000 p.b.da keltirilgan. Demak, xulosa qilish mumkinki, standart yagona mahsulot bir birligiga nisbatan berilgan budjetdan tashkil topadi, budjet esa umumiy birlikka nisbatan tannarxning umumiy summasini tavsiflaydi. Adabiyotlarda ushbu atamlar farqlansada amaliyotda ko‘plab kompaniyalarda *budjet bajarilishlari (budgeted performance)* va *standart bajarilishlari (standard performance)* bir xil ma’noda ham qo‘llaniladi.

Boshqa bir misolda, masalan 1 Oak kofe stoli ishlab chiqarishda xarajat moddalari bo‘yicha quyidagi Standard cost lar keltirilgan.

Resurslar	Miqdori	Resurslar tannarxi	Jami
Oak Lumber	12 bd ft	1.50 p.b. 1 bd ft uchun	18.00 p.b.
Varnish	.25 gal	16.00 p.b. 1 gal uchun	4.00
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat	2.5 soat	10.00 p.b. 1 soat uchun	25.00
Ustama ishlab chiqarish xarajatlari	2.5 soat	6.00 p.b. 1 soat uchun	15.00
1 kofe stoli ishlab chiqarish uchun Standard cost			***62.00 p.b.***

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki bir kofe soti ishlab chiqarishning oldindan belgilangan tannarxi 62.00 p.b.ga teng ekan. Bu mahsulotning Standard cost i bo‘ladi. Standard cost tannarxning har bir moddasi bo‘yicha belgilanadi. Masalan, mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan standart ustama ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi formula orqali aniqlash mumkin bo‘ladi:

Standart UIChX = Jami budjetlashtirilgan UIChX / Ishlab chiqarishning standart darajasi

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, xarajat moddalari bo‘yicha standartlarni belgilashda ushbu xarajatlarning budjetlashtirilgan summalari asos qilib olinadi.

Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak Standard cost bu ishlab chiqarilgan yagona bir birlikka nisbatan olidindan belgilangan va erishiladigan tannarxi bo‘lib

u yordamida haqiqiy tannarx me’yordagi tannarx bilan solishtirilib nazorat qilib boriladi. Nazorat quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

1. Tannarx nazorati (Sost control)
2. Baho (narx)ga oid qarorlar (Pricing decisions)
3. Bajarilishlarni baholash (Performance appraisal)
4. Tannarxni tasavvur qilish va bilish (Cost awareness)
5. Vazifalarni boshqarish (Management by objective)

Tannarx nazorati. Tannarx nazorati tannarxni minimallashtirishni anglatmaydi. Standard cost tizimi tannarx nazoratini o‘rnatish uchun asosiy qurilma hisoblanadi. Natijada, ma’lum vaqt misol uchun oylik, haftalik yoki har kunlik yoki boshqa vaqt oralig‘ida haqiqiy erishilgan tannarx natijalari standart tannarx bilan solishtirilib nazorat qilib boriladi. Agarda farq yuzaga kelsa sababi o‘rganiladi va ma’lum qaror qabul qilinadi. Tegishli qarorlar va qo‘shimchalar kiritilmasa jarayon nazoratdan chiqib ketishi mumkin. Natijada xarajatlarni boshvarish mumkin bo‘lmay qoladi. Shunday qilib haqiqiy tannarx standart doirasida ushlab turiladi. Bunga tannarx nazorati orqali erishiladi.

Bahoga oid qarorlar. Bizga ma’lumki mahsulot tannarxi unga sotish narxini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Ko‘p hollarda kompaniya narx belgilash bo‘yicha nazoratni qo‘lga olgan bo‘ladi, ya’ni hamma vaqt ham narxni bozorning o‘zi belgilayvermaydi. Agarda mahsulotga belgilanadigan narx uning tannarxi asosida belgilanadigan bo‘lsa Standard cost ma’lumotlariga tayanadi, chunki hali haqiqiy tannarx ma’lumotlari tayyor bo‘lmasligi mumkin.

Bajarilishlarni baholash. Agar standartlar bajarilishlarni baholash uchun o‘rnatilgan bo‘lsa, u holda barcha personallarga ish jarayonlarida foydalanish uchun me’yor va normalar beriladi. Ular asosida bajarilishlar baholanadi. Masalan, Oak kofe stolini tayyorlash uchun me’yor bo‘yicha talab qilinadigan mehnat soatlari ishchilar mehnatining samaradorligini baholashda foydalaniladi. Agar mehnat me’yorida bo‘lsa, demak ishchilar normativ samaradorlikda ishlayapdi degan xulosalarga kelish mumkin. Me’yordan kam yoki ko‘p mehnat sarflansa, demak buning sabablari o‘rganilib chiqilishi lozim bo‘ladi. Standard cost tizimi bajarilishlarni baholaydi, ularni normativlar bilan solishtiradi. Yuzaga kelgan farqlarning sabab va omillari o‘rganilib chiqiladi.

Tannarxni tassavur qilish va bilish. Ayrim xodimlar biznes faoliyatida tannarx to‘g‘risida kam ma’lumotga va bilimga egadirlar. Standartlar xodimlarga tannarx to‘g‘risida ma’lumot beradi. Har bir bajarayotgan ishlari me’yor doirasida bo‘lishini ta’minlaydi. Bu esa oxir natija ishlab chiqarish hajmining oshishi, mahsulot sifatining yuksalishi, ortiqcha chiqimlarga yo‘l qo‘ymaslikka olib keladi. Har bir kompaniyada tannarx to‘g‘risida xodimlarga ta’lim ham bo‘lishi kerak. Har bir tannarx elementi standarlarini xodimlarga tushuntirib berilishi kerak.

Vazifalarni boshqarish (Management by objective). Standartlar orqali kompaniyalar o‘zlarining oldilariga qo‘yilgan vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tannarx mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq. Demak, tannarx bo‘yicha standartlarning joriy qilinishi ishlab chiqarishga oid bo‘lgan vazifalarning bajarilishin ta’minlaydi, ya’ni menedjerlar standartlar orqali

vazifalarni boshqarib boradi. Butun personal qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun harakat qilishi lozim.

Standartlarning quyidagi turlari amal qiladi:

1. Ideal standartlar
2. Asosiy standartlar
3. Joriy erishiladigan standartlar

Ideal standartlar. Ma’lum operatsion shart-sharoitlar yuzaga kelganda amalga oshirish mumkin bo‘lgan standarlarga ideal standartlar deb ataladi. U eishilishi mumkin qachonki yo‘qotishlar, braklar va asbob-uskunalarning turib qolishlari va boshqa oldini olish mumkin bo‘lgan xatoliklar bo‘lmagan taqdirda. Bu standartlar optimal bajarilishlarni baholashlarda qo‘l keladi.

Asosiy standartlar. Bu standartlar uzoq muddatga tuzilgan standartlar bo‘lib, ular bajarilishlardagi tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Asosiy stnadartlar joriy standartlarni tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Joriy erishiladigan standartlar. Joriy standartlar joriy faoliyat davomida qo‘llaniladigan ishchi sandartlar hisoblanadi. Bunda standartlar mehnat soatlaridan me’yor darajasida samarali foydalanilgan, asbob-uskunalar normal ishlashi ta’minlangan, ishda to‘xtab qolish holatlari me’yordan ortiq bo‘lmagan sharoitida tuziladi. Bu holatlarga chegirmalar beriladi.

Standard cost tizimi uchta asosiy faoliyatdan tashkil topadi. Ular quyidagilardan iborat: (1) standartlarning joriy etilishi; (2) haqiqiy tannarxning jamg‘arilishi; (3) farqlanishlar tahlili

Dastlab *standartlarni joriy qilish* kerak. Har bir xarajat moddasi bo‘yicha standartlar ishlab chiqarilishi lozim. Buning uchun kompaniya Standart Tarmoqlari Qo‘mitasi standartlaridan, ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan standartlardan hamda korxonaning o‘zining amaliyotida sinovdan o‘tgan va korxona uchun ma’qul bo‘lgan tannarx standartlaridan foydalaniladi. Standartlar ishlab chiqilgandan keyin *haqiqiy tannarx jamg‘arilishi* kerak, qaysiki ular standart tannarx bilan solishtiriladi. Haqiqiy tannarxni jamg‘arish uchun buyurtmali kalkulyatsiya yoki jarayonli kalkulyatsiya asosida yuritilgan buxgalteriya yozuvlaridan olinadi. Bizga ma’lumki tannarx buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi ham tannarx to‘g‘risidagi axborotlarni shakllantirish bo‘lib hisoblanadi. Standard cost ning qo‘llanilishi haqiqiy tannarxning jamg‘arilishini inkor qilmaydi. Standart tannarx tizimi hisobotga kiritilayotgan tannarx to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlashda yo‘l yo‘riq ko‘rsatib turadi. Standard costda haqiqiy tannarx bilan standart tannarx o‘rtasidagi *farqlanishlar (variance)* aniqlanib tahlil amalga oshiriladi. Farqlanishlar deganda haqiqiy tannarx korrespondensiyalashgan standart tannarx o‘rtasidagi chetlanishlarga aytiladi. Chunki, hamma vaqt ham haqiqiy tannarx standart tannarxga teng bo‘lavermaydi. Korxonaga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida standartdan farqlanishlar yuzaga keladi. Masalan, beshta Oak kofe stolining haqiqiy tannarxi 298 p.b.ga teng bo‘ldi. Bitta kofe stolining standart tannarxi oldingi misollarimizda 62.00 p.b.ga teng bo‘lgan edi. U holda 5 ta stolning standart tannarxi 310 p.b. ga (5 birlik 62.00 p.b. bir birlik uchun) teng. U holda haqiqiy tannarx standart tannaxrdan 12 p.b. ga kam ekanligini aniqlash mumkin

(310 p.b.– 298 p.b.). Yuzaga kelgan ijobiy farqlanish nimaning hisobiga yuzaga kelganligini aniqlash talab etiladi. Bu materiallarning narxlarining kutilganidan kamayishi yoki mehnat tannarxining iqtisod qilinishiga erishilishi yoki boshqa omillar ta'sirida yuz berishi mumkin. Sabab va oqibatni aniqlash farqlanishlar tahlilini taqozo qiladi.

Farqlanishlar tahlili bu haqiqiy tannarxni standart tannarxga solishtirishning sistematik jarayoni bo‘lib, unda farqlanishlar identifikatsiyalanadi, farqlarning sabab va oqibati interpritatsiyalanadi. Agar haqiqiy tannarx standart tannarxdan katta bo‘lsa ***noxush farq*** yuzaga keladi. Agarda haqiqiy tannarx standart tannarxdan kichik bo‘lsa ***xush farq*** hisobotga kiritiladi.

Farqlanishlar tahlili ikkita savolga javob beradi:

1. Haqiqiy tannarx bilan standart tannarx o‘rtasida qanday farq bor?
2. Farq nimaning hisobiga yuzaga keldi?

Birinchi savolga javob topish uchun farqlarni hisob-kitob qilib chiqish yetarli bo‘ladi. Ikkinchi savol muhim hisoblanadi, chunki bunda farqlarning sabablari, ushbu sabablar bilan bog‘liq muammolarga yechimlar topishga qaratilgan. Ikkinchi savolga javob berish ancha murakkab hisoblanadi, chunki omillarning ta'siri kompleks bo‘ladi. Masalan, yuqoridagi misolimizda 12 p.b. ijobiy farq chiqdi. Bu quyidagi omillar ta'sirida yuzaga kelgan. 50 p.b. ijobiy farq Oak lumber ni xarid qilinishida haqiqiy narxning standart narxga nisbatan pasayishi hamda 38 p.b. salbiy farq mehnat resurslaridan samarali foydalanilmaslik natijasida yuzaga kelgan. Umumiy farq ijobiy bo‘layapdi va 12 p.b.ni tashkil etmoqda (50 p.b. – 38 p.b.). 38 p.b. da mehnat bo‘yicha noxush farqlar quyidagi sabablar natijasida kelib chiqishi mumkin.

1. Xarid bo‘yicha agenti ikkita sortdagi (sifptdagi) Oak Lumber materiali sotib olgan. Pastroq sifatdagi materialning tannarxi past bo‘lganligi meteriallar bo‘yicha xush farq yuzaga kelishini ta'minlagan, lekin orzon materiallarning xarid qilib olinishi stollarni komplektlashda mehnat sarfining oshishiga olib kelgan. Natijada, mehnat bo‘yicha noxush farq yuz bergan.
2. Ikkinchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan omil sifatida bu ishlab chiqarish bo‘yicha supervayzerning yangi xodim ekanligi va uning kofe stoli yasash jarayoni bilan bog‘liq ishlab chiqarish ishlarini samarali tashkil etish bo‘yicha tajribasi yetarli bo‘lmaganligi hisoblanishi mumkin.
3. Uchinchi holatda yangi ishchining ishlab chiqarish bo‘yicha tajribasi talab qilinadigan darajada bo‘lmasligini qarash mumkin.

Endi farqlanishlarni hisoblash tartibi bilan tanishib chiqaylik. Bu jarayonga ***izolyatsiyalangan farqlanishlar*** deb ataladi va hisob-kitoblarni Beta kompaniyasi misolida ko‘rib o‘tamiz. Beta kompaniyasi yagona bitta mahsulot ishlab chiqaradi va sotadi. Mahsulot birligining standart tannarxi quyidagidan tashkil topgan:

Materiallar – 5 list 6 p.b. . . . . 30 p.b.
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat – 2 soat 10 p.b. 20
Ustama ishlab chiqarish – 2 to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soati 5 p.b.dan 10
Mahsulot birligining standart tannarxi. . . . . .60 p.b.

Materiallar farqi

Farqlanishlarni tannarxning har bir elementi bo‘yicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Materiallar bo‘yicha Haqiqiy tannarx standart tannarxdan farq qilishi ikkita omil ta’sirida yuz beradi. Birinchi omil materiallar uchun to‘langan narx ***(materiallarning narxi farqi) (MNF)*** hamda ikkinchi omil menedjerlar tomonidan qo‘llaniladigan materiallarning me’yoriy sarflanishi va haqiqatda foydalanilgan materiallar miqdori o‘rtasidagi farq ***(materiallardan faydalanishdagi farqi)(MFF)*** hisoblanadi. Buxgalterlar ushbu ikkita omilni bir qancha sabablarga ko‘ra izolyatsiyalaydi: *Birinchisi,* har bir omil bo‘yicha xodimlarning javobgarligi alohida belgilangan bo‘lishi mumkin. Masalan, xarid bo‘yicha agent materiallarning xarid narxi farqi bo‘yicha mas’ul, ishlab chiqarish bo‘yicha supervayzeri qo‘llanilayotgan materiallarning miqdori bo‘yicha farqqa javobgar qilib belgilangan hollarda farqlanishlar javobgarlikni nazorat qilishda foydalanadi. *Ikkinchisi*, materiallar bo‘yicha haqiqiy tannarxning standart tannarxdan farqi to‘g‘risidagi axborotlar tannarx nazorati samaradorligi menedjmenti foydalaniladi.

Materiallar narxi farqi (MNF). Ishlab chiqarish kompaniyalarida materiallar haqiqiy narxi standart narxdan farq qilishi mumkin. Bunga sabab bozor shart-sharoitlarining o‘zgarishi, yangi ta’minotchilarning yuzaga kelishi, inflyatsiya darajasi va boshqa omillar hisoblanadi. MNF agarda kompaniya xarid qilib olinayotgan materiallarga standart narxga nisbatan baland yoki kam narxda to‘laganda kelib chiqadi. MNF ni aniqlash uchun haqiqiy narx bilan standart narx o‘rtasidagi farqni haqiqatda xarib qilib olingan materiallar miqdoriga ko‘paytirish orqali topiladi. Buni formula ko‘rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

Materiallar narxi farqi (MNF) = (Haqiqiy narx – Standart narx) haqiqatda xarid qilingan miqdor

Ushbu jarayonni amaliy misollarda ko‘rib o‘taylik. Kompaniya 60,000 birlik listni 5.90 p.b. da xarid qilib oldi. Yuqorida keltirilganidek, ushbu listga belgilangan standart narx 6 p.b.. U holda materiallar narxi farqi teng bo‘ladi:

Materiallar narxi farqi = (5.90 p.b. – 6.00 p.b.) 60,000 = - 0.10 p.b. 60,000 = - 6,000 p.b. (xush farq)

Ushbu farq xush farq hisoblanadi. Sababi haqiqiy narx standart narxga nisbatan past. Agarda haqiqiy narx standart narxga nisbatan yuqori bo‘lsa u holda noxush farq yuzaga kelgan bo‘lar edi. Ushbu yuzaga kelgan farqni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Material zahiralari 360,000
Materiallar narx farqi. 6,000
To‘lanadigan schetlar. 354,000

Demak, provodkadan ko‘rinib turibdiki, materiallar standart narxda kirim qilinayapdi. To‘lanadigan schetlar haqiqiy narxda amalga oshirilmoqda. O‘rtasidagi farq materiallar narxi bo‘lib u alohida “Materiallar narxi farqi” schetida aks ettirilgan.

Materiallardan faydalanishdagi farqi. Bu farq agarda mahsulot ishlab chiqarish yoki jarayondagi mahsulotni komplektlashda haqiqiy faydalanilgan materiallar miqdori standart miqdordan kam yoki ortiqcha bo‘lgan hollarda yuz beradi. MFFni summada aniqlash uchun haqiqatda foydalanilgan miqdor bilan taqsimlangan standart miqdor o‘rtasidagi farqni standart narxga ko‘paytirish orqali topiladi. Bu jarayonni formula ko‘rinishda quyidagicha aks ettirish mumkin:

Materiallardan foydalanishdagi farq (MFF) = (Haqiqatda foydalanilgan miqdor – Taqsimlangan standart miqdor) standart narx

Ushbu formalaning qo‘llanilishini amaliy misollarda ko‘rib o‘taylik. Beta kompaniyasi 11,000 birlik mahsulotni ishlab chiqarish uchun 55,500 listdan foydalandi. Standart bo‘yicha bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 5 ta list me’yor qilib belgilangan. U holda 11,000 birlik uchun standart qo‘llaniladigan material miqdori 55,000 listni tashkil etadi. Yuqoridagi formuladan foydalanib materiallardan foydalanishdagi farqni topamiz:

MFF = (55,500 – 55,000) 6 p.b. = 500 6 p.b. = 3,000 p.b. (noxush)

Demak, materiallar foydalanishi bo‘yicha 3,000 p.b. noxush farq chiqayapdi. Buning asosiy sababi ishni yakunlash uchun haqiqatda foydalanilgan materiallar ularning standart ko‘zda tutilgan miqdoridan ortiq bo‘lgan. Agarda haqiqatda foydalanilgan material standart ko‘zda tutilgan miqdordan kam bo‘lganda edi natijada xush farq chiqqan bo‘lar edi. Materiallarning foydalanishi bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari quyidagicha amalga oshiriladi:

Zahiralarni ishlab chiqarish jarayoni. 330,000
Materiallardan foydalanishdagi farq. 3,000
Material zahiralari. 333,000

Buxgalteriya provodkasidan ko‘rinib turibdiki, materiallar ishlab chiqarishga standart miqdorda kirim qilinayapdi. Material zahiralarining haqiqatda foydalanishida chiqim qilinayapdi. O‘rtadagi farq materiallardagi foydalanishdagi farq schetiga olib borilayapdi.

Yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitob natijalarini quyidagi illustrasiyada aks ettirish mumkin bo‘ladi:

Materiallar xaridi

Xarid qilingan materiallarning haqiqiy tannarxi:

Haqiqiy narx Haqiqatda xarid qilingan miqdor = 5.90 p.b. 60,000 list = 354,000 p.b..

Xarid qilingan materiallarning standart tannarxi:

Standart narx Haqiqatda xarid qilingan miqdor = 6.00 p.b. 60,000 list =360,000 p.b..
Materiallar narxi farqi = 354,000 – 360,000 = 6,000 (xush farq)

Materiallardan foydalanish

Ishlab chiqarishda foydalanilgan materiallarning Standart tannarxi (11,000 birlik):

Foydalanilgan listlarning haqiqiy miqdori Standart narx = 55,500 6 p.b. = 330,000 p.b.

Mahsulotda hisobga olingan materiallar Standart tannarxi (11,000 birlik):

Hisobga olingan listning miqdori Standart narx = 55,000 6 p.b. =330,000 p.b. (bunda, 11,000 5 =55,000 bo‘ladi)

Materiallardan foydalanishdagi farq = 333,000 – 330,000 = 3,000 p.b. (noxush farq)

Materiallar farqi bo‘yicha yuqoridagi tahlil ma’lumotlari asosida Standard cost tizimi yordamida olingan ma’lumotlarni quyida keltirish mumkin:

Material bo‘yicha har bir listning standart narxi . . . . . 6,00 p.b.
Material bo‘yicha har bir listning haqiqiy narxi. 5,90
Material bo‘yicha xarid qilingan list miqdori. 60,000
Mahsulot birligi uchun materillar bo‘yicha
listlarning standart miqdori. 5
Davrda ishlab chiqarilgan mahsulot birligi. 11,000
Materillar bo‘yicha foydalanilgan listlarning
haqiqiy miqdori. 55,500

Mehnat farqlanishi

Standart mehnat tannarxi deganda hisobga olingan mehnat vaqti standart miqdorini ushbu faqt uchun to‘lanadigan ish haqi stavkasiga ko‘paytirish orqali topiladi. Albatta, hiqiqiy mehnat tannarxi bilan standart mehnat tannarxi o‘rtasida farq yuzaga kelishi mumkin. Bu farq mehnat farqi deb ataladi. Mehnat farqi ikkita omil natijasida yuzaga keladi: mehnat stavkasi farqi va mehnat samaradorligi farqi.

Mehnat stavkasi farqi. Mehnat stavkasi farqi bu to‘lovlarning o‘rtacha stavkasi mahsulot ishlab chiqarish yoki jarayonni yakunlashda standart tannarxga nisbatan yuqori yoki past bo‘lishi natijasida yuzaga keladi. Mehnat stavkasi farqi xuddi material narxi farqiga aynan o‘xshaydi. Mehnat farqi stavkasini (MFS) hisoblash uchun to‘langan haqiqiy to‘ridan-to‘g‘ri mehnat soati darajasi bilan standart to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat stavkasi o‘rtasidagi farqni haqiqatda ishlangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlariga ko‘paytirish orqali topiladi:

Mehnat stavkasi farqi = (Haqiqiy stavka – Standart stavka) Haqiqatda ishlangan soatlar

Beta kompaniyasi misolida ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, kompaniyada hisobot davrida hiqiqatda ishlangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari 22,200 soatni tashkil etmoqda. Mehnat tannarxi 233,100 p.b. (haqiqatdagi o‘rtacha soat stavkasi 10,50

p.b. tashkil etadi). Kompaniya menedjmenti tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari uchun 10 p.b. standart stavka belgilangan. U holda mehnat stavkasi farqi:

Mehnat stavkasi farqi = (Haqiqiy stavka – Standart stavka) Haqiqatda ishlangan soatlar = (10.50 p.b. – 10.00 p.b.) 22,200 = 0.50 p.b. 22,200 = 11,100 (noxush farq)

Xush yoki noxush farqlarning yuzaga kelishining asosiy sababi mehnat stavkalarining belgilangan standart stavkalarga nisbatan o‘zgarishi bo‘lib hisoblanadi.

Mehnat samaradorligi farqi. Mehnat samaradorligi farqi ishchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yoki jarayonni yakunlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari standart summasidan kam yoki ko‘p mehnat qilinganda yuzaga keladi. Mehnat samaradorligi farqi xuddi materiallardan foydalanish omiliga aynan o‘xshashdir.

Mehnat samaradorligi farqini aniqlash uchun haqiqatda ishlangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari bilan standart to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari o‘rtasidagi farqni standart mehnat soatlari stavkasiga ko‘paytirish orqali topiladi.

Mehnat samaradorligi farqi = (Haqiqatda ishlangan soatlar – Belgilangan standart soatlar) Standart stavka

Yuqoridagi misolimizda Beta kompaniyasi 11,000 birlikdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun 22,200 soat to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari amalga oshirilgan. Standart to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari 22,000 soatni tashkil etadi (11,000 birlik har bir birligi 2 soat). Standart to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat stavkasi har bir soatiga 10 p.b.ga teng bo‘lsa, mehnat samaradorligi farqi 2,000 p.b.ga teng bo‘ladi. Bu quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

Mehnat samaradorligi farqi = (Haqiqatda ishlangan soatlar – Belgilangan standart soatlar) Standart stavka = (22,200 – 22,000) 10 p.b. = 200 10 p.b. = 2,000 p.b. (noxush farq)

Yuqoridagi tahlil ma’lumotlari asosida buxgalteriya jurnallariga quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

Zahiralarni ishlab chiqarish jarayoni. 220,000
Mehnat stavkasi farqi. 11,100
Mehnat samaradorligi farqi. 2,000
Mehnat haqi hisob-kitoblari. 233,100

Buxgalteriya yozuvlaridan ko‘rinib turibdiki, ishlab chiqarish jarayoni standart mehnat xarajatlariga debetlanayapdi, mehnat haqi hisob-kitoblari scheti esa haqiqiy mehnat tannarxiga kreditlanayapdi. O‘rtadagi farqlanish mehnat stavkasi farqi va mehnat samaradorligi farqi schetlariga olib borilayapdi. Natijada, ishlab chiqarish jarayoni schetida standart tannarx shakllanmoqda.

Haqiqiy va standart to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari bog‘liqligini hamda mehnat farqlanishi hisob-kitobi natijalarini quyidagi illustrasiyada aks ettirish mumkin:

Mehnat stavkasi va samaradorligi farqlanishlari

Haqiqiy mehnat tannarxi:

Haqiqiy mehnat stavkasi Haqiqatda ishlangan soatlar = 10,50 22,200 = 233,100 p.b.

Haqiqiy ishlangan soatlardagi standart tannarx:

Standart mehnat stavkasi Haqiqiy ishlangan soatlar = 10,00 22,200 = 222,000 p.b.

Mehnat stavkasi farqi = 233,100 – 222,000 = 11,100 (noxush)

Mahsulot ishlab chiqarishda belgilangan soatlardagi standart tannarx (11,000 birlik):

Standart mehnat stavkasi Belgilangan standart soatlar = 10,00 22,000 = 220,000 p.b.

(2 soat 11,000 = 22,000)

Mehnat samaradorligi farqi = 222,000 – 220,000 = 2,000 p.b. (noxush)

Ushbu hisob-kitoblar natijalari asosida Standard Cost tizimida shakllangan axborotlarni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin:

Birlik uchun Standart to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari. . . . . .2 soat
Hisobot davrida ishlab chiqilgan ekvivalet birlik. . . . . .11,000 birlik
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari standart mehnat stavkasi. . . . . .10 p.b.
Jami hisoblangan (to‘langan) mehnat haqi (22,200 10,50 p.b.). . . 233,100 p.b.
Haqiqatda ishlangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari. . . . . .22,200 soat
Belgilangan Standart tannarx (22,000 10 p.b.). . . . . 220,000 p.b.
Jami mehnat farqi (233,100 – 220,000). . . . . .13,100 p.b.

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, umumiy farq 13,100 p.b.ni tashkil etmoqda. Berilgan raqamlar standart tannarx tizimini nazorat olib borishda foydalaniladi.

Ustama farqlanishi

Standard cost tizimida buxgalterlar ustama ishlab chiqarish xarajatlarining standart (budjetlashtirilgan) stavkalaridan foydalaniladi. Oldingi mavzularda budjetlashtirilgan ustama ishlab chiqarish xarajatlari va ularning stavkasi aniqlash tartibi ko‘rsatib berilgan. UIChX standart stavkasi budjetlashtirilgan ustama xarajatlari summasini ishlab chiqarish yoki faollikning standart darajasiga bo‘lish orqali topiladi.

Menedjerlar ustama farqlanishlarini izolyatsiyalash hamda standart ustama stavkalarini joriy qilish maqsadida egiluvchan (gipkiy) budjetlardan foydalanadi. Egiluvchan budjetlar ishlab chiqarishning turli darajalarida ustama ishlab chiqarish xarajatlarining summalarini aks ettiradi.

Beta kompaniyasi bo‘yicha hisobot davrida egiluvchan budjeti 5.2-jadvalda keltirilgan.

5.2-jadval

Beta kompaniyasi
Egiluvchan Ustama Ishlab Chiqarish Xarajatlari Budjeti

Mashina soatlar	18,000	20,000	22,000
Ishlab chiqarilgan birlik	9,000	10,000	11,000
O‘zgaruvchan Ustama (UIChX):			
Bilvosita material	7,200	8,000	8,800
Energiya	9,000	10,000	11,000
Bilvosita mehnat	1,800	2,000	2,200
Boshqa	18,000	20,000	22,000
Jami o‘zgaruvchan ustama	***36,000***	***40,000***	***44,000***
Doimiy Ustama:			
Sug‘urta	4,000	4,000	4,000
Mol-mulk solig‘i	6,000	6,000	6,000
Depresiatsiya	20,000	20,000	20,000
Boshqa	30,000	30,000	30,000
Jami doimiy ustama	***60,000***	***60,000***	***60,000***
Jami UIChX	***96,000***	***100,000***	***104,000***
Standart Ustama Stavkasi (100,000 p.b. / 20,000 soat = 5 p.b. bir soatga			

Beta kompaniyasi bo‘yicha egiluvchan budjetida ishlab chiqarish birliklari (faoliyat darajasi) 9,000, 10,000 va 11,000 birlik bo‘lganda o‘zgaruvchan va doimiy UIChX ning budjetlshtirilgan raqamlari keltirilgan. Tannarxni aniqlash maqsadlarida kompaniya belgilangan faoliyat darajasini baholashi hamda ushbu darajaga nisbatan stavkani aniqlash talab etiladi. Ushbu tanlangan daraja faoliyatning standart hajmi darajasi deb ataladi. Standart hajm darajasi faqat ishlab chiqarish birliklari bilan ifodalanmasdan, balki quvvatdan foydalanish darajasi, mashina soatlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mashina soatlari va boshqalar olinishi mumkin. Bizning misolda standart hajm qilib ishlab chiqarilgan 10,000 birlik mahsulot olingan. Bunda 20,000 mashina soat ishlanishi ko‘zda tutilgan. Egiluvchan ustama ishlab chiqarish xarajatlari budjetiga muvofiq 20,000 mashina soatda UIChX standart summasi 100,000 p.b. ni hamda uning darajasi esa bir mashina soatiga 5 p.b.ni (100,000 p.b. / 20,000 mashina soat) tashkil etadi. O‘zgaruvchan ustama xarajatlari darajasi 2 p.b. (40,000 p.b. / 20,000 mash. soat), doimiy ustama xarajatlari darajasi 3 p.b. (60,000 p.b. / 20,0000 mash. soat)ni tashkil etmoqda. Agarda 18,000 mashina soatini oladigan bo‘lsak, standart ustama darajasi 5.33 p.b.ni tashkil etadi (96,000 p.b. / 18,000 mash. soat). Agarda standart hajm 22,000 mashina soat olinganda edi standart ustama darajasi 4.73 p.b.ga teng bo‘lar edi (104,000 p.b. / 22).

Beta kompaniyasi faoliyatida yuz bergan hodisalarni tahlil qilishni davom ettiraylik. Kompaniya hisobot davri davomida ustama ishlab chiqarish xarajatlarining summasi 108,000 p.b.ni tashkil edi, qaysiki bunda 11,000 birlik mahsulot ishlab chiqarishga erishildi. Ushbu haqiqiy tannarx summasiga UIChX schetini debetlash hamda bir qancha schetlarni, jumladan To‘lanadigan schetlar,

Jamg‘arilgan depresiatsiya, Oldindan to‘langan sug‘urta, To‘lanadigan mol-mulk solig‘i va boshqa schetla kreditlanishi mumkin. Yuqoridagi egiluvchan budjetga muvofiq 11,000 birlik mahsulot ishlab chiqarilgan taqdirda 22,000 mashina soat ish bo‘ladi. Mahsulot tannarxiga standart ustama stavkasiga 5 p.b.ga muvofiq 110,000 p.b. (5 p.b. 22,000 mashina soat)dagi summa olib boriladi. Bunga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari beriladi:

Zahiralarni ishlab chiqarish jarayoni. 110,000
Ustama ishlab chiqarish xarajatlari. 110,000

Natijada, Ustama Ishlab Chiqarish xarajatlari schetining debitida 108,000 p.b., kreditida esa 110,000 p.b.da mablag‘ yozilib, o‘rtada 2,000 p.b (110,000 – 108,000) farq yuzaga keladi. Bu mahsulot tannarxiga ortiqcha taqsimlangan UIChXlarini tashkil etadi. Bu farq qaysi omillar hisobidan kelib chiqqanligini aniqlash talab etiladi.

Ustama farqlanishida ikkita omilni ta’kidlash mumkin bo‘ladi: *Ustama budjet farqi* va *Ustama hajm farqi*.

Ustama budjet farqi. *Ustama budjet farqi* bu ustama servisi qanchalik tejamkorlik asosida xarid qilinganligi (yuz berganligi) va qanchalik darajada samarali foydalanilganligini tavsiflaydi. Ustama budjet farqi narx farqi va meterillar yoki mehnatdan foydalanilganlik farqi kabi hisoblanadi. Ustama budjet farqini hisoblash uchun haqiqiy ustama xarajatlaridan haqiqiy ishlab chiqarishni hisobga olgan holda budjetlashtirilgan ustama tannarxni ayirish orqali topiladi. Beta kompaniyasi uchun o‘zgaruvchan ustama 2 p.b. da 22,000 mashina soat haqiqiy ishlaganda 44,000 p.b.da o‘zgaruvchan UIChXlari bo‘ladi. Bunga 60,000 doimiy ustama xarajatlarini qo‘shsak, jami budjetlashtirilgan ustama 104,000 p.b.ga teng. Haqiqiy Ustama 108,000 p.b.ni tashkil etmoqda. U holda Ustama Budjet Farqi quyidagicha hisoblanadi:

Ustama Budjet Farqi = Haqiqiy Ustama – Haqiqiy ishlab chiqarish hajmi darajasidagi Budjet Ustama = 108,000 p.b. – 104,000 p.b. = 4,000 p.b. (Noxush)

Bu farqning noxush bo‘lishiga sabab haqiqiy ustama xarajatlari 108,000 p.b. egiluvchan budjet xarajatlari 104,000 p.b. ga ko‘ra oshganligi hisoblanadi.

Ustama hajm farqi. Ustama hajm farqi joriy qilingan standart ustama taqsimlash stavkasidan boshqa ishlab chiqarish darajasi ishlab chiqarilganda yuz beradi. Ustama hajm farqini topish uchun Budjet Ustamadan Taqsimlangan Ustamani ayirish kerak. Yuqorida buxgalteriya yozuvlaridan ma’lumki, Taqsimlangan Ustama 110,000 tashkil etgan edi (22,000 mashi. soat 5 standart taqsimlash stakasi). U holda Ustama Hajm Farqi:

Ustama Hajm Farqi = Budjet Ustama – Taqsimlangan Ustama = 104,000 p.b. – 110,000 p.b. = -6,000 p.b. (xush)

Ushbu farqni boshqa formula orqali ham hisoblash mumkin.

(Belgilangan (oldindan aniqlangan)Ustama stavkasida foydalanilgan soatlar miqdori – Erishilgan ishlab chiqarish darajasida taqsimlagan Standart soatlar miqdori) Bir Soat uchun Doimiy Ustama Stavkasi = (20,000 – 22,000) 3 = - 6,000 (Xush)

Ikkita omil ta'siri materiallar xarajat moddasi bo'yicha 3,000 (-6,000 + 3,000) xush farqni beradi.

Xuddi shu tartibda mehnat haqi va UIChX bo'yicha ham farqlar tahlili amalga oshiriladi. Barcha omillar ta'sirining yig'indisi umumiy farqni beradi. Standart tannarx tahlili omillar ta'sirini o'rganishda qo'l keladi.

2. Asosiy smeta. Operativ budjet, moliyaviy budjet va kapital sarflar budjeti.

Iqtisodiy adabiyotlar tahlil qilinganida budjet va budjetlashtirish, daromad va xarajatlar budjetiga doir umumiy metodologik usullar yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. "Budjet" so'zi qadimgi normand tilidan olingan bo'lib, "bougette" xalta, karmon, charm qop, pul to'la qop degan ma'nolarni anglatadi B.Nidlz, M.Pauers, S.Millz va G.Andersonlarning fikricha: "budjet – kelgusidagi iqtisodiy operatsiyalar, xo'jalik faoliyati va natijalarni moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar ifodasida bashorat qiluvchi harakatlar rejasidir" Rossiyalik iqtisodchi olimlar Ye.A.Anankina, S.V.Danilochkin va N.G.Danilochkinlarning fikricha, "budjet – korxonaning yaxlit yoki alohida bo'limlari faoliyatini miqdoriy eks etgan rejasidir"/ Respublikamiz iqtisodchi olimlari A.X.Pardaev va Z.A.Pardaevalarning fikricha, "budjet – bu rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishdan oldin tuziladigan moliyaviy hujjat hisoblanadi". Buyuk Britaniyadagi boshqaruv hisobi bo'yicha Qirollik universiteti (CIMA) ma'lumotlariga ko'ra, budjetlashtirish iqtisodiy boshqaruvning eng mashhur vositasi hisoblanib, 80% kompaniyalarda qo'llaniladi. Ko'pgina iqtisodchi olimlar budjetlashtirishga turlicha yondashishadi, masalan - moliyaviy rejalashtirish jarayoni, moliyaviy nazoratni optimallashtirish vositasi, boshqaruv hisobi vositasi, korxona faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish vositasida budjetlarni ishlab chiqish jarayoni, operativ boshqaruv uslubi. Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan B.A.Xasanov va A.A.Xashimovlarning fikricha, "budjetlashtirish – korxonaning ma'lum 3 davrga mo'ljallangan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish hisoblanadi". Jahon tajribasiga ko'ra budjetlashtirish quyidagi ijobiy jihatlarga ega: - jamoaning ruhiyatini ko'tarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; - korxona faoliyatini yaxlit holda muvofiqlashtirish imkonini beradi; - budjetga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish imkoniyati mavjud; - oldingi davrlarda tuzilgan budjetlarning ijobiy jihatlarini olish imkoniyati mavjud; - resurslarni taqsimlash jarayonini takomillashtirish imkoniyati mavjud; - rejalashtirilgan va erishilgan natijalarni taqqoslash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Budjetlashtirishning salbiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: - Budjetlashtirish tizimining murakkabligi va qimmatga tushishi; - Budjet bo'yicha ma'lumotlarning har bir xodimga yetib bormasligi ularning ish natijalariga va ruhiyatiga ta'sir etmasligi; - Budjetlashtirish tizimidagi arzimagan o'zgartirish reja va hisobot ko'rsatkichlarini qaytadan ko'rib chiqish va budjetni

boshqadan tuzishni taqozo etishi mumkin. Umuman olganda budjetlashtirishning ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi: rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish; kompaniya moliyaviy barqarorligining barcha jihatlarini baholash; korxona tashkiliy tuzilmalari tomonidan moliyaviy tartib-intizomni mustahkamlash; alohida xo‘jalik faoliyati va tarkibiy tuzilmalar faoliyati samaradorligini uzluksiz nazorat qilish; kompaniya moliyaviy holatidagi o‘zgarishlar ustidan doimiy nazorat qilish. Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqot ishida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya kabi usullar qo‘llanildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra ishlab chiqarish korxonalari tomonidan tuziladigan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” ma’lumotlari asosida daromad va xarajatlar budjeti shakli tuzilgan. Tadqiqotning asosiy masalasi daromad va xarajatlar budjetini tuzishda yuzaga keladigan tashkiliy, metodologik va dasturiy-texnik muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar daromad va xarajatlarning optimal budjetini tuzish, xarajatlarni qisqartirish, foyda va rentabellik darajasini oshirish imkonini beradi. Tahlil va natijalar Bozor iqtisodiyoti sharoitida aynan budjetlashtirish asosiy rejalashtirish jarayoni bo‘lib, boshqaruvning muhim funksiyasini tashkil qiladi. Budjetlashtirishning jahon tajribasiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsa, uning tashkiliy, metodologik va dasturiy-texnik muammolarini ko‘rib o‘tish mumkin. Metodologik xarakterdagi asosiy kamchiliklar sifatida budjetlarning yagona tasnifi, budjetlarni ijro etishda tahlil va nazorat qilish texnologiyasi, moliyaviy natijalar va moliyaviy holatni baholashning optimal metodikasi mavjud emasligini keltirib o‘tish mumkin. Budjetlarni tasniflashning asosiy muammolariga quyidagilarni kiritish mumkin: budjet moddalari bo‘ysunuvchanligi belgilanmagan; budjet nomlanishida yagona terminologiya mavjud emas; muayyan bir xil ko‘rsatkich turlicha talqin etiladi. Korxona moliya-xo‘jalik faoliyatidan kelib chiqqan holda uning faoliyatini har tomonlama qamrab olgan, shuningdek yakuniy moliyaviy natijalarni tavsiflovchi budjetlarning kompleks tizimi samarali hisoblanadi. Bu kabi budjetlarni tuzish yagona axborot bazasini shakllantirishni taqozo etadi. Mazkur axborot bazasi har bir budjet uchun hisob-kitob ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularni hisob-kitob qilish, ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini berishi kerak. Daromad va xarajatlar budjeti kompaniya faoliyati samaradorligini boshqarishni ta’minlaydi. Amaliyotda foydaning bir nechta turlari mavjud: yalpi foyda, marjinal foyda, operatsion foyda, soliq to‘langunga qadar foyda va sof foyda. Daromad va xarajatlar budjetining mazkur ko‘rsatkichlari muayyan maqsadga xizmat qiladi. Daromad va xarajatlar budjetidan foydalanishda hisob siyosati muhim o‘rin tutadi, ya’ni moliyaviy budjetlar qabul qilingan hisob siyosatiga juda ham bog‘liq. Ammo bu masalaga hamisha chuqur e’tibor qaratilmaydi. Bunda korxonada hisob siyosatini ishlab chiquvchi yetuk mutaxassis mavjud emasligi asosiy muammo emas, korxona menejerlari hisob siyosatiga ikkinchi darajali masala sifatida qaratiladi. Menejerlar uchun hisob siyosati masalalari murakkab va unchalik muhim emas bo‘lib tuyuladi. Ammo menejerlar boshqaruv hisobotlari, masalan daromad va xarajatlar budjetini qabul qilishda foyda va zarar miqdori xususida juda ko‘plab savollar (nima uchun o‘tgan yilga nisbatan foyda kam, nima uchun xarajatlar oshib bormoqda) berishadi. Hisob siyosatining asosiy qoidalarini

tushunmaslik oqibatida menejerlar moliyaviy hisobot ma’lumotlarini, daromad va xarajatlar budjeti ma’lumotlarini talqin qiladi. Yana bir bor shuni ta’kidlash joizki, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillarini bilmaslik, samarasiz qarorlarni qabul qilinishiga va muammoli vaziyatlarning o‘z vaqtida aniqlanmasligiga olib keladi. Moliyaviy budjetlarning uchta asosiy turi mavjud: daromad va xarajatlar budjeti, pul mablag‘lari harakati budjeti, balans moddalari budjeti. Moliyaviy budjetlar bilan birgalikda operatsion budjetlarning 10 dan ortiq turi ham mavjud. Operatsion budjetlar budjetlashtirish ob’ektlariga qarab turlicha bo‘ladi (sotish budjeti, ishlab chiqarish budjeti, sotish xarajatlari budjeti va hokazo). Demak, moliyaviy budjetlarning uchta asosiy turi bo‘yicha mulkdorning aniq maqsadlari mavjud: biznes qancha foyda keltiradi, qancha miqdorda pul mablag‘lari kirimi va chiqimi yuz beradi, biznesni yuritishda aktivlardan qay darajada samarali foydalaniladi.

Yuqoridagi uchta maqsadga erishishda moliyaviy budjet ma’lumotlarini yaxlit holda tahlil qilish orqali korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, yuqoridagi uchta holat bo‘yicha korxona rahbariyati axborotlarga ega bo‘lgan holda faoliyatni boshqarish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Daromad va xarajatlar modeli budjetlashtirish moliyaviy modelining muhim elementi hisoblanadi. Daromad va xarajatlar modeli yordamida korxona faoliyati samaradorligini aniqlash mumkin. Shu boisdan daromad va xarajatlar summalarini ularning operatsion budjetlar daromad va xarajatlari bilan bog‘liqlikda tekshirish kerak. Darvoqe, daromad va xarajatlarni konsolidatsiyalash uchun talab etiladigan asosiy axborotlar funksional va investitsion budjetlarni tuzish jarayonida tayyorlanishi kerak. Daromad va xarajatlar modelini tuzishda asosiy muammolardan biri xarajatlar qismining shakllanish metodikasiga bog‘liq. Bunda asosiy e’tibor mahsulot tannarxiga qaratilishi kerak, chunki mahsulot tannarxi avvalo daromad va xarajatlar budjetida foyda summasiga ta’sir qiladi, shuningdek buxgalteriya balansida zaxiralar va tayyor mahsulot qiymatiga ta’sir qiladi. Xarajatlar to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Ya’ni daromad va xarajatlar budjetiga korxonaning barcha xarajatlari kiritilishi kerak. Xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning “ to‘liq aks ettirilmasligi korxona faoliyatining haqiqiy holati xususida noto‘g‘ri ma’lumotlar shakllanishiga olib keladi. Bundan tashqari daromad va xarajatlar budjetiga ma’lumotlar faqat funksional budjetlar ma’lumotlaridan emas, balki investitsion loyihalar budjetlaridan ham shakllanadi. Masalan, korxona faoliyatini kengaytirish maqsadida loyihalash xarajatlarini daromad va xarajatlar budjetiga kiritilmasligi oqibatida, joriy davrda korxonaning foydasi oshishiga olib keladi. Yana shunday holatlar ham bo‘ladiki, korxona qimmat turadigan asosiy vositasini sotishi orqali foyda miqdori keskin oshib ketishi mumkin. Korxona rahbariyati foydaning keskin oshib ketishi sabablariga e’tibor qaratishi uchun daromad va xarajatlar budjeti natijalarini chuqur tahlil qilishi kerak. Quyidagi 1-jadvalda ishlab chiqarish korxonasining daromad va xarajatlar budjetining namunasi keltirilgan.

Daromad va xarajatlarning 1-jadvalda keltirilgan ushbu namunasi umumiy ko‘rinishga ega. Ya’ni bu yerda mahsulot turlari yoki faoliyat turlari bo‘yicha batafsil namuna keltirilmagan. Masalan, mahsulot sotishdan tushgan sof tushum,

sotilgan mahsulot tannarxi va sotish xarajatlari ko‘rsatkichlarini mahsulot turlari bo‘yicha keltirish mumkin. Bu holatda ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratishga to‘g‘ri keladi. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil № 3, 2017 www.iqtisodiyot.uz 7 Bu yerda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum ko‘rsatkichi sotish budjetidan olinadi. Sotilgan mahsulot tannarxi ko‘rsatkichini aniqlash biroz qiyin masala, chunki bu holatda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot emas, balki faqat sotilgan mahsulot tannarxini aniqlash kerak bo‘ladi. Daromad va xarajatlar budjetining asosiy ko‘rsatkichlari sof foyda va rentabellik darajasi ko‘rsatkichlaridir. Sof foyda korxona joriy faoliyati samaradorligining mutlaq ko‘rsatkichi hisoblansa, rentabellik samaradorlikni ifodalovchi nisbiy ko‘rsatkichdir. Rentabellik ko‘rsatkichini nafaqat hisobot yili bo‘yicha, balki har oy kesimida ham hisoblash mumkin. Chunki, korxona faoliyati mavsumiy ko‘rinishga ham ega bo‘lishi mumkin. Ya’ni ba’zi oylarda korxona zarar bilan ishlashi, boshqa davrlarda yuqori miqdorda foyda bilan ishlashi ham mumkin. Yuqoridagi misolda korxona dastlabki oylarda zarar bilan ishlagan, keyinchalik foyda miqdori oshib borgan. Umuman olganda yil bo‘yicha rentabellik darajasi me’yor darajasida, shu boisdan mazkur turdagi daromad va xarajatlar budjeti korxona rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Daromad va xarajatlar budjetini tasdiqlash uchun avvalo pul mablag‘lari harakati budjeti va balans moddalari varag‘i (budjeti) mahsulotlarini umumlashtirish kerak. Ma’lumki, ushbu budjetlarning ko‘rsatkichlari qat’iy limitga ega emas. Ushbu budjetlar ko‘rsatkichlarini tahlil qilgan holda kredit olish to‘g‘risida qaror chiqarish mumkin. Bunday qaror kredit bo‘yicha foizlarning ko‘payishiga olib keladi hamda daromad va xarajatlar budjetiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

3. Pul oqimi farazi. (Pul mablag‘lari budjeti)

Biznes sub’ektlarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishda pul oqimlarini to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish muhim rol o‘ynaydi. Pul oqimlari tadbirkorlik sub’ektining bir yil davomidagi barcha sarflangan va kirim qilingan pul mablag‘larining harakatini ifodalaydi. Sub’ektning «pul oqimlari» tushunchasi o‘zida faoliyatining uzluksizligi jarayoni davomida pul mablag‘lari tushumi va chiqimining taqsimlanish yig‘indisini aks etiradi. Sub’ektlarning pul oqimlari tushunchasi moliyaviy boshqaruvning alohida ob’ekti sifatida nafaqat mahalliy, balki xorijiy adabiyotlarda ham moliyaviy boshqaruv bo‘yicha yetarli darajada o‘z aksini topmagan. Bu pul oqimlarining asosiy tarkibida pul aktivlarini boshqarish, moliyaviy resurslarni shakllantirishni boshqarish va bankrotlik xavfi sharoitida inqirozga qarshi sub’ektlarning boshqaruvi masalalari ko‘rib chiqiladi. Unga shuningdek, moliyaviy hisobotlar, pul mablag‘larining harakat dinamikasini tasvirlovchi buxgalterya hisobini yuritish kabi hisob turlari kiradi. Pul oqimlarini to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish nisbatan murakkab vazifa bo‘lib, u endigina amaliyotga kirib kelmoqda. Shuningdek, moliyaviy hisobotining shakllaridan biri ham «pul oqimlari to‘g‘risida»dir. Biznes sub’ektlarining pul oqimlaridan unumli foydalanish quyidagi vazifalarni yechishga yordam beradi: u tadbirkorlik

sub’ektining «moliyaviy qon aylanish tizimi» bo‘lib, samarali tashqil etilganda moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi; pul oqimlarini oqilona shakllantirish xo‘jalik operatsion faoliyatining bir maromda va doimiy amal qilishini ta’minlaydi;

pul oqimlarini samarali boshqarish qarz mablag‘lariga, ya’ni chetdan jalb qilingan kapitallarga bo‘lgan ehtiyojlarni qisqartiradi; pul oqimlarini boshqarishning faol tizimiga ega bo‘lish o‘z mablag‘laridan samarali foydalanishni, ichki moliyaviy manbalarni shakllantirishni ta’minlaydi; pul oqimlarini to‘g‘ri boshqarish xo‘jalik kapitalining aylanishini tezlashtiruvchi moliyaviy dastak hisoblanadi; pul oqimlaridan samarali foydalanish tadbirkorlik sub’ektining to‘lov qobiliyatini oshiradi va maqsadli foyda miqdoriga erishishga yordam beradi; pul oqimlarini samarali boshqarish shakllariga ega bo‘lish, qo‘shimcha foyda olishni, bevosita pul aktivlari bo‘yicha ijobiy natijalarga erishishni, ya’ni vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Tadbirkorlik sub’ektlari «pul oqimlarini boshqarish» tushunchasi o‘zida ho‘jalik faoliyati uchun xizmat qiluvchi turli shakldagi pul oqimlari tarkibini aks ettiradi. Buning mohiyatini pul oqimlarini boshqarishda ularning alohida xususiyatlariga qarab aniqlash talab etiladi. Bunday pul oqimlarini guruhlashtirishni quyidagi asosiy belgilari bo‘yicha tashkil qilish taklif qilinadi.

1. Pul oqimlari xo‘jalik faoliyatiga xizmat qilish jarayonlarining hajmi bo‘yicha quyidagi shakllarga ajratiladi: • korxona bo‘yicha to‘liq pul oqimlari; • korxona xo‘jalik faoliyatining alohida shakllari bo‘yicha pul oqimlari; • alohida tarkibiy tuzilmalari (javobgarlik markazlari) bo‘yicha pul oqimlari; • alohida xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha pul oqimlari.

2. Xalqaro hisob standartlariga mos ravishda xo‘jalik faoliyatining shakllari bo‘yicha pul oqimlarining turlari quyidagilarga ajratiladi: • operatsion faoliyat bo‘yicha pul oqimlari; • investitsiya faoliyati bo‘yicha pul oqimlari; • moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul oqimlari.

3. Pul mablag‘larining harakat yo‘nalishlari bo‘yicha pul oqimlari ikki asosiy shaklga ajratiladi: • ijobiy pul oqimlari («pul mablag‘larining kirimi»); • salbiy pul oqimlari («pul mablag‘larining chiqimi»).

4. Hajmini hisoblash usullari bo‘yicha pul oqimlari quyidagi shakllarga ajratiladi: • yalpi pul oqimlari; • sof pul oqimlari.

5. Hajmining yetarlilik darajasi bo‘yicha pul oqimlari quyidagi shakllarga ajratiladi: • pul oqimlarining yetarliligi; • pul oqimlarining yetishmasligi (defitsitligi).

6. Pul oqimlari davrda baholash usullari bo‘yicha quyidagi shallarga ajratiladi: • joriy pul oqimlari; • kelgusidagi pul oqimlari.

7. Pul oqimlari ko‘riladigan davrda shakllantirilishining uzluksizligi bo‘yicha quyidagi shakllarga ajratiladi: • doimiy pul oqimlari; • vaqtinchalik pul oqimlari.

8. Doimiy pul oqimlari vaqt oralig‘ing barqarorligi bo‘yicha quyidagi shakllarga ajratiladi: • doimiy pul oqimlarining bir xil vaqtdagi oralig‘i;

Doimiy pul oqimlarining har xil vaqtdagi oralig‘i. Tadbirkorlik sub’ektlarining pul oqimlari operatsion faoliyat, moliyaviy faoliyat va investitsion faoliyat natijasida shakllanadigan pul oqimlaridan iborat bo‘ladi. Operatsion faoliyat bo‘yicha pul oqimlari mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schetlar,

ishchilarga mehnat haqi xarajatlari va mehnatga haq to‘lash fondidan ijtimoiy ajratmalar, asosiy vositalarning eskirishi, turli ish va xizmatlar uchun to‘langan pul mablag‘lari, foiz ko‘rinishidagi xarajatlar, ishlab chiqarish xususiyatidagi boshqa xarajatlar, xo‘jalikni boshqarish xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va boshqa operatsion xarajatlar, budjetga turli soliqlar ko‘rinishidagi chiqimlar hamda mahsulot sotishdan olingan, ish va xizmatlar ko‘rsatishdan kelib tushgan tushum, royalti, foiz ko‘rinishidagi tushumlar va operatsion faoliyat bilan bog‘liq boshqa pul tushumlarini aks ettiradi. Investitsion faoliyat bo‘yicha pul oqimlari kichik biznes sub’ektlarining ishlab chiqarishga sarflagan real investitsiyalari va ortiqcha asosiy vositalarni sotish, boshqa sub’ektlarning aksiyalarini sotib olish va sotish hamda boshqa investitsiya xususiyatiga ega bo‘lgan kirim va chiqimlarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul oqimlari tadbirkorlik sub’ektining qo‘shimcha sarmoya sifatida mablag‘ jalb qilishini, uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni jalb qilishni, pul ko‘rinishida dividend berish va korxona faoliyatini tashqi mablag‘lar bilan moliyalashtirishni o‘z ichiga oladi.

13-MA’RUZA. Boshqaruv hisobida transfert baho va uni belgilash

Reja:

1.Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari. Bozor narxi va xarajatlar miqdori bo‘yicha baholash

2.Transfert baholarni o‘rnatish uslublari

1. Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari. Bozor narxi va xarajatlar miqdori bo‘yicha baholash

Xo‘jalik yurituvchi subektlar o‘zining ishlab chiqarish faoliyatida ko‘p hollarda ichki bo‘linmalarning yarim tayyor mahsulotlarini boshqa bo‘limlarga berishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida va ichki xo‘jalik hisobini joriy qilish natijasida ularning o‘rtasidagi munosabat pulga chaqilgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu ichki xo‘jalik hisobining asosiy shartlaridan biridir. Ushbu talabni bajarish yuzasidan transfert baholari qo‘llaniladi. Transfert baholari - bu xo‘jalik yurituvchi subektdagi ichki bo‘linmalarning birinchisidan ikkinchisiga, ya’ni birinchi mas’uliyat markazidan ikkinchi mas’uliyat markaziga berilayotgan yarim fabrikatlar, bajargan xizmatlarning bahosini aniqlash uchun qo‘llaniladigan baholardir. Xo‘jalik yurituvchi subektning ta’minot-tayyorlov faoliyati uning umumiy xo‘jalik faoliyatining birinchi bosqichi ekanligini e’tiborga olgan transfert baholari olingan va sarflangan TMZ baholarini aniqlashda muhim o‘rin tutishini bilamiz. Transfert 216 baholarini hisoblash ikkita usulda, bozordagi baholarga asosan va sarflangan xarajatlarga asosan amalga oshiriladi. Bozordagi baholarga asosan aniqlangan transfert baholar. Ayrim hollarda o‘xshash TMZ bozor bahosi ma’lum bo‘lgan vaqtda asosiy e’tibor xarajatlarga qaratilmaydi, balki ushbu bozor bahosidan kelib chiqqan holda o‘rnatiladi. Chunki bozor sharoitida subektning ichki bo‘linmalaridan olayotgan yarim fabrikatlar, detallar va iste’mol qilayotgan xizmatlarning qiymatini iste’molchi sotuvchi

bo‘linmaga bozordagi bahodan kelib chiqqan holda to‘laydi va shu bilan bir vaqtda sotuvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi ham ushbu yarim fabrikatlar va xizmatlarni sotganda xudda tashqi iste’molchiga sotganda olgan daromadi summasida daromad oladi. Bozor bahosining afzalligi sotadigan va iste’mol qiladigan markazlarning o‘zaro aloqalari va menejerlarning malakaviy darajasiga qaramaydi, balki uning obektiv xususiyatga ega bo‘lishidir. Bundan tashqari ko‘pgina subektlar o‘zlarining bo‘linmalariga to‘liq mustaqillik bergan va ular ichki xo‘jalik hisobi jarayonda biznesning mustaqil subekti hisoblanadi. Demak, ushbu sharoit va shartlarni inobatga olganda ushbu bozor bahosini qo‘llash bo‘linmalarning o‘zaro aloqalarini haqiqatga yaqinlashtiradi. Amaliyotda esa haqiqiy bozor bahosi hamma vaqt ham haqiqatni yoritavermaydi, chunki bir turdagi tovar-moddiy qiymatliklariga har xil mol yetkazib beruvchi har xil baho belgilaydi. Shuning uchun eng avvalo mol yetkazib beruvchilarni keyin esa TMZ tanlash va bahoni belgilash bo‘yicha qarorni qabul qilishdan avval aniq va to‘g‘ri baho siyosatini ishlab chiqish lozim: mol yetkazib beruvchining tartibliligiga ishongandan keyin oladigan TMQ– bahosini pasaytirish; olingan TMQ kafolatlanishini ta’minlash;– yetkazib berish sharti;– olish va qiymatini to‘lash shartlari va hokazo.– Xarajatlarga asoslangan transfert baholar. Ko‘pchilik hollarda transfert baholarni belgilash uchun shunga o‘xshash tovar va xizmatlar uchun bozor bahosi belgilanmagan bo‘ladi. Ushbu vaqtlarda xarajatlarga asoslangan transfert baholar qo‘llaniladi va uning asosida standart tannarx yotadi. Agarda ushbu mahsulot va xizmatlarga faqatgina haqiqiy xarajatlar qo‘shilgan bo‘lsa ushbu mahsulot va xizmatlarni sotuvchi mas’uliyat markazlari uchun uning samaradorligini tartibga solish qiziqtirmaydi, chunki bu sarflarning o‘zgarishi iste’mol qiluvchi markazning transfert bahosiga o‘z - o‘zidan ta’sir qiladi. Transfert baholardagi xarajatlarning tarkibi va foydaning ulushi o‘zaro nizolar va kelishmovchiliklar sodir bo‘lmasligi uchun yuqori rahbariyat tomonidan belgilangan bo‘lishi mumkin. Ko‘pchilik hollarda kelishmovchiliklarning chiqmasligi uchun tashqi baholarga va tannarxni hisoblash usuliga tayanmay iste’mol qiluvchilar bilan sotuvchilar, o‘zaro kelishilgan hollarda ushbu transfert baholarni o‘rnatadilar. Ayrim hollarda sotuvchi transfert baholarni o‘rnatish yuzasidan qabul qilingan hisob siyosatidan chekinishga majbur bo‘ladi. Misol, sotuvchi xaridorni o‘ziga jalb qilish uchun xizmatlarga bahoni bozor bahosidan past qo‘yishi mumkin. Ushbu holatlarda iste’mol qiluvchi, sotib oluvchi markaz vaqtinchalik ushbu arzon baholardan foydalanadi. Demak, ushbu sharoit, ya’ni kelishilgan baho ikki tomonning kelishishi asosida o‘rnatiladi. Ayrim hollarda, agarda menejerning harakati chegaralangan yoki ishbilarmonlik munosabatlariga har xil ta’sirlar mavjud bo‘lsa ushbu olib borilgan muloqotlar ijobiy natija bilan tugamaydi. Bo‘lg‘usi iste’molchi u yoki bu sotuvchi bilan mustaqil aloqada bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lmasa va shu bilan bir vaqtda mazkur sotuvchi ushbu buyurtmani bajarishdan bosh torta olmasa, ushbu sharoitlarda yuzaga kelgan tortishuvni yechish, ya’ni transfert bahoni belgilash uchun boshqa bir usulni topishi lozim bo‘ladi.Amaliyotda esa foyda markazi ko‘p hollarda mustaqil yuridik shaxs bo‘laolmaydi. Ular o‘zaro kelishilgan holda birgalikda muomala

qilsa tegishli foyda markazining e’lon qilgan daromadi subektning olgan umumiy daromadini oshirmaslik holatlariga olib keladigan tavakkalchiligi paydo bo‘ladi. Ushbu yetarlicha muqobillashtirilmagan tavakkalchilik doimo amaliyotda sodir bo‘ladigan, sotuvchi tomonidan qo‘llanilgan transfert bahosi uning qisqa muddatli sarfidan oshiqcha bo‘lsa tez-tez ro‘yobga chiqib turadi. Misol, subektning V bo‘limi (sex) A omborxonadan X komponentni sotib olayapdi. V bo‘linma (sex) ushbu X komponentini U mahsulot ishlab chiqarishda foydalanadi. X komponenti uchun joriy transfert baho (to‘liq xarajatlar va foyda qo‘shilgan holda 500 so‘mga teng. U mahsulotni ishlab chiqarish uchun V bo‘limning sarflagan o‘zgaruvchan xarajati 1500 so‘m, shundan komponentning qiymati 500 so‘m, demak faqat o‘zgaruvchan xarajat 1000 so‘mni tashkil qiladi. Ushbu sarflarga bo‘limning ishlab chiqarish va tijorat faoliyati bo‘yicha ham sarflar qo‘shilgan. Hozirgi davrda V bo‘limi U komponentning 1000 donasini 1450 so‘mdan tashqi xaridorga sotish imkonini qarab chiqishni tavsiya qildi. Natijada V bo‘limida birlik mahsulotga sarflangan xarajatlardan kam bo‘lganligi uchun ushbu bo‘limning menejeri sotishdan voz kechdi. Lekin keyinchalik A omborining bir birlik X komponentiga sarflagan xarajati faqatgina 200 so‘mni tashkil qildi. Shu bilan bir qatorda U mahsulotining o‘zgaruvchan xarajatlari esa 1200 so‘mni tashkil qildi (A omborining sarflari 200 so‘m va V bo‘limining o‘zgaruvchan sarflari 1000 so‘m). Shunday qilib, ushbu ilgari rad qilingan muomala-kelishuv yana kuchga kirsa subekt qo‘shimcha ravishda 250 so‘m daromad olishi mumkin (1450 so‘m-1200 so‘m, o‘zgaruvchan xarajatlar). Ushbu holatda o‘zining tutgan siyosati bo‘yicha ushbu V bo‘linma to‘g‘ri qaror qabul qildi, lekin xo‘jalik yurituvchi subektning transfert baholari bo‘yicha qabul qilgan siyosati nuqtai nazaridan ushbu qaror noto‘g‘ri hisoblanadi. Bu misol, ya’ni yetarlicha muqobillashtirmaslik nazariyada bo‘ladiyu, lekin amaliyotda kamdan-kam uchraydi. Chunki naf ko‘riladigan bahoda tashqi iste’molchiga TMZ sotish bo‘yicha ikkita menejer-boshqaruvchi ham qiziqadi. Shuning uchun ular o‘zaro kelishgan holda transfert bahoda muomalani amalga oshiradilar. Ushbu kelishilgan baho sotayotgan bo‘limning o‘zgaruvchan xarajatlarining yig‘indisidan ko‘p. Lekin amaliyotda qo‘llanilayotgan oddiy transfert bahodan arzon bo‘ladi. Natijada ushbu muomaladan ko‘rilgan naf ikkita bo‘linma o‘rtasida xolis taqsimlanadi. Xo‘jalik yurituvchi subektlar o‘zining transfert baholarni tashkil qilish siyosatida qamralgan hamma tomonlar uchun xolislik, haqqoniylik tamoyillariga erishishga harakat qiladi, kelishuv va arbitraj muomalalariga sarflangan vaqtini minimumgacha qisqartirish va muqobillashtirish bo‘yicha yetishmovchilikni va tavakkalchilikni qisqartirishga erishadi. Bundan tashqari ular har bir foyda markazining haqiqiy iqtisodiyotini yoritadigan ushbu baholar pirovardida foyda olib kelishiga intiladilar. Misol, Agarda A ombori V bo‘limiga doimo komponent-detal sotib tursa subektning rahbari V bo‘linmaning olgan foydasi haqiqatda ko‘radigan o‘rtacha foydadan yuqori bo‘lishini xohlamaydi. Shuning uchun sun’iy past transfert baholari A va V bo‘limlaridagi olinadigan foydaning qayta taqsimlanishini ko‘zda tutadi. Bunday yopiq subsidiyalar V bo‘limga investitsiyalarni ko‘paytirishga olib keladi. Haqiqatda esa ushbu investitsiya qarorlarini qabul qilishdagi intilishlar holis asosga ega emas. Haqiqiy holatning

xususiyati va muqobillashtirish tavakkalchiligi bilan bog‘liq har xil chegaralar tez-tez o‘zaro ixtiloflarni chiqarib turadi. Shuning uchun ham bo‘limlarning menejerlari ko‘p hollarda transfert baholarni shakllantirish bo‘yicha subekt rahbarlarining qarorlariga rozi bo‘lmaydilar. Transfert baholarning tarkibi bo‘yicha boshqa variantlar ham mavjud. Misol uchun bahoni hisoblashda materiallarning shartnomaviy bahosiga TMQ yaratish va saqlash uchun 218 sarflangan har xil xizmatlarning tannarxi va ta’minot-tayyorlov bo‘limi faoliyatining foydasi qo‘shiladi. Ma’lum vaqt oralig‘ida transfert bahosini tovar-moddiy qiymatiklarining muqobil zaxiralarini yaratish va ularni saqlab turish hisoblanadi.

14-MA’RUZA. Boshqaruv hisobida segmentar hisobot

Reja:

1.Segmentar hisobotning mohiyati, ahamiyati va uni tashkid etish qoidalari

Segmentlar bo‘yicha hisobot hisobot yurituvchi subektning ayrim bo‘limlari, faoliyatining turlari va ma’sullik markazlari bo‘yicha tuzilgan hisobot hisoblanardi. Segmentlar - segmentum u yoki bu narsaning qismi yoki bo‘lagidir. Ushbu hisobotlarni tashqi foydalanuvchilar uchun tuzish tartibi va unga qo‘yiladigan talablar tegishli BXMS belgilangan. Lekin ichki foydalanuvchilar uchun tuzish tartibi va qo‘yilgan talablar hozircha ishlab chiqilmagan va hozirgi amaliyotda foydalanilayotgan me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topmagan. Ushbu muammolarni subektlar o‘zlaricha va faoliyatiga ma’qul variantlarda baholi qudrat yechib kelmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida qonun”da faqatgina ushbu ma’lumotlarning sir saqlanishi, ya’ni buxgalteriya hisobining segmentlar bo‘yicha tuzilgan ichki hisobotlari tijorat siri ekanligi va tashqi foydalanuvchilarga ushbu ma’lumotlarning berilmasligi ta’kidlangan. Ushbu hisobot ma’lumotlarining sir saqlanishi me’yoriy-huquqiy hujjat (Qonun) bilan birinchi bor mustahkamlandi. Chunki bu holat asosan seb’ektlarning faoliyatini elementlar, texnologiya jarayonlari, ma’sullik markazlari bo‘yicha yoritilishi natijasida ushbu hisobotning ma’lumotlaridan faqatgina ichki boshqaruv xodimlari foydalanishi mumkin, chunki u tijorat siri hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda moliyaviy hisobning ma’lumotlaridan esa tashqi foydalanuvchilar ham foydalanadilar. Ushbu hisobotlarda ma’lumotlar umumlashgan holda yakuniy qilib tuziladi. Amaliyotda esa hozirgi davrda ichki hisobotlar uchun berilgan huquqlar buzilyapti. Misol, tashqi foydalanuvchilar hisoblangan soliq tashkilotlarining va iqtisodiy jinoyatga qarshi kurashuvchi prokuratura xodimlari ko‘p hollarda boshqaruv hisobi va hisobotlarini tekshiradilar. Mas’ul xodimlar hisobot yurituvchi seb’ektlarning moliyaviy holatini tahlil qilish va baholash uchun moliyaviy hisobotdan foydalansalar boshqaruv hisobi va hisobotning ma’lumotlaridan esa ushbu subektning faoliyat segmentlari, bo‘lim, sex, ma’sullik markazining faoliyatini tahlil qilish va baholash uchun foydalanadilar. Ma’sullik markazi subektning faoliyatida o‘ziga xos o‘ringa ega, chunki u ushbu subektning

asosiy qismlarini tashkil qiladi. Natijada kirish va chiqishga ega. Ma’suliyat markazining kirishida xomashyo materiallar va yarimfabrikatlar turadi. Bundan tashqari ma’suliyat markazlari ishlab chiqarish faoliyatini yuritish uchun ma’lum mulklarga, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish qurollari va boshqa mablag‘larga egalik qiladilar. Bu bo‘linmalar o‘zining faoliyatida mehnat resurslarini iste’mol qiladilar, buyurtmalarni bajarish uchun tashqi subektlarning xizmatidan foydalanadilar. Ushbu mas’uliyat markazlarining chiqishida esa sotish yoki boshqa bo‘limlarga berish uchun chiqarilgan tayyor mahsulotlar, ishlar, xizmatlar va yarimfabrikatlar mavjud bo‘ladi. Segmentlar bo‘yicha tuzilgan hisobotlar subektning rahbarlariga o‘zining qaramog‘idagi bo‘lim va sexlarning faoliyatini boshqarish va faoliyatining yakunini baholash uchun xizmat qiladi, ularning faoliyatini baholash uchun moliyaviy va nomoliyaviy chegaralar ishlab chiqiladi, xodimlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimi shakllanadi. Ushbu vazifalarni bajarish jarayonida bitta menejerning faoliyatiga ikkinchi boqaruvchining faoliyati ta’sir qiladi. Ushbu qaramaqarshiliklarni tugatish imkoniyati yo‘q, lekin o‘zaro bog‘liq menejerlarni tegishli va zarur axborotlar bilan o‘z vaqtida ta’minlash, ularning faoliyatini nazorat qilish omillari yordamida ushbu qarama qarshiliklarni yumshatish va asta sekinlik bilan tugatish mumkin. Bundan tashqari segmentlar bo‘yicha hisobot ushbu menejerlarning ish yuritishida o‘zlariga ham yordam beradi. Chunki qanday darajada bo‘lmasin rahbar o‘zining ish faoliyatini baholashi va hulosa chiqarishi lozim. Agarda uning oldiga qo‘yilgan reja va vazifalar bajarilmagan bo‘lsa eng avvalo uning o‘zi bilishi kerak va ushbu maqsadlarga erishishi uchun tezlik bilan qo‘shimcha tadbirlar ishlab chiqmasa va tatbiq qilmasa rejaning bajarilishi amrimahol bo‘lib qoladi. Shunday qilib, aniq o‘rnatilgan nazorat ma’sul shaxslarning oraliq qarorlarni asoslangan holda qabul qilish va o‘zi boshqarayotgan bo‘limning faoliyatini rejalashtirayotganda oldiga qo‘yilgan maqsadlarini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shuning uchun ham ma’sullik markazlarining faoliyatini nazorat qilishni amaliyotda teskari aloqa ham deb yuritiladi. Segmentlar bo‘yicha hisobot ma’lumotlari hilma-xil boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun juda ham zarur. Chunki hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, sharoitlar, voqeliklar va tashqi muhitlar tez-tez o‘zgarib turgan bir holatda subektlar ushbu muhit va sharoitga tezlik bilan moslashgan taqdirdagina ularning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi va kelgusida rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi. Hozirgi paytda subektlarning oldida turgan asosiy muammo faoliyatining tarkibini o‘zgartirish, ya’ni yirik subektlar ayrim olgan kichik subektlarga ajralishdir. Ushbu tadbir bilan bog‘liq boshqaruv qarorini qabul qilishdan oldin faoliyatining yakunini chuqur o‘rganish va baholashni talab qiladi. Ushbu ishni amalga oshirish uchun boshqaruv hisobi to‘plagan, ishlov bergan ma’lumotlardan keng foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Rahbariyatning ushbu faoliyatini ayrim bo‘limlarga bo‘lish bo‘yicha qabul qiladigan qarori iqtisodiy asoslangan hisoblarga tayanishi shart. Ushbu holatlarda juda bo‘lmaganda ikkita variant o‘zaro taqqoslanishi kerak. Ushbu taqqoslash tegishli subektda segmentlar bo‘yicha hisob va hisobot tizimi mavjud bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin. Eng oxirgi omil bu

segmentlar bo‘yicha hisobotning transfert boholar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqligidir. Chunki ushbu baholar asosida segmentlar bo‘yicha hisobot shakllanadi. Ushbu transfert baholar asosli ravishda hisoblanishi va joriy qilinishi, segmentlarning faoliyatini holis baholashda asosiy omil bo‘ladi. Buxgalteriya hisobotini shakllantirish va taqdim qilish nuqtai nazaridan subektning segmentlari haqida quyidagilarni aytish mumkin: buxgalteriya hisobining oldiga qo‘yilgan maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan– holda tashqi foydalanuvchilar uchun hisobot tuzish va taqdim qilishning zarurligi; boshqaruv hisobining tizimida bo‘limlari /segmentlar/ bo‘yicha hisobotlarni– tuzish va taqdim qilishning zarurligi. Ushbu talablar va holatlar segmentlar bo‘yicha hisobot tuzishning zaruriyatini keltirib chiqaradi. Boshqaruv hisobida tegishli muomalalarga ishlov berilib, yig‘ilib va guruhlashtirilib ichki segmentlar bo‘yicha hisobot tuziladi va ular tegishli segmentlarning menedjer rahbarlariga va subektning rahbariga taqdim qilinadi. Ushbu hisobotni tuzish va taqdim qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ichki foydalanuvchilarni zarur ma’lumotlar bilan o‘z vaqtida va to‘liq ta’minlashdir. Ushbu hisobotlarni tuzish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Ichki segmentlarning boshqaruv hisobi aniq bir bo‘lim- segmentning faoliyatini yoritishi lozim. Agarda quyidagi chekinishlarga yo‘l qo‘yilsa kutilayotgan natijalarni bermaydi: a) aniq boshqaruvchilar, daromad va xarajatlar markazlarining talablari bo‘yicha ma’lumotlarni aks ettirmay asosan ishlab chiqarishning, sotishning va sarflarning hajmi bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zida aks ettirsa; v) aniq ma’lumot boshqaruvchi-menedjerga emas yuqori boshqaruvchilarga mo‘ljallangan bo‘lsa; s) umumiy vazifalar bo‘yicha umumiy va noaniq ma’lumotlar ko‘rsatilsa. Chunki samarali boshqaruv nazorati to‘liq va aniq ma’lumotlardan foydalanadi.

2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun faqatgina o‘z vaqtida, aniq va to‘liq berilgan axborotlargina foydali hisoblanadi. Buxgalter tomonidan taqdim qilingan hisobot uni maxsus joyda saqlash uchun emas balki menedjerni qiziqtiruvchi holatda va zarur loyihalar bilan taqdim qilish zarur. Ushbu ichki hisobotlarni taqdim qilayotganda menedjerlarning ruhiy holatini inobatga olish zarur. U hisobotning jadval yoki chizma ko‘rinishini yoqtiradimi, uning keyingi rejalari va istaklari, ish yuritish usuli va hokazo ko‘rinishlarini chetda qoldirish mumkin emas.

3. Ilgarigi hisobot, voqealariga va ularni baholashga ko‘p ham e’tiborni qaratmasdan mas’uliyat markazlarining faoliyatini yana ham ravonlashtiradigan ma’lumotlarni qidirib topish foydali hisoblanadi. Ko‘pgina holatlarda buxgalter retrospektiv tahlilga ko‘proq e’tibor berib keyingi faoliyatni baholashni sayoz o‘rganadi

Natijada ilgari sodir bo‘lgan xato va kamchiliklarga asosiy e’tibor qaratiladi, ularning sabablari aniqlanadi, taftish qilinadi, lekin kelgusida samarali faoliyat ko‘rsatish bo‘yicha rejalarni ishlab chiqishga unchalik e’tibor berilmaydi. Ushbu holatlar boshqaruv nazoratini susaytirishga olib keladi.

4. Ichki foydalanuvchilar uchun subektning faoliyat turlari va bo‘lim (segment)lari bo‘yicha tuziladigan hisobotlarning shaklini tez-tez o‘zgartirib turish maqsadga muvofiq emas.

5. Ushbu hisobotlarni hisoblangan ma’lumotlar bilan ko‘p ham yuklayverish ularning sifatiga salbiy ta’sir qiladi. Boshqaruvchi bitta muqobil tizimga keltirilgan va ularga tayangan holda muqobil boshqaruv qarorlarini qabul qilishga va aniq faoliyat ko‘rsatishga yordam beradigan ma’lumotlarning minimal hajmi yetarli bo‘ladi. Shuning uchun ham hisobotni olgan menedjer u yoki bu xulosani chiqarish yoki faoliyatning turini baholash uchun qo‘lida kalkulator bilan qo‘shimcha hisoblarni bajarmasligi va ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholash uchun asos bo‘lishi lozim. Uning uchun ushbu ichki hisobotning ma’lumotlari asosida tahlil qilinib qabul qilinadigan tadbir va qarorlarni qayta ko‘rib chiqish va tadbiq qilish yo‘llarini o‘ylash muhimroq hisoblanadi. Chunki keyingi rejalar va istiqbollarga ta’lluqli ko‘rsatkichlarni buxgalter emas, balki menedjer ishlab chiqishi va tegishli qatorni to‘ldirishi lozim.
6. Tuzilgan hisobotlar asosan xodimlarni belgilangan rejalarni bajarishga qaratilgan asosiy ma’lumotlarni o‘zida aks ettirishi maqsadga muvofiq. Menedjerga zarur bo‘lmagan ma’lumotlar hisobotning nazorat darajasini pasaytiradi.
7. Ushbu qarorlarni qabul qilish jarayonlarida hamma voqealar va harakatlarni yozish imkoniyati bo‘lmaydi. Chunki ushbu yozma hisobotlarni tuzish va taqdim qilishdan tashqari buxgalter har bir soha yoki bo‘limning boshqaruvchisi bilan u yoki bu masalalarni yoritish yoki chuqur o‘rganish maqsadida suhbatlar o‘tkazadi. Ichki hisobotlarni tuzish davri, uning aniqligi, to‘liqligi va taqdim qilish vaqtini har bir xo‘jalik yurituvchi subekt o‘zining obektlari va boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Subektning ma’muriyati ushbu masalalarni yechayotganda eng avvalo tejamkorlik shartiga asoslanadi, ya’ni ushbu bo‘limlar va faoliyatning turlari bo‘yicha tuzilayotgan ichki hisobotga sarflangan xarajatlar ularning ma’lumotlaridan foydalanib qabul qilingan qarorlarning iqtisodiy samaradorligi natijasidan oshib ketmasligi lozim. Tegishli hisobot ma’lumotlarini aks ettirgan bo‘limlarning mas’uliyat markazlarining qaysi turiga ta’lluqligiga qarab ushbu hisobotning shakllariga har xil talablar qo‘yiladi. Xarajatlarning markazi bo‘yicha tuziladigan ichki hisobotlarning asosida nazorat qilish prinsipi yotadi va ushbu tamoyil quyidagi natijalarga olib keladi: hisobotni taqdim qiladigan rahbarning mansab pog‘onasi oshgan sari ushbu– hisobotdagi ma’lumotlar qamrovi bo‘yicha yiriklashib boraveradi; yuqori pog‘onadagi rahbarga taqdim qilingan hisobot quyi rahbarlarga taqdim– qilingan hisobotlarning yig‘indisi bo‘lishi mumkin emas. Ushbu usul amaliyotda inkor qilishlarni boshqarish deb yuritiladi, ya’ni yuqori pog‘onadagi boshqaruvchiga u yoki bu boshqaruv muomma oylik yoki kundalik bo‘lmaguncha pastki pog‘ona uchun tuzilgan ichki hisobotlarga murojat qilish zaruriyati tug‘ilmaydi. Tuziladigan ichki hisobot o‘zida xaqiqiy ko‘rsatkichlarning rejadagi ko‘rsatkichlardan farqi bo‘yicha ma’lumotlarni yoritishi lozim. Natijada ushbu ma’lumotlarning asosida amaliyotda farqlar bo‘yicha boshqarish prinsipini ro‘yobga chiqaradi va ushbu farqlar bo‘yicha boshqarish quyidagilarga yordam beradi:
1. Subektning har bir segmenti va ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo‘yicha olingan foydaning o‘sishiga yoki ko‘rilgan zararlarning hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni tezkorlik bilan aniqlashga. Ushbu omillar quyidagilardan tashkil topgan: ishlab

chiqarishning sharoiti; ishlab chiqarish kuchlarining chegaralanganligi; mahsulotning turlari (assortimenti); baholarni belgilashda qo‘llaniladigan siyosat; omborxonadagi tayyor mahsulotlarning qoldig‘i; ishlab chiqarishda ishlayotgan xodimlarning soni va ularning malakaviy darajasi; homashyo va materiallarning mavjudligi va ularning qiymati; texnologiya jarayonining xususiyati va shunga o‘xshashlar.

2. Ushbu salbiy farqlarning sodir bo‘lishidagi mas’ul-javobgar shaxslar yoki markazlarni aniqlash. Ushbu masalani yechishda ilgari subekt bo‘yicha va ayrim olgan mahsulotlar bo‘yicha farqlar aniqlanib uning sabablari chuqur va har tomonlama o‘rganilishiga qaramasdan har bir xarajat markazlari va mas’uliyat markazlari bo‘yicha ushbu farqlarni aniqlash va ularning sabablarini o‘rganib salbiy ko‘rinishlarni tezkorlik bilan tugatish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqib amaliyotga qo‘llash ushbu muammoni yechishga yoki uning kelgusi davrda sodir bo‘lmasligiga olib keladi. Ushbu shartlardan kelib chiqqan holda segmentlar bo‘yicha hisobotlarni tuzishning namunaviy shakli quyidagi ko‘rinishda keltirilgan. Boshqaruvning tizimi uchun xarajat markazlari bo‘yicha taqdim qilinadigan hisobotlar (14.6-jadvaalga qarang). 14.6-jadval Boshqaruvning tizimi uchun xarajat markazlari bo‘yicha taqdim qilinadigan hisobotlar Ko‘rsatkichlar Hisobot davrida Yil boshidan smeta bo‘yicha farqi +,- smeta bo‘yicha farqi +,- Brigadirning hisoboti Asosiy xomashyo va materiallar 43000 -1000 134000 1200 Mehnat sarflari 214000 2400 588300 8400 Yordamchi materiallar 18500 -300 40000 -800 Texnologiya uchun energiya 9800 350 29400 2500 Boshqalar 3400 100 5400 400 Jami 288700 1550 777100 11700 Ishlab chiqarish sexining boshlig‘iga hisobot 1-brigada 288700 1550 777100 11700 2-brigada 214500 1120 628200 8900 ------- ---------- ---------- ---------- ---------- - Brigadalar bo‘yicha jami 887800 2460 2753800 26000 Umumsex sarflari: Sex ustalarining mehnat xaqi ajratmalari bilan 126000 0 700000 0 Uskunalarning eskirishi 104000 0 308000 0 Elekt energiya sarflari 35000 2600 104500 6400 222 Sexni tozalash sarfi 18900 -670 83500 -3000 Jami 1171700 -4390 3949800 29400 Subektning bosh menedjeriga hisobot Ishlab chiqarish sexi 1171700 -4390 3949800 29400 Quyish sexi 893500 -1900 3026790 2300 Yig‘uv sexi 1347900 5800 4873200 19800 ------- --------- --------- ---------- ---------- Sexlar bo‘yicha jami 4616100 4390 16155790 4280 Umumxo‘jalik sarflari: Imoratlarning eskirishi 35000 0 165000 0 Isitish va yoritish 84000 150 213000 4780 Ma’muriyatning mehnat xaqi 235000 12300 487600 45780 Subekt bo‘yicha sarflarning jami 4970100 18190 17021390 93360 Ushbu hisobotlardan ko‘rinib turibdiki, har xil boshqaruv pog‘onalaridagi xarajat markazlarining hisobotlari o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjud. Misol tariqasida ko‘rayotgan subektda boshqaruv uchta pog‘onadan tashkil topgan: brigadirlar tomonidan nazorat qilinadigan brigadalar; sexlarning rahbarlari tomonidan nazorat qilinadigan sexlar; bosh menedjer tomonidan nazorat qilinadigan subekt. Ushbu menedjer o‘z navbatida ishlab chiqarish bo‘yicha javob beradigan bosh direktorning muoviniga bo‘ysunadi. Ilgari qayd qilganimizdek, yuqori boshqaruv pog‘onalariga taqdim qilinadigan hisobotlar pastki pog‘onaga topshirilgan segmentlar bo‘yicha hisobotlarning yig‘ma nusxasi bo‘lishi mumkin emas. Chunki ushbu sarflar nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan

xarajatlardan tashkil topganligi uchun va pastki boshqaruv pog‘onasida nazorat qilinmaydigan xarajatlarning inkor qilinganligi sababli ushbu hisobotlarning o‘rtasida farqlar vujudga keladi. Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki umuman xarajatlar ularning sodir bo‘lish turlaridan qat’iy nazar kimningdir tomonidan nazorat qilinadi. Misol, umumxo‘jalik sarflarini sex yoki bo‘limlarning rahbarlari nazorat qila olmaydilar. Ushbu xarajatlarning sarfi ustidan subektning bosh direktori nazorat o‘rnatadi. Chunki ushbu xarajatlar hamma sex va bo‘limlar uchun umumiy bo‘lganligi sababli bo‘limlarning rahbarlari ularning sarfi ustidan nazorat o‘rnata olmaydilar. Shunga o‘xshash brigadirlar va ustalar nazorat qilishi mumkin bo‘lmagan umumsex yoki umumbo‘lim sarflarining ustidan mazkur sexlar yoki bo‘limlarning rahbarlari nazorat o‘rnatadilar. Bundan tashqari, ayrim holatlarda subektlarning bosh direktorlari ayrim sex va bo‘limlarning boshliqlarini ularning nazorat qilish doirasidagi ayrim xarajatlarning ustidan nazoratni amalga oshirishdan ozod qilishlari ham mumkin. Misol tariqasida ushbu rahbarlar nazorat qilishi mumkin bo‘lgan xarajatlarning ikki moddasini: elektr quvvatlarining sarfi; telefon xizmatlarining sarfi ko‘rib chiqamiz. Elektr quvatlarining sarfi ustidan nazorat o‘rnatganda menedjerlar eng avvalo ish kunining oxirida xodimlar o‘zlari ishlayotgan mashinalar, uskunalar va kompyuterlarni tokdan ajratishi, ortiqcha priborlarning elektrga ulanmasligini nazorat qiladilar. Telefon xizmatlarining sarfini nazorat qilish uchun esa ortiqcha so‘zlashuvlarning oldini olish maqsadida yoki kimning gaplashganligini bilish uchun shaharlararo va davlatlararo telefon aloqalarini kodlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu sarflar uncha katta hajmda bo‘lmasa ham ularning ustidan nazorat o‘rnatish tadbirlari qimmatga tushadi, lekin ushbu nazoratni o‘rnatish zarur. Shuning uchun ham ma’muriyat ushbu sarflarni menedjerlar uchun quyidagi sabablarga muvofiq nazorat qilinmaydigan deb tan olishga majburdirlar: ushbu sarflarning ahamiyati uncha katta emasligi; tejamkorlik shartiga rioya qilish. Misol uchun elekt quvvatini tejashdan olingan naf ushbu nafni olish uchun sarflangan xarajatlardan ortiq bo‘lishi lozim. Chunki bo‘limlarning ichki hisobotlariga asosan nazorat qilinadigan sarflargina qo‘shiladi. Foyda markazlari bo‘yicha tuziladigan hisobotlarning ham asosida nazorat qilish imkoniyati, sharti yotadi. Ushbu hisobot ham boshqaruv pog‘onasiga muvofiq ravishda tuzilgan bo‘lib unda ko‘rsatiladigan foyda markazlari tegishli muomalaviy segmentlar bo‘yicha va hududlar bo‘yicha tashkil qilinadi. Pastki tabaqada joylashgan bo‘limlarning rahbarlari o‘zlari ishlab chiqargan mahsulotlarning sotilishi bo‘yicha mas’uldirlar va ular subektning bosh direktoriga bo‘ysunadilar. Foyda bo‘yicha hisobot tuzilganda marjinal daromadning pog‘onama-pog‘ona hisoblanishini talab qiladi, chunki ushbu tartib bir tomondan o‘zgaruvchan xarajatlarning ta’sirini yoritsa ikkinchi tomondan esa yakuniy moliyaviy natijani shakllantiradi. Bundan tashqari, ushbu tartibda yondashish yakuniy foydaning tarkibini tahlil qilishni yengillashtiradi. Natijada har bir ayrim olingan mahsulot va xizmatlarning to‘g‘ri doimiy xarajatlarni qoplashga qo‘shgan hissasini va natijada subektning olgan umumiy foydasiga qo‘shgan hissasini aniqlashga yordam beradi. Doimiy xarajatlarni qoplashni hisobga olishning ushbu tartibi segmentlarning faoliyatlarini turlari va joylanish hududlari bo‘yicha rentabellik darajasi to‘g‘risidagi axborotlarni

foydalanuvchilarga yetkazib beradi. Ushbu holatda ham yuqorida ta’kidlangan ikkita prinsip (shart)ga rioya qilinadi: boshqaruv pog‘onasiga qarab hisobotning analitik darajasi pasayib boradi;– hisobot ko‘rsatkichlarining nomlanishi yo‘qolib boradi.– Bo‘limlarning ma’muriy boshqaruv xarajatlari mahsulot va xizmatlarning turiga taqsimlanmaydi. Chunki ular joylarning doimiy xarajatlari bo‘lganligi uchun olingan umumiy marjinal daromadning summasidan chegiriladi. Ushbu umumiy sarflarga shu joyda joylashgan filial ma’muriyatining mehnat haqi, imoratlarni asrash va boshqa sarflar kiradi. Boshqa muomalaviy xarajatlarni subektning o‘zi amalga oshiradi. Ushbu xarajatlar tegishli bo‘lim va filialning xarajatlari summasidan chegiriladi (qoplanadi). 14.7-jadval Boshqaruv pog‘onalarining darajasi sharoitida foyda markazlarining faoliyati bo‘yicha hisobotning shakli (ming so‘m). Ko‘rsatkichlar Yil boshidan Subekt Subektdagi Filiallar bo‘yicha bo‘lim Urganch Andijon jami smet a farq i smet a farq i smet a farq i smet a far qi Mahsulotni sotishdan daromad 4300 0 65 3300 0 -14 3800 0 115 1140 00 66 Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 3000 0 197 3231 0 -199 2650 0 264 8881 0 231 Yalpi foyda 1300 0 -132 1310 185 1150 0 -149 2519 0 -65 Subektning muomalaviy xarajatlari - - - - - - 1500 0 76 Subektning muomalaviy foydasi 1019 -141 Segmentlar bo‘yicha foyda yuzasidan tuziladigan hisobotning boshqa alternativ varianti ham mavjud bo‘lib ushbu tartibda marjinal daromalning ko‘rsatkichlari o‘rniga 224 segmentlarning yalpi foydasi hisoblanib aniqlanadi. Ushbu hisoblash quyidagi formulaga asosan amalga oshiriladi: FΣqDΣ-Tm Bu yerda: FΣ- yalpi foyda; DΣ- yalpi daromad va Tm- mahsulotning tannarxi. Lekin amaliyotda foyda markazlari bo‘yicha hisobotlarni tuzishda ushbu masalalarni chuqurroq yoritish imkoniyatlari mavjud. Ushbu holatlarda hisobot segmentlarining muomalaviy foydalarini yoritishgacha kengaytiriladi va foyda esa segmentlarning olgan yalpi foyda summasidan subektning muomalaviy xarajatlarini chegirish natijasida topiladi. Bu tartibni joriy qilishda ehtiyot bo‘lish kerak, chunki ayrim hollarda bo‘limlarning xaqiqatda olgan foydasining hajmini noto‘g‘ri ko‘rsatishga va noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin. Ushbu muomalaviy xarajatlarni taqsimlashning uchta usuli olimlar va amaliyotchilar tomonidan taklif qilinayapti:

1. Taqsimot bazasi qilib mehnat haqi sarflarini olish;
2. Taqsimot bazasi qilib har bir segmentning olgan daromadini olish;
3. Taqsimot bazasi qilib har bir segmentning olgan foydasini olish. Shunday qilib, ushbu usullarni chuqur o‘rganib quyidagi xulosalarga kelish mumkin: foyda markazlari bo‘yicha hisobot tayyorlayotganda tashkiliy muomalaviy xarajatlarni taqsim qilishning mutanosiblik asosi bu segmentlarning olgan foyda summasidir. Ushbu usul tegishli bo‘limlar faoliyatining samaradorligini buzib ko‘rsatmaydi.
4. Xo‘jalik yurituvchi subektlarning segmentlari bo‘yicha hisobot tizimini tuzishning vazifalari va bosqichi Segmentlar bo‘yicha hisobni yuritish va hisobot tuzish tizimini yaratishdan maqsad mulk egalari va hamma bosqichdagi menedjerlarni ushbu bo‘limlarning faoliyatini tahlil qilish va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan to‘liq, tezkor va ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlashdir. Zarurat tug‘ilganda ushbu ma’lumotlarni moliyaviy hisob to‘liq holda va tezkor yetkazib bera olmaydi. Shuning uchun ham segmentlar

bo‘yicha hisobni yuritish: hozirda amal qilinayotgan hujjatlarning aylanishini takomillashtirishga yordam beradi; kompaniyaning va ayrim mas’uliyat markazlari faoliyatining ko‘rsatkichlarini muqobillashtirish imkoniyatini yaratadi; natijada kompaniyaning oladigan foydasi hajmining ko‘payishiga yordam beradi. Shuning uchun segmentlar bo‘yicha hisob va hisobotni tashkil qilishda quyidagilarga amal qilish lozim: ushbu tizimni tadbiq qilish va unga xizmat qilish xarajatlari ulardan foydalanish natijasida ko‘rilgan samaradan kam bo‘lishi kerak; ushbu tizim ma’lumotlarining sirliligini ta’minlashi lozim; tizim avtomatlashtirilgan va qulay bo‘lishi lozim.

Segmentlar bo‘yicha hisobni yuritish tizimi tegishli sub’ektda quyidagi bosqichlarni bosib o‘tishini talab qiladi:

1-bosqich.Mas’uliyat markazlariga ajratilgan holda boshqarishning markazlashmagan tarkibini shakllantirish. Mas’uliyat markazlari o‘z navbatida foyda markazi va xarajatlar markaziga bo‘linishi shart. Ushbu shartdan kelib chiqqan holda boshqaruv tarkibini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. (9.5-chizmaga qarang). Ushbu keltirilgan loyiha bo‘yicha boshqaruv tashkil qilinsa foyda markazi sifatida ayrim olingan har bir do‘kon va xarajat markazi sifatida esa idora va omborlar faoliyat ko‘rsatadi. Natijada foyda markazlari bo‘yicha olingan boshqaruv axborotlari asosiy o‘rin tutadi. Chunki ularning faoliyatini oqilona va muqobil boshqarish kompaniyaning umumiy foydasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladi. Chunki foyda markazlari sarflangan xarajatlarni qoplabgina qolmay subekt uchun foyda ham olib kelishi kerak. Xarajatlarning paydo bo‘lish markazlari hisoblangan mas’uliyat markazlari bo‘yicha boshqaruv hisobi va nazorati o‘rnatiladi. 225 Ma’suliyat markazlarining faoliyati uchun javobgar shaxslar tegishli segmentlarning rahbarlariga yuklatilgan. Ushbu markazlarning faoliyati o‘z navbatida tegishli bo‘limlarning rahbarlari tomonidan nazorat qilinadi. 14.5-chizma. «Maxmud» kompaniyasining loyihadagi tashkiliy tarkibi. Mas’ul xodimlar-mutaxassislar va bo‘limning direktorlari mansab huquqi chegarasida boshqaruv qarorlarini qabul qiladilar. Ularning huquq chegarasidan chiqqan ayrim muammo va masalalar esa bosh direktor tomonidan yoki direktorlar kengashi tomonidan yechiladi. Direktorlar kengashining yig‘ilishi ikki usulda o‘tkazilishi mumkin: departamentlarning direktorlari ishtirokida ochiq yig‘ilish; zarur departamentning direktori ishtirokidagi yig‘ilish. Ushbu yig‘ilishda ko‘riladigan va yechiladigan masalaga bog‘liq holda yig‘ilish o‘tkaziladi. Misol, kommersiya direktori keyingi kunlardagi tovar aylanishini tahlil qilib 16-do‘konda ushbu ko‘rsatkichning pasayib ketganligini qayd qildi. Ushbu do‘konning direktoridan kelgan ma’lumotga qaraganda yaqin joyda yangi magazin ochilib shunga o‘xshash tovarlar bilan savdo qilinayotgani ma’lum bo‘ldi. Demak, ushbu holat bo‘yicha ma’lum qaror qabul qilish lozimki: ushbu 16-do‘kondagi tovarlarning aylanishi va savdo hajmini ilgarigi holatiga qaytarish tadbirini belgilash; boshqa do‘konlarning yaqinida imkoniyati boricha shunga o‘xshash do‘konlarni qurishga halaqit berish. Demak, ushbu masalaga bag‘ishlangan majlisni tezlik bilan o‘tkazish lozim. Ayrim hollarda xususiy masalalarni yechish zaruriyati tug‘ilganda u yoki bu do‘konning direktorini almashtirish masalalari

ko‘rilsa bosh direktor xodimlar bilan shug‘ullanadigan mas’ul shaxs va kommersiya direktorining fikri bilan kifoyalanishi mumkin. Kompaniyaning markaziy idorasi bo‘yicha holat boshqacha bo‘ladi. Ushbu xarajat markazining faoliyati bo‘yicha mas’ullikni kompaniyaning moliyaviy direktoriga yuklash mumkin. U idoradagi xarajatlarning paydo bo‘lish sababi va joylari ustidan nazorat o‘rnatadi. Hamma bo‘limlarning direktorlari zaruriyat tug‘ilganda xarajatlarning ortiqcha sarfi bo‘yicha moliyaviy direktorga tushintirish xatlari yozishi shart, chunki ushbu bo‘limlarning, qolaversa kompaniyaning budjeti direktorlar kengashining yig‘ilishida yilning boshida tasdiqlangan. Ushbu farqlar yig‘ilgan holda bildirishnoma ko‘rinishida kelgusida qaror qabul qilish uchun bosh direktorga beriladi. Chunki budjetni tasdiqlayotgan vaqtda chetga chiqish chegarasi ham tasdiqlanadi.

2-bosqich.Mas’ullik markazlari bo‘yicha sarflangan xarajatlarning moddalarini kodlashtirish. Segmentlar bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish tizimini tashkil Bosh direktor Bo‘limlar direktorinng kengashi Bo‘limlarning direktori Ma’sulyat markazlari Idora Ombor Do‘konlar Xarajatlarning markazi G‘oyda markazi 226 qilishda ushbu markazlarning xarajat va daromadlarini aniq va analitik holda ko‘rsatish, faoliyatining natijalarini baholash va hisobotlarni tuzish uchun har bir mas’uliyat markazi bo‘yicha xarajat va daromadlarni moddalar bo‘yicha kodlashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu muhim vazifani amaliyotga tadbiq qilish uchun mazkur kompaniyada qo‘llaniladigan schotlarning ishchi rejasini tuzishni talab qiladi. Ushbu masalani yechish tartibini kompaniyaning muomala xarajatlarini hisobga olish jarayoniga tadbiq qilib ko‘ramiz. Ayrim olingan segmentlarning faoliyatini nazorat qilish va baholash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim: a) ushbu xarajatlarni o‘zgaruvchan, o‘zgarmas va shartli o‘zgarmas xarajatlarga turkumlash lozim: o‘zgaruvchan xarajatlarga tovarlarni sotish hajmiga mutanosib ravishda o‘zgaradigan xarajatlar kiradi; o‘zgarmas xarajatlarga esa teskarisi, ya’ni ushbu markazlar faoliyatining kengayishi- tavsiflanishi hajmining o‘zgarishidan qat’iy nazar o‘zgarmaydigan xarajatlar (do‘konni asrash, soliqlar) kiradi; shartli o‘zgarmas xarajatlarga esa yuqoridagi guruhlarga ta’lluqli bo‘lmagan xarajatlar kiradi. b) mas’uliyat markazlarining xarajatlarini tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan xarajatlarga bo‘lish: tartibga solinadigan xarajatlarga ushbu rahbarlarning qarorlariga asosan o‘zgartiriladigan xarajatlar. Boshqacha qilib aytganda ushbu xarajatlarning miqdori rahbarning qaroriga asosan o‘zgarishi mumkin bo‘lgan xarajatlar kiradi; tartibga solinmaydigan xarajatlarga esa ushbu markaz rahbarining qarori ta’sir qilmaydigan xarajatlar kiradi. Ushbu tartibdan kelib chiqqan holda kompaniyada qo‘llanilayotgan schotlarning rejasiga quyidagi o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. bir xarajat moddasiga qo‘shimcha belgilar qo‘yiladi: 1-o‘zgaruvchan xarajat, 2-o‘zgarmas xarajat, 3-shartli o‘zgarmas xarajat, 4-tartibga solinadigan xarajat, 5-tartibga solinmaydigan xarajat. Ushbu kodlashtirish buxgalteriyaning ishini ko‘paytirmaydi, balki ushbu tarmoqning hisobini yuritayotgan buxgalterni segmentlarning xarajatlari bo‘yicha tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Chunki hozirgi davrda hisob, tahlil va baholash ishiga kompyuterlarning keng joriy qilinishi ushbu

ishlarni ancha yengillashtiradi. Ushbu taklifdan kelib chiqqan holda 9410-«Muomala xarajatlari» schotlari guruhini amaliyotga tadbiq qilishga harakat qilamiz. Misol, 9414-"Mehnat xaqi bo‘yicha sarflar" schotini olib qaraylik. 9414/1/4. Demak, ushbu xarajatlar o‘zgaruvchan va tartibga solinuvchi xarajatlar guruhiga kiradi. Ushbu kompaniyadagi dastlabki hujjatlarga ishlov berayotgan va muomala xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantiradigan buxgalteriyaning ish tartibi segmentlar bo‘yicha hisobni joriy qilish natijada ahamiyatli darajada o‘zgarmaydi. Ushbu hisobda ilgari kodlashtirilgan xarajatlarning moddasi saqlanib qolinadi. Xarajatlar moddasining belgilari mas’ul buxgalter tomonidan shakllantiriladi. Misol, tovarlarni saqlash va tashish xarajatlarini 30-do‘kon bo‘yicha kodlashtiramiz -9411/30/11/100. Bu yerda, 9411-"Tovarlarni saqlash va tashish xarajatlari" schoti; 30- analitik hisobning birinchi bosqichi- magazinning nomeri; 11-analitik hisobning ikkinchi bosqichi-xarajatlarning moddasi; 100-analitik hisobning uchinchi bosqichi- ta’sischilarga beriladigan hisobotlarning shakllanishi. Segmentlar bo‘yicha hisobda xarajatlarning turkumlanish belgilari bo‘yicha ma’lumotlar avtomat ravishda taqsimlanadi. Yuqorida keltirilgan xarajatlaning moddasi quyidagi ko‘rinishda keltirilishi mumkin: 9411/30/11/100, 1.4. Bu yerda qo‘shimcha 1-o‘zgaruvchan xarajat va 4 esa tartibga solinadigan xarajat ekanligini bildiradi. 227 Ayrim hollarda xarajatlar bo‘yicha ma’lumotlar tegishli belgilari bo‘yicha ajratilmasligi va tegishli magazinning faoliyatini yoritadigan tezkor hisobning ma’lumotlari tegishli departamentga umumiy summada taqdim qilinishi mumkin. Shunday qilib, segmentlar bo‘yicha hisobni yoritadigan buxgalter o‘zining shaxsiy kompyuteriga ega bo‘lgan holda butun buxgalteriyadagi axborotlarga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Boshqa iste’molchilar, foydalanuvchilar uchun ushbu axborotlarga kirish yo‘li berk bo‘ladi. Buxgalteriya axborotlarini olish imkoniyatlari ushbu buxgalteriyada ishlayotgan xodimlarning mansab pog‘onalaridan kelib chiqilgan holda belgilanadi. Segmentlar bo‘yicha hisobotlarning shakllanishining tezkorligini oshirishning ikkita yo‘li mavjud: a) kamroq sarf talab qiladigan yo‘l. Ushbu yo‘l tanlanganda foyda markazlari tomonidan tovarlar va kassalar bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash muddatlarini qisqartirish. Ushbu jarayonda kassa bo‘yicha hisobotni tayyorlashda hech qanday muammo yo‘q. Chunki hozirda kassa bo‘yicha hisobot har kuni topshirilmoqda. Tovarlar bo‘yicha hisobotni tayyorlashdagi asosiy muammo ushbu hisobotlarning oraliq davrini qisqartirish va tegishli ma’lumotlarni buxgalteriya hisobining tizimiga kiritishdir. Lekin tegishli do‘konlar va omborlar bo‘yicha ushbu hisobotlarni har uch kunda topshirsalar hujjatlarga do‘kon va omborlarda ishlov berish va tekshirish uch marta qisqaradi. Omborlarda tovarlarning harakati bo‘yicha hisobotni miqdor-summa kartochkasiga va omborning kirim va chiqim daftariga asosan kunda tayyorlash imkoniyati bor. Shunday qilib ushbu tovar hisobotini haftada ikki marta topshirsalar buxgalteriyada tekshirilmagan hujjatlarning miqdori ham kamayadi. Ushbu tartib qo‘llanilganda xaftaning birinchi yarmidagi tovarlarning holati to‘g‘risidagi ma’lumot kechi bilan rahbariyatga juma kuni ertalab yetkaziladi, bu uning tezkorligini oshiradi va boshqaruv qarorining nisbatan to‘g‘ri qabul qilinishiga olib keladi. b) ushbu muammoni yechishning ikkinchi yo‘li. Bu yo‘l

ko‘p sarflarni talab qiladigan global yo‘l hisoblanadi, lekin ushbu variant tadbiq qilinsa boshqaruvning samaradorligi tubdan oshadi. Bu usul o‘zida hisobotlarni avtomatlashtirish, ya’ni tovarlarning va pul mablag‘larining harakatini kompyuterlashdir. Natijada har kunda olingan, sarflangan tovarlarning natura va summa harakatini, pulning olinishini kompyuterga kiritish, ushbu muomalalarni kodlashtirish va ertalab markaziy ofisdagi kompyuterga o‘tkazish imkonini yaratadi. Natijada o‘tgan kundagi tovarlarning harakati va bugun ertalabda mavjud bo‘lgan tovarlarning turlari bo‘yicha miqdor va summa ko‘rsatkichida tegishli ta’minot, kommersiya bo‘limlarida va bosh direktorning stolida bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘ladi va tovarlarga bo‘lgan talablar o‘rganiladi, tovarlarning taqchilligining oldini olish bilan bir vaqtda u yoki bu do‘konda uning ortiqcha yig‘ilib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi.

3-bosqich. bir segment bo‘yicha reja va hisobot ishlarini tashkil qilish. Boshqaruv hisobini amaliyotga tadbiq qilish natijasida mas’uliyat markazlari bo‘yicha sarflar va daromadlarni rejalashtirish imkoniyati yaratiladi va natijada: biznes segmentlarining baho siyosatini ishlab chiqish; haqiqiy ko‘rsatkichlar bilan rejadagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash; ushbu farqlarning sabablarini topish imkoniyati yuzaga keladi. Segmentlar bo‘yicha hisobotning asosiy vazifalaridan biri biznes segmentlari bo‘yicha tasdiqlangan me’yorlardan sodir bo‘lgan farqlar bo‘yicha hisobotlarni taqdim qilishdir. Ushbu farqlarni o‘z vaqtida aniqlash va sababalarini bilish natijasidagina ularni tezkorlik bilan tugatish imkoniyati vujudga keladi. Tegishli segmentlarning budjet va me’yorlarini buxgalter-tahlilchi ishlab chiqayotganda ushbu segmentlarning direktorlari bilan uzviy aloqada bo‘ladi, rejalashtirish usullaridan foydalanadi, oldingi davr ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil 228 qilib o‘rganib chiqadi, ichki standartlar va istiqbollarni ishlab chiqadi. Ushbu hisobot quyidagi shaklda va tartibda tuziladi (14.8-jadvalga qarang). Ushbu hisobot ma’lumotlariga asosan dolzarb muammolardan biri hisoblangan tovarlarning oqimini muqobillashtirish muammosini yechish mumkin. Ushbu hisobot kommersiya bo‘limiga topshiriladi va hamma yo‘nalishlar bo‘yicha tovarlarning harakatini kuzatish va nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan bir qatorda 14.8-jadval Tovar oqimlarining harakati bo‘yicha hisobot (ming so‘m) 12-son do‘kon bo‘yicha 01.03-05.03.20xx. yil davri uchun. № Ko‘rsatkichlar Tovarlarning guruhi 1. 01.03 sanasidagi qoldiq 350 420 180 190 210 260 2. Kirim, jami 420 360 210 200 160 190 2.1 Mustaqil olingan 130 140 110 90 60 80 2.2 Markazlashgan holda olingan 290 220 100 110 100 110 3. Sotilgan 530 490 300 320 290 400 4. Do‘konlararo berilishi 100 25 30 10 20 0 6. Qaytarilgan, jami 20 10 - 10 - 20 6.1 Omborga 9 5 - 10 - 5 6.2 Mol yetkazib beruvchiga 11 5 - - - 15 7. Tovarlarning hisobdan chiqarilishi 5 - 3 - 4 5 8. 05.03 sanasiga qoldiq 115 345 57 50 56 25 kommersiya bo‘limi, ta’minot bo‘limlarining direktorlari do‘konlarning va omborlarning faoliyatini boshqarish va bir-biriga bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Misol, fevral oyining oxirgi 8 kunlik (21-28) hisobotini tahlil qilish natijasida bir qator do‘konlarda (3, 9, 18, 21, 24, 29) tovarlarning 1-4 guruhlari bo‘yicha ortiqcha qoldig‘i aniqlandi, vaholanki ushbu tovarlar bo‘yicha taqchillik 1. 4, 8, 23, 26 do‘konlarda vujudga keldi. Lekin

shu vaqtning o‘zida 2-omborda ushbu tovarlarning o‘rtacha 10-13 kunlik zaxirasi mavjud edi. Ushbu holatlarni chuqur va tezlik bilan o‘rganib tovarlarning do‘konlar o‘rtasidagi va ombordan olinishini oqilona tashkil qilganda tovarlarning aylanishi o‘rtacha 5-8 %ga oshgan va olinadigan foyda 9-11%ga ko‘paygan bo‘lar edi. Bundan tashqari bitta do‘konda (12-do‘kon) 5 kun ichida 17000 so‘mlik tovar hisobdan chiqarilgan, demak, ushbu do‘kon 17000 so‘m zarar ko‘rgan. Ushbu raqamni kompaniya bo‘yicha hisoblasak o‘rtacha 500-530 ming so‘mni tashkil qiladi. Tegishli do‘konlar rahbarlarining ushbu hisobotiga asosan har bir do‘kondagi tovarlarning turlarini tartibga solish mumkin. Misol, ushbu do‘konda 1-guruh tovarlariga bo‘lgan talab ancha kamaydi, ya’ni 100000 so‘mlik tovar qoldig‘i qoldi, lekin boshqa tovarlarga bo‘lgan talab oshdi. Ushbu ma’lumotlarga asosan kommersiya direktori boshqa do‘konlardagi shu tovarga bo‘lgan talabni o‘rganib uning bir qismini boshqa do‘konga o‘tkazish (100 ming so‘m) to‘g‘risida tezlik bilan buyruq beradi va talab katta bo‘lgan tovarlarni (6-guruh) tezlik bilan ombordan olishga yoki mustaqil sotib olishga ruxsat beradi. Keyingi taqdim qilinadigan hisobot tovar guruhlari bo‘yicha ularning foydalilik darajasini aniqlash imkonini yaratadi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda do‘konning sarflariga qo‘shiladigan bilvosita xarajatlar tovarlarning ayrim guruhlari o‘rtasida belgilangan tartibda taqsimlanadi. Shu bilan bir qatorda ushbu keltirilgan hisobot bahoni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni beradi. Bu hisobot ulardan foydalanuvchilarning xohishi bo‘yicha belgilangan davrlarda (har kuni, 3, 5 kunda) tuziladi va taqdim qilinadi (9.9-jadvalga qarang). Ushbu hisobotni chuqur o‘rganish natijasida qayd qilish mumkinki, ayrim tovarlarni sotishdan yuqori darajada foyda olinsa 15-20 %gacha (5-6 guruh) boshqa 229 guruhdagi tovarlarni sotishdan olingan foyda nisbatan kam darajada, 13 %gacha. Demak, do‘kon rahbarining oldiga qo‘yilgan masala ushbu kam foyda olinadigan tovarlarga qo‘yiladigan ustamalarni qayta ko‘rib chiqish va ularni guruhlari bo‘yicha talabga tayangan holda tartibga keltirish lozimligidir. Demak. boshqa do‘konlardagi ahvollarni ham tezlikda o‘rganib chiqib salbiy holatlarni tugatish, tovarlarning guruhlarini talabga muvofiq tartibga keltirish va baho siyosatini qayta ko‘rib chiqish masalasini qo‘yadi. Ushbu hisobotda xarajatlarni o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlarga bo‘lish ularning mas’uliyat markazlarida o‘zlarini tutish va moliyaviy natijalarga ta’sirini o‘rganishga yordam beradi. Ayrim hollarda ushbu hisobotlardan foydalanuvchilarning talablaridan kelib chiqqan holda ushbu xarajatlar yana ham maydalashtiriladi, ya’ni ular moddalarga bo‘lingan holda guruhlanadi va ta’siri o‘rganib chiqiladi. Kompaniyaning butun faoliyati yuzasidan tuzilgan yig‘ma hisobot ushbu subekt umumiy faoliyatining yakunini aks ettiradi va uning ma’lumotlari ilgari davrdagi natijalar bilan solishtirilgan holda taqqoslanib joriy yildagi xo‘jalik faoliyati baholanadi. 14.9-jadval 12-do‘konning faoliyati bo‘yicha hisobot, ming so‘m. 01.03-05.03.20xx yil № Ko‘rsatkichlar Tovarlarning guruhi Ja mi 1 2 3 4 5 6 1. Tovarlarning aylanishi 50 45 55 60 80 90 380 2. Tovarning tannarxi 32 23 31 37 47 40 210 3. Daromad 18 22 24 23 33 50 170 4. Do‘konning xarajatlari, ja’mi, shundan 8 10 11 11 15 25 80 4.1 Tartibga solinadigan, ja’mi, shundan 6 5 6 6 8 14 45 4.1.1 O‘zgaruvchan 3,6 2,8 3,4 3,4 4,8 8 26 4.1.2 O‘zgarmas 2,4 2,2 2,6 2,6 3,2 6 19 4.2 Tartibga solinmaydigan, ja’mi,

shundan 2 5 5 5 7 11 35 4.2.1 O‘zgaruvchan 1,1 2,2 2,2 2,2 3,1 6 16 4.2.2 O‘zgarmas 0,9 2,8 2,8 2,8 3,9 5 19 5. Do‘konning olgan foydasi 10 12 13 12 18 25 90 6. Idoraning sarfi, ja’mi, shundan 3 4 5 4 6 8 30 6.1 Tartibga solinadigan 2 2,7 3 2,6 3,7 5 17 6.2 Tartibga solinmaydigan 1 1,3 2 1,4 2,3 3 13 7. Yakuniy foyda 7 8 8 8 12 17 60 Segmentlar bo‘yicha o‘tgan oyda tuzilgan hisobotlarning ma’lumotlariga asosan keyingi yil uchun do‘konlarning budjetlari tuziladi, mas’uliyat markazlari yuqori darajada foyda olish uchun tovarlarning guruhlari bo‘yicha aylanishi va olinadigan daromadi muqobillashtiriladi. Chunki ushbu hisobotning ma’lumotlaridan kompaniyaning hamma bo‘limlari o‘zlarini qiziqtirgan parametrlar bo‘yicha foydalanishi mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, tovarlarning turlari va ularning aylanishini nazorat qilish uchun sotuv bo‘limini muomala sarflarining xajmi qiziqtirmaydi Hisobotlarning to‘liq va har tomonlama tahlili bilan tegishli bo‘limning buxgalteri va kompaniyaning tahlil guruhi shug‘ullanadi. 230 Agarda ushbu hisobotlarda budjetning bajarilishi yuzasidan e’tiborga loyiq farqlar aniqlansa, u vaqtda ushbu tahlil va farqning vujudga kelish sabablarini aniqlash uchun tegishli bo‘limlar ham jalb qilinadi. Agarda kompaniyaning ishi yaxshi rivojlanayotgan bo‘lsa, u vaqtda do‘kon va bo‘limlardan ko‘rsatkichlar qisqartirilgan holda hisobotlar olinadi. Rejalashtirilgan davr (oy)ning oxirida ushbu segmentlarning faoliyatini baholash va olingan ma’lumot-ko‘rsatkichlarni chuqur tahlil qilish lozim. Buning uchun esa do‘konlar, omborlar va markaziy idora bo‘yicha hamma zarur ko‘rsatkichlar aks ettirilgan hisobotlar taqdim qilinadi. Do‘konning xodimlari va direktorning ixlosi esa faqat ularning mehnatini rag‘batlantirgan vaqtdagina oshadi va o‘zining kasbiga mehrini uyg‘otadi. Natijada do‘konning foydasini oshirishdan manfaatdor bo‘lgan direktor esa do‘konning faoliyatida sodir bo‘ladigan va bo‘lgan xarajatlarning ustidan qattiq nazorat o‘rnatadi va tartibga soladi. Uning xodimlari ham direktor bilan hamjihatlikda faoliyat ko‘rsatib do‘konning rivojlanishiga ko‘maklashadi. Ushbu yo‘nalishni qo‘llab quvvatlash foydaning xajmidan kelib chiqqan holda belgilangan iqtisodiy rag‘batlantirishning miqdori, mansab pog‘onalaridan ko‘tarilishi va faoliyatidagi huquqlarining kengaytirilishi bilan amalga oshiriladi (14.10-jadvalga qarang). 14.10-jadval 20xx yil mart oyida 12-do‘kon bo‘yicha budjetning bajarilishi bo‘yicha hisobot (ming so‘m) № Ko‘rsatkichlar Reja Xaq. Farq Belgi si 1. Tovarlarning aylanishi- ja’mi 860 920 60 I 231 idora sarfi 22 22 0 - boshqa sarflar 14 12 -2 I 5. Foyda yoki zarar (3-4) 70 80 10 I I-ijobiy, S-salbiy Hisobotdan ko‘rinib turibdiki, o‘tgan oyda do‘kon budjet ko‘rsatkichlarining hamma parametrlari bo‘yicha rejani bajargan. Oy davomida rejalashtirilgan 70000 so‘m foyda o‘rniga 80000 so‘m foyda olgan. Ushbu 10000 so‘m ortiqcha foyda do‘kon direktorining nazorat qiladigan sarflarga to‘g‘ri ta’sir qilishining natijasi hisoblanadi. Tasdiqlangan budjetga asosan mart oyida do‘konning muomala xarajatlari 180000 so‘m qilib belgilangan. Haqiqatda esa 160000 so‘m sarflanib 20000 so‘m tejalgan. Lekin foyda bo‘yicha budjet topshirig‘i esa faqat 10000 so‘mga ortiqcha bajarilgan. Chunki bunga yalpi daromad reja-ko‘rsatkichining bajarilmasligi sabab bo‘lgan (240000- 250000 = 10000). Mart oyida tovarlarning aylanishi rejalashtirilganga (920-860) nisbatan 60000 so‘mga oshdi. Natijada yalpi daromad bo‘yicha rejaning bajarilmasligi

quyidagi sabablarning ta’sirida sodir bo‘lishi mumkin: mart oyida sotilgan tovarlarning sotib olish bahosi rejalashtirilgan bahoga nisbatan oshiq bo‘lgan; do‘konlarda sotilgan tovarlarning ichida past darajada ustama qo‘yilgan tovarlar ko‘p hajmni tashkil qilgan. Demak, 1-sabab ushbu do‘kon direktorning qaroriga bog‘liq emas, balki bu tashqi omil, ya’ni tartibga keltirilmaydigan sarflar hisoblansa, ikkinchi sababni esa direktorning o‘zi nazorat qilishi mumkin edi, chunki ustama qo‘yish masalasini do‘konning direktori yecha oladi. Direktorning faoliyatini baholash jarayonida ushbu sabablar va ularning isboti inobatga olinishi lozim. Xulosa qilganda har bir do‘kon faoliyatining samaradorligi tovarlarning aylanishi hajmining ko‘rsatkichi bilan baholanadi. Lekin ushbu baholash xolis hususiyatga ega bo‘lishi lozim. Hayotdan ma’lumki, aholi zich joylashgan va harakat qiladigan joylardagi do‘konlarda savdo-sotiq nisbatan ko‘p amalga oshiriladi. Bundan tashqari, tovarlarni sotish hajmi tovarlarning turi, ularga talab va savdo litsenziyasining mavjudligiga ham bog‘liq. Shunga o‘xshagan masalalarni asosan kompaniyaning bosh direktori yechadi va bu omillar do‘kon direktori faoliyatining sifati bilan bog‘liq emas. Natijada ushbu omillar u yoki bu do‘konning budjeti shakllantirilayotganda va uning faoliyati baholanayotganda hisobga olinishi lozim. Ushbu yuqorida tasnif berilgan va yoritilgan baholash chegaralari moliyaviy chegaralarga kiradi. Faoliyatini baholashning nomoliyaviy chegaralariga esa xizmat qilishning sifati, sotuvchilarning xushmuomala va chaqqonligi kiradi. Chunki ushbu xatti harakatlari bilan sotuvchilar do‘kondan xaridorlarni quruq chiqarmay u yoki bu tovarni sotib olishga undaydilar. Markaziy idora va omborlar faoliyatining natijasini baholash tartibi foyda markazlarining faoliyatini baholash kabi belgilanadi. Quyida mart oyida markaziy idoraning xarajatlar bo‘yicha tuzilgan budjetining bajarilishi bo‘yicha hisoboti keltirilgan (14.11-jadvalga qarang). B- buxgalteriya, K-kompyuter bo‘limi, T- ta’minot bo‘limi, M- ko‘chmas mulk bo‘limi, S- sotish bo‘limi. Xarajat markazlarining xodimlarini rag‘batlantirish uchun esa ularning shaxsiy faoliyati, qo‘shgan xissasi, ijrochilik qobiliyati, madaniyati e’tiborga olinadi. Rag‘batlantirishlar pul ko‘rinishida- mukofot, dam olish uylariga va davolashga bepul yo‘llanma, sayohat, xizmat lavozimining pog‘onasidan ko‘tarilish ko‘rinishida bo‘ladi. Hisobotda sarflangan xarajatlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilganligi uchun «+» belgisi ijobiy va «-» belgisi salbiy holatlarni bildiradi. Mart oyida kompaniyaning ma’muriyati tomonidan sarflangan xarajatlarning budjetga nisbatan 160000 so‘mga tejalgani ko‘rinib turibdi. Ushbu ko‘rinishdagi tuzilgan va taqdim 232 qilingan hisobotda xarajatlar uning turlari- moddalari bo‘yicha nazorat qilishdan tashqari har bir mas’uliyat markazlari bo‘yicha ham nazorat va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. 14.11-jadval Kompaniya idorasining mart oyidagi budjetining bajarilishi bo‘yicha hisobot (ming so‘m) № Ko‘rsatkichlar Reja Haq. Farqi Bo‘lim kodi 1. Mehnat haqi sarflari 1810 1740 -70 5 2. Mehnat haqi jamg‘armasidan ajratma 3. Yo‘llardan foydalanish solig‘i 4. Maishiy xizmat sarflari 5. Tovarlarni bojxonadan o‘tkazish va ekspertiza sarflari 6. Transport xizmati sarflari 7. Mulklarning sug‘urtasi sarfi 8. Aloqa xizmatlari sarfi 9. Hisoblash texnikalarini asrash va ulardan foydalanish sarfi 10. AV va NMA eskirishi 11. Bank va inkassatsiya xizmati 12. Ijara to‘lovlari 13. Idora sarflari 14.

Xizmat safari sarflari 15. Reklama sarflari 16. Boshqa sarflar Ja’mi 9250 9090 - 160 - Ushbu markazlarning rahbarlarini rag‘batlantirish bosh direktor tomonidan amalga oshirilsa, bo‘limlarning xodimlarini rag‘batlantirish esa departamentlarning direktorlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu rag‘batlantirishning umumiy summasi kompaniyaning budjetida ayrim moddada keltiriladi. Shunday qilib, ushbu kompaniyada segmentlar bo‘yicha hisobni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ushbu kompaniyaning moliyaviy barqarorligini o‘stirishdir. Xulosa Segmentlar bo‘yicha hisobotning asosiy vazifasi - biznes segmentlari bo‘yicha tasdiqlangan me’yorlardan sodir bo‘lgan farqlar bo‘yicha hisobotlarni taqdim qilishdir. Ushbu farqlarni o‘z vaqtida aniqlash va sabablarini bilish natijasidagina ularni tezkorlik bilan tugatish imkoniyati vujudga keladi. Nazorat va muhokama uchun savollar 1. Segmentlar bo‘yicha hisob nima? 2. Boshqaruv hisobi tizimida segmentlar bo‘yicha hisobning o‘rni va ahamiyatini yoriting? 3. Transfert baholari, ularning qo‘llanilishi joylarini ayting? 4. Trasfert baholarni hisoblash usullarini ayting? 5. Subektning tashkiliy tarkibining transfert bahosi shakllanishiga ta’siri? 6. Rivojlangan mamlakatlarda qo‘llaniladigan transfert baholarni ayting? 7. Zararsizlik nuqtasi qanday aniqlanadi? 8. Bahoni shakllantirish uchun qarorlar qanday qabul qilinadi?

15-MA’RUZA. Ilg‘or boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosati

Reja:

1. **O‘zbekiston respublikasida boshqaruv hisobini tashkil etishning rivojlanish yo‘nalishlari**
2. **Boshqaruv hisobini samarali tashkil qilish**

Hozirgi sharoitda boshqaruv hisobi tizimi mohiyatini xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bo‘limlari o‘rtasidagi kommunikatsion aloqalarning mukammal tarzda ishlab chiqilgan shakllari va metodlari yig‘indisi sifatida tushunish mumkin; korxona tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini joriy rejalashtirish; ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashning operativligini ta’minlash; moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar sarfi ustidan operativ nazorat qilish; yuzaga kelgan har bir holat yuzasidan tahlil va istiqbolni belgilash.

Yuqorida ta’kidlanganidek, boshqaruv hisobi kalkulyatsiya hisobi negizida vujudga kelgan, shunga muvofiq hozirgacha uning asosiy tarkibini ishlab chiqarish xarajatlari hisobi tashkil qilib kelmoqda. Boshqaruv hisobi mohiyatiga ana shunday yondashuv bu nafaqat amaliyotchilar, balkim nazariyachi-iqtisodchi olimlar orasida ham anchaginadir. Ular “boshqaruv hisobi” mohiyatini belgilashda xuddi ana shu yondashuv mohiyatidan kelib chiqadilar.

Shu o‘rinda qayd qilish kerakki, boshqaruv hisobining mohiyatini belgilashda deyarlik barcha mualliflar uning asosida axborot tahlili turishini alohida qayd qiladilar. Boshqaruv hisobi tarkibida xo‘jalik yurituvchi sub’ektning barcha bo‘limlari kesimida asosiy faoliyat natijalari, ana shu natijadagi har birining ulushi

to‘g‘risidagi ma’lumotlar yig‘iladi, tasniflanadi, tahlil qilinadi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Boshqaruv hisobi mohiyatini aniq belgilashda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ma’lumot-nazorat tizimi yaxlitligini ifodalovchi belgilar yig‘indisi: uzluksizlik, aniq bir maqsadga qaratilganlik, ma’lumotlar ta’minotining to‘liqligi, jamiyatdagi ob’ektiv iqtisodiy qonunlarning amaliyotda aks ettirilishi, tashqi va ichki sharoitlar o‘zgarishi natijasida boshqaruv ob’ektlari ta’sirchanligining o‘zgarishi va shu kabilarni ko‘rib chiqish taqozo etiladi.

Ko‘pgina mualliflar boshqaruv hisobi mohiyati to‘g‘risida turli-tuman qarashlarni ifodalashadi. Zamonaviy milliy iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqaruv hisobi mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin.

Boshqaruv hisobi – xo‘jalik yurituvchi sub’ektning muammolarini hal etish va istiqboldagi rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tezkor (operativ) boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xarajatlar va daromadlar hisobi, me’yorlashtirish, rejalashtirish, nazorat va tahlil tizimini ifodalovchi relevant ma’lumotlarni bir tizimga soladi.

Berilgan ushbu ta’rif boshqaruv hisobining ob’ektlari, belgilari va maqsadlaridan kelib chiqib berilgan bo‘lib, bular ushbu maqola doirasida atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Boshqaruv hisobining funksiyasini belgilashda bir qator rivojlangan bozor munosabatlariga ega davlatlar, shuningdek, mamlakatimiz olimlari quyidagi qarashlarni alohida ta’kidlaydilar:

1. Boshqaruv hisobi boshqaruvning turli bo‘g‘inlarini ma’lumotlar bilan ta’minlaydi; operativ nazorat funksiyasi hamda istiqbolli rejalashtirish funksiyasini bajaradi.

2. Boshqaruv hisobi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumotlar tayyorlaydi; turli xil boshqaruv bo‘g‘inlari uchun tahliliy hisobotlarni tuzadi; rahbarlarni chetlanishlarni boshqarishga yo‘naltiradi.

3. Boshqaruv hisobi biznesni tizimli boshqarish uchun boshqaruvning turli bo‘g‘inlarini relevant ma’lumotlar bilan ta’minlaydi; xo‘jalik yurituvchi sub’ektning turli bo‘g‘inlarini boshqarish uchun zaruriy ma’lumotlarni shakllantiradi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasiga tayanib, shuningdek, mavjud qarashlarni tanqidiy o‘rgangan holda boshqaruv hisobining quyidagi funksiyalarini belgilash mumkin, deb hisoblaymiz: boshqaruv hisobi biznesni va uning segmentlarini tizimli boshqarish uchun relevant ma’lumotlar bazasini shakllantiradi va rahbarlarni u bilan muntazam ta’minlaydi; operativ nazorat hamda istiqbolli rejalashtirish funksiyalarini bajaradi.

Boshqaruv hisobi predmeti – ishlab chiqarishning maksimal samaradorligiga erishish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ekt xodimlari faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish uchun boshqaruv ob’ekti yoki boshqaruv jarayoniga ta’sir o‘tkazishdir. Boshqaruv rejalashtirish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish, rag‘batlantirish va nazorat qilish yordamida boshqaruv predmetiga ta’sir o‘tkazadi. Aynan shu funksiyalarni boshqaruv hisobi bajarib, u o‘z tizimini yaratib, boshqaruvning maqsad va vazifalariga javob beradi.

Hozirgi paytgacha boshqaruv hisobi predmetining aniq ta’riflari mavjud emas. Mualliflar umumiy holda buxgalteriya hisobi va xususiy holda boshqaruv hisobi mohiyati ta’riflarini ifodalash bilan chegaralanishmoqda. Ta’kidlash lozimki, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini boshqarish tizim va metodlari o‘zgarishi tufayli boshqaruv hisobining tarkibi o‘zgarmoqda. Ayniqsa, bu turli tashkiliy tuzilmaga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardagi o‘zgaruvchan tashqi omillar (inflyatsiya, ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurish va sh.k.) ta’siridagi xarajatlar va daromadlar hisobini modellashtirishga tegishlidir. Ana shu yerda boshqaruvning ob’ektlari va sub’ektlari tarkibi o‘zgaradi.

Boshqaruv to‘g‘risidagi fan boshqaruv hisobi predmeti haqidagi konsepsiyani ham shakllantiradi.

Boshqaruv hisobining predmeti – muayyan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning iqtisodiy faoliyati.

Predmetning mazmunini tushunish, uning mohiyatiga ob’ektiv baho berish uchun, boshqaruv hisobi fanining ob’ektlari mohiyatini to‘g‘ri tushunish kerak bo‘ladi.

Boshqaruv hisobining ob’ektini belgilashda nafaqat amaliyotchilar, balkim nazariyachi olimlar o‘rtasida ham yaqin bo‘lgan quyidagicha yondashuv mavjud: boshqaruv hisobining ob’ekti, bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektning butun faoliyati hamda uning alohida segmentlari. Shu bilan birgalikda, alohida ta’kidlash kerakki, amaliyotchilar ham, nazariyachi olimlar ham xo‘jalik yurituvchi sub’ektning segmentini belgilashga turlicha yondashishadi. Ayrim qarashlarda, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning segmenti deyilganda, uning faqat ayrim olingan bo‘g‘inlari hisobga olinishi nazarda tutiladi. Yana bir qarashlarda, korxona segmenti uning ayrim olingan mustaqil bo‘g‘inlari va mahsulotlari turini hisobga olish imkonini beradi, deb e’tirof etiladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt segmenti deyilganda, nafaqat ana shu xo‘jalik yurituvchi sub’ektning alohida olingan bo‘g‘inlari, balkim boshqaruv hisobining oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, mahsulot turlari hamda bir xil jarayonlar ham hisobga olinishi kerak.

Boshqaruv hisobi mohiyatini belgilashda uning muhim xususiyatini ta’kidlash lozim, ya’ni boshqaruv hisobi boshqaruv jarayonini hisob-kitoblar jarayoni bilan uzluksiz bog‘laydi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ma’lumotlar tizimida boshqaruv hisobi ob’ektlarining turli xil usullar va yo‘llar orqali ifoda etilishi boshqaruv hisobi metodi deb ataladi.

Boshqaruv hisobining metodi, boshqaruv hisobi ob’ektlarini xo‘jalik yurituvchi sub’ektning yagona ma’lumotlar tizimida aks ettirish imkonini beradigan usul va uslublar yig‘indisidir. Ana shu usul va uslublarga buxgalteriya hisobining metodi elementlari (hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya, buxgalteriya schetlari, ikki yoqlama yozuv, buxgalteriya hisoboti va balans), shuningdek, me’yorlashtirish, rejalashtirish, nazorat qilish, moliyaviy va iqtisodiy matematik tahlillar ham kiradi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini boshqarish murakkab jarayon hisoblanadi. Boshqaruv talablariga javob beruvchi hisob tizimi ham murakkab

bo‘lib, ko‘pgina tadbirlar va jarayonlardan tashkil topadi. Boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqib, boshqaruv hisobi tizimi elementlari tarkibi o‘zgarishi mumkin. Shu bilan birga, aniq xo‘jalik yurituvchi sub’ektda tashkil qilingan har qanday hisob siyosati umumqabul qilingan tamoyillarga javob berishi kerak. Albatta, bundan boshqaruv hisobi ham mustasno emas. Boshqaruv hisobining tamoyillari mohiyatini to‘g‘ri anglash shu hisob turidan samarali foydalanish imkonini beradi.

Fikrimizcha, boshqaruv hisobi tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin: xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining uzluksizligi; rejalashtirish va hisoblashda yagona o‘lchov birliklarini ishlatish; iqtisodiy ma’lumotlarning tezkorligi, maxfiyligi va eng muhimi, relevantliligi; xo‘jalik yurituvchi sub’ektning tarkibiy bo‘linmalari faoliyati natijalarini baholash; boshqaruv maqsadida birlamchi va oraliq ma’lumotlarning ko‘p marotaba ishlatilishi; xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ichidagi kommunikatsiya tizimi; xarajatlar, moliya va tijorat faoliyatini boshqarishda budjet usulini qo‘llash; hisob ob’ektlari haqidagi ma’lumotlardan foydalanishni ta’minlovchi to‘liqlik va tahliliylik; xo‘jalik yurituvchi sub’ektning hisob siyosati tomonidan o‘rnatilgan ishlab chiqarish va tijorat jarayonlarining davriyligi.

Har qanday ixtiyoriy olingan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqqan holda boshqaruv hisobini tashkil qilishi va yuritishi, shuningdek, xohlamasa uni umuman, tashkil qilmasligi va yuritmasligi mumkin. Shu bilan bir qatorda, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt rahbarlarining bilim darajasi, ularning umumiy saviyasi va intellektual salohiyatlari boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishga, uning saviyasiga, boshqaruv hisobi oldiga turli xil yangi va istiqbolli vazifalar qo‘yishga olib kelishi mumkin.

E’tirof etish kerakki, har bir ixtiyoriy olingan XYUS rahbarlari uchun shakllantiriladigan va ularga taqdim etiladigan ma’lumotlar mazmuni va shakli boshqa sub’ektlardagidan albatta, farq qiladi.

Shu bilan bir qatorda, bizning fikrimizcha, ularning barchasida shakllantirilayotgan va taqdim etilayotgan ma’lumotlarning o‘xshash tomonlari ham mavjud, ya’ni ularning strategik, taktik va operativ xarakterida ekanligidir. Bu o‘xshashlikni bir qator iqtisodiy maktablar olimlari o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida e’tirof etishga va ular o‘rtasidagi farqlarni ham ko‘rsata olishga harakat qilishgan. Lekin, boshqaruv hisobining ana shu qayd qilingan turlarini bir yaxlitlikda va eng asosiysi, ularning mohiyatini boshqaruv hisobi doirasida yagona tizim sifatida talqin qila olishmagan. Boshqaruv hisobining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilinsa, ma’lumotlarning ana shu uchta turiga mos tarzda boshqaruv hisobining mos turlari shakllanib borganligini kuzatish mumkin: strategik, taktik va operativ boshqaruv hisoblari.

Strategik boshqaruv hisobi – bu XYUSning yuqori rahbarlarini korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga ta’sir qiladigan tashqi omillar hamda ichki imkoniyatlarni baholash va ulardan samarali tarzda foydalanish bo‘yicha uzoq muddatlarga mo‘ljallangan qarorlar qabul qilishlariga asos bo‘ladigan relevant ma’lumotlar bilan ta’minlashdir.

Boshqaruv hisobining taktik darajasi – strategik maqsad va rejalarga erishishni ta’minlovchi vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan XYUSning o‘rta bo‘g‘in rahbarlarini ta’minlaydi. Strategik boshqaruv hisobiga nisbatan bu hisob darajasida vaqt oralig‘i juda qisqa, odatda bir hisobot yili, ma’lumotlarning aniqlik darajasi yuqori, ma’lumotlar kengligi juda qisqa va aniq yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Operativ boshqaruv hisobi XYUSning xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlari haqiqiy parametrlarining belgilanganlaridan, ya’ni rejalashtirilganlaridan sezilarli og‘ish vujudga kelayotganda bu holatga rahbarlarning zudlik bilan e’tiborini qaratish uchun ularga teskari ma’lumotlar aloqasini o‘ratib berish vazifasini bajaradi. Operativ hisob rahbarlar uchun tezkor va qisqa muddatlarga mo‘ljallangan relevant ma’lumotlar yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Qisqa muddatda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning(XYUS)ning faoliyat ko‘rsatkichlari aniq belgilangan bo‘ladi, ammo resurslar nihoyatda cheklangan va ulardan samarali foydalanish talab etiladi. Ana shunday vaziyatlarda XYUSning barqarorligi cheklangan muqobillar doirasidagi eng yaxshi harakatlar varianti tanlovini amalga oshirish va prognozlashtirish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Operativ ma’lumot judayam tor, ko‘proq ichki, batafsil va aniq bo‘ladi.

Buxgalteriya hisobining barcha darajalari bir-biriga bog‘langan, shuning uchun amalda taktik, strategik va operativ ma’lumotlar o‘rtasiga aniq bir chegara tortib bo‘lmaydi. Shuningdek, bir vaqtning o‘zida boshqaruv hisobining strategik va operativ darajalari o‘rtasidagi farqlar ochiq-oydin namoyon ham bo‘ladi. Bu holat boshqaruv hisobi tizimining nazariy asoslarini ishlab chiqishda o‘zining aniq ifodasini topadi.

Strategik boshqaruv hisobining tamoyillariga: istiqbolli (XYUS) o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlarini kelgusida eng yuqori darajaga ko‘tara olish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash, eksternallik (tashqi muhit ta’sirini hisobga olish va XYUSning unga moslashuvini ta’minlash), entropeya (tashqi muhitning noaniqligini kamaytira oladigan va XYUSning iqtisodiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi tomonlarini baholashga xizmat qiladigan ma’lumotlar yig‘ini), egiluvchanlik (tashqi o‘zgarishlarga moslashish va moslashuv natijalarini XYUSning iqtisodiy muhitiga samarali yo‘naltirish hususiyati), salohiyatli (raqobatbardosh strategiyada imkoniyat manbalarini izlash va ko‘paytirish), sifatlilik (XYUSning imkoniyatlari va xatarlar, kuchli va zaif tomonlarini hisoblay olish) va extimolliklar kiradi.

Boshqaruv hisobining operativ darajasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: tezkorlik (berilgan parametrlardan chetlanishga nisbatan tezkor xarakat), internallik (ichki jarayonlarning samarasini baholash), relevant davrining barqarorligi (qisqa muddat oralig‘ida iqtisodiy muhitning o‘zgarmasligi), optimallik (chegaralangan manbalardan samarali foydalanish), moliyaviy o‘lchovlar (ma’lumotlarning foyda va xarajatlar miqdoriga bevosita ta’sirini aniq ko‘rsatib berilishi), tahliliylik va aniqlik.

Strategik boshqaruv hisobi matritsali tahliliy vositalardan, “kuchli” va “kuchsiz” signallar bilan ishlash algoritmlari, ssenariyli tahlil, SWOT-tahlil, GAP-tahlil (oraliqlar tahlili), portfel tahlili (maxsulotlar va bozorlarga tegishli muayyan

strategiyalar bo‘yicha faoliyat yo‘nalishlarini taqsimlash tahlili), mijoz uchun sifatli qiymat yaratish tahlili, maxsulotning hayot sikli bo‘yicha xarajat hisobi, maqsadli xarajatlar hisobi, investitsiya hisob hisob-kitoblari, ko‘rsatkichlarning muvozanatli tizimi va shu kabilardan foydalanadi.

Taktik va operativ boshqaruv hisoblarini samarali tarzda amalga oshirish vositalari quyidagilardir: faoliyat ko‘rsatkichlarining moliyaviy tahlili, investitsiya hisob-kitoblarining statistik va dinamik vositalari, budjetlashtirish, funksional qiymat tahlili (FQT), xarajatlarni hisobga olish va tannarxni hisoblash vositalari, standart-costing, direkt-costing, bilvosita xarajatlar tahlili, CVP-tahlil, ABC-tahlil va shu kabilar.

Boshqaruv hisobini samarali tashkil qilishdagi ana shu muhim vositalardan muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi va budjetlashtirishning o‘rni beqyosdir. Ular boshqaruvning hamma darajalariga daxldordirlar, ya’ni strategik darajadan to operativ darajagacha. Ular yordamida juda ko‘plab boshqaruv masalalari yechiladi, XYUSning iqtisodiy faoliyatini tizimli tarzda baholash iqtisodiy baholash imkoniyati ta’minlanadi hamda teskari aloqa (boshqaruv jarayonining barcha bosqichlarini tahliliy ma’lumotlar bilan ta’minlash) o‘rnatish imkonini beradi.

Ko‘rsatilgan vositalarining boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonida yagona axborot modeliga birlashtirilishi XYUSning maqsadga erishish imkoniyatlarini oshirgan holda, ularning o‘zaro ta’sir darajasini hisoblash va shunga muvofiq har birining samarasini alohida hisobga olish va tahlil qilish imkoniyatlari ham keskin oshadi.

boshqaruv hisobining nazariy va uslubiy masalalarini tadqiq qilish natijalari bo‘yicha olingan ilmiy xulosalar hamda berilayotgan taklif-tavsiyalardan foydalanish ixtiyoriy olingan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt rahbarlariga, xo‘jaligining mulk shakli va faoliyat turidan qat’iy nazar, ularda:

- boshqaruv hisobini tashkil qilish, uni yuritish va natijalarini hisobga olishga uslubiy jihatdan to‘g‘ri yondashish imkonini beradi. Buning natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektda boshqaruv hisobi siyosatining to‘g‘ri shakllanishiga erishiladi, bu esa pirovard natijada ana shu ma’lumotlarga asoslanadigan to‘g‘ri va samarali boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga mustahkam poydevor yaratadi;
- rahbarlarga ichki imkoniyatlarni hisoblash, tashqi muhit ta’sirini e’tiborga olish va buning uchun ularni tahlil qilish, hisobga olish va nazorat qilish imkoniyatlarini ochadi;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy ma’lumotlarning asoslanishini ta’minlash, istiqbol ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri shakllantirish, hosil bo‘lgan bir necha variantlardan eng optimallarini tanlash imkoni kengayadi va pirovard natijada bevosita iqtisodiy samaraning o‘sishi ta’minlanadi.

3.2.Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari

Mavzu bo‘yicha masalalar (Amaliy mashg‘ulotlar):

1-Mavzu:Boshqaruv hisobiga kirish fanining predmeti

1. Ushbu jadvalda keltirilgan xarajatlarning qaysi kategoriyadagi, ya’ni doimiy yoki o‘zgaruvchan, yoxud bilvosita yoki bevosita xarajatlarga talluqli ekanligini aniqlang**.**

Xarajatlarning moddalari Asosiy xom-ashyo va materiallar	**Doimiy**	**O‘zgaruvchan**	**Bilvosita**	**Bevosita**
Yordamchi materiallar				
Inventar qiymati				
Yoqilg‘i				
Elektr energiyasi				
Ishlab chiqarish ishchilari mehnat haqi				
Zavod ma’muriyati mehnat haqi				
Asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish				
Ishchi va xodimlarni ovqatlanishi				
Ishchi va xizmatchilarga tibbiy xizmat xarajatlari				
Ishlab chiqarish binosi ijarasi				
Ishlab chiqarish asosiy vositalari amortizatsiyasi				
Bino sug‘urta xarajatlari				

2. Savdo-tijorat korxonasi 01 yanvar holati bo‘yicha tovar zahiralari qoldig‘i 25 000 p.b., sof xarid qiymati 165 000 p.b., 31 dekabrdagi tovar zahiralari 30 000 p.b.ni tashkil etadi.

Aniqlash talab etiladi:

1. Sotishga mo‘ljallangan tovar zahiralari summasi
2. Realizatsiya qilingan tovarlar (sotish) tannarxi summasi

3. Ishlab chiqarish korxonasi bo‘yicha 1 yanvar holatida tayyor mahsulotlar zahirasi 50 000 p.b., ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxi 1 100 000 p.b., 31 dekabr holati bo‘yicha tayyor mahsulotlar tannarxi 60 000 p.b.ni tashkil etadi.

Aniqlash talab etiladi:

1. Sotishga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar summasi
2. Realizatsiya qilingan tayyor mahsulotlar summasi
3. 2-misoldagi savdo-tijorat korxonasi tannarx ko‘rsatkichlari bilan solishtiring.

4. Kompaniyaning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi ***(x)*** va o‘zgaruvchan xarajatlar ***(u)*** to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar asosida o‘zgaruvchan xarajatlarning grafigini chizing:

x	50	70	90	100	115	125	150	200
u	150	210	270	300	345	375	450	600

5. “AMIR SRAT” kompaniyasining 2007 yil faoliyatiga oid hisob jurnallaridan quyidagi yozuvlar tanlab olingan.

(p.b.)

Sotish hajmi	1500 000
1 yanvardagi bevosita material qoldig‘i	55 000
Bilvosita mehnat	125 000
Zavod binosi amortizatsiyasi	22 000
1 yanvar holatida tugallanmagan ishlab chiqarish	35 000
1 yanvar holatida tayyor mahsulot qoldig‘i	55 000
Sotish xarajatlari	310 000
Bevosita mehnat xarajatlari	375 000
Zavod asbob-uskunalari amortizatsiyasi	25 000
Ma’muriy maqsadlardagi nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	5 000
Zavod ishchi va xodimlari ovqatlanishi	15 000
31 dekabr holatida tayyor mahsulotlar qoldig‘i	62 000
Ma’muriy-boshqaruv xodimlari mehnat haqi	100 000
Boshqa ma’muriy xarajatlar	95 000
Bevosita material xaridi	510 000
Texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xarajatlari	50 000
Zavod inventarlari bo‘yicha xarajatlar	10 000
31 dekabrda bevosita material qoldig‘i	35 000
31 dekabr holatida tugallanmagan ishlab chiqarish	45 000
Boshqa umumzavod xarajatlari	23 000

Yuqorida tanlab olingan ma’lumotlar bo‘yicha quyidagilar talab etiladi:

1. Ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to‘g‘risida hisobotni quyidagi tannarx elementlari bo‘yicha tayyorlang:
   - Bevosita material xarajatlari
   - Bevosita mehnat xarajatlari
   - Ustama ishlab chiqarish xarajatlari
2. Tayyor mahsulotlarning sotish tannarxi
3. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing.

2-mavzu.Boshqaruv hisobi tizimida hisob siyosati

1. Laymon Kompaniyasi 20_1 yil uchun quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

Toshli qog‘oz	2.000	Asbob-uskunalar amortizatsiyasi	40.000
Yordamchi materiallar	40.000	Fabrikasi ijarasi	50.000
Yog‘lash va sovutish	5.000	Asbob-uskunalar mol-mulk solig‘i	4.000
Overtaym ish haqi	20.000	Asbob-uskunalar yong‘in sug‘urtasi	3.000
Bo‘sh turib qolishlar	10.000	Bevosita materiallar xaridi	460.000
Bilvosita mehnat	40.000	Bevosita meteriallar 31/12/20	50.000
Bevosita ishchi	300.000	Sotish	1.260.000
Bevosita material 31/12/20_0	40.000	Sotish komissioni	60.000
Tayyor mahsulot 31/12/20_1	150.000	Sotuvchilar ish haqi	100.000
Tayyor mahsulot 31/12/20_0	100.000	Yuklash xarajatlari	70.000
Tugallanmagan ishlab chiqarish 31/12/20_0	10.000	Ma’muriy xarajatlar	100.000
Tugallanmagan ishlab chiqarish 31/12/20_1	14.000		

Talab etiladi:

1. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisoboti hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotini tuzing. Har bir moddaga (sotish, bevosita materiallar xaridi, zahiralardan tashqari) “O‘” (O‘zgaruvchan) va “D” (Doimiy) belgilarini qo‘yib chiqing. Tannarx ob’ekti bo‘lib mahsulot birligi hisoblanadi.
2. Agar bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) material hamda fabrika ijarasi 900.000 birlik mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan material xarajatlar va fabrika ijara xarajatlarini aniqlang? Ijara xarajatlari doimiy xarajat ekanligini hisobga oling.
3. 2-punktda aniqlash talab etiladigan raqamlar asosida agar kompaniya kelgusi yili 1.000.000 birlik mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, u holda mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan bevosita material xarajatlari va mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan fabrika ijara xarajatlari summasini aniqlang?
4. 2 va 3-punktlarda aniqlangan holatlar, ya’ni nima uchun mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan material xarajatlari o‘zgarmasdan qoldi, mahsulot birligiga ijara xarajatlari o‘zgarganligi bo‘yicha menejment konsalting xizmatini ko‘rsating?

2. Quyidagi ma’lumotlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi va sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxini hisoblang. 2002 yil uchun (ming p.b. hisobida):

Zavod binosi uchun mol-mulk solig‘i.....3.000
Marketing xarajatlari..... 37.000
31.12.2001 tayyor mahsulotlar qoldig‘i.....27.000
Fabrika inventarlari..... 17.000
31.12.2002 dagi tugallanmagan ishlab chiqarish... .....26.000
Zavod binosining amortizatsiyasi.....9.000
Zavodga oid bo‘lmagan ma’muriy xarajatlar.....43.000
Ishlatilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar..... 87.000
31.12.2002 tayyor mahsulotlar qoldig‘i.....34.000
Zavod asbob-uskunalari amortizatsiyasi.....11.000
Zavod joriy ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish..... 16.000
31.12.2001 dagi tugallanmagan ishlab chiqarish.....20.000
To‘g‘ridan to‘g‘ri mehnat haqi.....34.000
Bilvosita mehnat xarajatlari..... 23.000
Ishlatilgan bilvosita material xarajatlari..... 11.000
Boshqa zavod umumishlab chiqarish xarajatlari.....4.000

2. Surbonia LTD elektrik suvda isitish vositasini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Quyida kompaniyaning trayl balansi va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga oid bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan.

Surbonia LTD
Trayl balansi
31 dekabr 2025 yil

	Debet	Kredit
Pul mablag‘lari	146.000	
Olinadigan schotlar	145.000	
Xom-ashyo va materiallar	115.000	
Tugallanmagan ishlab chiqarish	144.000	
Tayyor mahsulotlar zahirasi	154.000	
Binolar	1.450.000	
Jamg‘arilgan amortizatsiya, binolar		510.000
Mashina va asbob-uskunalar	210.000	
Jamg‘arilgan amortizatsiya, mashina va asbob-uskunalar		50.000
Investitsiyalar	62.000	
To‘lanadigan schotlar		700.000
To‘lanadigan notlar		280.000
Kapital		390.000
Taqsimlanmagan foyda		430.000
Aksiyalarga dividendlar	25.000	
Sotish		1.440.000

Qaytarilgan sotish va chegirmalar	22.000	
Sotilgan mahsulot tannarxi	760.000	
Reklama	25.500	
Sotish komissioni	84.000	
Amortizatsiya, binolar	70.000	
Amortizatsiya, mashina va asbob-uskunalar	45.000	
Asbob-uskunalar ijarasi	12.500	
Ma’muriy mehnat haqi	256.000	
Inventarlar	74.000	
Jami	3800.000	3800.000

Surbonia LTD
Ustama ishlab chiqarish xarajatlari
31 dekabr 2025 yil

Bilvosita material.....24.000
Bilvosita mehnat.....32.000
Supervayzor mehnat haqi.....103.000
Texnik xizmat ko‘rsatish.....39.000
Amortizatsiya, zavod.....66.000
Amortizatsiya, mashina va asbob-uskunalar.....58.000
Zavod inventarlari.....47.000
Mol-mulk solig‘i.....16.000
Zavod sug‘urtasi.....11.000

2005 yil 1 yanvar holatida xom-ashyo va materiallarning qoldig‘i 97.500 p.b., tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘i 119.000 p.b., tayyor mahsulotlarning qoldig‘i 96.000 p.b.ni tashkil etgan. 2005 yil davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari 256.000 p.b., to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi xarajatlari 191.000 p.b.ni tashkil etgan. Kompaniya 2005 yilda 25.500 birlikda mahsulot ishlab chiqargan va 24.000 birlikda mahsulot sotishini amalga oshirgan.

Aniqlash talab etiladi:

1. Kompaniyaning hisobot yili uchun mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hisoblash bo‘yicha jadval tuzing.
2. Kompaniyaning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotini tuzing.
3. Kompaniya buxgalteriya kitoblari yopilgandan so‘ng taqsimlanmagan foyda schotining qoldig‘ini aniqlang.
4. 2005 yilda sotilgan mahsulot birligining o‘rtacha sotish bahosini aniqlang.
5. 2005 yilda sotilgan mahsulot birligining o‘rtacha tannarxini aniqlang.
6. 2005 yilda ishlab chiqarish jarayonidan tayyor mahsulotga o‘tkazilgan mahsulot birligining o‘rtacha tannarxini aniqlang.
7. Hisobot davrida xarid qilingan xom-ashyo va materiallarning summasini hisoblang.

8. Kompaniya jami to‘plash xarajatlarida mahsulot xarajatlari qancha foizni tashkil etadi?
9. Nima uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi va ustama ishlab chiqarish xarajatlari kompaniyaning trayl balansida o‘z aksini topmaganligini tushuntirib bering. Bunda buxgalter xatoga yo‘l quyganmi?

Mavzuga doir masalalar:

1. Hisobot oyida AVS kompaniyasi 20000 birlikda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar berilgan:

Asosiy bevosita materiallari	230000
Asosiy ishlab chiqarish xodimlari mehnati	220000
Yordamchi material (o‘zgaruvchan)	40000
Yordamchi xodimlarning mehnati (doimiy)	60000
Ishlab chiqarish binosining ijarasi	50000
Amortizatsiya	30000
Asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish (o‘zgaruvchan qismi 0.4)	25000
Jami xarajatlar.....	655000

Talab etiladi*:*

1. Schotlarni tahlil qilish asosida jadval shaklida xarajatlarni o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajrating.
2. Kompaniya faoliyatiga oid bo‘lgan ma’lumotlar asosida $\boldsymbol{Y = a + bX}$ chiziqli tenglamaning ko‘rinishini aniqlang.
3. Kelgusi oyda kompaniya ishlab chiqarish hajmi 15000 birlikni tashkil etishi kutilayotgan taqdirda jami xarajatlari summasini aniqlang.

2. O‘tgan o‘n ikki oy maboynida mart oyi uchun eng katta tannarx summasi 55000 p.b. ni tashkil etdi, qaysiki bunda 5.000 mehnat soati sarflangan. Eng kam tannarx avgust oyida 25000 p.b. ga teng bo‘lib, bu 2600 mehnati soati uchun hisoblangan.

Talab etiladi:

1. Eng katta va eng kichik qiymat usulidan foydalanib, $\boldsymbol{Y = a + bX}$ chiziqli tenglamaning ko‘rinishini aniqlang.
2. Agar kompaniya mehnat soatlari rejalashtirayotgan oyda 4200 mehnat soatni tashkil etsa jami xarajatlar summasini aniqlang.

3. AVS kompaniyasida 6 oy maboynida ishlab chiqarish binosidagi telefon va aloqa xarajatlari bo‘yicha eng katta va eng kichik faollik darajasida ishlab chiqarish faolligi va xarajatlarning o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumotlar quyida keltirilgan:

Faollik darajasi	***Ishlab chiqarish faolligi (mahsulot birligi)***	***Xarajatlar (pul birligida)***

Eng kichik faollik darajasi	25000	1500
Eng katta faollik darajasi	85000	2200
Farqi	60000	700

Talab etiladi:
1. Eng katta va eng kichik qiymat usulidan foydalanib $Y = a + bX$ chiziqli tenglamaning ko‘rinishini aniqlang.
2. Agar rejalashtirayotgan kelgusi 6 oyda 65000 birlik mahsulot ishlab chiqarish ko‘zda tutilsa, jami xarajatlar summasini aniqlang.

3-mavzu.Boshqaruv hisobida xarajatlarni turkumlash va hisobga olish

1. Lemore kompaniyasi yig‘ilish zallarini jihozlash uchun aluminiy derazalari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Kompaniya buyurtma bo‘yicha ishlarni bajaradi va jismoniy shaxsdan ijaraga olingan binoning bir qismida faoliyat yuritadi. Kompaniya jihozlash uchun katta kontraktga ega bo‘lganda jismoniy shaxs binoning ijaraga ajratilgan qismini kengaytirib berishga rozi bo‘lganligini va buning uchun ijara haqi ham oshishini bildirdi. Bu o‘z navbatida kompaniyaning inventar va arzon jihozlar bo‘yicha xarajatlarining ham oshishiga sabab bo‘ladi.

Mahsulot birligi(birlikda)	***Bevosita mehnat haqi xarajatlari(p.b.)***	***Invetar va arzon buyumlar bo‘yicha xarajatlar (p.b.)***
80	*1100*	*520*
150	*1600*	*800*
120	*1500*	*570*
60	*700*	*500*
220	*1750*	*910*
190	*1700*	*850*
140	*1500*	*600*

Aniqlash talab etiladi:
1. Ma’lumotlarni diagrammaga joylashtiring. Mahsulot ishlab chiqarishning 100 birligidan 200 birligiga qadar bevosita mehnat hamda inventar va buyumlar bO‘yicha xarajatlarning grafikasini aks ettiring.
2. Eng katta va eng kichik qiymat usulidan foydalanib har bir xarajat turi bO‘yicha $Y = a + bX$ chiziqli tenglamasini ishlab chiqing**.**

5. Korxona faoliyatini bir necha yillar davomida kuzatuv natijasida quyidagi ma’lumotlar olingan:

Davrlar	***Mahsulot birligi (X)***	***Aralash xarajatlari (U)***
1	110	570
2	70	520
3	75	430

4	65	330
5	55	410
6	85	560
7	100	850
8	90	520
9	140	870
10	50	350
11	130	600
12	120	900

Aniqlash talab etiladi:
1. Ma’lumotlarni grafikka joylashtirib mahsulot birligi va aralash xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi to‘g‘ri chiziqni chizing.
2. Grafik usulidan foydalanib Y = a + bX chiziqli tenglamasini ishlab chiqing.

4-mavzu.Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxi va ularni kalkulyatsiya qilish

Misollar va keyslar

1. 7739-DI ishi yakunlandi hamda ushbu ishning tannarxiga oid bO‘lgan yozuvlar quyidagicha:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	2400 $
Tug‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi	2000
To‘g‘ri kelgan ustama ishlab chiqarish xarajatlari	3000
Jami mahsulot tannarxi	$7400

80 birlik mahsulot ishlab chiqildi, lekin inspeksiya xulosasiga kO‘ra olti birlik mahsulot minimum standart talablariga muvofiq kelmaydi. Talab darajasidagi mahsulot birligining sotish narxi $128.00 ga teng.

Talab etiladi:

A. Ishning xususiyatidan kelib chiqqan holda mahsulot defekti yuzaga kelishini hisobga olgan holda mahsulot birligi tannaxini hisoblang.

B. Ishlab chiqarish jarayonining xatosi bois mahsulot defekti yuzaga kelganligini hisobga olib mahsulot birligining tannarxini hisoblang.

S. B holat yuz bergan holda defekt mahsulotlarga buxgalteriya yozuvini amalga oshiring.

2. 7739-DI ishi bO‘yicha 1-masalaning shartida keltirilgan ma’lumotlar bO‘yicha defekt mahsulotlarga qayta ishlov berish iqtisodiy-texnik mumkin exmas, faqat ularni birligi 42.50 dollarga sotilishi mumkin.

Talab etiladi:

A. Ishning xususiyatidan kelib chiqqan holda mahsulot defekti yuzaga kelishini hisobga olgan holda mahsulot birligi tannaxini hisoblang.

B. Ishlab chiqarish jarayonining xatosi bois mahsulot defekti yuzaga kelganligini hisobga olib mahsulot birligining tannarxini hisoblang.

S. Ikki holat yuz bergan holda defekt mahsulotlarga buxgalteriya yozuvini amalga oshiring.

3. Kompaniya barcha zahiralar operatsiyalari uchun uzluksiz hisob tizimini qO‘llaydi. Kompaniya elektrik kabellar ishlab chiqaradi. Quyida zahiralarga oid quyidagi yozuvlar tanlib olingan:

A. 67000 p.b. Ga xom-ashyo va materiallar sotib olindi.

b. 42400 p.b. Material ishlab chiqarishga chiqarildi, shundan 37200 p.b. to‘g‘ridan-to‘g‘ri material hisoblanadi.

c. A shartdagi xaridda 6700 p.b. Dagi material defekti borligi sababli ta’minotchilarga kredit hisobiga qaytarildi.

d. A shartdagi xarid uchun mavjud qoldiq to‘lab berildi.

e. 13000 p.b. Ga material pul to‘lash hisobiga sotib olindi

f. 3800 p.b. to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallardan foydalanildi, qaysiki o‘tgan oy oxirida omborga qaytarilgan.

g. Qoldiq (chiqindi) materiallar 1400 p.bga sotildi. Qoldiq materiallar mahsulot tannarxining kamayishiga olib borilgan emas.

Talab etiladi:

1. Har bir jarayon va operatsiyalar uchun belgilangan shaklda buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.

4. QV1173 raqamli ishda mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq quyidagi ma’lumotlar berilgan:

Ishlab chiqarilgan mahsulot birligi	200
To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	$5800
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi	2300
Ustama ishlab chiqarish xarajatlari	2500

Mahsulot ishlab chiqarilishiga oid ma’lumotlarni tahlil qilish uchun qO‘shimcha quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

a. 200 birlik mahsulotdan 50 tasi defekt bilan ishlab chiqilgan bO‘lib, har biri 30$ sotildi. Defekti mavjud bo‘lgan mahsulotlarni sotishdan olingan tushum boshqa daromadlar hisobiga olib borilgan.
b. Ushbu ishdan olingan 700 $ ishlab chiqarish materiali omborxonaga qaytarilgan, lekin yozuvlar amalga oshirilmagan.
c. E’tiborsizlik natijasida xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limda ishlatilgan 800$ bilvosita materiallar to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallarga olib borilgan.
d. 300 $ dan iborat to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar o‘tgan haftada qo‘llanilgani bois, yozuvlarda qayd etilmasdan qolgan.

Talab etiladi:

1. Ushbu ishga aloqador ishlab chiqarilgan mahsulot birligining tannarxini hisoblash uchun ma’lumotlar jadvalini tuzib, uni tahlil qiling. Tahlil natijalarida xato yozuvlar hamda ishlab chiqarish materiallarini sotishdan va qaytarishdan saqlab qolish oqibati kabi yo‘l qo‘yilishlar natijasida shakllangan turli tannarxlar farqlarini aniqlang.

5-mavzu.Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini kalkulyatsiya qilishning “Standart-kost” va “Direkt-kosting” usuli

5. Kompaniya materiallarni uzluksiz tizimida hisobga oladi. Buxgalter oldin ishlab chiqarish korxonasida ishlamaganligi bois, ayrim yozuvlarni O‘tkazishda xatoliklarga yo‘l qo‘ygan. Kompaniya faoliyatiga oid quyidagi yozuvlar amalga oshirilgan.

	Xarid To‘lanadigan schotlar *Ochilgan schyolarga xom-ashyo va materiallarning xaridini yozish uchun*	89.300	 89.300
	To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar Xarid *Xizmat ko‘rsatuvchi bo‘lim tomonidan yog‘lash mashinalari uchun 9.000 $ qismlar ishlatildi.*	9.000	 9.000
	Zahira nazorati Chiqindi materiallar daromadi *Chiqindi materiallarni sotishga doir yozuvlarni amalga oshirish uchun*	2.300	 2.300
	Qaytarilgan materiallar Ishlab chiqarish jarayoni nazorati *Omborxonaga qaytarilgan materiallarni yozish uchun*	1.800	 1.800
	Olinadigan schetlar Sotilgan mahsulotlar tannarxi Sotishdan olingan foyda Tannarxi 34.000 $ bo‘lgan mahsulotlarni 56.000 $	56.000	 34.000 22.000

Talab etiladi:

1. Har bir jurnal yozuvlarini tahlil qilib xatolarini to‘g‘irlangan hamda zarur to‘g‘irlashlarni kiriting.

6. “Video Galore” kompaniyasi uchun yillik turli xil buyurtma miqdorida buyurtma tannarxi va saqlash tannarxi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan.

1. Yillik ehtiyoj (A)	**10.400**	**10.400**	**10.400**	**10.400**	**10.400**	**10.400**	**10.400**
2. Bitta buyurtmadagi miqdori	50	100	400	500	600	1000	10400

(Q)							
3. Birlikdagi o‘rtacha zahira **(Q/2)**	25	50	200	250	300	500	5.200
4. Xarid buyurtmalar miqdori **(A/Q)**							
5. Xarid buyurtmalar uchun yillik buyurtma tannarxi **(A/Q P) =4P**							
6. Zahiralarni yillik saqlash xarajatlari **(Q/2 C) =3C**							
7. Buyurtma qilingan va saqlanadigan zahiralarning yillik relevant xarajatlari **(5+6)**							

A = Davr uchun ehtiyojdan kelib chiqib talab qilinadigan zahiralarning miqdori – 10.400 $

Q = Buyurtma miqdori

R = Bitta buyurtmani bajarish xarajatlari – 62.50 $

S = Birlik zahiralarni saqlash xarajati – 5.20 $

Ushbu ma’lumotlar asosida aniqlash talab etiladi.

1. Yuqoridagi jadvaldagi ko‘rsatkichlarni hisoblab, bO‘sh ustunlarni to‘ldiring.
2. Jadval usulidan foydalinib minimal xarajatlarda buyurtmaning optimal miqdorini aniqlang.
3. Grafik usulida buyurtmaning optimal miqdorini aniqlang
4. Formula usulida (EOQ) ning miqdorini aniqlang.
5. Formula usulida jami relevant xarajatlarni (TRC) hamda ta’minot sonini hisoblang.

7. “Cloth Center” kompaniyasi xarid bo‘limi quyidagi ma’lumotlarni to‘pladi:

Paxtadan gazlamasiga yillik ehtiyoj 20.000 yard (1 yard 91.4 sm)
Bir xarid orderi uchun buyurtma tannarxi $ 160
Yil uchun saqlash xarajatlari Xarid tannarxining 20%
Saqlanishi talab qilinadigan zahira Yo‘q
Paxta gazlamasining tannarxi Bir yard uchun 8 $

Kompaniya uchun xarid vaqti 2 hafta. Kompaniya bir yilda 250 kun ishlaydi (har haftada 5 kundan 50 hafta).

Talab etiladi:

1. Paxta gazlamasi uchun buyurtmaning optimal miqdorini (EOQ) aniqlang.
2. Har yili talab qilinadigan buyurtmaning sonini hisoblang.

8. 5 oy maboynida materiallarning quyidagi xaridi va chiqarilishi amalga oshirilgan.

1 iyul Xarid 2000 birlik, birlik bahosi 10$

9 iyul	Xarid	520 birlik, birlik bahosi 10.5$
18 iyul	Chiqarilgan	1400 birlik
5 avgust	Xarid	800 birlik, birlik bahosi 11.5$
22 avgust	Xarid	600 birlik, birlik bahosi 12.5$
15 sentabr	Chiqarilgan	1240 birlik
14 oktabr	Chiqarilgan	480 birlik
8 noyabr	Xarid	1000 birlik, birlik bahosi 11 $
24 noyabr	Chiqarilgan	760 birlik

Ushbu berilgan ma’lumotlar asosida zahiralar tannarxi va ishlab chiqarishga chiqarilgan materiallarning tannarxini quyidagi usullar asosida hisoblang:

1. FIFO
2. LIFO
3. O‘rta salmoqli qiymat usuli

Usullar natijalari o‘rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.

6-mavzu.Xarajatlarni to‘la taqsimlab va o‘zgaruvchan xarajatlar bo‘yicha tannarxni kalkulyatsiya qilish usuli

Masalalar:

1. Keltirilgan ma’lumotlar asosida har bir ishchiga quyidagi shartlardan kelib chiqib mehnat haqini hisoblang:

1. Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay tizimi asosida ish haqini hisoblashni amalga oshiring.

2. Mehnatga haq to‘lashning ishbay tizimi bo‘yicha mehnat haqini xodimning vaqtbay ish haqidagi 75 % kafolatlangan ish haqini hisobga olgan holda hisoblang (kombinatsiyalashgan ish haqi).

3. Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay-mukofat tizimi bo‘yicha mehnat haqini hisoblang. Bunda xodimga vaqtbay ish haqiga qo‘shimcha ravishda tejab qolgan vaqt uchun soatbaydan 50% miqdordagi stavkasi bo‘yicha mukofat hisoblanadi.

	A	V	S	D
Haqiqatda ishlangan soatlar	38	36	40	34
Soatbay stavkasi, p.b.	3	2	2,5	3,6
Ishlab chiqarilgan birlik:				
Detal N	42	120	-	120
Detal K	72	76	-	270
Detal M	92	-	50	-

Vaqt me’yori (mahsulot birligi):
N - 6 min, K – 9 min, M – 15 min.
Ishbay tizimida mehnatga haq har bir minut 0,05 p.b. /min hisobidan to‘lanadi.
Boshqaruv hisobi -1, Tashkent-2004 y., 28-bet

2. Kompaniya hozirgi kunda mehnatga haq to‘lashning vaqtbay tizimini qo‘llamoqda va rag‘batlantirishning muqobil variantlarini qo‘llashni joriy qilish masalasini ko‘rib chiqmoqda.

Keltirilgan ma’lumotlar asosida har bir ishchiga quyidagi shartlardan kelib chiqib mehnat haqini hisoblang:

1. Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay tizimi asosida ish haqini hisoblashni amalga oshiring.

2. Mehnatga haq to‘lashning ishbay tizimi bo‘yicha mehnat haqini xodimning vaqtbay ish haqidagi 80 % kafolatlangan ish haqini hisobga olgan holda hisoblang (kombinatsiyalashgan ish haqi).

3. Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay-mukofat tizimi bo‘yicha mehnat haqini hisoblang. Bunda xodimga vaqtbay ish haqiga qo‘shimcha ravishda tejab qolgan vaqt uchun soatbaydan 75 % miqdordagi stavkasi bo‘yicha mukofat hisoblanadi.

	Y	Z
Haqiqatda ishlangan soatlar	44	40
Soatbay stavkasi, p.b.	3.5	4,5
Ishlab chiqilgan birlik	480	390

Bir birlik mahsulot vaqt me’yori – 7 min.
Ishbay tizimida mehnatga haq har bir minut 0,05 p.b. /min hisobidan to‘lanadi.

3. Kompaniya haftasiga 6000 texnik komponentlarni ishlab chiqaradi. Kompaniyada 6 ta asosiy ishlab chiqarish ishchilari ishlaydi. Ish haftasining davomiyligi 40 soat, asosiy ish haqi 80 p.b./soat. Har bir xodim ishni mustaqil bajaradi.

Kompaniyaning ish haqi vaqtbay tizimi bo‘yicha amalga oshiriladi.
Kompaniyaga yangi mehnatga haq to‘lashning tizimi joriy qilinmoqda.
Unga muvofiq har bir xodim quyidagi asoslarda ish haqi oladi:

Haftadagi birinchi 800 komponenti – birligiga 3.2 p.b.
Keyingi 200 komponent – birligiga 3.4 p.b.
Har bir keyingi komponent – 3.6 p.b.

7-mavzu.Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini yuritish

Mehnatga haq to‘lashning yangi tizimida mahsulot ishlab chiqarish haftasiga 6600 komponentga chiqishi rejalashtirilmoqda.

Aniqlash talab etiladi:

Xodimga vaqtbay asosida ish haqi hisoblang. Mahsulot birligining mehnat haqi xarajatlari elementlari bo‘yicha tannarxini hisoblang.

1. Mehnatga haq to‘lashning yangi tizimi asosida xodimga mehnat haqi hisoblang. Bunda hamma xodim bir xil darajada ishlaydi deb qabul qilish

mumkin. Mehnatga haq to‘lashning yangi tizimi joriy qilingandan so‘ng mahsulot birligining mehnat haqi xarajatlari bo‘yicha tannarxini hisoblang.

4. Korxonada o‘rtacha 42 ishchi ishlaydi. Joriy davrda 7 kishi ishdan bo‘shadi va yangi xodimlar bilan almashtirildi. Kompaniyada barcha ishlab chiqarish ishchilariga asosiy soatbay ish haqi 92 p.b. Bu normativ stavka hisoblanadi. Bunga qo‘shimcha ravishda korxonada mukofatli to‘lov tizimi ham amal qiladi. Unga muvofiq samaradorlik ko‘rsatkichi 100%dan oshgan har bir protsentining yarmi miqdorida mukofat hisoblanib asosiy soatbay stavkasiga qo‘shiladi. Masalan, agar samadorlik ko‘rsatkichi 110% bo‘lsa, demak asosiy soatbay stakasiga belgilangan stavkaning 5 % (10/2) miqdorida qo‘shiladi, ya’ni bu 4,6 p.bni tashkil etadi (92 p.b. 5%). U holda soatbay ish haqi stavkasi 96,6 p.b. bo‘ladi (92 + 4,6).

Ushbu davrda korxona 114286 bir xil birlikdagi mahsulotni 4900 soat sarflab ishlab chiqdi. Normativ soatda 22 birlik mahsulot ishlab chiqishi talab etiladi.

Talab etiladi:

1. Ishchi kuchining ko‘nimsizlik koeffitsientini hisoblang
2. Ish haqining mukofatni hisobga olgan holda soatbay stavkasini aniqlang
3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari bo‘yicha normativdan farqini aniqlang.

8-mavzu.Moddiy xarajatlar hisobi

Masalalar:

1. Marston company bo‘yicha kelgusi yilda quyidagi ma’lumotlar rejalashtirilgan.

Budjetlashtirilgan xarajatlar:		
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat		$406,780
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material		400,000
Ishlab chiqarish ustama xarajatlari:		
Bilvosita mehnat	$160,000	
Bilvosita material	52,000	
Inventarlar	36,000	
Sug‘urta	45,000	
Xodimlarga moddiy yordam	98,500	
Amortizatsiya	88,500	480,000
Jami		$1,286,780

Boshqa budjetlashtirilgan ma’lumotlar:

Mashina soatlar	75,000 mash.soat
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari	60,000 meh. soat
Mahsulot birligi	30,000 birlik

Talab etiladi: Quyidagi taqsimlash bazalariga asosan ustama xarajatlarni taqsimlash budjetlashtirilgan stavkasini aniqlash:

a) To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari

b) Mashina soatlari
c) Mahsulot birligi
d) To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari
e) To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari
f) Praym tannarx

2. Palermo Corporation bo‘yicha kelgusi yilga ma’lumotlar rejalashtirilgan:

Ko‘rsatkichlar	A	B
Budjetlashtirilgan birlik miqdori	4,000	5,000
Mahsulot birligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari	20	24
Bir soat uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari	$7.00	$7.00
Mahsulot birligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	$63.00	$93.60
Ustama xarajatlar	**$540,000**	

Talab etiladi: Quyidagi bazalar asosida mahsulot birligiga nisbatan ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi
a) To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari
b) To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari

3. Treblinka Manufacturing Company da uchta bo‘lim faoliyat yuritadi: servis, ishlab chiqarish va qadoqlash. Quyida yakunlangan yil uchun ma’lumotlar berilgan.

Ko‘rsatkichlar	Servis	Ishlab chiqarish	Qadoqlash
Ishchilarning soni	9	36	15
Aktivlar qiymati	$40.000	$560.000	$120.000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari		80,000	30,000
Mahsulot birligi		212,000	188,000
Egallab turgan maydoni	2,000	18,000	5,000

Xarajatlar elementlari	Ustama xarajat	Taqsimlash bazasi
Supervayzorlar	$ 30,000	Ishchilar soni
Ma’muriyat	240,000	Ishchilar soni
Amortizatsiya	90,000	Aktivlar qiymati
Kommunal xizmatlar	45,000	Egallab turgan maydoni

Servis bo‘limining xarajatlari ikkita ishlab chiqarish korxonasiga mahsulot birligi bazasi asosida taqsimlanadi.

Talab qilinadi:

1. Xarajatlarni bo‘limlarga taqsimlash hamda xizmat ko‘rsatuvchi bo‘lim xarajatlarini ishlab chiqaruvchi bo‘limlarga taqsimlashni aks ettiruvchi jadvalni tuzing.

9-mavzu.Mehnat xarajatlari hisobi

4. 2008 yili davomida A kompaniyasi kitob muqovasi uchun material ishlab chiqaradi. Bu yagona ishlab chiqarilgan mahsulot bo‘lib buyurtma asosida bajariladi. Korxonada ikkita bo‘lim faoliyat ko‘rsatadi – umumiy servis va ishlab chiqarish. 2008 yil uchun ikkita bo‘limga oid bo‘lgan ma’lumotlar quyida keltirilgan:

Xarajatlar elementlari	Umumiy servis	Ishlab chiqarish
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat		$25,000
Bilvosita mehnat	$3,000	6,000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	-	18,000
Bilvosita material	2,000	7,000
Maishiy xizmat	1,000	3,000
Amortizatsiya	1,500	4,500

Ustama xarajatlar mahsulotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlarining 120% sifatida olib borilgan. Ortiqcha hisobdan chiqarilgan yoki tejalgan ustama xarajatlar realizatsiya qilingan mahsulot tannarxiga olib boriladi.

Talab etiladi:

1. Ustama xarajatlari schetini yopish uchun ishlab chiqarish, haqiqatda va taqsimlangan ustama xarajatlariga buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.

5. B kompaniyasida ikkita xizmat ko‘rsatuvchi va ikkita ishlab chiqarish bo‘limlari faoliyat ko‘rsatadi. 31 mart bilan yakunlanadigan kvartal uchun ko‘yidagi budjetlashtirilgan ma’lumotlar berilgan.

	Servis		Ishlab chiqarish	
	Kompyuter	Tex. xizmat	Asosiy sex	Yig‘ma sex
Budjetlashtirilgan mashina soatlari		2,400	20,000	6,000
Budjetlashtirilgan mehnat soatlari	6,800	8,350	38,400	30,000
Budjetlashtirilgan texnik xizmat soatlari	470	800	3,750	2,500
Kompyuter tarmog‘ining budjetlashtirilgan vaqti	2,600	6,000	12,240	5,760
Jami budjetlashtirilgan ustama xarajatlar	$31,250	$30,000	$60,750	$158,000

Ustama xarajatlar asosiy sexga mashina soatlari va yig‘ma sexda esa mehnat soatlari asosida mahsulot tannarxiga olib boriladi. Kompyuter bo‘limining xarajatlari ishlab chiqarish bo‘limlariga kompyuter tarmoqlarining budjetlashtirilgan vaqti asosida texnik xizmat ko‘rsatish bo‘limining xarajatlari esa budjetlashtirilgan texnik xizmat ko‘rsatish soatlari asosida taqsimlanadi.

Talab etiladi:

1. Xizmat ko‘rsatish bo‘limlar xarajatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib borish asosida ustama xarajatlarni ikkita ishlab chiqarish bo‘limiga taqsimlash stavkalarini aniqlang.

6. Kompyuter va uning jihozlarini ishlab chiqaradigan firmada korporativ bo‘limlar bir-biriga va operatsion bo‘limlarga xizmat ko‘rsatadi. Servis xizmati bo‘limlari xarajatlari operatsion bo‘limlarga ikki darajali metod asosida taqsimlanadi. Somputer Horizons firmasi ikkita markaziy servis bo‘limi (Huquqiy va personal) bir-biriga va ikkita ishlab chiqarish bo‘limi (Mikrokompyuter bo‘limi MCD va Periferal asbob-uskunalar bo‘limi PED)ga xizmat ko‘rsatadi. Ularga oid bo‘lgan ma’lumotlar quyida keltirilgan:

Ko‘rsatkichlar	Budjetlashtirilgan quvvati				
	Huquqiy	Personal	MCD	PED	Jami
Huquqiy – soat	-	250	1,500	750	2,500
Proporsiyasi	-	0,10	0,60	0,30	1,00
Personal - soat	2,500	-	22,500	25,000	50,000
Proporsiyasi	0,05		0,45	0,50	1,00

Haqiqatda erishilgan natijalar:

Ko‘rsatkichlar	Haqqiqatda foydalanilgan				
	Huquqiy	Personal	MCD	PED	Jami
Huquqiy – soat	-	400	400	1,200	2,000
Proporsiyasi	-	0,20	0,20	0,60	1,00
Personal - soat	2,000	-	26,600	11,400	40,000
Proporsiyasi	0,05		0,665	0,285	1,00

Haqiqiy xarajatlar:

Bo‘lim	Doimiy	O‘zgaruvchan
Huquqiy bo‘lim	$360,000	$200,000

Personal bo‘limi	$475,000	$600,000

Doimiy xarajatlar budjetlashtirilgan quvvat bazasi, o‘zgaruvchan xarajatlar haqiqiy natijalar asosida taqsimlanadi.

Talab etiladi:

1. Xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlarning xarajatlarini MCD va PED bo‘limlariga (a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri metod (b) qadamba-qadam (c) chiziqli tenglamalar usullari yordamida taqsimlang.

7. A kompaniyasi ishlab chiqarish ustama xarajatlar budjetini tayyorlash jarayonida ustama xarajatlarni mahsulotlarga taqsimlashni amalga oshiradi. Quyida ma’lumotlar keltirilgan:

Ma’lumotlar	Jami	Mashina A sexi	Mashina B sexi	Yig‘ma sex	Oshxo-na	Tex. Xiz-mat
Bilvosita mehnat $	78,500	8,586	9,190	15,674	29,600	15,460
Bilvosita material	16,900	6,400	8,700	1,200	600	
Ijara	16,700					
Bino sug‘artasi	2,400					
Elektro-energiyasi	8,600					
Isitish va yoritish	3,400					
Asbob-usunalar eskirishi	40,200					
Jami						
Maydon, m2	45,000					
Asbob-uskunalar qiymati	402,000					
Elektr-energiya ishlatilish tex xizmat, %	100					
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari, meh/soat	35,000					
Mashina soati, mash/soat	25,200					

Ishlab chiqarishning haqiqiy natijalari quyidagilardan iborat:

	A mashina sexi	***B mashina sexi***	***Yig‘ma sex***
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat, meh/soat	8,200	6,500	21,900
Mashina soat, mash/soat	7,300	18,700	

To‘plam ustama xarajatlar $176,533

Aniqlash talab etiladi:

1) Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini servis va ishlab chiqaruvchi bo‘limlarga taqsimlang.

2) To‘g‘ridan-to‘g‘ri usuldan foydalanib servis bo‘limi xarajatlarini ishlab chiqaruvchi bo‘limlarga qayta taqsimlang.

3) Har bir ishlab chiqaruvchi bo‘lim uchun ustama xarajatlarni taqsimlash stavkalarini aniqlang.
4) Ustama ishlab chiqarish xarajatlari schetini oching va unga hisob-kitoblar asosida yozuvlarni o‘tkazing. (Upravlencheskiy uchet 1, 86-bet)

8. «Ecsony» kompaniyasi X va U turdagi mahsulotni ishlab chiqaradi va sotadi. Ushbu turdagi mahsulotlarning bahosi mos ravishda $1,000 va $3,000ni tashkil etadi. Har bir mahsulot A va B ishlab chiqarish jarayonidan o‘tadi. A jarayonida X mahsulot birligiga - 2 soat, U mahsulot birligiga – 4 soat, B jarayonida esa X mahsulot birligiga – 1 soat, U mahsulot birligiga – 3 soat sarflanadi. A jarayonida 1 soatiga $40, B jarayonida 1 soatiga $50 to‘lanadi.

Ikki turdagi mahsulot ham K, L va M materiallaridan foydalanadi, ularning mahsulot birligiga sarflanishi quyidagicha:

	Bahosi	***Mahsulot birligiga sarflanishi***	
		X mahsulot	***U mahsulot***
K material, kg	$10	37	93
L material, birlik	2	10	240
M material, m2	2	20	75

Sotuvchilarga sotish hajmidan 5% ustama to‘lanadi. Upakovka materiallari: X mahsulot uchun $10 va U mahsulot uchun 40$. Tovarlar xaridorlarga yetkazib berish xarajatlari: X mahsulot uchun $20, U mahsulot uchun $50.:

Boshqa yillik xarajatlar:

Bilvosita mehnat	A jarayon	$250,000
	B jarayon	400,000
	Ombor	200,000
	Oshxona	100,000
		950,000
Bilvosita material	A jarayon	$515,100
	B jarayon	585,050
	Ombor	13,100
	Oshxona	84,250
		1,197,500
Ijara haqi va poshlina		4,500,000
Mashina va asbob-uskunalar amortizatsiyasi		1,400,000
Elektroenergiya		500,000
Binoni pojardan sug‘urtasi		37,500
Mehnatga haq to‘lashdan 2%lik kompensatsiya		120,000
Isitish va yoritish		45,000
Reklama		900,000

X mahsulot birligidan 10$ litsenzion to‘lovlar ushlanib qolinadi. Bir yilda X mahsulotdan 15,000 birlik, U mahsulotdan 10,000 birlik sotilgan.
Quyidagi axborotlar berilgan:

Xarajatlar markazi	***Maydon, m2***	***Mashina va asbob – uskunalar-ning balans qiymati***	***Mashina uskunalari, %***	***To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari***	***Ishchi-lar soni***	***Materiallarga nakladnoylar soni***
A jarayon	100,000	10,000,000	80	70,000	40	10,000
B jarayon	50,000	2,000,000	20	45,000	30	5,000
Ombor	100,000	1,500,000			10	
Oshxona	50,000	500,000			5	
	300,000	***14,000,000***	***100***	***115,000***	***85***	***15,000***

Talab qilinadi:
1. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash bazalarini ko‘rsatgan holda servis va ishlab chiqarish bo‘limlariga (A va B jarayon) taqsimlang.
2. Servis bo‘limlari ustama xarajatlarini ishlab chiqarish bo‘limlariga qayta taqsimlang va A va B jarayon uchun talluqli ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasini aniqlang.
3. Har bir turdagi mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxini va realizatsiya qilinadigan mahsulot tannarxini hisoblang.
4. Har bir turdagi mahsulot birligi foydasi yoki zararini hisoblang.

10-mavzu.Boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Masalalar.

1. Kompaniyaning 31 yanvar oyi bo‘yicha schetlari quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘lgan:



Zarur axborotlar:

1. Ustama xarajatlarni taqsimlashning budjet stavkasi har dekabrda aniqlanib kelgusi yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari asosida oyma–oy taqsimlanadi. 2009 yil uchun budjetlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari 400,000 p.b. va fabrika ustamasi 600,000 p.b. qilib belgilangan.
2. Faqat 31 yanvar oyida №419 buyurtma bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat xarajatlari 2000 p.b. (125 soat to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat) va to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari 8,000 p.b.ni tashkil etgan.
3. Yanvar oyida ishlab chiqarishga chiqarilgan material qiymati 90,000 p.b. bo‘lgan.
4. Yanvar oyida tayyorlangan mahsulotlar tannarxi 180,000 p.b.ni tashkil etgan.
5. 31 yanvardagi materiallarning balansi 20,000 p.b.da qolgan.
6. 31 yanvar holati bo‘yicha tayyor mahsulotlar balansi 15,000 p.b.ni tashkil etgan.
7. Fabrikaning barcha ishchilari bir xil stavkadagi maoshda ishlagan. Yanvar oyida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari 2,500 ni tashkil etgan. Boshqa ishchilar va supervayzorlarga 10,000 p.b. ish haqi hisoblangan.
8. Fabrikada belgilangan kunlarda 52,000 p.b. miqdorida ish haqi to‘langan.
9. Haqiqiy ustama xarajatlariga oid bo‘lgan yozuvlar o‘z vaqtida amalga oshirilgan.

Talab etiladi:

a) Yanvar oyida xarid qilingan materiallar qiymati
b) Yanvar oyida realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi
c) Yanvar oyida hisoblangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ish haqi xarajatlari
d) Yanvar oyida taqsimlangan ustama xarajatlari
e) 31.12. 2008 holatda «Ish haqi bo‘yicha majburiyatlar» scheti bo‘yicha balans
f) 31.12.2008 holat bo‘yicha «Ishlab chiqarish jarayoni nazorati» scheti bo‘yicha balans
g) 31.01.2009 holat bo‘yicha «Ishlab chiqarish nazorati» scheti bo‘yicha balans
h) Yanvar oyida taqsimlanmay qolgan yoki ortiqcha taqsimlangan ustama xarajatlari summasini aniqlang.

2-masala. Lee Company si ishlab chiqarish jarayonida ish buyurtma tannarxi tizimini qo‘llaydi. Mart oyida quyidagi operatsiyalar amalga oshirilgan:

1. Ishlab chiqarishga chiqarilgan material qiymati, 98,000 p.b.
2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ish haqi, 50,000 p.b.
3. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotga mashina soatga 30 p.b. hisobidan taqsimlanadi. Hisobot davrida 2000 mashina soat ishlangan.

4. Jami hisoblangan ustama ishlab chiqarish xarajatlari oy davomida 64,000 p.b.ni tashkil etmoqda.

5. Oy davomida ish buyurtmasi tannarxi 210,000 p.b. ga hisoblandi.

6. Tannarxi 200,000 p.b. bo‘lgan ish buyurtma bo‘yicha xaridorga schet-faktura yozildi. Yalpi daromad ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan 20% qilib belgilangan.

Talab etiladi:

Ishlab chiqarish jarayonida boshlang‘ich qoldiq 40,000 p.b. Yuqoridagi axborotlarga asoslanib jurnal yozuvlarini amalga oshiring. Ishlab chiqarish jarayoni nazorati schetida oxirgi qoldiqni aniqlang.

3-masala. Qurilish tashkiloti tomonidan olib borilayotgan qurilish ishlari 15 oy oldin boshlangan bo‘lib hozirgacha yakunlangan emas. Yakunlanayotgan yil uchun ushbu kontrakt bo‘yicha quyidagi axborotlar tayyorlangan (ming p.b.)

Kontrakt narxi	2,100	
Hisobot yilining oxirida topshirilgan ishlar qiymati	1,840	
Topshirilmagan ishlar qiymati		35
Amalga oshirilgan xarajatlar:		
Boshlang‘ich saldo:		
- tugallangan ishlar tannarxi		350
- qurilish maydonidagi materiallar		10
Joriy yilda:		
- qurilish maydoniga keltirilgan materiallar		512
- ish haqi		487
- asbob-uskunalar kirrasi		96
- boshqa xarajatlar		74
Oxirgi saldo:		
- qurilish maydonidagi materiallar		18

Qurilish maydoniga keltirilgan materiallar kontrakt schetiga yoziladi. Bundan tashqari kontrakt bo‘yicha haqiqiy ishlatilgan materiallarning hisobi yuritiladi. Davriy ravishda zahiralarning holati tekshirilib chiqiladi va hujjatlar bilan haqiqiy miqdorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rtasidagi chetlanishlar Kontrakt Materiallar Hisobi Ma’lumotlari Farqlari schetiga olib boriladi . Chetlanishlar har bir kontraktda mavjud bo‘lib hozirgi paytda ular buyurtma qilingan materiallar hajmidan 0,4%ni tashkil etadi. Hisobot yilining oxirida zahiralar holati bo‘yicha o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida 4,000 p.b. kamomad aniqlangan.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda kontrakt bo‘yicha to‘g‘ri xarajatlarga umumiy topshirilgan ishlar qiymatidan 5% miqdorda ustama xarajatlar olib borilgan. Hisobot yilining oxirida tugallangan ishlar tannarxiga 13,000 p.b. miqdorida ustama xarajatlar kiritilgan.

Baholash natijalariga ko‘ra kontraktni tugallash uchun amalga oshiriladigan xarajatlar 215,000 p.b. ni tashkil etmoqda. Bu baholashga yakunlanayotgan yil so‘ngida qurilish maydonida mavjud bo‘lgan materiallar qiymati hamda defektlarni tuzatish qiymati kiradi.

Talab etiladi:

a) Kontraktlar bo‘yicha xarajatlarni kalkulyatsiya qilishning xususiyatlarini aytib bering.
b) Ushbu kontraktning foydaligini aniqlang va mo‘ljaldagi foyda summasini hisoblang. Buning uchun xarajatlarning kalkulyatsiyasini keltiring.
c) Agar kontrakt narxi 3,500,000 bo‘lgan taqdirda b) punktda keltirilgan xulosalar va tavsiyalar bo‘yicha qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi.

11-mavzu.Boshqaruv hisobida zararsizlik nuqtasini hisoblash usullari

1-masala. Kompaniyada jarayonli kalkulyatsiyada bosqichli qadamlar asosida mahsulot tannarxi hisoblanadi. Quyida plastik kompaniyasining termoquyish jarayoni bo‘yicha iyun oyida ma’lumotlar keltirilgan:

Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich 50000 birlik, 80 % ga qayta ishlash qiymati uchun tayyor.

Joriy davr davomida oldingi jarayondan o‘tkazilgan birlik 200,000

Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birlik 210,000

Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida, 40 % ga qayta ishlash qiymati uchun tayyor.

Qo‘shimcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar jarayonning boshida qo‘shiladi.

Talab etiladi:

Joriy davr uchun ekvivalent birlikni hisoblang: (1) o‘rtacha salmoqli usul; va (2) FIFO usuli bo‘yicha

2-masala. O‘rtacha salmoqli usulda ekvivalent birlik. Quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

Birliklar harakati	Jismoniy birliklar
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	20000
Joriy davrda kirim qilingan	70000
Hisobga olish uchun birlik	90000
Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan	?
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida	5000
Hisobga olingan birlik	90000

Mahsulotlarning tayyorlik darajasi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri materail, 60%; qayta ishlash qiymati, 30%

Mahsulotlarning tayyorlik darajasi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri materail, 80%; qayta ishlash qiymati, 60%

Talab etiladi:

O‘rtacha salmoqli usulda to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar va qayta ishlash xarajatlari uchun ekvivalent birligini aniqlang. Natijalarni jadvalda rasmiylashtiring. Jadvalning birinchi ustuniga jismoniy birliklarni aks ettiring.

3-masala. Gagliono Company si A bo‘limiga oid bo‘lgan jismoniy birliklarning Aprel oyidagi holatiga oid ma’lumotlarning hisob-kitobi quyidagicha bo‘lgan:

Yakunlangan birliklar:

1 apreldagi qoldiqni ishlov berishdan	10000
Aprel oyidagi mahsulotdan	30000
	40000

To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar jarayonning boshida qo‘shiladi. 30 aprelda ishlab chiqarish jarayonida 8000 birlik qolgan. 1 apreldagi ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlash xarajatlari bo‘yicha 80%ga yakunlangan hamda 30 aprelda ishlab chiqarish jarayoni oxirida qayta ishlash xarajatlari uchun 60%ga yakunlangan.

Talab etiladi:

FIFO usulida aprel oyi uchun mahsulotlarning ekvivalent birligi qanchaga teng bo‘ladi. Quyidagi javoblardan birini tanlang:

	To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	Qayta ishlash qiymati
a	38.000	38.000
b	48.000	44.800
c	38.000	36.800
d	48.000	48.000

4-masala. FIFO usulidan foydalanib ushbu jadvaldagi so‘roq belgisi qo‘yilgan katakchalardagi ko‘rsatkichlarni aniqlang.

Mahsulotlarning harakati	Jismoniy birlik	Ekvivalent birlik	
		To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	Qayta ishlash tannarxi
Hisobga olish uchun birlik: Ishlab chiqarish jarayoni, 31 Mart Aprel oyida kirim qilingan Hisobga olish uchun	 12000		

	? 67000		
Hisobga olingan birlik: Joriy davr davomida yakunlangan va tashqariga chiqarilgan: Boshlang‘ich zahiralardan Kirim qilingan va yakunlangan Ishlab chiqarish jarayoni, 30 aprel Hisobga olingan	 12000 47000 ? 67000	 ? ? ?	 ? ? ?
Joriy davrda bajarilgan		?	?

To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar 40%, qayta ishlash qiymati 30%
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material 50%, qayta ishlash qiymati 20%

5-masala. Kompaniya faoliyatiga oid may oyida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

Ko‘rsatkichlar	Jismoniy birliklar
May oyida kirim qilingan	50000
May oyida yakunlangan	46000
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida	12000
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	8000

Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ichida to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallarda 90%ga, qayta ishlash qiymatida 40%ga yakunlangan. Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallarda 60%, qayta ishlash qiymatida 30%ga yakunlangan.

Talab etiladi:

Ekvivalent birliklar jadvalini tayyorlash (1) Sanaga bajarilgan ishlar (o‘rtacha salmoqli usulda), (2) May oyi davomida sanaga bajarilgan ishlar (FIFO)

6-masala. Montez Enterprises kompaniyasi faoliyatiga doir quyidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Mahsulot harakati	Jismoniy birliklar
Hisobga olish uchun birlik: Ishlab chiqarish jarayoni, 31 yanvar Fevral oyida oldingi jarayondan o‘tkazilgan ***Jami hisobga olish uchun***	 10000 80000 **90000**
Hisobga olingan birlik: Fevral oyida davomida yakunlangan va tashqariga chiqarilgan: Boshlang‘ich zahiralardan	

Fevral oyida kirim qilingan va yakunlangan	10000
Ishlab chiqarish jarayoni, 28 fevral	65000
Jami hisobga olingan birlik	15000
	90000

Fevral oyida amalga oshirilgan xarajatlar:
to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar 20%, qayta ishlash xarajatlari 30%
to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar 50%, qayta ishlash xarajatlari 40%

Talab etiladi:

Oldingi jarayondan o‘tkazilgan mahsulot, to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar va qayta ishlash qiymati uchun ekvivalent birlik miqdorini aniqlang. FIFO usulidan foydalaning.

7-masala. Colling Company si 1 aprel holatida V bo‘limida ishlab chiqarish jarayonida 6000 birlikka ega. Bu bo‘lim ikkinchi hamda oxiridan oldingi jarayon hisoblanadi. Ushbu 6000 birlikning tannarxi A bo‘limdan o‘tkazilgan tannarxi 12000 p.b., V bo‘limga qo‘shilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar 2500 p.b. va V bo‘limda amalga oshirilgan qayta ishlash xarajatlari 2000 p.b. ga teng. Materiallar V bo‘limdagi jarayonning boshida qo‘shiladi. 1 aprelda qayta ishlash 50 %ga yakunlangan. Aprel oyi davomida 14000 birlik mahsulot A bo‘limdan tannarxi 27000 p.b. ga o‘tkazildi. V bo‘limda material xarajatlar 3500 p.b., qayta ishlash xarajatlari 3000 p.b. amalga oshirilgan. 30 aprelda V bo‘limida ishlab chiqarishda 5000 birlik mavjud bo‘lgan, qaysiki ular 60% qayta ishlash bo‘yicha tayyor holda bo‘lgan. Ushbu 5000 birlikning tannarxi A bo‘limdan qabul qilingani 10500 p.b., V bo‘limda qo‘shilgan 1800 material tannarxi va V bo‘limda amalga oshirilgan 800 p.b. qayta ishlash tannarxidan tashkil topadi.

Talab qilinadi:

Har bir talab qilingan savolga eng to‘g‘ri javobni tanlang:

1. Aprel oyida o‘rtacha salmoqli usuldan foydalanib ekvivalent birlik miqdorini xarajat elementlari bo‘yicha aniqlang?

	A bo‘limdan o‘tkazilgan	***To‘g‘ridan-to‘g‘ri material***	***Qayta ishlash qiymati***
A	15000	15000	15000
B	19000	19000	20000
C	20000	20000	18000
D	25000	25000	20000

2. O‘rtacha salmoqli usulda qayta ishlash xarajatlari moddasi uchun ekvivalent birligi tannarxini aniqlang? (a) 4200 p.b./15000 birlik, (b) 5000 p.b. / 18000 birlik, (c) 5800 p.b. / 18000 birlik, (d) 5800 p.b. /20000.

12-mavzu.Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish

1-masala. Frito-Lay, Inc., oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi, jumladan kartoshkali chips va makkajo‘xorili chips. Makkajo‘xorili chips to‘rtta bosqichdan iborat, qaysiki ularni alohida jarayon sifatida qarash mumkin: tozalash, qorishtirish, pishirish hamda quritish va qadoqlash. Buxgalteriya yozuvlariga muvofiq hafta davomida Frito-Lay ning quritish va qadoqlash bo‘limiga oid quyidagi axborotlar keltirilgan:

Keys:

Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich 5000 keys, qayta ishlash tannarxi uchun 80% ga yakunlangan

Pishirish bo‘limidan o‘tkazilgan birlik 20000

Yakunlangan birlik 21000

Ishlab chiqarish jarayoni, oxirgi, 4000 birlik, qayta ishlash tannarix uchun 40%ga yakunlangan.

Tannarx:

Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich (29000 p.b. oldingi jarayondan o‘tkazilgan tannarx, 9060 p.b. qayta ishlash tannarxi) 38060 p.b.

Pishirish bo‘limidan o‘tkazilgan tannarx 96000 p.b.

Qo‘shilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar (jarayonning oxirida qo‘shilgan) 25200 p.b., qo‘shilgan qayta ishlash qiymati 38400 p.b., jami hisobga olinadigan tannarx 197.660 p.b.

Talab etiladi:

1. Oldingi jarayondan o‘tkazilgan tannarx, to‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar va qayta ishlash tannarxi elementlari bo‘yicha ekvivalent birlikni hisoblang: (a) o‘rtacha salmoqli usul va (b) FIFO usuli
2. Quritish va qadoqlash bo‘limi o‘rtacha salmoqli usuldan foydalangan holda ishlab chiqarish tannarxi to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlang.
3. Quritish va qadoqlash bo‘limi FIFO usulidan foydalangan holda mahsulotning haftalik tannarxidan kelib chiqib mahsulot birligining tannarxini hisoblang.

2-masala. Quyida Mabling Manufacturing Corporation bo‘yicha ishlab chiqarish tannarxiga oid axborotlar keltirilgan. Hisobotning hisobga olingan tannarx qismi berilgan ma’lumotlar asosida to‘ldiriladi. Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida materiallar va 50 foizga yakunlangan qayta ishlashdan tarkib topgan.

Mabling Manufacturing Corporation
Ishlab chiqarish tannarxi hisoboti
Dekabr

Hisobga olish uchun birlik		Hisobga olingan birlik	
Ishlab chiqarish jarayoni boshlang‘ich	3000	Boshqa jarayonga o‘tkazilgan birlik	10000
Ushbu davrda oldingi	9000	Ishlab chiqarish jarayoni,	2000

jarayondan o‘tkazilgan		oxirgi	
Jami hisobga olish uchun birlik	***12000***	***Jami hisobga olingan birlik***	***12000***

Hisobga olish uchun tannarx	Tannarx	Ekvivalent birlik	Birlik tannarxi
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material:			
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	$6000	3000	$2.00
Joriy davrda	18720	9000	2.08
Jami	***24720***	***12000***	***2.06***
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat:			
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	4220	2000	2.11
Joriy davrda	19980	9000	2.22
Jami	***24200***	***11000***	***2.20***
Ustama ishlab chiqarish xarajatlari:			
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich			
Joriy davr	8440	2000	4.22
Jami	39960	9000	4.44
Jami hisobga olish uchun tannarx	48400	11000	4.40
	$97320		***$8.66***

Talab etiladi:

Tannarx to‘g‘risidagi hisobotning hisobga olingan tannarx bo‘limini to‘ldiring: 1)O‘rtacha salmoqli usuldan foydalaning; 2) FIFO usulidan foydalaning.

3-masala. Fainer Corporation ishlab chiqarish tannarxida FIFO usulidan foydalanadi. Jarayon markazlaridan biri tugallash jarayoni hisoblanadi. Iyul oyi davomida ishlab chiqarish faoliyati va tannarxga oid quyidagi axborotlar berilgan.

Tugallash bo‘limi	***Iyul oyi***
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich	2000 birlik
Materiallarning tugallanganlik foizi	100%
Qayta ishlashning tugallanganlik foizi	25%
Boshlang‘ich zahiralar tannarxi:	
Oldingi bo‘limdan	$ 7000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar	8000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat	3500
Ustama ishlab chiqarish	1000
Ushbu oyda oldingi jarayondan o‘tkazilgan birlik	9000 birlik
Joriy davr tannarxi:	
Oldingi jarayondan o‘tkazilgan	$33750
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	35100
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat	62080

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari 16975
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida 4000 birlik
Materiallarning tugallanganlik foizi 100%
Qayta ishlashning tugallanganlik foizi 80%

4-masala. “Shell” sanoat yog‘lash materiali ikkita jarayonda bir qancha turdagi kimyoviy xom-ashyolarni qayta ishlash natijasida olinadi. 1-jarayonning mahsuloti 2-jarayonga o‘tkaziladi, qaysiki bu jarayonda boshqa kimyoviy elementlar bilan aralashtiriladi. Davr uchun ishlab chiqarish jarayoni xarajatlari quyidagini tashkil etadi:

1-Jarayon

Materiallar 3000 kg 1 kg uchun 0.25 $
Mehnat xarajatlari $120
Jarayon davomida texnikaning ish vaqti 12 soat, 1 s. uchun $20

2-Jarayon

Materiallar 2000 kg 1 kg uchun $84
Mehnat xarajatlari $84
Jarayon davomida texnikaning ish vaqti 20 soat, 1 s. uchun $13.50

Umumiy ustama xarajatlari $357ni tashkil etib jarayonlar tannarxiga mehnat xarajatlari bazasi asosida qo‘shilgan. Normativ chiqishi 1-jarayonda boshlang‘ich massasidan 80%, 2-jarayonda boshlang‘ich massasidan 90%ni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish otxodlari 1-jarayonniki 1 kg $0.20dan, 2-jarayonniki 1 kg. 0.30 $dan sotiladi. Davr uchun mahsulot chiqishi:

1-jarayon 2300 kg.
2-jarayon 4000 kg.

Moddiy ishlab chiqarish zahiralari va ishlab chiqarish jarayonidagi zahiralar hisobot davrining boshida va oxirida 0 ga teng. Barcha otxodlar ko‘rsatilgan narxlarda sotilgan.

Talab etiladi:

Yuqorida qayd qilingan ma’lumotlarni xarajatlar schetlarida aks ettiring.

5-masala. Suyuq konsentratli o‘g‘it ikkita ketma-ket keluvchi jarayonda ishlanadi. Faqat 1-jarayonga kiritiladigan kimyoviy komponentlar sarflanishi spesifikasi may oyi uchun quyida keltirilgan:

1-Jarayon	L	$
Davr boshida zahira	4000	10800
Davr oxirida zahira	8000	24200
Omborxonaga olingan materiallar	20000	61000

Ishlab chiqarish jarayonlariga oid bo‘lgan ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

	1-jarayon	2-jarayon
Asosiy ishlab chiqarish ishchilari mehnati, $	4880	10800
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar, $	4270	-
Ustama xarajatlarni taqsimlash me’yorlari	Asosiy ishlab chiqarish ishchilari mehnati xarajatlariga nisbatan 250%	Asosiy ishlab chiqarish ishchilari mehnati xarajatlariga nisbatan 100%
Mahsulot chiqishi, l	8000	7500
Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich, l	Yo‘q	Yo‘q
Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida, l	5600	Yo‘q
Mahsulotning normada chiqishi	Kiritilgan resurslarga nisbatan 85%	Kiritilgan resurslarga nisbatan 90%
Otxodlarni sotishdan tushgan tushum, $	Yo‘q	Yo‘q

Talab etiladi:

(a) May oyida jarayonlarning natijalarini aks ettiruvchi schetlarni va ishlab chiqarish tannarxi hisobotini tayyorlang.

13-mavzu. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda smeta tuzish

Masalalar.

1-masala. NWC kompaniyasi tabiiy o‘simliklardan tabobat uchun dori-darmonlar ishlab chiqaradi. Buning uchun giyohlar tomirlaridan va har xil shifobaxsh o‘simliklardan xom-ashyo yig‘iladi. Retseptlar bo‘yicha giyohlar aralashtirilib, so‘ngra sekin qaynatiladi. Jarayon natijasida bir nechta mahsulot olinadi. Ajralish nuqtasidan keyin mahsulotlarga ishlov berish davom etadi. Mahsulotlar, ularni ishlab chiqish hajmlari hamda sotish narxlari, ajralish nuqtasidan keyingi tannarx to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyida keltirilgan:

Mahsulot	Ishlab chiqarilgan birlik	Mahsulot birligi sotish narxi	Ajralish nuqtasidan keyingi tannarx
RH-basic	6,000	5.00 p.b.	9,000
RH-extra	13,000	8.00	26,000
RH-prem	1,000	16.00	5,000

Jami qo‘shma tannarx = 50,000 p.b.

Aniqlash talab etiladi:

Mahsulot tannarxi jadvalini tayyorlang:

A) Natural birliklar asosida taqsimlash metodi asosida

B) Yalpi foyda metodi asosida taqsimlash metodi asosida

2-masala. Kompaniya uch xil qo‘shma plastik mahsulot ishlab chiqaradi. Oktabr oyining birinchi haftasida mahsulot ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumotlar quyida keltirilgan:

Mahsulot	***Mahsulot birligi***	***Sotish narxi***	***Ajralish nuqtasidan keyingi tannarx***	***Ajralish nuqtasida sof sotish mumkin bo‘lgan qiymati***
PL –X	21,000	1.60 p.b.	8,400 p.b.	0.70 p.b./1 b.
PL-Y	18,000	2.00	3,600	1.00
PL-Z	11,000	3.00	6,600	1.50
Qo‘shma tannarx = 66,000 p.b.				

Uchta mahsulot uchun mahsulot tannarxi jadvalini tuzing:

A) Qo‘shma tannarxni taqsimlashning jismoniy birliklar metodi asosida

B) Qo‘shma tannarxni taqsimlashning sotish qiymati metodi asosida

S) Ajralish nuqtasida sof sotish mumkin bo‘lgan qiymati metodi asosida.

3-masala. Uchta qo‘shma mahsulotni ishlab chiqarish va sotish hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar qo‘yida keltirilgan:

Mahsultlar	Ishlab chiqarish miqdori	Sotish narxi	Ajralish nuqtasidan keyigi tannarx	Sotish miqdori
N 1	1,500	10 p.b.	3,000	1,200
M 1	2,500	12	-	2,200
Q 1	1,000	15	7,000	600
Qo‘shma tannarx		***35,000 p.b.***		

Har bir mahsulotning tannarxini hisoblang:

A) Ajralish nuqtasida baholangan qiymat

B) Sotish qiymati metodi

S) Jismoniy birliklar metodi

D) Doimiy foiz metodi

4-masala. “Sanshayn oyl” kompaniyasi tozalanmagan o‘simlik yog‘ini xarid qilib oladi. Ushbu yog‘ dastlabki tozalangandan so‘ng ajralish nuqtasida to‘rttta mahsulot olinadi: A, V, S va D. S mahsulot to‘liq ajralish nuqtasidan keyin qayta ishlanmasdan sotiladi. A, V va D ajralish nuqtasidan keyin rafinat qilish ishlovi beriladi, qaysiki undan keyin “A super”, “V super” va “D super” mahsulotlari olinadi. Oxirgi oyda ajralish nuqtasida mahsulot chiqishi qo‘yidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi:

A mahsulot 300 000 litr
V mahsulot 100 000 litr
S mahsulot 50 000 litr
D mahsulot 50 000 litr

Tozalanmagan yog‘ni xarid qilish va qayta ishlash bo‘yicha qo‘shma tannarx 100 000 p.b. ni tashkil etadi. Hisobot davrining boshida va oxirida zahiralar mavjud emas. Dekabr oyida S mahsulot 50 000 p.b.ga sotilgan. Dekabr oyida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

Mahsulot	“Super” mahsulot olish uchun qayta ishlashga doir ajralish nuqtasidan keyin bo‘lingan xarajatlar	Daromad
A super	200 000 p.b.	300 000 p.b.
V super	80 000	100 000
D super	90 000	120 000

“Sanshayn Oyl” kompaniyasida ajralish nuqtasida A, V va D mahsulotni sotish imkoniyati tug‘ildi. Ushbu alternativa mahsulotni sotishdan quyidagicha daromad olishga imkon tug‘diradi.

A mahsulot 50,000 p.b.
B mahsulot 30,000
D mahsulot 70,000

Aniqlash talab etiladi:

1. Dekabr oyida sotilgan har bir mahsulot bo‘yicha yalpi foyda hissa foizini quyidagi usullardan foydalanib hisoblang:
   A. Ajralish nuqtasida sotish qiymati
   B. Jismoniy birliklar metodi
   S. Sof sotish qiymati metodi
2. Kompaniya A, V va D mahsulotni qayta ishlashga doir bo‘lgan boshqa qarorni qabul qilish alternativasi bo‘yicha ishlasa dekabr oyida operatsion foydani ko‘paytirish mumkinmi? Operatsion foydaning taklif etilayotgan o‘zgarishlari ta’sirini ko‘rsating.

(Upravlencheskiy uchet 1, 64 bet)

5-masala. Korporatsiya “Garrison” uch turda mahsulot ishlab chiqaradi: Alfa, Beta va Gamma. Alfa va Gamma qo‘shma mahsulot, Beta ikkilamchi mahsulot hisoblanadi. Yil davomida ishlab chiqarish jarayoni quyidagicha shakllangan:
1. 1-sexda 110000 kg asosiy material qayta ishlanadi va qayta ishlash xarajatlari 120 000 p.b.ni tashkil etadi. Qayta ishlangandan keyin 60% birlik mahsulot 2-sexga o‘tkaziladi, 40% birlik mahsulot esa 3-sexga (endi Gamma) kelib tushadi.
2. Ikkinchi sexda materiallarga qo‘shimcha ishlov beriladi va bunda qo‘shimcha xarajatlar 38 000 p.b.ga teng. Keyin ushbu birlikning 70% (endi Alfa) to‘rtinchi sexga o‘tkaziladi. Qolgan 30 % birlik mahsulot esa ikkilamchi mahsulot Betaga aylanadi, qaysiki har kilogrammi 1.20 p.b.dan sotiladi. Beta mahsulotning sotishga doir bo‘lingan xarajatlari 8 100 p.b.ni tashkil etadi.
3. 4-sexda Alfa mahsulotni qayta ishlash davom etadi. Uning qo‘shimcha xarajatlari 23 660 p.b.ga teng. Ushbu ishlovdan keyin Alfa mahsuloti sotishga tayyor holga keladi. Sotish narxi 1 kg uchun 5.00 p.b. ga teng.
4. 3-sexda Gamma mahsuloti qayta ishlanadi. Buning uchun 165.000 p.b. qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshiradi. Bu sexda ishlab chiqariladigan Gamma mahsulotining sifatli birligidan 10 % normativ yo‘qotish yuzaga keladi. Keyin Gamma sifatli mahsuloti kilogrammi 12.00 p.b. sotiladi.

Aniqlash talab etiladi:

1. Kutiladigan sof sotish qiymati metodi asosida qo‘shma xarajatlarni Alfa va Gamma mahsulotlari bo‘yicha taqsimlash grafigini tayyorlang. Beta mahsulotning kutiladigan sof sotish qiymati 1-sexning kompleks xarajatlarining kamayishiga olib boriladi, qaysiki uning summasi 120.000 p.b ni tashkil etadi.
2. 1-punkdagi yechimning javobidan qat’iy nazar umumiy qo‘shma xarajatlarning 102.000 p.b. tegishli tartibda Alfa mahsulotga taqsimlandi deb tassavur qilamiz. 48.000 kg Alfa va 20.000 kg Beta sotishga tayyor holga keltirilgan deb ham tassavur qilamiz. Moliyaviy faoliyatning natijalariga oid hisobot tayyorlash talab etiladi, qaysiki unda Alfa mahsulotdan olingan yalpi foyda aks ettirilishi lozim. Buning uchun quyidagi ma’lumotlar berilgan:

A. Yil davomida sotishga tayyor bo‘lgan Alfa mahsulotining 80% sotildi. Davr boshida qoldiq mavjud emas.

B. Sotishga tayyor bo‘lgan Beta mahsulotning kutilayotgan sof sotish qiymati A mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan chegirishga olib boriladi. Davr oxirida Alfa mahsuloti zahirasi ishlab chiqarish sof xarajatlariga tayanishi lozim.

14-mavzu.Transfert bahoni shakllantirish

Amaliy misollar:

1-misol. Mahsulotning rejadagi ishlab chiqarish hajmi 5000 birlik. Haqiqatda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 6000 birlik, sotish hajmi 4800 birlik va hisobot davrining oxirida 1200 birlik zahiralar qoldi. Barcha haqiqiy xarajatlar budjetga muvofiq keladi:

Mahsulot sotish narxi 11 p.b.
To‘g‘ridan-to‘g‘ri materiallar 3 p.b.
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat 2 p.b.
UIChX, o‘zgaruvchan qismi 1 p.b.
UIChX, doimiy qismi , oyda 10000 p.b.
Ishlab chiqarish bo‘lmagan xarajatlar, o‘zgaruvchan qismi 1 p.b.
Ishlab chiqarish bo‘lmagan xarajatlar, doimiy qismi 2000 p.b.

Aniqlash talab etiladi:

1. Absorption Costing va Variable Costing uchun mahsulot birligining ishlab chiqarish tannarxini hisoblang.
2. Absorption va Costing Variable tizimlari asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing va natijalar qaysi boshqaruv maqsadlarida foydalaniladi.
3. Ikkita tizim asosida aniqlangan sof daromad o‘rtasidagi farqlarning yuzaga kelish sabablarini asoslang.

2-masala. ***Mullet II Manufacturing Company*** bo‘yicha 1-yildan 4-yilga qadar mahsulot ishlab chiqarish, sotish va tannarxi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

	Yillar			
	1	2	3	4
Sotish hajmi, birlikda	8,000	9,000	13,000	10,000
Mahsulot, birlikda	10,000	12,000	10,000	8,000
Boshlang‘ich qoldiq, birlikda	0	2,000	5,000	2,000
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material, birlikka	$ 6	$ 6	$ 7	$ 8
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat, birlikka nisbatan	3	4	4	5
O‘zgaruvchan UIChX, birlikka nisbatan	2	2	3	4
Doimiy UIChX, summada	50,000	60,000	70,000	80,000
O‘zgaruvchan sotish va ma’muriy xarajatlar, birlikka nisbatan	3	3	4	5
Doimiy sotish va o‘zgaruvchan xarajatlar, summada	30,000	35,000	40,000	50,000
Sotish narxi, birlikka nisbatan	25	27	30	35

Aniqlash talab etiladi:

1. 1-yildan 4-yilgacha Absorption Costing va Variable Costing uchun mahsulot birligining tannarxini aniqlang.
2. Absorption Costing va Variable Costing bo‘yicha moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing.
3. Absorption Costing va Variable Costing 1-yildan 4-yilgacha mahsulot xarajatlari to‘g‘risida jadvalni tuzing:

Yillar	***Mahsulot xarajatlari***		***Jami mahsulot xarajatlari***
	Boshlang‘ich zahiralar	***Joriy yil mahsuloti***	

4. Absorption Costing va Variable Costing bo‘yicha boshlang‘ich va oxirgi zahiralar jadvalini tuzing.
5. Farq sabablarini aniqlash uchun doimiy ustama xarajatlarni o‘z ichiga olgan Boshlang‘ich va Oxirgi zahiralar to‘g‘risidagi jadvalni tuzing.

3-masala. *Maxwella Department Store* uchta bo‘limda bajarilgan ishlar hisobotini tuzishda kontributsiya yondashuvidan foydalanadi. Quyida bir yil uchun ma’lumotlar keltirilgan:

	Qismlar		
	Sport tovarlari	***Ayollar kiyimlari***	***Uy ashyolari***
Sotish	$200,000	$400,000	$800,000
O‘zgaruvchan tannarxi	80,000	160,000	500,000
Kontributsiya marjini	120,000	240,000	300,000
Doimiy xarajatlar	40,000	140,000	140,000
Kontributsiya	***$ 80,000***	***$ 100,000***	***$160,000***

Qismlarga bo‘linmagan korporotiv xarajatlar $200,000

Aniqlash talab etiladi:

A. Davr uchun korporativ sof daromadni aniqlang.

B. Har bir bo‘lim uchun sotish hajmiga nisbatan kontributsiya ko‘rsatkichlarini aniqlang va xulosalar qiling.

4-masala. Northside Iron Works uchun 2010 yilda faoliyati bшyicha ыuyidagi ma’lumotlar keltirilgan:

Ishlab chiqarilgan birlik	60,000
Normal kapastasi (Capacity)	60,000
Sotish narxi	40 p.b.
O‘zgaruvchan xarajatlar:	
To‘g‘ridan-to‘g‘ri material	8
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat	5
Ishlab chiqarish ustamasi	4
Sotish va ma’muriy	3
Doimiy xarajatlar:	
Ishlab chiqarish ustamasi	300,000 p.b.
Sotish va ma’muriy	120,000
Sotilgan birlik	55,000
Boshlang‘ich zahiralar mavjud emas	

Talab etiladi:

1. Absorption Costing va Variable Costing asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing.
2. Ikkita metodda aniqlngan sof daromad o‘rtasidagi farqning kelib chiqishni zahiralar orqali aniqlang

5-Masala. Medfore Company tashqi axborot foydalanuvchilar uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzishda Absorption Costingdan hamda rejalashtirish va nazorat maqsadlarida Variable Costingdan foydalanadi. Joriy yilda qo‘yidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (Upravlencheskiy uchet, Tashkent 2003 y. 168 b):

	Birliklar	Variable birlik tannarxi	Absorption birlik tannarxi
Boshlang‘ich zahira	6,000	$10	$ 14
Oxirgi zahira	9,000	11	16
Normal kapasta (capacity)	30,000		

Ortiqcha (kam) taqsimlangan ustama xarajatlar 0 ga teng.

Aniqlash talab etiladi:

A. Variable Costing da oxirgi zahiralar tannarxi
B. Absorption Costingda oxirgi zahiralar tannarxi
S. Sotilgan birliklar miqdori
D. Tannarxini aniqlashning ikkita metodida sof daromad o‘rtasidagi farq

6-masala. Rayners plc kompaniyasi elektrik odeyal ishlab chiqadi va sotadi. Sotish narxi 12 p.b.. Mahsulot birligining tannarxi quyidagicha:

Asosiy material ..... 2 p.b.
Asosiy mehnat haqi.....1
UIChX, o‘zgaruvchan qismi.....2
UIChX, doimiy qismi.....3
Jami.....8
Ma’muriy xarajatlar 20 bir yilga

Qo‘shimcha axborotlar:

- Doimiy ustama xarajatlar bir yilda rejadagi ishlab chiqarish hajmi 90 birlik asosida mahsulot birligiga nisbatan berilgan.
- Inflyatsiya yo‘q
- Davr boshida zahira mavjud emas.

Keyingi uch yilda kompaniyaning ishlab chiqargan va sotgan mahsulot birliklari to‘g‘risida quyida ma’lumot berilgan:

	Yillar

	1	2	3
Boshlang‘ich zahira	-		
Ishlab chiqarilgan	100	110	90
Sotilgan	(90)	(110)	(95)
Oxirgi zahira			

Aniqlash talab etiladi:

1. Har bir yil uchun Absorption Costing va Variable Costing tizimlarida zahiralarni ko‘rsatgan holda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing.
2. Ikkita metod bo‘yicha natijalarga xulosa bering va yuzaga kelgan farqning sabablarini ko‘rsating.

7-masala. Firma bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Mahsulot birligining tannarxi:

Asosiy material.....2,60 p.b.
Asosiy ishlab chiqarish personali mehnat hiqi.....3,00
UIChX, o‘zgaruvchan qismi..... 0.40
UIChX, doimiy qismi.....1,00
Jami.....7,00

Doimiy ustama xarajatlar smeta rejasidagi 150,000 birlik ishlab chiqarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘yicha hisoblangan bo‘lib, har kvartalda smeta bo‘yicha Doimiy UIChXlari 150,000 p.b. ni tashkil etadi. Smeta bo‘yicha sotish va ma’muriy ustama xarajatlar kvartalda 100,000 p.b. ga teng. Mahsulotni sotish narxi bir birlikka $10 bo‘lmoqda. Har bir kvartalda ishlab chiqarish va sotish hajmi quyida keltirilgan:

	I-kvartal	***II-kvartal***	***III-kvartal***	***IV-kvartal***
Ishlab chiqarish, birlik	150,000	170,000	140,000	150,000
Sotish hajmi, birlik	150,000	140,000	160,000	160,000

Birinchi kvartalning boshida zahiralar bo‘lmagan, haqiqiy xarajatlar smeta xarajatlariga muvofiq keladi.

Aniqlash talab etiladi:

1) Har bir kvartal uchun Absorption Costing va Variable Costing tizimlarida zahiralarni ko‘rsatgan holda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing.
2) Har bir kvartalni va butun bir yil natijalarini izohlab bering.

Masalalar.

1. Iyul oyi davomida ishlab chiqarish bo‘limi 4,000 birlik mahsulot ishlab chiqardi. Materialning standart tannarxi 2.40 p.b. ga teng. Haqiqatda xarid qilib olingan material birligi 8200 birlik bo‘lib, tannarxi 2.20 p.b.ga teng. Jami tannarx 18,040 p.b. ni tashkil etmoqda.

Aniqlash talab etiladi.
Ushbu ma’lumotlar asosida materiallar narxi va foydalanishi miqdori farqlanishlarini aniqlang.

2. Blackmans kompaniyasi bo‘yicha ishlab chiьargan mahsulotning standart tannarxi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri material – 4 pound 10 p.b. dan	40 p.b.
To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat – 3 soat 12 p.b. dan	36
UIChX – 150% to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnatdan	54
Jami	130 p.b.

Kompaniya xarid agenti ta’minotchidan 44,000 pound materialni 8.20 p.b.dan sotib olishga kelishdi. 5,500 birlik mahsulot ishlab chiqarildi va 34,100 pound material foydalanildi.

Aniqlash talab etiladi.
Yuqoridagi ma’lumotlar asosida materiallar bo‘yicha farqlanishlarni hisoblang.

Tayanch atamalar:

1. “Tannarx – mahsulot hajmi – foyda” (CVP) tahlili tizimli ravishda mahsulot tannarxi, sotishdan olingan daromad (sotish hajmi va ishlab chiqarish hajmi) va foyda ko‘rsatkichlarining bir-biriga asoslanganligini ko‘rsatadi va ushbu tahlil yordamida menedjerlarga faoliyatni nazorat qilish, rejalashtirish, faoliyatning muqobil kurslarini tahlil qilish hamda iqtisodiy shart-sharoitlar o‘zgargan taqdirda oqilona qarorlar qabul qilishga doir axborotlar yetkazib beriladi.

2. Zararsizlik nuqtasi yoki kritik nuqta (Break-Even Point)– bu faoliyat darajasining (ishlab chiqarish hajmi yoki realizatsiya hajmining) shunday nuqtasiki bunda jami daromad to‘plam xarajatlarga teng bo‘lgan, ya’ni foyda ham zarar ham bo‘lmaydi.

3. Foyda (zarar) – bu marjinal daromad va doimiy xarajatlar o‘rtasidagi farqdir. Zararsizlik nuqtasi bu marjinal daromadning doimiy xarajatlarga teng bo‘lgan joyida aniqlanadi.

4. Kritik nuqtani aniqlash formulalari:

Kritik nuqta (X) = Doimiy tannaarx (DT) / (Sotish narxi (SN) – Mahsulot birligi o‘zgaruvchan tannarxi (O‘Tb))

Kritik nuqta (X) = Doimiy tannarx (DT) / Mahsulot birligiga kontributsiya marjini(KMb)

Kritik nuqta (summada) = Doimiy xarajatlar / Kontributsiya marjini darajasi (12)

5. Mo‘ljaldagi foyda (Target Profit). CVP tahlilida *mo‘ljaldagi foydani olishlari uchun* qaysi faollik darajalari (ishlab chiqarish va sotish hajmi)ga erishishlari lozimligiga doir axborotlar talab etiladi.

Mo‘ljaldagi foydada kritik nuqtasi (X m.f.) aniqlash formulasi:

Xm.f = (DT + MF) / (SN-O‘Tb)

Mo‘ljaldagi foydada kritik nuqtani (summada) topish formulasi:

Mo‘ljaldagi foydada kritik nuqta (summada) = (Doimiy xarajatlar + mo‘ljaldagi foyda) / Kontributsiya marjini darajasi (15)

6. Operatsion richag bu kompaniyada doimiy xarajatlarning qoplanish darajasini belgilaydi.

Operatsion richag daromadning foizlarda o‘zgarishi foydaning foizlarda o‘zgarishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Operatsion richag darajasi = Kontributsiya marjini / Foyda

7. Xavfsizlik marjini bu haqiqiy daromadning kritik nuqtadagi daromaddan oshgan qismini summada hamda sotish hajmiga nisbatan foizlardagi ko‘rsatkichlar bilan ifodalab, kompaniyaning kritik nuqtaga nisbatan qancha xavfsiz ishlayotganini tavsiflaydi.

Xavfsizlik marjasini summada va koeffitsientda ifodalash mumkin:

1) ***Xavfsizlik marjini, summada = Haqiqiy sotish (daromad) - Kritik nuqtadagi sotish (daromad)***

2) ***Xavfsizlik marjini, koeffitsientda = (Haqiqiy sotish (daromad) – kritik nuqtadagi sotish) / Haqiqiy sotish***

15-mavzu.Xo‘jalik yurituvchi subyektning segmentar hisoboti

Misollar:

1-misol. Kichik kompaniya tomonidan 900 birlik mahsulot sotilsa kritik nuqtaga erishadi, qaysiki bu nuqtada daromad 33,300 p.b.ni tashkil etadi. Kontributsiya darajasi 46%.

Aniqlash talab etiladi:

Sotish narxi, mahsulot birligiga o‘zgaruvchan tannarx va doimiy tannarx.

2-misol. Christy Company kichik biznes sub’ekti bo‘lib kritik nuqta summada 97,520 p.b.ni tashkil etadi. Sotish narxi mahsulot birligiga 42,40 p.b., mahsulot birligiga o‘zgaruvchan tannarx 16.96 p.b.. Sotish hajmi 3,500 birlik.

Aniqlash talab etiladi:

Doimiy xarajatlar, kritik nuqta birlikda, kontributsiya marjini va foyda ko‘rsatkichlari.

3-misol. Mirloff Company ning bir oylik doimiy xarajatlari 17,500 p.b.. Foyda rentabilligi 7 foiz, kontributsiya marjini 35% va kompaniyaning kritik nuqtasi oyga 2,500 birlikni tashkil etadi.

Aniqlash talab etiladi:

Sotilgan birliklar miqdori, mahsulot birligiga o‘zgaruvchan tannarx, sotishdan olingan daromad va bir oylik foyda summasi

4-misol. Flimmer Company doimiy tannarx 301,000 p.b.. Mahsulotni sotish narxi 650 p.b., mahsulot birligining o‘zgaruvchan tannarxi 510 p.b.. Kompaniya 70,000 mo‘ljaldagi foydani olishni rejalashtirgan.

D. Korxonada xodimlar o‘rtasida muhitni yaxshilash uchun
E. Menedjerlar qarorlar qabul qilish hamda rejalashtirish uchun

212. Hisobot davrida jami ishlab chiqarish xarajatlari 2000000 p.b. Taqsimlangan ustama ishlab chiqarish xarajatlari jami ishlab chiqarish xarajatlarining 30%ni tashkil etadi. Ustama Ishlab chiqarish xarajatlari asosiy ishchilarning mehnat haqi xarajatlarining 60% ni tashkil etadi. Ushbu ma’lumotlar asosida ishlab chiqarishda qo‘llanilgan asosiy materiallarning qiymatini aniqlang.

A. 600000 p.b.
B. 400000 p.b.
D. 1000000 p.b.
E. 1200000 p.b.

213. O‘zgaruvchan xarajatlar – bu

A. Mahsulot hajmiga nisbatan teskari proporsional ravishda o‘zgaruvchi xarajatlar
B. Korxonaning faoliyat aktivligi darajasiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar
D. Mahsulot hajmiga nisbatan to‘g‘ri proporsional ravishda o‘zgaruvchi xarajatlar
E. Menejerlarning qabul qiladigan qarorlariga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchi xarajatlar
Ye. Javobgarlik markazlari bo‘yicha menejerlar tomonidan regulirovka qilinadigan xarajatlar

214. Yarim o‘zgaruvchi xarajatlar – bu

A. Mahsulot hajmi o‘sishi bilan to‘g‘ri proporsional ravishda oshadigan xarajatlar
B. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar
D. Korxona tomonidan nazorat qilinmaydigan xarajatlar
E. O‘z tarkibiga ham o‘zgaruvchan, ham doimiy xarajatlar komponentlarini olgan xarajatlar
Ye. O‘z tarkibiga barcha hollarda 50% o‘zgaruvchan va 50 %doimiy xarajatlar komponentini olgan xarajatlar

215. Yarimdoimiy xarajatlar – bu

A. Mahsulot hajmi o‘sishi bilan to‘g‘ri proporsional ravishda oshadigan xarajatlar
B. Relevant diapazonida o‘zgarmas va pog‘anali o‘sib boruvchi xarajatlar
D. Korxona tomonidan nazorat qilinmaydigan xarajatlar
E. O‘z tarkibiga ham o‘zgaruvchan, ham doimiy xarajatlar komponentlarini olgan xarajatlar

Ye. O‘z tarkibiga barcha hollarda 50% o‘zgaruvchan va 50 %doimiy xarajatlar komponentini olgan xarajatlar

216 .Quyidagilardan qaysi biri ma’muriy xarajatlarda hisobga olinadi:

A. Boshqaruv xodimlariga hisoblangan ish haqi
B. To‘langan foizlar
D. Salbiy kurs farqlari
E. Mahsulotni sotishdan kurilgan foyda

217 . Doimiy xarajat moddasini aniqlang:

A. Amortizatsiya
B. Asosiy material
D. Ishlab chiqarish xodimlari ish xaqi
E. Qadoqlash xarajatlari

***218. O‘zgaruvchan xarajatlar moddasini aniqlang*:**

A. Ishbay ish xaqi
B. Reklama
D. mamuriy ish xaqi
E. ijara

219. Qabul qilingan qarorlarga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar bu:

A.Norelevant xarajatlar
B.Relevant xarajatlar
D. Alternativ xarajatlar
E. Nazorat qilinadigan xarajatlar

***220. Boshqa variantlardan voz kechib bitta variant tanlash natijasida yo‘qotilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni o‘lchovchi xarajatlar bu*:**

A. Muqobil (alternativ) xarajatlar
B. Relevant xarajatlar
D. Norelevant xarajatlar
E. Doimiy xarajatlar

221.To‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar bu:

A. Mahsulot hajmiga nisbatan o‘zgarmaydigan doimiy xarajatlar
B. Aniq tannarx ob’ektiga bilvosita identifikatsiyalanadigan xarajatlar
D. Aniq tannarx ob’ektiga bevosita identifikatsiyalanadigan xarajatlar
E. Mahsulot hajmi yoki faoliyat darajasiga bog‘liq bo‘lmaydi

222. Bilvosita xarajatlar bu:

A. Aniq tannarx ob’ektiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiyalanmaydigan xarajatlar
B. Mahsulot tannarxiga olib boriladigan doimiy xarajatlardan tashkil topadi
D. Mahsulot hajmi yoki faoliyat darajasiga bog‘liq bo‘lmaydi
E. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va boshqa xarajatlar

223. Mahsulot tannarxi bu:

A. Kapital va investitsion xarajatlar yig‘indisi
B. Boshqaruv, sotish va operatsion xarajatlari yig‘indisi
D. Ishlab chiqarish va sotish xarajatlari yig‘indisi
E. Mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajat yig‘indisi

224. Ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i tomonidan nazorat qilinadigan xarajat:

A. Materiallar uchun to‘lov

B. Xom-ashyoning sarflanishi
D. Mashinalar amortizatsiyasi
E. Mashinalarning sug‘urta xarajatlari

225. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlar bu:

A. Ishlab chiqarishda qo‘llanilgan barcha asosiy va yordamchi materiallar xarajatlari yig‘indisidan iborat
B. Bu yog‘lash materiallari, gayka, vint va boshqa xo‘jalikni yuritishda ishlatiladigan yordamchi materiallar
D. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari bo‘lib asosiy ishlab chiqarishga taqsimlanadi
E. Asosiy xom-ashyo va material bo‘lib, qaysiki undan mahsulot ishlab chiqiladi

226. Ishlab chiqarish (i.ch.) xarajatlari kategoriyalari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan:

A. Bevosita material xarajatlari, ustama i. ch. xarajatlari
B. Mehnat xarajatlari, ustama i.ch. xarajatlari
D. Asosiy materiallar, i.ch. mehnat xarajatlari, i.ch. ustama xarajatlari
E. Asosiy va yordamchi materiallar, ish haqi, bilvosita xarajatlar

227. Y = a + bX tenglamasida (a) qaysi ko‘rsatkichni ifodalaydi:

A. Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan xarajatlar
B. Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan doimiy xarajatlar
D. Doimiy xarajatlar
E. Faollik darajasi

228. Agar ishlab chiqarishning maksimal darajasi 6000 birlik, minimal darajasi 4000 birlik, ushbu darajalarga mos xarajatlar summasi 12900 p.b. va 11100 p.b. ni tashkil etsa, Y = a + bX tenglamasi qanday ko‘rinishga ega bo‘ladi.

A. *Y = 7500 + 0.7 X*
B. *Y = 7500 + 0.9 X*
D. *Y = 7500 + 2 X*
E. *Y = 7500 + 0.8 X*

229. Agar ishlab chiqarishning maksimal darajasi 6000 birlik, minimal darajasi 4000 birlik, ushbu darajalarga mos xarajatlar summasi 12900 p.b. va 11100 p.b. ni tashkil etsa, 5000 birlik mahsulot ishlab chiqargan holda xarajatlarning umumiy summasini Y = a + bX tenglama orqali aniqlang.

A. 11000 p.b.
B. 12500 p.b.
D. 12000 p.b.
E. 13000 p.b.

230. O‘rtacha tannarx ..... aniqlanadi

A. Jami tannarxni ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot qoldig‘i birligiga bo‘lish orqali
B. Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ini tayyor mahsulotlar qoldig‘ir birligiga bo‘lish yo‘li bilan
D. Ishlab chiqarish xarajatlar va davr xarajatlarini ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar birligiga bo‘lish orqali
E. Jami ishlab chiqarish xarajatlarini ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga bo‘lish orqali

231. Nima uchun yog‘lash materiallari bilvosita material hisoblanadi.

A. Tannarx tarkibiga kirganligi sababli
B. Texnik xizmatga doir xarajat bO‘lganligi sababli
D. Yordamchi xarakteriga ega bO‘lganligi uchun
E. Tannarx tarkibiga kiritilmaganligi bois

232. Qaysi biri oldin to‘ldiriladi: xarid bo‘yicha buyurtma, xarid qilish uchun talabnoma.

A. Xarid bo‘yicha buyurtma
B. Xarid bo‘yicha talabnoma
D. Ikkalasi ham bir vaqtda
E. Qat’iy tartib amal qilmaydi

233. Zahira kartochka registri qaysi hujjat asosida yuritiladi.

A. Zahiralarni qabul qilish to‘g‘risidagi hisobot
B. Xarid qilish uchun talabnoma
D. Xarid bo‘yicha buyurtma
E. B va S

234. Zahiralarni hisobga olishning uzluksiz tizimi

A. Zahiralarini inventarizatsiya ma’lumotlariga asoslanadi
B. Zahiralarni baholash usullari majmuasi
D. Zahiralar tannarxning shakllanish tartibini belgilaydi
E. Kirim va chiqimiga oid ma’lumotlarni tO‘liq kiritib borishga asoslanadi.

235. Agar tannarxga nisbatan ustama (nasenka) 30% bo‘lsa, yalpi daromad darajasini aniqlang.

A. 23.1%
B. 30%
D. 42.9%
E. Aniqlash imkoni yo‘q

236. TMZlarning boshlang‘ich qiymati – 120000 p.b., xarid 250000 p.b., realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi 270 000 p.b. Ushbu ma’lumotlar asosida TMZlarning oxirgi qiymatini aniqlang.

A. 640000 p.b.
B. 100000 p.b.
D. 140000 p.b.
E. 150000 p.b.

237. Quyidagi ma’lumotlar berilgan:

TMZlarning boshlang‘ich qoldig‘i – 50 000 p.b.
Xarid – 100 000 p.b.
Mahsulot realizatsiyasidan olingan daromad – 110 000 p.b.
Tannarxga nisbatan ustama – 25%

Ushbu ma’lumotlar asosida TMZlar hisobida yalpi foyda metodini qo‘llagan holda TMZlarining oxirgi qoldig‘ini aniqlang.

A. 62500
B. 40000
D. 55000
D. 60000

E. 63500

238.*Zahiraning yillik ehtiyoji 200000 birlik*

Sotish narxi 400 $ / birlik

Tannarxi 250 $ /birlik

Buyurtma xarajatlari 400 $/ buyurtma

Saqlash xarajatlari 20 % birlik tannariga nisbatan

Ushbu ma'lumotlar asosida buyurtmaning optimal miqdorini aniqlang.

A. 450 birlik
B. 800 birlik
D. 600 birlik
E. 400 birlik

239. Zahiralarga yillik ehtiyoj- 40 000 birlik, bitta buyurtmani bajarish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar –2 p.b., bir birlik zahirani saqlash xarajati 1 p.b. Ushbu ma'lumotlar asosida buyurtmaning optimal miqdorini aniqlang.

A. 450 birlik
B. 285 birlik
D. 400 birlik
E. 300 birlik
Ye. 250 birlik

240. Agar zahiraga bo'lgan yillik ehtiyoj 40 000 birlik, buyurtmaning optimal miqdori 400 birlik bO'lsa, zahira buyurtmasi miqdori qancha bO'lishi kerak.

A. 100 ta
B. 10 ta
D. 200 ta
E. 1000 ta

241. Zahiralarga yillik ehtiyoj 40 000 birlik, bitta buyurtmani bajarish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar 2 p.b., bir birlik zahirani saqlash xarajati 2 p.b. Zahiralar bilan bog'liq jami relevant xarajatlar nechiga teng(Agar Q-400 ,bO'lsa)

A. 400 p.b.
B. 600 p.b.
D. 800 p.b.
E. 1000 p.b.

242. Quyidagilarning qaysi birida chiqindi materiallar hisobi yondashuvi keltirilgan

A. Maxsus mahsulot tannarxi kamayishiga
B. Umumiy mahsulot xarajatlarining kamayishiga
D. Boshqa daromadlarga
E. Yuqoridagilarning barchasi

243. Defekt mahsulotlar

A. Sotilishi mumkin (normal mahsulotga nisbatan arzon narxda)
B. Sotilmasligi mumkin (defekt mahsulot chiqarib tashlanadi)
D. Qayta ishlanishi mumkin

E. Yuqoridagi holatdan biri yuz beradi

244. To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi – bu

A. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari
B. Foyda va zararlar hisobidan qoplaniladi
D. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ish soatlari uchun to‘lanadigan miqdor
E. Boshqa xarajatlar

245. Bilvosita mehnat haqi

A. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ish soatlari uchun to‘lanadigan miqdor
B. Daromaddan qoplaniladi
D. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari
E. Bilvosita mehnat soatlari uchun to‘lanadigan miqdor

246. Kombinatsiyalashgan ish haqi tizimida ishbay stavkasi bo‘yicha ish haqi 30000 p.b., kafolatlangan vaqtbay stakasi bo‘yicha ish haqi 32000 p.b. ni tashkil etmoqda. Xodimga hisoblanishga beriladigan ish haqi summasi

A. 30000 p.b.
B. 32000 p.b.
D. 62000 p.b.
E. 2000 p.b.

247. Xodimga soatiga 400 p.b. to‘lash ko‘zda tutilgan. Xodim bir soatda 25 birlik mahsulot ishlab chiqaradi. Korxona ishbay tizimini joriy qilib mahsulot birligi uchun 14 p.b. to‘lamoqchi. Ishchi soatiga qancha mahsulot ishlab chiqargandan so‘ng soatbay tizimiga nisbatan ko‘proq maosh olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

A. 25 birlik
B. 16 birlik
D. 28 birlik
E. 14 birlik

248. Mahsulot ishlab chiqarish uchun normativ vaqt 120 soat qilib belgilangan. Haqiqiatda sarflangan vaqt 105 soat. Belgilangan soat stavkasi 40 p.b. Tejab qolingan vaqt uchun 50% mukofat tizimi joriy qilingan. Mukofat summasi

A. 300 p.b.
B. 600 p.b.
D. 2100 p.b.
E. 2400 p.b.

249. Xodimga odatda 40 soatlik ish haftasida soatiga 10 p.b. mehnat haqi to‘lanadi. Xodimga 5-haftalik yillik ta’til berilishi lozim. Xodim qolgan 47 haftada belgilangan soatlarni ishlab berdi. Aniqlash talab etiladi: 1. Ta’til summasi, 2. Umumiy ish soatlari, 3. Bir ish soatiga to‘g‘ri keladigan ta’til stakasi

A. 1. 2000 p.b., 2. 1880 soat, 3. 1,064 p.b./soat
B. 1. 2000 p.b., 2. 1920 soat 3. 1,04 p.b./soat
D. 1. 400 p.b., 2. 1880 soat 3. 0,213 p.b./soat
E. 1. 400 p.b., 2. 1920 soat 3. 0,5 p.b./soat

250. Ish vaqtidan tashqari zaruriy ish uchun to‘lovlar agarda qochib bo‘lmaydigan va zaruriy holatdan kelib chiqsa

A. Foyda va zararlar hisobidan qoplaniladi
B. Rezerv hisobidan qoplaniladi
D. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxiga qo‘shiladi
E. Davr xarajatlariga olib boriladi

251. Oldini olish mumkin bo‘lgan holatlar natijasidagi turib qolishlar va boshqa holatlardagi ish haqi xarajatlari (yaxshi rejalar tuzilgan taqdirda kochib qolish mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar)

A. Foyda va zararlar schotidan qoplaniladi.
B. Mahsulot tannarxiga qo‘shiladi.
D. Ustama ishlab chiqarish xarajatlariga olib boriladi
E. Davr xarajatlariga olib boriladi.

252. Mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun normativ vaqt 45 minut, davrda haqiqatda ishlab chiqarilgan miqdor 600 birlik, haqiqatda sarflangan vaqt miqdori 430 soat. Mehnat unumdorligining ko‘rsatkichi

A. 0,956
B. 0,75
D. 1,34
E. 1,046

253. Tannarx ob’ektiga to‘g‘ri identifikatsiyalash uchun har bir ishchining har bir mahsulot yoki faoliyatda ishlangan mehnat soatlari qayd qilib boriladi.

A. Bajarilgan ishlar aktida
B. Protsentovkada
D. Kunlik mehnat vaqti tabelida
E. Maxsus jurnallarda

254. Ishdan bo‘shatilgan xodimlar 20 kishi, ushbu davrda yollangan xodimlarning o‘rtacha soni 180 kishi. Xodimlarning qo‘nimsizligi

A. 11,1 %
B. 9%
D. 20%
E. 5%

255. Quyidagilardan qaysi biri ustama xarajatlarga kirmaydi:

A. Elektro-energiya
B. Bino amortizatsiyasi
D. Oshxona xarajatlari
E. To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat

256. Agar A bo‘lim bo‘yicha doimiy xarajatlar 100,000 p.b., o‘zgaruvchan xarajatlar soatiga 100 p.b. ga teng. Agar budjetlashtirilgan mehnat soati 1000 soat belgilangan. Haqiqatda 900 soat ishladi. Birinchi darajali metod bo‘yicha A bo‘limga taqsimlangan xarajatlar summasi

A. 200,000 p.b.
B. 180,000 p.b.
D. 171,000 p.b.
E. 190,000 p.b.

257. Bino amortizatsiyasi xarajatlarini taqsimlashning birinchi bosqichida taqsimlash bazalaridan eng optimali

A. Asbob-uskunalar qiymati
B. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi
D. Egallab turgan maydon
E. Ishchilarning soni

258. Agar mahsulot birligi miqdori 1000 birlik, har bir mahsulotga budjetlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat soatlari 2 soat, jami budjet ustama xarajatlar 18,000 p.b. ga teng bo‘lsa ustama xarajatlarni taqsimlash stavkasi

A. 9 p.b./ meh. soati
B. 18 p.b. / meh. soati
D. 36 p.b./ meh. soati
E. 0,11 p.b./meh.soati

259. Korxonaning jami isitish xarajatlari 10,000 p.b. ga teng. Korxonaning maydoni 30,000 m2, shu jumladan 1-sex maydoni 10,000 m2 bo‘lsa 1-sexga taqsimlanadigan isitish xarajatlari qancha bo‘ladi.

A. 3,000 p.b.
B. 10,000 p.b.
D. 3,333 p.b.
E. taqsimlanmaydi

260. Korxonada ishlab chiqarish ma’muriyati, oshxona va 1 va 2-sexlardan iborat. Agar korxona ma’muriyatining qolgan bo‘limlarga xizmat ko‘rsatish mehnat proporsiyasi mos ravishda 1/10, 6/10, 3/10 bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqsimlash usulida qaysi proporsiyaga asosan ma’muriyat xarajatlari 1 va 2-sexlarga taqsimlanadi.

A. 6/10, 4/10
B. 5/10, 5/10
D. 4/10, 6/10
E. 6/9, 3/9

261. Xizmat ko‘rsatuvchi bo‘limlar xarajatlarini qadamba-qadam taqsimlashda nima uchun eng ko‘p xarajatga ega bo‘lgan bo‘lim xarajatlarini taqsimlashdan boshlanadi.

A. Bu ahamiyat kasb etmaydi.
B. Standartlarda shunday qabul qilingan
D. Eng ko‘p xarajatlarni taqsimlashdan boshlash xarajatlarni taqsimlashning ob’ektivligini oshiradi.
E. Eng ko‘p xarajatlarni taqsimlashdan boshlash keyingi hisob-kitoblarni onsonlashtiradi.

262. Qaysi usul eng ob’ektiv va aniq ma’lumotlarni beradi.

A. Takror-taqsimlash va tenglamalar tizimi
B. To‘g‘ridan-to‘g‘ri usul
D. Qadamba-qadam taqsimlash
E. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va qadamba-qadam taqsimlash usuli

263. Korxonada ishlab chiqarish ma'muriyati, oshxona va 1 va 2-sexlardan iborat. Agar ma'muriyat xarajatlari – 500,000 p.b., oshxona xarajatlari 100,000 p.b., ma'muriyat xarajatlarini taqsimlash proporsiyalari mos ravishda 1/10, 6/10, 3/10; oshxona xarajatlarini taqsimlash proporsiyasi mos ravishda 2/10, 5/10, 3/10 bo'lsa tenglamalar tizimi qanday kurinishga ega bo'ladi.

A. $X = 500,000 + 0,1y$
$Y = 100,000 + 0,2x$

B. $X = 500,000 + 0,3y$
$Y = 100,000 + 0,2x$

D. $X = 500,000 + 0,1y$
$Y = 100,000 + 0,3x$

E. $X = 500,000 + 0,2y$
$Y = 100,000 + 0,1x$

264. 1-sexning ustama xarajatlarini taqsimlash stavkasi 5 p.b./mash.soat, 2-sexning 2 p.b./mash.soat, yig'ma sexning 1 p.b./meh.soatga teng. Agar mahsulot 1-sexda 3 mash.soat, 2-sexda 2 mash.soat, yig'ma sexda 1 meh.soat ishlovdan o'tsa, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan ustama xarajatlar summasini aniqlang.

A. 8 p.b.
B. 15 p.b.
D. 22 p.b.
E. 19 p.b.

265.Buyurtmali kalkulyatsiyada tannarx ob'ekti bo'lib

A. Ommoviy mahsulotlar
B. Buyurtmasiz ishlab chiqariladigan mahsulotlar
D. Maxsus birliklar va kichik partiyalar
E. Har qanday ishlab chiqariladigan mahsulot, xizmatlar

266. Buyurtmali kalkulyatsiyaning ichida jarayonli kalkulyatsiyani qo'llash mumkinmi.

A. Qo'llab bo'lmaydi
B. Qo'llab bo'ladi
D. Istisno tariqasida qo'llasa bo'ladi
E. Standartlarda qayd qilingan holatlarda

267. Audit faoliyatida budjetlashtirilgan ustama stavkasini aniqlashda taqsimlash bazasi sifatida

A. Budjetlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri mehnat xarajatlari
B. Budjetlashtirilgan mashina soatlari
D. Budjetlashtirilgan kompyuter soatlari
E. Budjetlashtirilgan material xarajatlar

268. Agar ustama xarajatlarining budjetlashtirilgan stavka asosida taqsimlangan summasi jamg‘arilgan (hisoblangan) summasidan kichik bo‘lsa, ……. yuzaga keladi

A. Taqsimlanmay qolgan ustama
B. Ortiqcha taqsimlangan ustama
D. Kichik bo‘lishi mumkin emas
E. Ustama xarajatlarning balans qoldig‘i

269. Agar ustama xarajatlarining budjetlashtirilgan stavka asosida taqsimlangan summasi jamg‘arilgan (hisoblangan) summasidan katta bo‘lsa, ……. yuzaga keladi

A. Taqsimlanmay qolgan ustama
B. Ortiqcha taqsimlangan ustama
D. Katta bo‘lishi mumkin emas
E. Ustama xarajatlarning balans qoldig‘i

270. Buyurtmali kalkulyatsiyaning haqiqiy turida …… bo‘ladi.

A. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (haqiqiy), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (haqiqiy) va ustama xarajatlar (haqiqiy) darajada
B. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (haqiqiy), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (haqiqiy) va ustama xarajatlar (budjet) darajada
D. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (budjet), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (budjet) va ustama xarajatlar (haqiqiy) darajada
E. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (budjet), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (haqiqiy) va ustama xarajatlar (haqiqiy) darajada

271. Buyurtmali kalkulyatsiyaning me’yoriy turida …… bo‘ladi.

A. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (haqiqiy), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (haqiqiy) va ustama xarajatlar (haqiqiy) darajada
B. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (haqiqiy), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (haqiqiy) va ustama xarajatlar (budjet) darajada
D. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (budjet), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (budjet) va ustama xarajatlar (haqiqiy) darajada
E. To‘g‘ridan-to‘g‘ri material (budjet), to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat (haqiqiy) va ustama xarajatlar (haqiqiy) darajada

272. Zudlik bilan yozuvlarni amalga oshirish usulida taqsimlanmay qolgan yoki ortiqcha taqsimlangan ustama summasi ……..olib boriladi.

A. Ishlab chiqarish xarajatlariga
B. Sotish bilan bog‘liq xarajatlarga
D. Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxiga
E. Foyda va zararlarga

273. Kontrak bo‘yicha mo‘ljaldagi foyda aniqlanadi:

A. Kontrakt qiymati – umumiy xarajatlar
B. Ma’lum sanada bajarilgan ishlar qiymati – amalga oshirilgan xarajatlar
D. Kontrakt qiymati – amalga oshirilgan xarajatlar
E. Kontarkt qiymati – kontrakt smeta tannarxi

274.Jarayonli kalkulyatsiyada

A. Mahsulot partiyalari bo‘yicha tannarx hisoblanadi
B. Mahsulot birligi va tannarx bir jarayondan boshqa jarayonga o‘tkaziladi.
D. Me’yoriy va haqiqiy kalkulyatsiya qo‘llaniladi.
E. Ishlab chiqarish jarayoni boshida qoldiq bo‘lmaydi.

***275. Buyurtmali usulda bilvosita bo‘lgan ayrim xarajatlar jarayonli kalkulyatsiyada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajat sifatida qaralishi mumkinmi*?**

A. Mumkin emas
B. Standartlarda ko‘zda tutilgan hollarda mumkin
D. Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizomda ko‘zda tutilgan hollarda mumkin
E. Mumkin (Jarayondan kelib chiqib)

276. Qayta ishlash qiymati - bu

A. To‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi xarajatlari va asosiy vositalarni tutib turish xarajatlari
B. Bilvosita va to‘g‘ridan-to‘g‘ri mehnat haqi xarajatlari
D. Mehnat haqi xarajatlari va ustama ishlab chiqarish xarajatlari
E. Ustama ishlab chiqarish xarajatlari

277. Ishlab chiqarish boshlangan va yakunlangan birlik 10.000, ishlab chiqarish jarayoni oxirida birlik 1000, Bu 30%ga tayyor bo‘lsa xarajatlarning material elementi bo‘yicha ekvivalent birlik qancha bo‘ladi.

A. 10300 birlik
B. 11000 birlik
D. 10.000 birlik
E. 3300 birlik

278. Ishlab chiqarish boshlangan va yakunlangan birlik 10.000, ishlab chiqarish jarayoni oxirida birlik 1000, Bu 30%ga tayyor bo‘lsa xarajatlarning qayta ishlash qiymati elementi bo‘yicha ekvivalent birlik qancha bo‘ladi.

A**.** 11000 birlik
B. 10000 birlik
D. 10300 birlik
E. 3300 birlik

279. Agar ekvivalent birlik tannarxi material elementi bo‘yicha 5 p.b.ga, qayta ishlash qiymati bo‘yicha 2 p.b. ga teng bo‘lsa, yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan 10000 birlik mahsulot tannarxi qancha bo‘ladi.

A. 20000 p.b.
B. 50000 p.b.
D. 70000 p.b.
E. 30000 p.b.

280. Agar ekvivalent birlik tannarxi material elementi bo‘yicha 5 p.b.ga, qayta ishlash qiymati bo‘yicha 2 p.b. ga teng. Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida 1000 birlik mahsulot mavjud. 50%ga tayyor. Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida qiymati teng bo‘ladi.

A. 6000 p.b.
B. 7000 p.b.
D. 3500 p.b.

E. 5000 p.b.

281. Navbatdagi jarayonga 500 birlik material, 20%lik normativ yo‘qotish, material qiymati 10000 p.b. o‘tkazildi. Material birligining tannarxi

A. 20 p.b.
B. 18 p.b.
D. 25 p.b.
E. 22.5 p.b.

282. Normativ brakni sotishdan olingan daromad

A. Mahsulot tannarxining kamayishiga olib boriladi
B. Normadan ortiqcha yo‘qotishlar schetining kreditiga olib boriladi
D. Rejalashtirilmagan daromadga olib boriladi
E. Favqulotdagi daromadlarga olib boriladi

283. Normativdan ortiqcha braklarni sotishdan olingan daromad

A. Mahsulot tannarxining kamayishiga olib boriladi
B. Normadan ortiqcha yo‘qotishlar schetining kreditiga olib boriladi
D. Rejalashtirilmagan daromadga olib boriladi
E. Favqulotdagi daromadlarga olib boriladi

284. To‘liq yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan birlik 50000 (100% ga tayyor), ishlab chiqarish jarayoni, oxirida 1000 birlik (50%ga tayyor). O‘rtacha salmoqli usulda xarajatlarning materiallar va qayta ishlash elementlari bo‘yicha ekvivalent birlikni aniqlang.

A. 51000 birlik, 50500 birlik
B. 50500 birlik, 51000 birlik
D. 51000 birlik, 51000 birlik
E. 50000 birlik, 1000 birlik

285. Ishlab chiqarish jarayoni boshida 5000 (60%), joriy davrda kirim qilingan birlik 30000. Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan: boshlang‘ich zahiralardan 5000 birlik, kirim qilingan zahiralardan 28000 birlik, ishlab chiqarish jarayoni, oxirida 2000 birlik 40% tayyor. FIFO usulida materiallar va qayta ishlash moddasi ekvivalent birlikni aniqlang:

A. 30000 birlik, 30000 birlik
B. 30800 birlik, 30000 birlik
D. 30000 birlik, 28000 birlik
E. 30000 birlik, 30800 birlik

286. Jami hisobga olish uchun tannarx 20000 p.b., shu jumladan material bo‘yicha 15000 p.b., qayta ishlash qiymati 5000 p.b, ekvivalent birlik material – 500 birlik, qayta ishlash bo‘yicha 400 birlik. O‘rtacha salmoqli usulda ekvivalent birlik tannarxini aniqlang.

A. 30 p.b., 12.5 p.b.
B. 37.5 p.b., 10 p.b.
D. 40 p.b., 50 p.b.
E. 30 p.b., 10 p.b.

287. Joriy davrda amalga oshirilgan tannarx 50000 p.b., shundan materiallar 30000 p.b., qayta ishlash qiymati bo‘yicha 20000 p.b.. Ekvivalent birlik mos

ravishda 15000 va 20000 birlikka teng bo‘lsa ekvivalent birlik tannarxini xarajatlar elementlari bo‘yicha aniqlang.

A. 1 p.b., 2 p.b.
B. 1.33 p.b., 1.5 p.b.
D. 2 p.b., 1 p.b.
E. 3.33 p.b., 2.5 p.b.

288. Ekvivalent birlik tannarxi material bo‘yicha 0.50 p.b., qayta ishlash bo‘yicha 0.40 p.b.. Joriy davrda yakunlangan va boshqa jarayonga o‘tkazilgan 10000 birlik. Ishlab chiqarish jarayoni, oxirida 2000 birlik (50% ga tayyor). Ushbu ma’lumotlar asosida o‘rtacha salmoqli usulda boshqa jarayonga o‘tkazilgan mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish jarayoni, oxirida qiymatini aniqlang.

A. 9000 p.b., 1400 p.b.
B. 9000 p.b., 1800 p.b.
D. 9900 p.b., 900 p.b.
E. 9900 p.b. 1400 p.b.

289. Ekvivalent birlik tannarxi materiallar bo‘yicha 0.50 p.b., qayta ishlash bo‘yicha 0.40 p.b.. Ishlab chiqarish jarayoni, boshlang‘ich 5000 birlik (60%ga tayyor), qiymati 8000 p.b., ushbu davrda kirim qilingan va yakunlangan birlik 20000 birlik. Ishlab chiqarish jarayoni oxiridi 3000 birlik (40% ga tayyor). Ushbu ma’lumotlar asosida FIFO usulida boshqa jarayonga o‘tkazilgan jami tannarx va ishlab chiqarish, oxirida qiymatni aniqlang.

A. 18000 p.b., 2700 p.b.
B. 18000 p.b., 1980 p.b.
D. 26800 p.b., 2700 p.b.
E. 26800 p.b., 1980 p.b.

290.***Qo‘shma mahsulot va asosiy mahsulot bir xil ma’noni anglatadimi*?

A. Ha, bir xil ma’noni anglatadi

B. Asosiy mahsulot ham qo‘shma mahsulot, u boshqalariga nisbatan yuqori narxga ega

D. Asosiy mahsulot agar bitta qo‘shma mahsulot qolganlari ikkilamchi mahsulot bo‘lsa

E. Qo‘shma mahsulot ikkita va undan ortiq mahsulot, asosiy mahsulot esa eng tez sotiladigan qo‘shma mahsulot

291. ***Kompaniya A, V va S mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Qo‘shma tannarx 200,000 p.b.ga teng. Umumiy ishlab chiqarilgan birlik 20,000 birlik. Ishlab chiqarilgan A mahsulot birligi 4,500 birlik. Natural birliklar metodi asosida A birlikka taqsimlanadigan qo‘shma tannarx summasini aniqlang.***

A. 45,000 p.b.
B. 66,666 p.b.
D. 90,000 p.b.
E. 100,000 p.b.

292. ***Kompaniya A, V va S mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Qo‘shma tannarx 200,000 p.b.ga teng. Umumiy sotish hajmi 600,000 p.b.ni tashkil etadi. A mahsulotni sotish hajmi 180,000 p.b. Sotish qiymati asosida taqsimlash metodi***

asosida A mahsulot birligiga taqsimlanadigan qo‘shma tannarx summasini aniqlang.

A. 45,000 p.b.
B. 60,000 p.b.
D. 111,000 p.b.
E. 180,000 p.b.

293. ***Kompaniyaning umumiy sotish hajmi 600,000 p.b.ga teng. Qo‘shma tannarx 200,000 p.b.. Ajralish nuqtasidan keyingi tannarx 120,000 p.b.. A mahsulotni sotish hajmi 180,000 p.b. bo‘lsa, yalpi foyda foizi va A mahsulotga taqsimlanadigan qo‘shma tannarxni aniqlang.***

A. 54%, 97200 p.b.
B. 37%, 66,600 p.b.
D. 46%, 97200 p.b.
E. 62,5%, 112,500 p.b.

294.***A mahsulotning ajralish nuqtasida sof sotish mumkin bo‘lgan qiymati (SSMBQ) 100,000 p.b.. Jami ajralish nuqtasida SSMBQ 450,000 p.b.ni tashkil etadi. Jami qo‘shma tannarx 200,000 p.b.. Ajralish nuqtasida SSMBQ metodi asosida A mahsulotga taqsimlanadigan qo‘shma tannax summasini aniqlang.***

A. 100,000 p.b.
B. 200,000 p.b.
D. 225,000 p.b.
E. 44,000 p.b.

295. ***A mahsulotning bozor qiymati 180,000 p.b. Ushbu mahsulotning ajralish nuqtasidan keyingi tannarxi 40,000 p.b.. Jami ajralish nuqtasidan keyingi tannarx 120,000 p.b.. Jami bozor qiymati 600,000 p.b.. Jami qo‘shma tannarx 200,000 p.b. bo‘lsa, ajralish nuqtasida baholangan bozor qiymati metodi asosida A mahsulotga taqsimlangan qo‘shma tannarx summasini aniqlang.***

A. 160,000 p.b.
B. 58,000 p.b.
D. 44,000 p.b.
E. 55,000 p.b.

296. Sotish hajmi 2,000 birlik. Uning tannarxi 44,000 p.b.. Ikkilamchi mahsulot 100 birlik. Ajralish nuqtasidan keyin unga 500 p.b. miqdorida qo‘shimcha ishlov berildi. 100 birlikdan faqat 80 birligi 8 p.b. sotildi. Sotish tannarxni kamaytirish usulida sotilgan asosiy mahsulotning tannarxini aniqlang.

A. 44,000 p.b.
B. 43,700 p.b.
D. 43,760 p.b.
E. 43,500 p.b.

297. Sotish hajmi 2,000 birlik. Uning tannarxi 44,000 p.b.. Ikkilamchi mahsulot 100 birlik. Ajralish nuqtasidan keyin unga 500 p.b. miqdorida qo‘shimcha ishlov berildi. 100 birlikdan faqat 80 birligi 8 p.b. sotildi. Mahsulot tannarxni kamaytirish usulida sotilgan asosiy mahsulotning tannarxini aniqlang.

A. 44,000 p.b.
B. 43,700 p.b.

D. 43,760 p.b.

E. 43,500 p.b.

298. Ikkilamchi mahsulot va chiqindi mahsulot bir-biridan farq qiladimi?

A. Kriteriyasi mavjud emas, korxona o‘zi belgilaydi

B. Chiqindi mahsulot ikkilamchi mahsulotga nisbatan kam qiymatga ega va qayta ishlanmasdan sotilishi mumkin.

D. Chiqindi mahsulot qiymatga ega emas va u chiqarib tashlanadi, ikkilamchi mahsulot esa sotiladi.

E. Ikkilamchi mahsulot va chiqindi mahsulot bir-biridan farq qilmaydi, bir xil ma’noda qo‘llaniladi.

299.Ikkilamchi mahsulotni sotishdan olgan sof daromad nima?

A. Ikkilamchi mahsulotni sotishdan tushgan tushum.

B. Ikkilamchi mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi plyus foyda

D. Ikkilamchi mahsulot sotishdan olgan tushum va minus taqdim qilingan savdo chegirmasi

E. Ikkilamchi mahsulotni sotishdan olgan tushum va minus ikkilamchi mahsulotni qayta ishlash tannarxi

300. Kontributsiya hisobotining qanday turlari bor

A. Qismlar kontributsiya hisoboti

B. Mahsulot kontributsiya hisoboti

D. Sotish regionlari kontributsiya hisoboti

E**.** A, B va S

Fan bo‘yicha baholash me’zonlari

5 baho (a’lo)

– fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish;

– boshqaruv hisobi fanining mohiyati maqsadi, asosiy vazifalari, xo‘jalik jarayonlari va xo‘jalik muomalalari turkumlanishi hamda ularning tarkibiy tuzilishini ochib berish;

– boshqaruvga oid atamalarni ijodiy fikrlay olish;

– boshqaruv hisobi sub’yektlari va ob’yektlarini aytib berishi;

– boshqaruv hisobining schyotlari va ikkiyoqlama yozuvni izohlash va tasavvur hosil qilish;

– xo‘jalik muomalalariga provodkalar tuza olish;

– mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajara olishi.

4 baho (yaxshi)

– fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish;

– boshqaruv hisobi fanining mohiyati maqsadi, asosiy vazifalari, xo‘jalik jarayonlari va xo‘jalik muomalalari turkumlanishi hamda ularning tarkibiy tuzilishini ochib berish;

– boshqaruvga oid atamalarni ijodiy fikrlay olish;

– boshqaruv hisobi sub’yektlari va ob’yektlarini aytib berishi;

– boshqaruv hisobini izohlash va tasavvur hosil qilish.

3 baho (qoniqarli)

– fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish;

– boshqaruv hisobi fanining mohiyati maqsadi, asosiy vazifalari, xo‘jalik jarayonlari va xo‘jalik muomalalari turkumlanishi hamda ularning tarkibiy tuzilishini ochib berish;

– boshqaruvga oid atamalarni ijodiy fikrlay olish;

– boshqaruv hisobi sub’yektlari va ob’yektlarini aytib berishi;

2 baho (qoniqarsiz)

– fanning nazariy va uslubiy asoslarini bilmaslik;

Fan bo‘yicha tarqatma materiallar

1-shakl. BUXGALTERIYA BALANSI

Ko’rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili oxiriga
1	2	3	4
AKTIV **I. Uzoq muddatli aktivlar**			
Asosiy vositalar:			
Boshlang’ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010		
Eskirish summasi (0200)	011		
Qoldiq (balans) qiymati (satr 010-011)	012		
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang’ich qiymati (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500)	021		
Qoldiq (balans) qiymati (satr 020-021)	022		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr 040+050+060+070+080), shu jumladan	030		
Qimmatli qog’ozlar (0610)	040		
Sho’ba xo’jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050		
Qaram xo’jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		
Chet el kapitali mavjud bo’lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080		
O’rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital qo’yilmalar (0800)	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I bo’lim bo’yicha jami (satr 012+022+030+090+100+110+120)	130		
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr 150+160+170+180) shu jumladan:	140		
Ishlab chiqarish zaxhiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150		
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Tayyor mahsulot (2800)	170		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180		
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
Debitorlar, jami (satr 220+230+240+250+ 260+270+280+290+300+310)	210		
shundan: muddati o’tgan	211		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220		
Ajratilgan bo’linmalarning qarzi (4110)	230		
Sho’ba va qaram xo’jalik jamiyatlarning qarzi (4120)	240		
Xodimlarga berilgan bo’naklar (4200)	250		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo’naklar	260		

(4300)			
Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	270		
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280		
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310		
Pul mablag'lari, jami (satr 330+340+350+360), shu jumladan:	320		
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330		
Hisob kitob schyotidagi pul mablag'lari (5100)	340		
Chet el valyutasidagi pul mablag'lari (5200)	350		
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	360		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo'lim bo'yicha jami (satr 140+190+200+210+320+370+380)	390		
Balans aktivi bo'yicha jami (satr 130+390)	400		

Ko'rsatkichlar nomi	**Satr kodi**	**Hisobot yili boshiga**	**Hisobot yili oxiriga**
1	**2**	**3**	**4**
PASSIV I. O'z mablag'lari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410		
Qo'shilgan kapital (8400)	420		
Rezerv kapitali (8500)	430		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450		
Maqsadli tushumlar (8800)	460		
Kelgusi davr xaradatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900)	470		
I bo'lim bo'yicha jami (satr 410+420+430+440+450+460+470)	480		
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+530+540+550+560+ 570+580+ 590)	490		
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr 500+520+540+560+590)	491		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500		
Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarz (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550		
Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570		
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	590		

Joriy majburiyatlar, jami (satr 610+630+640+650+660+670+680+690+ 700+710+720+730+740+750+760)	600		
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr 610+630+650+670+680+690+700+710+ 720+760)	601		
shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlari	602		
Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610		
Ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110)	620		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan bo'naklar (6300)	670		
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	680		
Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690		
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700		
Ta'sischilarga bo'lgan qarzlar (6600)	710		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	720		
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	760		
II bo'lim bo'yicha jami (satr 490+600)	770		
Balans passivi bo'yicha jami (satr 480+770)	780		

BALANSDAN TASHQARI SCHYOTLARDA HISOBGA OLINADIGAN QIYMATLIKLARNING MAVJUDLIGI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili oxiriga
1	**2**	**3**	**4**
Qisqa muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar (001)	790		
Ma'sul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar (002)	800		
Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (003)	810		
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar (004)	820		
O'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (005)	830		
Qat'iy hisobot blankalari (006)	840		
To'lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi (007)	850		
Olingan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (008)	860		
Berilgan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (009)	870		
Uzoq muddati ijara shartnomasiga asosan berilgan asosiy vositalar (010)	880		
Ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar (011)	890		
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (012)	900		
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha) (013)	910		
Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari (014)	920		

Rahbar _____ _____

Bosh buxgalter _____ _____

2-shakl. MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT

Ko'rsatkichlar nomi	Satr turi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromad (foyda)	Xarajat-lar (za-rarlar)	Daromad (foyda)	Xarajat-lar (za-rarlar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010		x		x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi	020	x		x	
Mahsulot(tovar, ish va xizmat)lar sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010-020)	030		x		x
Davr xarajatlari, jami (satr 050+060+070+080), shu jumladan	040	x		x	
Sotish xarajatlari	050	x		x	
Ma'muriy xarajatlar	060	x		x	
Boshqa operasion xarajatlar	070	x		x	
Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	080	x		x	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090		x		x
Asosiy faoliyatning foydasi(zarari) (satr.030-040+090)	100				
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (satr.120+130+140+150+160), shu jumladan:	110		x		x
Dividentlar shaklidagi daromadlar	120		x		x
Foizlar shaklidagi daromadlar	130		x		x
Uzoq muddatli ijara(lizing)dan daromadlar	140		x		x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	150		x		x
boshqa daromadlari	160		x		x
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (satr.180+190+200+210), shu jumladan:	170	x		x	
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	x		x	
Uzoq muddatli ijara(lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	190	x		x	
Valyuta kursi farqidan zararlar	200	x		x	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	210	x		x	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr.100+110-170)	220				
Favquloddagi foyda va zararlar	230				
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr 220+/- 230)	240				
Daromad (foyda)dan solig'i	250	x		x	
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	260	x		x	
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr 240-250-260)	270				

4-shakl. PUL OQIMLARI TO'G'RISIDAGI HISOBOT

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Yil boshiga	Yil oxiriga
Operasion faoliyat			
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010		
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'lanadigan pul mablag'lari	020		
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'pari	030		
Operasion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	040		
Jami operasion faoliyatining sof kirimi (chiqimi) satr 010-020-030+(- 040)			
Investisiya faoliyati			
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	050		
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	060		
Uzoq muddatli moddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070		
Investisiya faoliyatining boshqa pul tushumlari va to'lovlari	080		
Jami investisiya faoliyatining sof pul kirimi (chiqimi) (satr 060+-070+-080+-090)	**090**		
Moliyaviy faoliyat	100		
Olingan va to'langan foizlar	110		
Olingan va to'langan dividendlar	120		
Aksiya chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	130		
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	140		
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlari bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150		
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'iicha pul tushumlari va to'lovlari	160		
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170		
Jami moliyaviy faoliyatning sof kirimi (chiqimi) (satr110+(-120)+130-140+(-150)+(-160)+(-170))	**180**		
Soliqqa tortish			
To'langan daromad (foyda) solig'i	190		
To'langan boshqa soliqlar	200		
Jami to'langan soliqlar (satr 190+200)	210		
Jami moliyaviy - xo'jalik faopiyatinikg sof pul kirim - chiqimi (satr 050+-100+-180-210)	220		
Yil boshiga pul mablag'lari	230		
Yil oxiriga pul mablag'lari	240		

Chet el valyutasidagi pul mablag'lariniig harakati to'g'risidagi ma'lumot

Ko'rsatkichlar nomi	satr kodi	Miqdori summa
Yil boshiga qoldiq	250	
Kelib tushgan valyuta mablag'lari, jami (satr 261+262+263+264)	260	
shu jumladan:		
Sotishdan olingan tushum	261	
Konvertasiya qilingan	262	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha	263	
Boshqa manbalar	264	
Sarflangan valyuta mablag'lari, jami (satr 271+272+273), shu jumladan:	270	

Mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga to’lovlar	271	
Moliyaviy faoliyat bo’yicha to’lovlar	272	
Boshqa maqsadlar uchun	273	
Yil oxiridagi qoldiq (satr 250+260-270)	280	

Rahbar _____ Bosh buxgalter _____

5-shakl. XUSUSIY KAPITAL TO’G’RISIDAGI HISOBOT

Ko’rsatkichlar	Satr kodi	Ustav kapitali	Qo’shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda(qoplan-magan zarar)	Sotib olingan xususiy aksiya	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
Yil boshiga qoldiq	010							
Qimmatli qog’ozlar emissiyasi	020							
Uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi	030							
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo’lgan valyuta ko’rsi farqlari	040							
Rezerv kapitaliga ajratmalar	050							
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	060							
Texnikaga olingan mol - mulk	070							
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag’lar	080							
To’langan dividendlar	090							
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	100							
Yil oxiriga qoldiq	110							
Xususiy kapitalning ko’payishi (+) yoki kamayishi (-)	120							
Ma’lumot uchun:	130							
Chiqarilgan aksiyalar soni, dona	131							
shu jumladan:	132							
Imtiyozli	140							
Oddiy	150							
Aksiyaning nominal qiymati	151							
Operasiyadagi aksiyalar soni, dona	152							
shu jumladan:								
Imtiyozli								
Oddiy								

Rahbar_____ Bosh buxgalter _____

O‘UM Elektron majmua